

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3/2025




3/2025

<https://buxdu.uz>

E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 3, mart

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'yumurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM ***
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Hayitov Sh.A., Barotova X.J.	Sadoqat timsoli	3
Adizova O.I., Istamova U.R.	Ertaklar - xalq og‘zaki badiiy ijodining bebafo merosi	8
Kayumov N.N.	O‘rta asrlar she’rshunosligida tashxis badiiy san’atining nazariy xususiyatlariiga doir qarashlar	14
Maxmudova M.M.	Y.V.Gyotening “G‘arb-u Sharq” devoni tarjimasi S.S.Buxorii talqinida	19
Ahatova D.D.	Omon Muxtor hikoyalarida davr tasviri ifodasi	23
Ganiyeva O.Kh., Ahmedova A.A.	“The Dew Breaker”asarida olam va odam munosabatlarining badiiy ifodasi	27
Beknazarova G.Q.	Chingiz Aytmatov ijodida bola obrazi	31
Nazarova G.P., Davronova R.A.	Comparative analysis of the novel “A thousand splendid suns” and its translations into Russian and Uzbek languages	35
Farmonova M.F.	Badiiy matn va kitobxon munosabati: qayta o‘qish yoki dekonstruksiya strategiyasi	39
Hamroyeva L.Z.	Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi ko‘chimlar va stilistik jihatlari	43
Izamova N.O‘.	Detektiv adabiyot: tarixi, evolyutsiyasi va zamonaviy talqini	47
Jumanova O.S.	Ingliz va o‘zbek lirkasida Saroymulkxonim siymosi: tarixiy haqiqat va badiiy talqin	54
Kaxarova M.Y.	Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidagi lingvopoetik xususiyatlar	59
Niyazova M.Kh., Saidova D.Z.	An analysis of the challenges faced by American youth in Jack London’s “Martin Eden”	63
Radjabov R.R., Karimova M.I.	XVII asr fransuz adabiyotida asosiy oqimlar	67
Милованова Е.В.	Роль цветообозначений в прозаическом тексте	71
Ravshanova G.Q.	Hajviy she’rlarda davr ziddiyatlari talqini	75
Bekova N.J., Xolmurodova G.Q.,	Bobur ijodida Xo‘ja Axror Valiy obrazi	80
Хажиева Ф.М., Рахимова Ш.Р.	Роль фрагментированной личности в романе «ТрансАтлантика» Колума Маккенна	84

Тўхсанов К.Р.	“Маснавий”да шер тимсолининг бадиий ифодаси	89
Xusanova S.X.	Ayollar she’riyati adabiy tushuncha sifatida	95
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Hakimova M.I.	«Munshaot» toshbosma nusxasining matniy tahlili (muqaddima va 2-maktub misolida)	100
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., Zuxurova O.I.	Alisher Navoiy “Xamsa”sida besh raqamining ramziy-majoziy ma’nolari	104
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Orziyev M.Z., Boltayev O.O.	Jahon urushi davrida Buxoro va Turkistonda german-turk targ‘ibotchiligi	109
Qurbanov M.D.	Buxoro amirligi iqtisodiy hayoti Mirza Salimbek talqinida	114
Жуманазаров А.Р., Мамадалиева Н.С.	Амир Темур ва метрология: аниқлик куч манбаи сифатида	119
Нафиддинова Х.Р.	Диний қадриятлар ва маросимларнинг миллатлараро муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни	126
Boboqulov O.A.	Toshkent kinofestivali – uch qit’ani birlashtirgan madaniyat tarixi	130
Mullabaeva R.B., Uktamaliev B.I.	The history of clothes and their functions	134
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Arslonov Z.D.	Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning funksional vazifasi	138
Xodjimuratova D.S.	Eronda Parlament saylovlarining mamlakat siyosiy tizimiga ta’siri (tarixiy tahlil)	145
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Valiyev O.Sh., Ergashov Z.B., Toyirov A.Y.	Qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni bartaraf etish	150

SADOQAT TIMSOLI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,

Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

s.a.xayitov@buxdu.uz shavkat61hayitov@gmail.com

ORCID 0000-0002-4290-6071

Barotova Xurshida Jalolovna,

Toshkent viloyati Nurafshon shahar koreys tillariga ixtisoslashtirilgan
1-maktab o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada shoh va nozikta'b shoир, Zahiriiddin Muhammad Boburning validasi Qutlug' Nigorxonimga ko'rsatgan farzandlik ehtiromi, Vatani Andijonga sadoqati, bobomeros yurti Samarkand tuprog'ida shayboniyalar bilan olib borgan jasoratl Kurashlari hamda mushtipar ona chingiziy sanamning farzandiga bo'lgan qaynoq mehr-muhabbati, farzand kamoloti yo'lidagi fidoyiligi chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ona Vatan, Vatan, ona, shoh, shoир, adib, Mirzo Bobur, Qutlug' Nigorxonim, Andijon, "Boburnoma", taqdir, onalik quadrati.

СИМВОЛ ПРЕДАННОСТИ

Аннотация. В статье подробно анализируется сыновнее почтение, проявленное царём и утончённым поэтом Захириддином Мухаммадом Бабуром к своей матери Кутлуг Нигорханум, его преданность родному Андижану, его мужественная борьба с Шейбанидами на земле предков - Самарканде, а также горячая любовь и преданность бедной матери из рода Чингизидов к своему сыну и её самоотверженность на пути развития ребёнка.

Ключевые слова: Родина, мать, царь, поэт, писатель, Мирзо Бабур, Кутлуг Нигорханум, Андижан, «Бабур-наме», судьба, сила материнства.

SYMBOL OF DEVOTION

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the filial respect shown by Zahiriiddin Muhammad Babur, the royal and refined poet, towards his mother Qutlug Nigorxonim. It explores Babur's loyalty to his homeland Andijan, his courageous struggles against the Shaybanids on the ancestral soil of Samarkand, as well as the passionate love and devotion of his compassionate Chinggisid mother towards her son, and her dedication to his development and success.

Keywords: Motherland, Homeland, mother, king, poet, writer, Mirzo Bobur, Qutlug Nigorxonim, Andijan, "Baburnama," fate, maternal power.

Kirish. Ona Vatan! Nima uchun Vatan so'zi ona so'zi bilan yonma-yon ishlataladi? Chunki, Vatan ona singari aziz, mehribon va muqaddasdir. Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, yorug' dunyoga ko'z ochganidan keyin Vatan bag'rida, uning himoyasida kamolga yetadi. Har bir inson uchun kindik qoni tomgan zamin Vatan hisoblanadi. Buyuk shoh, sohir qalam sohibi, shoир va adib Mirzo Bobur ham bu ikki sajdagohni bir-biridan hech qachon ayro ko'rмаган. Hamisha, har qadamda, har bir nafasda validasi Qutlug'higor Xonim va Vatani Andijon timsolida uyg'unlik tuygan. Zafarpanoh shoh o'zga yurtlarni fath etib buyuk imperiyaga asos solganida ham mo'tabar yurti Andijon yodi uni tark etmagan.

Tadqiqot metodi. "Boburnoma" sahifalaridan yorqin nazarga tashlanadiki, Qutlug' Nigorxonimning onalik muhabbat, farzandining harbiy yurishlarida, izziroqli kunlarida qalqon vazifasini o'tagan. U Haq subhonohu va taologa iltijo qilib farzandini chin dildan duo qilgan. Yaqin hamroh-u hamdamlaridan ajralgan, ko'ngli o'ksik o'g'lining yonida turib uni taqdirning og'ir zarbalariga bardosh berishga ilhomlantirgan. O'zidagi onalik mehrini, muhabbat qudratini hech qanday ta'malarsiz, shartsiz va shartnomasiz sarkarda o'g'liga in'om qilgan. Bobur o'zining umr kitobi "Boburnoma"da validasi haqida o'z fikrlarini bayon etar ekan, onai zori Qutlug' Nigorxonimning nechog'lik oqila va dono ayol, samimiy qalb egasi ekanligini "Boburnoma" sahifalariga muhrlaydi.

Muhokama. Onasining har qadamda unga yo'ldosh ekanligini, taxtni boshqarishda hamda davlat ishlarida buvisi Esandavlat Begim va validasi bosh-qosh bo'lganligini yosh davlat arbobi alohida e'tirof etadi.

LITERARY CRITICISM

Otameros Andijon taxtiga o'tirganidan to Kobulni fath etgunga qadar onasi Qutlug' Nigorxonim uning harbiy yurishlarida, hayotning og'ir sinovli kunlarida farzandi yonida turganini haqgo'y tarixchi qalami bilan bitadi: "... mening voldam - Qutlug' Nigorxonim aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Qobulni olg'ondin besh – olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birida tengri rahmatig'a bordilar" [2:157]. Qutlug' Nigorxonimda onalik muhabbatি har narsadan ustun bo'lgan. U hatto o'z tug'ishganlaridan yillar davomida ayro yashasada, farzandi – jigargo'shasi Bobur dan bir lahma ham ajralmagan. Bobur onasi haqida yozar ekan, uning Toshkentdagи amaldor og'a-inilaridan judolikda yashagani, doimo sargardon farzandi uchun qayg'urgani, ming bir mashaqqatga duchor bo'lganida ham uni tark etmaganini "Boburnoma"ning bir necha o'rniда qat'iy ta'kidlaydi Qutlug' Nigorxonimning turmush o'rtog'i, Farg'ona podshosi Umarshayx Mirzoning sirli o'limidan so'ng barcha qadrdon yaqinlari, yor- birodarlari – ota-onasi, opa-singillari, aka-ukalarini uzoq yillar ko'ra olmagan. Bu haqda "Boburnoma"dan o'qiyimiz : "Xonim xon bobom, shunqor bo'lg'oli onalari, inilari, singillarinikim, Shohbegim va Sulton Mahmudxon va Nigor Xonim va Davlatsulton Xonim bo'lg'aylor, ko'rmaydurlar edi. Muforaqat imtidodi (judolik muddati) o'n uch-o'n to'rt yilga tortib edi, tuqqonlarini ko'rgani Toshkandg'a mutavajjih bo'ldilar" [2:158]. Umarshayx Mirzoning fojeali o'limi sababli mustahkam ustunidan ajralgan Qutlug' Nigorxonim taqdirning ayovsiz zarbasi ta'sirida o'zini yo'qotib qo'yagan. Toshkent hokimi – otasi Yunusxon , mo'g'ul xonlari –akasi Sulton Mahmudxon (Xonikaxon) hamda Sulton Ahmadxon (Olachaxon)dan yordam, madad so'rash havasi bilan ham yonmagan. Otasi o'rniga Farg'ona taxtiga o'tirgan o'n ikki yoshar farzandi atrofiga beklarni oqillik bilan uyushtirib mamlakat himoyasini tashkil qilgan. Boburmirzoning kelajagi uchun 1497-yildan keyin boshlangan sargardonlikni, firoq-u g'urbatning uzoq va mashaqqatli yo'lini mardona bosib o'tgan. O'n ikki yoshar Farg'ona podshosi Bobur Isfaraga qo'shin tortadi. Qirq kunlik qamaldan so'ng otameros Isfarani o'z tasarrufiga oladi. Yo'l-yo'lakay marhum amakisi Sulton Ahmad Mirzoning Aksi ustiga harbiy yurishi paytidan boshlab qo'ldan chiqqan Xo'jandni o'ziga bo'ysundiradi. O'ratepaga yurish qiladi. O'ratepa hokimligiga amakivachchasi Sulton Ali Mirzo akasi Samarcand podshosi Boysung'ur Mirzo tomonidan tayinlangan edi. Boburning xabarini eshitgan Sulton Ali Mirzo O'ratepani tashlab chiqadi. O'ratepa oson qaytarib olinadi. Bobur Andijonga qaytadi. U Farg'onaga jo'nashi bilan O'ratepani Toshkent xoni Qutlug' Nigorxonimning ukasi Sulton Mahmud egallaydi va uni pochchasi Muhammad Husayn Ko'ragon Do'g'latga in'om qiladi. Muhammad Husayn Qutlug' Nigorxonimning singlisi Xo'bnigor Xonimning eri edi. Ko'rindiki, 12 yoshar podshoh qo'ldan chiqqan yerlarini qaytarib olish, o'z qalamravidagi yurtning sarhadlarini dushmanidan tozalash uchun yo ota tomonidan, yo ona tomonidan o'ziga yaqin qon-qarindosh bo'lgan amaldorlar bilan kurashishga majbur bo'lgan. Siyosiy hokimiyatning bunday shafqatsiz talab-tamoyillarini qabul qilish oqila va ko'ngilchan, qavm-qarindoshlarini va farzandlarini chin ko'ngildan sevgan, mehr-muhabbatli ona uchun oson bo'lman. Qutlug' Nigorxonim muttasil xavotirda yashagan. Allohdan o'g'liga panoh, qavmi-qarindoshlariga tavfiq tilashdan o'zga chorasi bo'lman.

Ko'p o'tmay Farg'ona hududidagi qonli janglar vodiydan Samarcandga ko'chadi. Akasi Sulton Ahmad o'lgach, unga tobe Samarcand va Buxoroni o'z qo'liga olgan Sulton Mahmud ham besh-olti oy o'tar-o'tmas hayotdan ko'z yumadi. Sulton Mahmudning o'g'llari – Boburning amakivachchalari Sulton Ma'sud Mirzo, Boysung'ur Mirzo va Sulton Ali Mirzo Samarcand toj-u taxti uchun kurash boshlaydilar. Otalarining go'ri sovimap hokimiyat uchun bir-birlariga tig' ko'tarishdan hazar qilmagan bu amalparast shahzodalarining birontasi ham davlatni boshqarish qobiliyatiga ega emas edi. Bobur Samarcandga yo'l oladi. Bobur Mirzoning Samarcandga qo'shin tortib borishiga ikkita asosiy sabab bor:

1. Samarcand Sohibqiron Amir Temur asos solgan buyuk davlatning poytaxti edi. Uni egallash jismu jonini Sohibqiron qoni harakatga keltirgan har bir temuriy shahzodaning orzusi bo'lgan.

2. Olis yurtlardan Shayboniyxon dovrug'i eshitila boshlagan edi. Bu ovoz hali temuriylarning o'sha davrdagi "qalin cheriklik va vase' mulklik" (Bobur) eng mashhur hukmdori Sulton Husaynga yetib bormagan. Husayn Boyqarodek ulug' podshoh o'z farzandlari bilan murosaga kela olmay, mamlakatdagi ichki nizolarni bartaraf qilish bilan band bo'lgan. Farg'onanining yosh, ziyrak podshosi Mirzo Bobur siyosiy vaziyatga avvaldan to'g'ri va aniq baho bera olgan. Sohibqiron katta bobosi va temuriy bobolari [5:214] poytaxtini Abulxayrxon avlodiga berib qo'yishni o'ziga or bilgan. Shuning uchun ham yosh bo'lishiga qaramasdan, siyosiy maydonga mardonavor chiqqan. Ota qoni va ona suti bilan o'tgan oriyat va nomus kabi tuyg'ular Bobur Mirzo shaxsiyatida baland edi.

Qutlug' Nigorxonim o'g'lining Samarcand harbiy amaliyotiga qarshilik ko'rsatmagan. Chunki oqila va tadbirli ayol sifatida bobomeros Samarcand taxti uchun kurash har bir temuriyzodaning taqdiriga bitilganligini yaxshi his qilgan.

Bobur Samarcandni qamal qiladi. Samarcand Bobur Mirzo tomonidan zabit etilishi ayon bo'lib qoladi. O'sha paytda Samarcand taxti Sulton Ali Mirzo ixtiyorida bo'lgan. Amakivachchasi sulh taklif qilib elchi yuboradi. "Boburnoma"dan o'qiyimiz: "Xoja Yahyo (naqshbandiya tariqatining murshidi komili Xoja

LITERARY CRITICISM

Ubaydulloh Ahrorning o‘g‘li – X.B.) Sulton Ali Mirzo qoshidan kelib ittifoq va yakjihatliq so‘zini orag‘a soldi” [1:37]. Bobur Mirzo mardlik qilib, muqarrar g‘alabadan voz kechib, Farg‘onaga qaytadi.

Samarqand Sulton Mahmudning o‘g‘illari orasida qo‘ldan qo‘lga o‘tib toju taxt uchun kurash, ichki nizolar avjiga chiqadi. “Boburnoma”dan o‘qiyimiz: “Sulton Mahmud Mirzodan so‘ng Boysung‘ur Mirzoni podshoh qildilar. Tarxonning g‘avg‘osida Boysung‘ur Mirzoni tutub, inisi Sulton Ali Mirzoni bir-ikki kun o‘lturg‘uzdilar. Yana Boysung‘ur Mirzo – o‘q oldi” [1:49]. Azim shahar urush va tala-tortlar oqibatida xarob holga kelib, elning sabri tugaydi.

1497-yilda Bobur Mirzo ikkinchi marta qo‘sishin tortib kelib Samarqandni Boysung‘ur Mirzo qo‘lidan oladi. Bu voqeani shahar ulug‘lari, beklar va oddiy xalq katta shodiyona bilan qarshilaydilar. Ammo xursandchilik uzoqqa cho‘zilmaydi. Andijonda qolgan beklar xiyonat yo‘liga o‘tadilar. Qutlug‘ Nigorxonimning kundoshi Fotimasulton Beginning o‘g‘li Jahongir Mirzoni Farg‘ona taxtiga o‘tqazish uchun kurash boshlaydilar. Andijon qamal qilinadi. Qutlug‘ Nigorxonim, onasi va boshqa yaqinlari bilan qamalda qoladi. O‘g‘liga maktub yo‘llaydi. “Vaqoe”dan o‘qiyimiz: “Muxosara muddatida mening onam validam Xoja Qozidin [1:50] muttasil, bu mazmun bila xatlar kelur edikim, bu jamoati haromnamak bizni muxosara qilibturlar. Agar kelib faryodimizga yetmasangiz, ish vubol bo‘lg‘usidir” [2:91].

Xiyonat – og‘ir jinoyat. Qutlug‘ Nigorxonimning qizlik yillari Yunusxonning Qoshg‘ar, Yettikent, Oqsuv shaharlaridagi saroyida o‘tgan. U 1475- yilda Farg‘onaga kelin bo‘lib kelgan. Chingiziy sanam Umarshayx Mirzo saroyida 20 yilga yaqin kechgan hayoti davomida saroy ayonlari va beklarning qalbida pinhon yotgan qabih niyatlar, shubhali xatti-harakatlardan xabardor bo‘lgan. Ammo oq ko‘ngil malika Farg‘ona davlatiga uzoq yillar sadoqat bilan xizmat qilgan Ahmad Tanbal va Uzun Hasan kabi beklarning yosh podshoh o‘g‘lining ishonchini suiiste’ mol qilishishini xayoliga ham keltirmagan.

Xiyonatkorlar qurshovida qolgan Vatani, onasi, katta onasi (buvisi) va opasining taqdirini o‘ylab Mirzo Bobur qattiq iztirobga tushadi. Og‘ir xastalikka chalinadi: “To‘rt kungacha tilim tutildi, og‘zimga paxta bila suv tomizurlar erdi” [1:50]. Fitna boshida turgan beklardan biri Uzun Hasan Samarqandga yuborgan navkar yurtidagi vaziyatni Andijon ishonib topshirib kelingan bek Ali Do‘s’t oldida ont ichib so‘zlaydi. Uning so‘zlarini eshitgan Ali Do‘s’t Boburdan umidini uzib, shaharni Bobur kelganicha himoya qilib turish imkoniyati bo‘lsa-da Andijon darvozalarini muxolif tomonga ochib beradi.

Hafta – o‘n kun ichida biroz sog‘ayib, Samarqandni tashlab, Andijonga qarab yo‘l olgan Mirzo Bobur Xo‘jandga yetib keladi. Andijondan kelgan chopar esa, bir hafta burun, Bobur Samarqanddan chiqqan kuni Ali Do‘s’t shaharni Ahmad Tanbal va Uzun Hasan boshchiligidagi xiyonatkorlarga topshirganligi haqidagi xabarni keltiradi.

Tahlil va natijalar. Bobur Mirzoning Samarqandda og‘ir kasal holida yotganligi haqidagi xabar Qutlug‘ Nigorxonimni chuqur qayg‘uga botirgan. Yolg‘iz o‘g‘lining hayoti qil ustida. Chorak asr davomida uni saroyning bosh malikasi, haramning ulug‘ bekasi sifatida ulug‘lab kelgan Farg‘ona sultanati tubsiz jar labida. Bunday vaziyatda Qutlug‘ Nigorxonimning ruhiy diallektikasini, unda yuz bergan ruhiy zilzilalarni his qilish mumkin. Ammo unda biron marta ikkilanishni o‘zi va podshoh o‘g‘li ishonchiga nisbatan shubhalanishni, irodasizlikni, sabrsizlikni, o‘zini zaif, ojiza his etganini ko‘rmaymiz. Andijonni o‘z qo‘liga olgan xiyonatchilar Boburning ustozni va piri Xoja Mavlono Qozini Ark darvozasiga osib shahid qiladilar. Qutlug‘ Nigorxonimni, qizi Xonzoda Begim va onasi Esandavlat Begim bilan birga shahardan chiqaradilar. Bobur Mirzo ko‘ch-ko‘roni bilan Vatanini tark etishga majbur bo‘lgan onasi va boshqa yaqinlari bilan Xo‘jandda uchrashadi. “Mening onamni va ulug‘ onamni (Esandavlat Begim – X.B.) ba’zi mening bila qolq‘onlarning ko‘chlari bila Xo‘jandqa mening qoshimga yibordilar” [1:52]. Ham Samarqanddan, ham Farg‘ona toju taxtidan bir yo‘la ajralgan Bobur Mirzoning sarson-sargardonlikdagi hayoti boshlanadi. Tog‘asi, Toshkent hukmdori Sulton Mahmuddan yordam olib, Samarqandni olishga bo‘lgan urinishlari behuda ketadi. Aksincha bir qancha bek va navkarlaridan ajraladi. “Andijonga urushmak xayoli bila” amalga oshirgan harbiy amaliyoti ham natija bermaydi. “Andijonni olmoqtin mayus bo‘lgan” [1:52] yetti-sakkiz yuz bek va yigitlari umidsizlikka tushib, yosh sarkardani tark etadilar. Bobur Mirzo 200 kishi bilan qoladi.

904-yilning zulqa’da (1499-yil iyun, iyul) oyida ikki yildan keyin Andijonni qaytib egallaydi. Otameros yurtida tinchlik o‘rnatishga kirishadi. Ammo ko‘p o‘tmay, Shayboniyxonning Buxoroni egallab, Samarqand tomon kelayotganini eshitadi. Sara jangchilardan tuzilgan bek va yigitlari bilan Samarqandga yuzlanadi. Ammo amakivachchasi Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabeginning erga tegish havasi bilan Samarqand jangu jadalsiz Shayboniyxon tasarrufiga o‘tgan edi. Samarqandni qo‘lga kirita olmagan sarkarda yurish-turishi noma‘lum holda Kesh va Hisor viloyatlari o‘rtasida sarson kezadi. Tavakkal qilib, tun yarmidan oshganda qal‘a devori orqali Samarqandga kirib, Movarounnahrning qadimiy poytaxtini Shayboniyxonidan tortib oladi. Ammo tarixiy vaziyat taqazosiga ko‘ra, yana uni qo‘ldan chiqaradi. Samarqand orzusi baland kelib, Farg‘onani ham yana boy beradi. Dahkat, Mascho va Obburdon yerlarida

LITERARY CRITICISM

darbadar kezadi. Buning ustiga xiyonatchilarning sardori Ahmad Tanbal ta'qibni kuchaytiradi. Yigitlari to'rt tomonga tarqalib ketgan sarkardaning boshi uchun qotil yollab, katta boylik va'da qiladi...

Bularning hammasi Bobur Mirzoning tarixiy shaxs sifatida achchiq, g'oyat murakkab, keskin ziddiyatlarga to'la hayotidan ayrim lavhalar, xolos. Qutlug' Nigorxonim Bobur Mirzo hayotining fojialarga to'la sahifalarining aksariyat davrida o'g'li bilan birga bo'lgan. Birga bo'lмаган paytlarida ularni ko'rib, bilib, eshitib turgan. Temuriylar sultanatini saqlab qolishga ega shaxs sifatida o'g'liga umid ko'zlarini tikkan ona Andijon qal'asida qamalda qolib qanchalik iztirob chekkan bo'lsa, Samarqandda yetti oy davom etgan qamal holatida odamlarning ochlikdan "it etini, eshak etini yeishiga kirishgan"larini (Bobur) ko'rib, undan ham ko'proq azob tortgan.

Validasidagi o'ziga nisbatan cheksiz mehrni, fidoiylikni te'ran anglagan Boburmirzo ham onasiga alohida e'zoz va e'tibor bilan qaragan. Haqiqiy farzandlik burchi bilan validasi haqini ado etgan. "Boburnoma" sahifalarini sinchiklab o'rganar ekanmiz, 1503-1504-yil voqealariga e'tibor qaratamiz. Muhammarr Farg'ona viloyatidan Xuroson safariga Kobul yurtini fath etish orzusi bilan Boburmizoga umidvorlik bilan ergashgan ikki yuzdan ko'p, uch yuzdan kamroq safdoshlari orasida validasi Qutlug' Nigorxonim ham bor edi. Taomilga ko'ra, aksar harbiy yurishlarda, sharoit qay yo'sinni taqozo qilishidan qat'iy nazar podshoh uchun alohida, bir muncha yaxshi qulayliklarga ega chodir tikilgan. Qolgan barcha kishilar safar sharoitidan kelib chiqib turli usti yopiq olachuq (kapa)larda tunashgan. Xuddi shunday qaltis bir vaziyatda otameros yurti Andijon, bobomeros zamini Samarqandni majburiyat ortida tashlab chiqqan Boburmirzo ahvoli tang, nochor holatda bo'lismiga qaramay yaqinlari taqdiringa befarq bo'lмаган Bobur, eng avvalo, mehribon validasi Qutlug' Nigorxonimning haqini ado etib, hurmatini joyiga qo'yomoqlikni e'tiboridan soqit qilmagan. "Boburnoma" dan o'qiymiz: "Usrut bu martabada edikim, bizning orada ikki chodir edi. Mening chodirim validamg'a tikilur edi. Manga har yurtda olacho'q yasar edilar, olacho'qda o'llturur edim" [2:200]. Iqtisidiy tanglik, shu darajaga yetganki, Bobur podshoh ixtiyorida faqat ikkita chodir qolgan. O'zi uchun tikilgan maxsus chodirni validasiga berib o'zi esa har yurtda olachuq yasatib, boshqa safdoshlari qatori unda istiqomat qilgan. Imom al-Buxoriyning "Al jome'-as-sahih" kitobida Abu Hurayra Raziollohu anhudan rivoyat qilingan hadisidan o'qiymiz: "Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: "Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?" – deb so'radi. Janob Rasululloh: "Onang!" – deb aytdilar. U: "Yana kim?" – dedi. Janob Rasululloh: "Onang!" – dedilar. U: "Yana kim?" – deb so'radi. Janob Rasululloh: "Onang!" – dedilar. U: "Yana kim?" – deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): "Otang!" – deb javob qildilar [3:119]. Muqaddas islom dinida ham, eng avvalo, onaga hurmat alohida e'tirof etilgani, ayollarga hurmat, ota-onaga e'tibor islom e'tiqodiga ko'ra musulmon bo'lgan har bir er kishining yuksak insoniy burchi ekanligini komil fiqhshunos Mirzo Bobur teran anglagan. "Boburnoma" muallifining onasi Qutlug' Nigorxonimga bo'lgan hurmati quyidagi parchada yanada yorqin aks etgan: "...Shayhzoda darvozasidan chiqildi. Voldam xonimni olib chiqdim.

Yana ikki xotun kishi chiqdi: biri Bechka xalifa edi, yana biri Minglik ko'kaldosh edi. So'g'dning ulug' shox-jo'ylaridan yo'l iturub Qorbug' pushtasiga yo'l yurdik" [2:156]. "Boburnoma" va boshqa tarixiy manbaalar guvohligiga ko'ra buyuk Temur poytaxti Samarqand uchun Shayboniyxondek tajribali podshoh bilan bo'lgan jangda hali endigina yigirma yoshlarni qarshilagan Bobur Mirzo ilojsizlarcha yengiladi. Va Shayboniyxon bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Shunday qaltis bir vaziyatda, eng avvalo, validasi Qutlug' Nigorxonim va uning ikki xalifasini bu tala-to'p, halokat girdobidan olib chiqish fikri Zahiriddin Muhammad Boburni band qilgan. Shayboniyxon qurshovidan eson-omon chiqqan sarkarda Yaratganga tavakkal qilib So'g'd orqali Xuroson sari, Qobul yurtiga yuradi. Mirzo Bobur hayotining barcha jabhalarida ulug' bobosi jahongir Amir Temur saboqlariga amal qilgan. "Zafarnoma" dan o'qiymiz: "Ra'iyat talabi ila saltanatdag'i har bir ayolga alohida hurmat ko'satdim. Salotin bobida ushbu qarorni o'z navkarlarimu xos a'yonga eshittirdim. G'anim bilan bo'lgan jangda mardonavor va halol kurashing.

Jang chog'ida dastavval haramdag'i har bir ayol muhofozotiga alohida e'tibor qarating, zero ular g'anime ilkiga tushishishiga yo'l qo'y mang!" [4:196]. Ko'rindaniki, buyuk Jahongir Amir Temur ham har bir jangi oldidan haramidagi barcha ayollarni shaxsan o'zi muhofaza qilgan hamda navkarlariga ham oilasidagi hamda mamlakatdag'i har bir ayol daxlsizligini ta'minlash vazifasini yuklagan. Jahongir Amir Temur va Mirzo Bobur shaxsiyatiga xos ayni noyob insoniy fazilatlar millatimizning Chingizzon istilosigacha saltanat surgan boshqa xoqonlari, shoh va shahzodalar faoliyatida ham kuzatiladi. Tarixiy-adabiy manbaalarning shahodatiga ko'ra, Xorazm hukmdori Sulton Jaloliddin Manguberdi o'z saroyidagi har bir ayol himoyasiga qat'iy e'tibor qaratgan. Xususan, mo'g'ul xoni Chingizzon bilan bo'lgan jangda hayotini ming bir tahlikaga qo'yib, eng avvalo, onasi, saroydagi ayollar va oilasini g'anime qo'liga tushishdan himoya qilgan. 1221-yilning 24-noyabr kuni erta saharda bosqinchi mo'g'ullar bilan boshlangan jang 3 kun davom etadi. Dushman lashkarlari bilan Sind daryosi orasida qolgan Jaloliddin g'anime bilan mardlarcha kurashadi. Son jihatidan o'zidan bir necha baravar ko'p dushman qurshovida 700ga yaqin askari bilan qolib, nochor vaziyatdan

LITERARY CRITICISM

chiqish chorasi topa olmaydi. Chingizxon Jaloliddin va uning oilasini tiriklay tutishni buyurgan edi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddinning go'dak o'g'li yov qo'liga asir tushadi. Chingizxon uni qatl etishga buyuradi.... Tarixchi olma Sh. Isaxonova yozadi: " Janggohdan chiqqan Jaloliddin onasi va haramidagi ayollari, qizlari bilan vidolashadi, ularning g'anim qo'liga asir tushmasligi uchun ahli ayollarni Sindga g'arq qilishga ijozat so'raydi" [6:127]. Azaldan har bir musulmon eri uchun ayol – nomus, ayol – or hisoblangan. Ayni haqiqat ota qoni, ona suti bilan vujudiga singgan Zahiriddin Muhammad Bobur ,eng avvalo, validasi va uning atrofidagi ayollarni dushman qurshovidan gard qo'ndirmay olib chiqish ustida bosh qotirgan.

"Boburnoma"dan o'qiymiz: "Pashog'ar qo'rg'onida Otunbibikim, muddati madid mening onam xonimg'a mulozamat qilur edi, bu navbat uloqsizliqdin Samarqandta qolib edi, uchray tushti, ko'rushtum, so'rdum. Samarqanddin bu yerga yayoq kelibtur" [2:157]. "Vaqoe"dan keltirilgan iqtibos mazmunidan a'yon bo'ladiki, Mirzo Bobur Samarqandni g'animi Shayboniyxonga topshirib Xurosor sari yo'lga otlanganda uzoq vaqtlardan beri Pashog'ar qo'rg'onida onasi Qutlug' Nigorxonimga xizmat qilib kelgan Otinbibini Jizzax kentlaridan birida uchratib qoladi. U bilan ko'rishib, so'rashganda shu narsa ayon bo'ladiki, Otinbibi otulovsizlik tufayli Samarqandda, g'anim qo'rg'onida qolib ketgan. G'anim qo'lida yashashni o'ziga munosib deb bilmay, Bobur Mirzoga hamda xonim bekasi Qutlug' Nigorxonimga bo'lgan sadoqati tufayli Samarqanddan O'ratega va Jizzaxgacha bo'lgan masofani yayov bosib o'tadi. Oddiy xizmatkor ayol shaxsiyatidagi mislsiz sadoqat Mirzo Boburni hayratda qoldirgan.

Xulosa. Shuning uchun ham, iste'dodli adib Otinbibi va u bilan aloqador tarixiy lavhani o'z umr kitobida yozib qoldiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur Otinbibi shaxsiyatida kuzatilgan shunday sadoqatni o'zi bilgan, hurmat qilgan ba'zi haram ayollarida ko'rmagan. Ulug' davlat arbobi qaltis siyosiy vaziyatlarda ayollarning ham bir yoqadan bosh chiqarib mamkakatni muhofaza qilishlarini istagan. Ammo o'z istagiga teskari ravishda saroy doirasiga mansub ba'zi xotin-qizlarning fitna-fasod, buzg'unchilik urug'larini ekkanliklariga guvoh bo'lgan. Fikrimizcha, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur bunyod etgan markaziy davlatning sekin astalik bilan parokandalikkha yuz tutishida shunday ayollarning ham hissasi bor. Biz bu o'rinda o'z havoyi nafsi, hirsi-havasi yo'lida Samarqand darvozalarini Shayboniyxonga ohib bergan Movorounnahr podshosi Sulton Mahmudning xotini Zuhra Begimni, o'z qo'lini oqil va iste'dodli temuriy shahzoda Mo'min Mirzo qoniga botirgan Sulton Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadichabegim kabi ayollarni nazarda tutamiz. Oila, ota-onha va farzand oldidagi burch, mas'uliyat hamda sadoqatning o'zbekona qiyofasi bor asli bilan Qutlug' Nigorxonim timsolida o'z ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR:

1. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 360 б.
2. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. – 699 b.
3. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Қомуслар боши таҳририяти, 1991. – 560 б.
4. Бўриев О. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. (Қисқартирилган шаклдаги турк тили нусхаси; Анқара-1940дан ўзбек тилига таржима). – Тошкент: Шарқ, – 1996. – 446 б.
5. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Eganova tarjimasi. II kitob. Toshkent: Sharq ziyokori, 2010. – 429 b.
6. Isaxonova Shahodat. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: "Sano standart", 2018-yil. – 328 bet, 127-bet.

ERTAKLAR - XALQ OG'ZAKI BADIY IJODINING BEBAHO MEROSI

Adizova Obodon Istamovna,

Buxoro davlat universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrasi professori

o.i.adizova@buxdu.uz

Istamova Umida Rashid qizi,

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ertak” atamasining mohiyati nimadan iborat ekanligi, hamda ertaklarning turli tillarda qanday ifodalanishi ko’rib chiqilgan. Ertaklar xalq og’zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy janrlaridan biri ekanligi, ularning rang-barangligi, yaratilishi jihatdan qadimiyligi, g’oyaviy-badiiy yuksakligi, dunyo xalqlari adabiy merosiga munosib hissa bo‘lib qo’shiluvchi go‘zal asarlarga boyligi alohida ta’kidlangan. Qadimgi insonlar tomonidan yaratilgan bu bebaho og’zaki badiiy meros mumtoz adabiyot, me’morchilik san’ati va musiqa asarlari kabi bebaho va ardoqli ekanligi to‘g’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: ertak, xalq og’zaki ijodi, xususiyat, me’morchilik, atama, to‘qima, uydirma, sehrli-sarguzasht, maishiy, epik badiiy asar, cho’pchak.

СКАЗКИ – БЕСЦЕННОЕ НАСЛЕДИЕ УСТНОГО ХУДОЖЕСТВЕННОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность термина «сказка», а также то, как сказки выражаются на разных языках. Особо подчёркивается, что сказки являются одним из древнейших и наиболее распространённых жанров устного народного творчества, отличающихся разнообразием, древностью происхождения, высоким идеально-художественным уровнем и богатством прекрасных произведений, которые вносят достойный вклад в литературное наследие народов мира. Приводятся сведения о том, что это бесценное устное художественное наследие, созданное древними людьми, столь же ценно и почитаемо, как и произведения классической литературы, архитектуры и музыки.

Ключевые слова: сказка, устное народное творчество, особенность, архитектура, термин, вымысел, выдумка, волшебно-приключенческое, бытовое, эпическое художественное произведение, чупчак.

FAIRY TALES - A PRICELESS HERITAGE OF FOLK ORIGINAL ART

Abstract. This article examines the essence of the term «fairy tale» and how fairy tales are expressed in different languages. It emphasizes that fairy tales are one of the oldest and most popular genres of oral folk art, highlighting their diversity, ancient origins, ideological and artistic excellence, and richness in beautiful works that make a worthy contribution to the literary heritage of world cultures. The article provides information about this invaluable oral artistic heritage created by ancient people, stating that it is as precious and cherished as works of classical literature, architecture, and music.

Keywords: fairy tale, oral folk art, characteristic, architecture, term, fabrication, fiction, magical-adventure, everyday life, epic artistic work, chopchak.

Kirish. Ertaklar xalq og’zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, ular rang-barangligi, yaratilishi jihatdan qadimiyligi, g’oyaviy-badiiy yuksakligi, dunyo xalqlari adabiy merosiga munosib hissa bo‘lib qo’shiluvchi go‘zal asarlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Qadimgi insonlar tomonidan yaratilgan bu bebaho og’zaki badiiy meros mumtoz adabiyot, me’morchilik san’ati va musiqa asarlari kabi bebaho va ardoqlidir.

Eng avvalo, “ertak” atamasining mohiyati nimadan iborat ekanligi to‘g’risida imkon boricha to‘la tasavvurga ega bo‘lish kerak. Ertak tushunchasini aniqlash uchun ertak atamasining turli tillarda qanday ifodalanishini tahlil qilib ko‘rish maqsadga muvofiqdir. V.Y.Propp fikricha, rus tili materialida “skazka” so‘zi boshqa xalq tillari bilan taqqoslanganda kechroq paydo bo‘lgan. Hozirgi paytda qo’llanayotgan ertak ma’nosidagi atama XVII asrdan iste’molga kirib kelgan. Qadimgi va o’rta Rus xalqlari bu so‘zning

LITERARY CRITICISM

mohiyatini bilmas va tushunmasdi, ammo bu mulohazadan ertak bo‘limgan degan xulosa chiqmasligi lozim. Aksincha, oldinlari ertak boshqa so‘zlar orqali ifodalangan. Taxminlarga qaraganda, “basn” (masal) so‘zi ertak ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan va uning ma’nosiga “bayat” (gapirmoq, aytmoq) fe’li va “baxar” otlari mos kelgan.

Lotin tilida “ertak” so‘zi fabula atamasi orqali ifodalangan. Ammo ushbu so‘z ertak janrini to‘la o‘zida aks ettirmagan, chunki u so‘zlashuv, g‘iybat, so‘zlashuv predmeti va boshqa turli xil ma’nolarni ham anglatgan. (Bizda “fabula: “sujet, hikoya qilish predmeti”, shuningdek, hikoya – ertak va masalni anglatgan). Demak, ushbu so‘z “masal” ma’nosida fransuz tiliga o‘tgan. Fransuz tilida Fabula – “masal” ma’nosini anglatsa, fabulier – fe’li esa “hikoya qilmoq yoki qo‘shib gapirmoq” mazmunini bildiradi.

“Ertak” tushunchasi roman va german tillarida ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, italyan, fransuz va ingliz tillarida “ertak” atamasi turli xil ma’nolarni bildiradi. Italyan tilida ertak ma’nosini *fiaba, favola* so‘zлari anglatib kelgan. Ushbu so‘zlardan ko‘rinadiki, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri lotin tilidagi *fabula* yoki *conto, racconto* so‘zlaridan kelib chiqqanligini anglatadi. *Cont* – so‘zning o‘zagi bo‘lib, u “hisob” ma’nosini ifodalaydi.

Adabiyotlar sharhi. Fransuz tilida *conte* so‘zi ko‘p qo‘llanadi va u “hikoya”, *raconter* – hikoya qilib bermoq ma’nosini anglatadi. Ertak so‘zining yanada aniqroq ma’nosini ochish maqsadida fransuz tilidagi *conte populaire* (xalq ertagi), *conte de fyes* (sehrgar haqida hikoya), *rycit, lygende* iboralarining qo‘llanishi sehrli ertaklar mazmuniga to‘g‘ri kelishini inobatga olish mumkin.

Ingliz tilida *tale* so‘zi ertak ma’nosida anglashiladi va u “umuman hikoya, har qanday hikoya” ma’nolarini ifodalaydi. Fransuzlarga o‘xshab inglizlar ham *fairy-tale* (sehrli ertak) deb gapirishadi. Inglizlarda bolalar uchun ertakni anglatadigan maxsus so‘zlar *nursery-tale* (nurse – “bolaga qarovchi”) *story, legend* qo‘llangan.

Yuqoridaq fikrlardan ko‘rinadiki, turli tizimli tillarda (rus va nemis tillarini hisobga olmaganda) “ertak” ma’nosini ifodalashda har xil so‘z va iboralar qo‘llanilmoqda. Bizningcha, buning asosiy sababi, birinchidan, ertak atamasi turli xil xalq madaniyati va uning mentalitetidan kelib chiqsa, ikkinchidan, ertak janrini turli tizimli tillarda o‘rganish va uni nazariy tahlil qilish o‘ta murakkab jarayondir; uchinchidan, ertak materialining xilma-xilligi “ertak tushunchasining keng qamrovli” ekanligini anglatadi.

Fransuz tilida ham “ertak” atamasini ifodalash uchun turli xil iboralar qo‘llaniladi. Jumladan, *Les contes, Les contes populaires, Les contes merveilleux, Les contes de fyes* kabi. Bu atamalar aslida boshqa tushunchalarni ham bildirib keladi. Masalan, *Le conte* so‘zi *hikoya, novella, qissa* kabi tushunchalarni ham anglatib, tinglovchida bu borada chalkash tushunchalar hosil bo‘lishiga olib keladi. Faqatgina yuqoridaq iboralarning ichida sehrli ertaklar mazmuniga ko‘pincha *Les contes de fyes* iborasi mos kelib, u o‘zining sehr-joduga egalik xususiyati bilan xarakterlanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho‘pchak deb ta’kidlanadi.

U.Jumanazarov yozganidek, ertaklar voqelikni xayoliy hamda hayotiy uydirmalar orqali keng epik planda aks ettirib, asosan, estetik vazifani o‘tasalar, xalq naqlari esa kichik ibratomuz voqeliklar asosidagi sujetlar vositasida didaktik vazifani ado etadilar.

Ertak termini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *etuk* shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Hozir folklorshunoslikda ertak atamasi qabul etilgan bo‘lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal deb ham yuritiladi. Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda, shuningdek, boshqa yerlardagi ikki til, o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashuvchi aholi oarasida *ushuk* deb yuritiladi. Xorazmda – varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak termini ham ishlatiladi. O‘zbeklar orasida ertak, ushuk, matal, cho‘pchak terminlari bilan bir qatorda hikoya, afsona, o‘tirik, tutal kabi atamalar ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida afsona, ertak va masal ma’nolarida *cho‘rchak* so‘zi ishlatilganki, u ham cho‘pchak so‘zining o‘zgargan tarixiy shakllaridan biridir. Cho‘pchak kichik hikoyalarni to‘plash, hikoya qilish, topish, izlash ma’nosini anglatgani uchun ba’zan topishmoq ma’nosida ham qo‘llangan.

Taniqli ertakshunos olim K.Imomov ta’rificha: “Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, fantastik hamda uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deb ataladi. Ertaklar obrazlar talqini, g‘oyaviy uydirmanning o‘rnini va funksiyasi hamda tili va stiliga ko‘ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo‘linadi”. “Ertak” atamasining mohiyati haqida Ensiklopedik lug‘atda shunday deyiladi: “Ertak – folkloarning asosiy janrlaridan biri; sehrli, hayotiy-maishiy xarakterdagi epik, aksariyat prozaik asar. Badiy to‘qima mahsuli.

Ertak nima ekanligini hamma biladi, ammo uni qardosh janrlardan, jumladan, xalq rivoyatlaridan, afsonalardan va latifalardan biroz ajratish maqsadga muvofiqdir.

LITERARY CRITICISM

Mashhur folklorshunos Vladimir Propp o‘zining “Morfologiya voshebnoy skazki” (“Sehrli ertak morfologiyasi”) deb nomlangan asarida ertaklarning eng yirik va muhim turi bo‘lgan sehrli ertaklar haqida o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan bo‘lib, bu asar XX asr folklorining eng mashxur tadqiqotiga aylandi. V. Propp bu asarida A. Aarne, V. Vundt, V. V. Miller, R. Volkov singari ertakshunsolarning ertaklar tasnifiga to‘xtalib o‘tib, o‘zining fikr-mulohazalarini bildirgan. Olim bu asar orqali ertakshunslikning bir nechta asosiy muammolarini hal qilishga urinishlarni tanqidiy yoritishga harakat qilgan va shu bilan birga, o‘quvchini ushbu muammolar doirasi bilan tanishtira olgan. V. Propp ertaklarning tarixiy tadqiqi haqida emas, balki faqatgina ularni tavsiflash haqida so‘z yuritar ekan, ertak qayerdan kelib chiqqan degan savolga oydinlik kiritishdan oldin u nima degan savolga javob berish kerakligini ta’kidlagan. Ta’kidlash lozimki, asarning kirish qismida ertak nihoyatda xilmal-xil bo‘lgani uchun, uni birdaniga to‘liq o‘rganish mumkin emasligi sababli, material qismlarga bo‘linishi, ya’ni tasniflanishi kerakligi haqidagi qimmatli fikrlar ham aytib o‘tilgan. Bundan tashqari, olim ilmiy tavsif to‘g‘ri tasniflashning bиринчи qadamlaridan биринчи qadamlaridan biri ekanligini ham ta’kidlab o‘tgan. Ertaklarning yuqorida keltirilgan ertakshunoslар tomonidan tasniflanishini birma-bir tahlil qilib, xato va kamchililar haqida aniqlab, ularni umumlashitgan.

Ertaklarning eng ko‘p tarqalgan tasnifi V. Miller tomonidan qilingan bo‘lib, u ertaklarni

- 1) sehrli ertaklar;
- 2) maishiy ertaklar;
- 3) hayvonlar haqidagi ertak turlariga ajratgan.

Finland maktabining asosochilaridan biri A. Aarne ham ertakshunslikka yuksak hissa qo‘sghan, u aynan sehrli ertaklarni quyidagi kategoriyalarga bo‘lgan: 1) sehrli raqib; 2) g‘aroyib turmush o‘rtoq; 3) sehrli vazifa; 4) sehrli ko‘makchi; 5) sehrli predmet; 6) sehrli kuch yoki mahorat; 7) boshqa sehrli motivlar.

V. Y. Propp bunday tasniflashga alohida to‘xtalib, hayvonlar haqidagi ertaklar ham sehrli ertaklar turiga kirishini va A. Aarne keltirib o‘tgan toifalarning bir nechta bitta ertakda mujassam bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tgan.

Muhokama. Sehrli ertaklarning asosiy markerlari (belgilari) faraz qilish, jonlantirish, antromorfik (inson qiyofasiga kirish yoki aylanish), ya’ni tabiiy predmetlarni, hayvonlarni va narsalarni jonlantirishga intilish va insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni ularda uchratish (Anthropomorphisme – tendance a attribuer aux objets naturels, aux animaux et aux creations mythique des caracteres propres a l’homme) va personajlarning chaqqon harakat qilishi va ularning ruhiy holati (xarakteri)dir. Demak, ularning ichki dunyosi bizga shuni ko‘rsatmoqdaki, personajlar kimlargadir yaxshilik yoki yomonlik qilish belgilari bilan tavsiflanadi.

Fransuz akademiya lug‘atida (1694) ertak haqida quyidagi fikrlarni o‘qish mumkin: “Ertak bu bir necha sarguzasht hikoyalar majmuasi bo‘lib, ular yo haqqoniy, yo afsonaviy, yo jiddiy, yo hazil ma’nolarni o‘z ichiga oluvchi badiiy janr hisoblanadi. U she’riy hikoya va hazil mutoyibalarga nisbatan oddiyroq bo‘ladi. Qadimgi davrda *qari bo‘ri, ona g‘oz, laylak, eshak terisi* haqidagi hikoyalarni ertak deb atashgan. Shuningdek, turli ranglar jilosini o‘zida namoyon etuvchi *sariq, ko‘k, gunafsha* kabi tuslar va *bir ko‘zli* maxluqlar (devlar, odamlar va h.k.) ertak motivini tashkil qilgan.

Keksa yoshdagи odamlar haqidagi kulgili sujetlar bolalarni qiziqtirgan va ular to‘g‘risida quvnoq suhbatlar olib borilgan. Shuningdek, hikoyalar tarkibida turli xil personajlar ishtirot etib, ular nutqida surbetlik, odobsizlik, aql va farosatsizlikni ifodalovchi sujetlar ham ertak deb atalgan”.

Fransuz tili adabiyotlari lug‘ati 1080-yildan beri ertak so‘zi “conter” (lotin tilidagi “computare”), énumére (bir hikoyaning epizodlari) va conter fe’llaridan hosil bo‘lganligini ko‘rsatib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, “compter” fe’li uzoq davr davomida “conter” fe’liga nisbatan orfografik variant bo‘lib hisoblangan. Bu ikkala fe’l shakkari XVII asr oxirigacha bir-biridan mazmun jihatidan farq qilmay, bir ma’noni ifodalashga xizmat qilgan. *Ertak* so‘zining kelib chiqishi, shuningdek, uning “conter, conteur” lisoniy birliklar kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarini ifoda qilishi, bu so‘zning qaysi davrdan boshlab qo‘llanib kelayotgani asa noma’lum bo‘lib qolmoqda. Umuman, ertakning amaliy qo‘llanish xususiyati shuni ko‘rsatmoqdaki, u goh xalq og‘zaki ijodiga mansub deyilsa, goh yozma badiiy adabiyotga qarashli degan nazariy fikrlar mavjud. Boshqacha qilib aytganda, yuqoridagi ikki soha bo‘yicha umumiyl fikrlar bo‘lsa-da, ammo ularni ma’lum bir tizimga solishning iloji yo‘q, chunki bu yo‘nalish bo‘yicha aytigan fikrlarning miqdori son-sanoqsizdir. Ko‘p hollarda xalq og‘zaki ijodining to‘g‘ridan-to‘g‘ri genetik ta’siriga yoki g‘oyaviy-mavzuiy yo‘nalishi haqida umumiyl gap ketishi bois ertakning xususiyatiga daxl qilmaydi. Yangi davrgacha xalq amaliy ijodi bo‘lgan ertak janri aniq og‘zaki muloqot vaziyatini namoyon qilib keldi. Ertakni so‘zlab beruvchi shaxs o‘z chiqishlarida doim auditoriyaga murojaat qilib, o‘z hikoyasini tinglovchilarga yetkazib kelgan.

Ertak voqelegi qisqa, tarixiy mazmunda, ishonib bo‘lmaydigan harakat va afsonaviy tasavvurga yo‘g‘rilgan bo‘lishiga ko‘ra xarakterlanadi. Oldiniga vulgar janrda yozilgan proza haqida gap ketadi. Bizning

LITERARY CRITICISM

nazarimizda, ertak bu darak mazmunida bo‘lib, ko‘p holatlarda juda qisqa, sehrli voqelikni o‘zida badiiy ifoda etadi. Ertak atamasi doirasiga qadimgi voqeliklar asosida paydo bo‘lgan hamma badiiy matnlarni kiritish mumkin, chunki ular juda qadimgi, burungi, voqeliklar asosida paydo bo‘lgan.

K.J.Jenevev fikricha, ertak – bu prozadagi narrativ janr. U to‘qima xususiyatga ega bo‘lib, xayoliy voqeliklarni, tashqi dunyodagi yoki uzoq-uzoq o‘tmishdagi harakatlarni bayon qiladi. Ertak semantik xususiyatlari bilan boshqa xalq og‘zaki ijodi janrlaridan ajralib turadi. Eng muhim, u ta’lim jarayonida yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy adabiyot merosini hosil qiladi.

Le Pije ta’kidlaydiki, bola balog‘at yoshigacha animist sifatida qoladi. Uning dunyoviy xayolida jonli va jonsiz, insonlar va hayvonlar, tasavvur va real olam kabilar orasidagi xususiyatlarni farqlovchi chegara hali to‘la shakllanmagan bo‘ladi. Chunki bola ular haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lmaydi. Sehrli ertaklar o‘z xususiyatiga ko‘ra juda boy imkoniyatga ega bo‘lib, bir ertakning o‘zi besh yoshtan to o‘n uch yoshgacha bo‘lgan bolalar haqida gapirib, ularning ruhiyatini butunlay qamrab olishi mumkin. Ammo ularning ertak haqidagi tasavvurlari va talqini bir-biriga mos kelmaydi.

Dominik Pir yozishicha, sehrli ertaklarda bolalar uchun qo‘rqinchli bo‘lgan holatlar turli xil o‘yinlar usulida namoyish etiladi: qashshoqlik va tashlab ketish (Le Petit Poucet), qarindoshining o‘limi (Blanche-Neige), o‘smlilik davridagi bolalar mahorati yosh bolalar nigohida (Le Petit Chaperon Rouge), qarindoshlarning bir-birini ko‘rolmasligi kabi. (Cendrillon). Uning fikricha, ertaklarda hayotning shafqatsizligi va ichki kurashlar mohiyati sezilarli shaklda, unchalik qo‘rqinchli bo‘lmagan holatda yoshlarga bayon qilinadi. Ertaklardagi asosiy g‘oya: yaxshilik va yomonlik orasidagi kurashdir. Har ikkala motiv ertak qatnashuvchilari yordamida amalga oshadi. Yomonlik ajdaho va jodugarlar tomonidan gavdalantirilsa, yaxshilik esa, teskarisi, masalan, mitti odamlarning ertak qahramonlariga ko‘rsatgan yordami tufayli ro‘yobga chiqadi.

Ertaklarni xotirada saqlab qolish oson, chunki ertaklar tili ko‘p hollarda yetarli darajada ritmik hisoblanadi, ammo tilning verballashuvi o‘zining eng muhim ifoda vositasiga ega emas. Ertakdagি personajlar, ularning xatti-harakatlari, turli xil imo-ishoralarida matnning faoliyati katta ahamiyatga ega.

Yevropada ertak janri muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ayniqla, xalq orasidan ularni yig‘ib olish va yana xalqqa yetkazib berish yo‘lida bir qator ertakchilar fidoiylik ko‘rsatishgan, Xusan, aka-uka Grimlar, Andersen, Sharl Pero, Josef Jakobslar shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Ingliz tiliga “ertak” atamasining kirib kelishi fransuz yozuvchisi, baronessa Mari Katerina d’Alnoy nomi bilan bevosa bog‘liqligini aytib o‘tish joiz. Bu atamaning o‘zi xonim d’Alnoyning “Konte de fees” asari tarjimasidan kelib chiqqan bo‘lib, uning to‘plamida bu so‘z birinchi marta 1697-yilda qo‘llanilgan. Adiba asarlarida ilk bora “Konte de fees” (inglizcha, “fairy tale-ertak”) so‘zini ishlatganidan so‘ng, yevropada ertak janriga bo‘lgan e’tibor kuchaya bordi. Germaniyada ertak janri “marchen”, ya’ni “qisqa hikoya” deya atalgan. Ba’zi folklorshunoslar “fairy tale” (ertak) so‘zining o‘rniga “marchen” yoki “wonder tale” atamalaridan foydalanib kelishadi. XIX asr folklor uchun oltin asr edi. Butun dunyodagi folklorshunoslar og‘zaki manbalardan qadimiy ertaklarni to‘plashni va ularni yozishni boshladilar.

Aka-uka Grimmlar ertak yig‘ish jarayonida Kunstmärchen, ya’ni badiiy yoki adabiy ertak tushunchasiga asos solishdi. Hans Kristian Andersen bu janrning eng mashhur namoyondalaridan biri hisoblanadi. Muallif “Mutlaq qalay askar” (1838) kabi asl ertaklarni yozib olish yoki “Kichik suv paris” (1837) kabi mashhur balladalarni ertak janriga moslashtirish kabi yo‘llardan foydalangan.

Andersenning ilk ertaklari an‘anaviy xalq ertaklaridan olingan bo‘lsa-da, muallif ularga o‘z xarakterini qo‘shish uchun so‘zlashuv uslubi, kinoya, oddiy havolalar, realism kabi elementlarni qo‘shib chiqqan. “Qizil moyabzal” (1845) kabi ertaklardagi transformatsiyalar ma’naviy va metafizik tushuncha yaratilishiga imkon beradi.

XIX asrda butun Amerika va Yevropada ko‘plab badiiy ertaklar yaratilgan. Ertak kitobxon uchun mashhur va ommabop janr edi. Shu bilan birga, uning motivlari yozuvchilar kuzatilishi mumkin bo‘lgan dunyoni sharhlash va o‘zgartirish imkonini berardi. Qadimiy ertaklar hayotni ijtimoiy nuqtayi nazardan talqin qilsa, badiiy ertaklar badiiy yoki siyosiy maqsadni ko‘zlab yaratilgan.

Ertaklarning rivojlanish tarixiga nazar solar ekanmiz, adabiy ertaklar haqida ma’lumot berishimiz joiz. Bunday turdagи ertak voqealari muallif tomonidan to‘liq yaratiladi yoki ertakning asl matniga salmoqli o‘zgartirishlar kiritiladi. Shunday adiblardan biri Sharl Pero bo‘lib, u fransuz xalqi uchun badiiy ertak asoschisi hisoblanadi. Muallifdan o‘ndan ortiq ertaklar meros bo‘lib qolgan.

Ertakda aqlilik, bilimdonlik, topag‘onlik bosh masala qilib qo‘yiladi. Boshqa asarlarda bo‘lgani kabi Sharl Pero ertaklarining birida folklor an‘analariga yana bir bor sodiq qoladi. Ertak qahramoni tegirmونchining kenja o‘gli Karabas fahm-farosat, aql bilan ish ko‘rib, o‘z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo‘ladi. Sharl Peroning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Ularning ko‘philigi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e’zozlaydilar. Zolushka ertagini olib ko‘raylik. Uni o‘gay

LITERARY CRITICISM

ona-yu uning qizi xush ko‘rmaydilar, xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani chindildan yaxshi ko‘rishadi. Uning o‘z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydilar. Zolushka juda chiroyli, odobli, shirinso‘z, kamtarin, odamlarga, jonivorlar-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlari, mehnat, halollik va poklik bilan hayotda o‘z o‘rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo‘lishi ertak tinglovchisida yaxshi taassurot qoldiradi.

B. Larinining bolalar uchun mo‘ljallangan bola va yaramas Karlson haqida qisqacha hikoyada aytishicha, Kid va Karlson haqidagi bu voqeа haqiqatda sodir bo‘lgan. Lekin, albatta, u bizdan uzoqda sodir bo‘ladi.

Chet el ertaklarida mo‘jizalar va ajoyib odamlar haqida hikoya qilinadi. Yaxshilik har doim yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, saxovat va jasorat o‘z xizmatlariga ko‘ra mukofotlanadi, olijanoblik esa har doim pastkashlik ustidan g‘alaba qozonadi. Masalan, “Qo‘rquinchi malika” ertagi (“Odamxo‘r malika” filmi)ning qahramoni bir paytlar ojiz tilanchini xafa qiladi. Taqdir taqozosi natijasida u malikanng eriga aylanadi, ammo u nafratlangan turmush o‘rtog‘idan qutulishga muvaffaq bo‘ladi. Malika oltin choponda shahzodaning qasriga kirib oladi. Natijada, u shahzodaning xotiniga aylanadi.

“Pan Kotskiy” ertagida qariganida egasi o‘rmonga olib ketgan mushuk haqida hikoya qilinadi. U yerda uni tulki kutib oladi. Mushuk o‘zini Pan Kotskiy deb atagan. Liza uni er-xotin bo‘lishga taklif qiladi. Qizil sochli makkor o‘rmon hayvonlarini aldaydi, ular turmush o‘rtoqlarini kechki ovqatga taklif qiladilar va ayyorlik bilan ularni mushukdan qutultiradilar.

“Sinbad dengizchi” ertagida qahramonning hayratlanarli sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Unda uchta hikoyadan birida kitga aylangan orol haqida hikoya qilinadi. Ikkinchisida Sinbadning Rok qushi bilan uchrashishi va dengizchining ajoyib qutqarilishi haqida so‘z yuritiladi. Uchinchisida, qahramon bahaybat kannibal bilan to‘qnashuvda omon qolishi haqida hikoya qilinadi.

“Ayoga” ertagi hamma uni go‘zal deb hisoblagani uchun mag‘rurlanib qolgan qiz sharafiga shunday nomlanadi. U suv olib kelishdan bosh tortadi, shunda uning o‘rniga qo‘shnining qizi suvgaga ketadi. U onasi pishirgan pirogini ham olib ketadi. Xafagarchilikdan Ayoga g‘ozga aylanadi, hanuzgacha u uchib ketib, qaytib kelmagan va hech kimni boshqa xafa qilmaslik hamda adashtirmaslik uchun o‘z nomini Ayoga deb takrorlab yuradi.

Xulosa. Bu qisqa hajmli ertaklardagi personajlar ijtimoiy hayotning barcha qatlidan bo‘lganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, inson, o‘simlik dunyosi, hayvonlar va hokazo. Ko‘p hollarda personajlar g‘ayritabiyy ko‘rinishda va xususiyatda namoyon bo‘lishadi. Ertak personajlarini tez-tez shahzoda, malika, qiro, qirolichalar, shohlar (podsholar), sehrgarlar, ip yigiruvchi ayollar, sehrgarlar va jodugar kampirlar ramzida ko‘rish mumkin. Sehrgar va afsungarlar shunday inson personajlarki, ular qudratli sehrli kuchga egaligi bilan ko‘zga tashlanadi. Jodugar-yalmog‘izlar esa doimo o‘rmonda yashashi kuzatiladi va ular yomon xarakterlari bilan ajralib turadi. Bularidan tashqari, yana turli xil personajlarni, parilar, ruhlar, kichik daholar, suv parilari kabilarni ham sanab o‘tish mumkin. Ularning tanalari insonniki day bo‘lmaydi. Masalan, suv parisini boshidan beligacha qiz bola, tanasi va belidan pastigacha esa baliq ko‘rinishida bo‘ladi. U yoqimli ashulalari va chiroyli qomati bilan dengiz jonivor va mahluqlarini, dengizchi va baliqchilarni sehrlab qo‘ya oladi. Bunday mavjudotlarning borligi, albatta, faqat ertak va afsonalargagina xosdir. Lekin ertaklarda g‘aroyib tilsim predmetlar obrazi ham keltiriladi. Shunday predmetlar borki, ular xuddi insonlardek harakatlanadi va sehrli xususiyati bilan e’tiborni tortadi.

Demak, ertak janridan zamonga bog‘liq bo‘limgan holda foygalaniladi. Ammo ko‘plab ertaklar mazmuni aniq o‘tgan zamonni aks ettirsa-da, ertakda uzoq o‘tmishda noma’lum tarzda bo‘lib o‘tgan voqelik tasvirlab beriladi. Ertakdagи voqeliklarning rivojlanishi o‘ziga xos formulalarni tashkil qiladi. Bunga ularning folkloriga xos an‘anaviy epik qonuniyatlar asosida uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgani sabab bo‘lgan. Fransuz folklorida ertaklarning keyingi taraqqiyotida adabiy ertakchilik muhim rol o‘ynagan. Ular xalq ertaklarini qayta ishslash asosida taraqqiy topib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Arnold Van Gennep *Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises*. Paris: Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec.
2. Вержбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и pragmatики. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 272 с.
3. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. Избранные статьи. Москва: издательство «Наука», 1976, 16 стр.
4. Adizova, Obodon. "Folklore in the context of modern culture" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).

LITERARY CRITICISM

5. Adizova, Obodon. "Les contes biographiques et esthétiques" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32.32 (2023).
6. Istamovna, Adizova Obodon. "The exceptional in the works of van gennep" // International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (2023): 122-125.
7. Adizova, Obodon Istamovna. "History and etymology of the fairy tale" // Educational Research in Universal Sciences 2.1 special (2023): 121-126.
8. Adizova Obodon Istamovna. "A look at folklore." // Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 88-91.
9. Istamovna, Adizova Obodon, and Sadoqat Suvonqulova. "The Essential Function of the Proverb" // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.5 (2023): 338-342.
10. Istamovna, Adizova Obadon, and Mamadaminova Muhayyo. "Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century." // Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.2S (2023): 1689-1697.
11. Istamovna, Adizova Obodon. "The exceptional in the works of van gennep" // International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (2023): 122-125.
12. Obodon Istamovna. "Les classement des faits folkloriques français" // Innovative Development in Educational Activities 2.21 (2023): 79-87.
13. Adizova, Obodon. "Bolalar o'yinlari xalqning milliy an'analaridan so'zlaydi" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43.43 (2023).
14. Adizova, Obodon. "The classification of the plot composition of the prosaic folklore" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43.43 (2023).
15. Adizova, Obodon. "Fransuz va o'zbek tillarida hayrat va shubha diskursida frazemalar ishtiroki" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43.43 (2023).
16. Adizova, Obodon. "L'étude systématique des moeurs et des coutumes" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 42.42 (2023).
17. Adizova, Obodon. "Folklorshunoslikning janriy tarkibi va tizimi xususida" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 42.42 (2023).
18. Istamovna, Adizova Obodon. "Fransuz va o 'zbek folklorshunosligida marosim folklorining mavzuiy turlari." // International scientific conferences with higher educational institutions. Vol. 1. No. 05.10. 2023.
19. Adizova, Obodon. "Француз болалар фольклори тарихи ва унинг шаклланиши омиллари." // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).
20. Adizova, Obodon. "Азиз Қаюмовнинг Навоий девонлари тадқиқига биографик ёндашуви" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).
21. Adizova, Obodon. "Шарль Огюстен де Сент-Бёв – основатель биографического метода" // Центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).

O'RТА ASRLAR SHE'RSHUNOSLIGIDA TASHXIS BADIY SAN'ATINING NAZARIY XUSUSIYATLARIGA DOIR QARASHLAR

Kayumov Nodir Nayimovich,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

nodirkayumov1990@gmail.com

Annotatsiya. Tashxis san'ati badiiyat ilminiing go'zal va betakror turi bo'lib, so'z san'atining ma'nnaviy guruhiga mansubdir. Jalon she'rshunosligida tashxis san'atining shakllanishini o'rganish, uning nazariy xususiyatlari va adabiyotda tutgan o'rnini aniqlashga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ammo o'rta asrlar fors-tojik she'rshunosligida tashxis va jonlantirish san'ati uzoq asrlar davomida alohida va mustaqil san'at turi sifatida qayd etilmagan. O'rta asrlar fors-tojik she'rshunoslaridan Shams Qays Roziy, Atoulloh Mahmud Husayni hamda XX asr adabiyotshunos olimi Shibliy No'moniy tashxisni tashbih va istiora san'atlarining maxsus turi sifatida zikr etishgan.

Tashxis o'zining nazariy xususiyatlari va muhim mazmuniga ko'ra istiora va tashbihdan tubdan farq qiladi, ko'p hollarda o'zining shakl va tuzilishi bilan istiora va tashbih san'ati doirasiga sig'maydi va asosan, alohida she'riy san'at sifatida ko'zga tashlanadi.

Maqolada tashxisning nazariy va funksional xususiyatlari, uning istora va tashbih san'atilaridan mustaqil ekanligi, shuningdek, bu boradagi nazariyotchi olimlarning bildirgan fikrlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: she'rshunoslik, san'at, tashxis, istiora, tashbih, Shams Qays Roziy, Atoulloh Husayni, Shibliy No'moniy.

ВЗГЛЯДЫ НА ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРИЁМА ОЛИЦЕТВОРЕНИЯ В СРЕДНЕВЕКОВОЙ ПОЭТИКЕ

Аннотация. Искусство олицетворения - прекрасный и уникальный вид художественной науки, относящийся к духовной группе словесного искусства. В мировом литературоведении существует ряд научных исследований, посвящённых изучению формирования искусства олицетворения, определению его теоретических особенностей и роли в литературе. Однако в средневековой персидско-таджикской поэтике искусство олицетворения и одушевления на протяжении многих веков не выделялось как отдельный и самостоятельный вид искусства. Средневековые персидско-таджикские теоретики поэзии Шамс Кайс Рази, Атоуллах Махмуд Хусайн и литературовед XX века Шибли Нуmani упоминали олицетворение как особый вид искусства сравнения и метафоры.

По своим теоретическим особенностям и важному содержанию олицетворение принципиально отличается от метафоры и сравнения, во многих случаях своей формой и структурой не укладывается в рамки искусства метафоры и сравнения и в основном выделяется как отдельное поэтическое искусство.

В статье обсуждаются теоретические и функциональные особенности олицетворения, его независимость от искусства метафоры и сравнения, а также мнения учёных-теоретиков по этому вопросу.

Ключевые слова: поэтика, искусство, олицетворение, метафора, сравнение, Шамс Кайс Рази, Атоуллах Хусайн, Шибли Нуmani.

VIEWS ON THE THEORETICAL ASPECTS OF PERSONIFICATION AS AN ARTISTIC DEVICE IN MEDIEVAL POETICS

Abstract. The art of personification is a beautiful and unique form of artistic technique belonging to the spiritual category of verbal art. In world literary studies, there are numerous scientific works devoted to examining the development of personification, defining its theoretical characteristics and role in literature. However, in medieval Persian-Tajik poetics, the art of personification and animation was not distinguished as a separate and independent art form for many centuries. Medieval Persian-Tajik poetry theorists Shams Qays Razi, Atoulleh Mahmud Husayni, and the 20th-century literary scholar Shibli Numani mentioned personification as a special type of comparison and metaphor.

LITERARY CRITICISM

In terms of its theoretical features and significant content, personification fundamentally differs from metaphor and simile. In many cases, its form and structure do not fit within the framework of metaphor and simile, and it is primarily distinguished as a separate poetic art.

The article discusses the theoretical and functional features of personification, its independence from metaphor and simile, as well as the opinions of theoretical scholars on this matter.

Keywords: poetics, art, personification, metaphor, simile, Shams Qays Razi, Atoullah Husayni, Shibli Numani.

Kirish. Sharq mumtoz she'riyatining badiiyati, mumtoz she'riyatda lafziy va ma'naviy san'atlarning o'rni, shoir poetik mahoratining tadrijiy takomil tamoyillari, she'riyatning shakliy va ma'noviy komponentlari, badiiy vositalar bilan bog'liq muammolar zamonaviy adabiyotshunoslik ilmida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda mumtoz she'riyatga xos bo'lgan tashxis san'atining badiiy matn kontekstidagi funksional xususiyatlarini yoritish adabiyotshunoslikning zamonaviy taraqqiyot prinsiplarini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tashxis san'ati qadimdan fors-tojik she'riyatida badiiy kalomning go'zal bir vositalaridan sanalib, ko'plab manzumalarda ko'zga tashlanadi. Afsuski, bu san'at asrlar davomida adabiyotshunoslar nazaridan chetda qolib, badiiyat ilmiga oid asarlarda zikr etilmagan. Adabiyotshunos olimlar tashxis san'atini goh tashbih, gohida istioraning ma'lum bir shakli sifatida qayd etib, uning tashbih va istioradan farqini aniqlashmagan. Holbuki, tashxis san'ati shakl, mazmun va mohiyat jihatidangina emas, balki tarkibiy jihatdan ham butunlay mazkur san'atlardan farqlanadi va u qadimiy tarixga egadir.

O'rta asrlar fors-tojik adabiyotshunosligida olimlarning tashxis san'atining nazariy xususiyatlari va ahamiyatini e'tiborga olmasdan, uni istiora yoki tashbih san'atining bir turi sifatida qayd etishganiga ba'zi bir asos ham bor edi. Chunki mumtoz fors-tojik poetikasida badiiy so'zni shakliga qarab e'tirof etishgan, she'rning badiiy qiymatini aniqlashda mazmunidan ko'ra ko'proq shaklga e'tibor berilgan. O'rta asrlar she'rshunosligi she'rning mazmun-mohiyatini shoirning shakl berish mahoratiga qarab belgilaganligi sababli tashxis san'atining mazmuniy xususiyatlariga e'tibor qaratilmagan. Chunki tashxis san'atida shakliy jihatdan ko'ra ko'proq ma'naviy xususiyatlar ustunlik qiladi. Fors-tojik she'riyatida tashbih va istiora san'atlari tasvirning asosiy vositalaridan hisoblangan. Mumtoz she'riyatda mazkur san'atlar shunday maqomga ega ediki, badiiy nutqning boshqa turlari bu san'atlar oldida ahamiyatsiz bo'lib tuyular edi. Ikkinchidan, istiora va tashbih san'atlarining ifodalanish shakli tojik poetikasining badiiy asosiga to'g'ri kelgan. Ya'ni mazkur badiiy san'atlar mumtoz shoirlarning estetik shakl va mazmun yaratish uslubiga moslashgani sababli she'riyat ahli tashbih va istiora san'ati ahamiyatini muhim hisoblab, boshqa badiiy so'z turlarini ularning maxsus turi sifatida qayd etishgan.

Adabiyotlar sharhi. Mumtoz fors-tojik adabiyotida tashbih va istiora qo'llanilgan she'riyat namunalari nihoyatda ko'p bo'lib, tashxis mazkur she'rlarda asosan mo'jaz shaklda namoyon bo'lganligi uchun she'rshunoslar uni istiora va tashbih san'atidan ajratmasdan, tashxisning nazariy xususiyatlarini belgilashmagan. Ammo mumtoz fors-tojik she'riyatida tashxisning mo'jaz shakli orqali yaratilgan tasvirlar tashbih va istiora san'atlari kabi nihoyatda ko'p bo'lishiga qaramasdan qadimgi poetika ilmi tashxis san'atini tanimasdan, uni istiora va tashbih san'atiga mansub deb bilishgan. Darhaqiqat, tashxis va jonlantirish san'ati shakl jihatidan istioraga o'xshaydi. Masalan, Kamol Xo'jandiyning ushbu she'rida:

Ba ro'yat da'vii xubi chu domangir shud gulro,

Bad-in ma'ni namedorad sabo dast az girebonash [4:43].

Mazmuni: Gul husnda sendan chiroyli ekanligiga da'vo qiladi. Ushbu mazmunda sabo yoqasidan qo'lini olmaydi.

Badiiy tasvir butunlay tashxis va jonlantirishga asoslangan. Shoир gulning go'zallik bobida mahbubaga tengligiga da'vo qilganini, lekin bu da'vo saboga yoqmaganini, shuning uchun ham qo'li bilan yoqasidan ushlab olganini ta'kidlaydi. Bu baytda sabo ham, gul ham jonlantirilib, insondek harakat qiladi. Biroq, o'rta asrlar tojik she'rshunosligi ilmi bu ikki tashxisni "gul da'vosi", "sabo qo'li", "gul yoqasi" istioralari sifatida e'tirof etgan, buning natijasida tashxis va jonlantirish nafaqat shakl butunligini, balki nafosat va ulug'verligini ham yo'qotadi.

O'rta asrlar fors-tojik she'rshunosligida istiora turlari bir-biridan farqlangan, ko'p hollarda tabiat manzaralari va jonsiz narsalarni ifodalashda qo'llanilgan tasvir vositasi istioraning maxsus turi yoki "isitorai makniya" sifatida zikr etilgan. Taniqli she'rshunos olim Shams Qays Roziy o'zining "Al-mu'jam" risolasida tashxis san'atining nazariy xususiyatlarini istiora doirasida o'rganib, uni hayvonlar, jonsiz narsalar va g'ayriinsoniy mavjudotlarni so'zlashtirish hamda munozaraga tortish uchun foydalanadigan istioraning maxsus turi sifatida tilga oladi.

LITERARY CRITICISM

“Boshqa (barcha) istiora turlari orasida shoirlar bayoniga xos bo‘lgan va faqat so‘zlashdan boshqa ko‘proq rivojga ega bo‘limgan va nutqi yo‘q hayvonlar va jonsiz narsalar o‘rtasidagi muomila va so‘hbatdir, masalan teg‘ va qalam, sham‘u chiroq, gulu bulbul, itlol va daman, giyoh va yulduzlar muxotabi va bundan boshqa chunonchi Kofiy Zafar Hamadoniy aytganidek:

Pursid ba bog‘ bulbul az nargisi mast,

K-az gul xabare hast turo? Gufto: Hast.

Gul mahdi zumurradin ba gulbun barbast,

Az gilla burun omadu dar madh nishast” [6:294].

Mazmuni: *Bog‘dagi mast nargisdan bulbul so‘radi, sizda guldan xabar bormi? -U aytdi: bor. Gul o‘zining nash‘unamosi zumurradin chiqib, gulbuta shaklida jam’ bo‘ldi, gilaguzorlikni bir yon qo‘yib, ta‘riflashga o‘tdi.*

Shams Qays Roziy hayvonot va jonsiz narsalarni so‘zlashtirish va ularga ba’zi bir insoniy xususiyatlarni berishni istioraning bir turi sifatida hisoblagan va bu keyinchalik she‘rshunoslikka oid risolalarda xusan, Atoulloh Husayniyning “Badoe’ us-sanoe”, Shibliy No“moniyning “She‘r ul-ajam” va boshqa asarlarda takrorlangan.

Tashxis san’atining istiora tarkibida tanilishini o‘rta asrlarning mashhur poetik asarlaridan biri Atoulloh Husayniyning “Badoe’ us-sanoe” risolasida ham ko‘rish mumkin. “Badoe’ us-sanoe” kitobidagi istiora san’ati haqidagi ma’lumotlarda muallif badiiy obrazni istioraning bir turidan iborat ekanligiga ishonch hosil qilgan:

Piri sipehr yod zi ahdi shubob kard,

K-az mehru mah du didai xudro pur-ob kard,

Yo xira gasht chashmi vay azbaski o‘nazar

Chun oshiqon ba ro‘i tu, ey oftob kard.

Nargis zi chashmi masti tu omo ‘xt rasmi noz,

K-az gul fikand bistaru ohangi xob kard... [2:156]

Mazmuni: *Keksa falak yoshlik chog‘larini va sevgilisini eslab, ko‘zlariga yosh oldi. Yoki qaraganidan ko‘zları xira bo‘lib qoldi, Oshiq kabi ul oftobga yuzlandi. Nargis sening mast ko‘zlariningizdan nozu karashma rusumini o‘rgandi va guldan to‘shak tayyorlab, uyqu tadorukini ko‘rdi.*

Atoulloh Mahmud Husayniy fikrlarini davom ettirib, mazkur g‘azalda g‘ayriinsoniy unsurlar-hayvonlar, o‘simliklar, jonsiz narsalar va hokazolarni tasvirlashda istiora san’atining o‘ziga xos turidan foydalilanligini ta’kidlagan: “Istioraning bir turi bo‘lib, jonivorlar, o‘simliklar va jonsiz narsalar va mavjudotlarga nisbatan murojaat etmoq va ular o‘rtasidagi munozira, shoirlar aytganidek, teg‘ bilan qalam, kechayu kunduz, sham va gullar o‘rtasidagi bahsga aytildi” [2:156]. G‘azalda “kekxa falak” iborasining qo‘llanilishi mazkur she‘rning istiora sifatida baholanishiga sabab bo‘lgan. Darhaqiqat, “kekxa falak” iborasi istiora bo‘lib, bu tasvirdan shoirning asl maqsadi ko‘hna olamga nisbatan ishoradir. Ammo bizningcha, bu iborada “kekxa falak” va “uning yoshlik chog‘larini eslashi” (baxtli davrlarning ifodasi), oyga nisbatan muhabbat olovi va ko‘zlariga yosh kelishi, mahbubasining yuziga oshiq singari boqishi, nargisning gullardan to‘shak hozirlashi va uyquga ketish tadorukini ko‘rishi bevosita tashxis san’ati natijasida yuzaga kelgan badiiy tasvirlardir. Zero, g‘azalda she‘riy obrazlar “kekxa falak” ifodasi bilan tugamaydi, shoirning badiiy tasavvuri kengayib, mazkur “kekxa falak” yoshlik davrlarini, otashin muhabbatini eslaydi, ko‘ngli yaralanib, oshiqona hasrat bilan noliydi. Bu g‘azalda tashxis san’atining ta’sirchanligini oshirish maqsadida istiora qo‘llanilgan. Ammo Atoulloh Mahmud Husayniy bu erda tashxisni istiora san’atining o‘ziga xos turi deb hisoblaydi. Biroq inson harakati va xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan, bechora oshiq taqdirini aks ettiruvchi she‘riy obrazlar ifodasi nuqtai nazaridan qaraganda, u istiora san’ati namunasi emas, balki qadimiy dunyoning jonlantirilgan obrazi ekanligi ayon bo‘ladi.

Muhokama. Olim o‘z so‘zi davomida mazkur san’atni istioraning bir turi ekanligi, shoirning maqsadi g‘ayriinsoniy mavjudotlar, hayvonot, o‘simliklar va jonsiz narsalar olamiga murojaat qilish ekanligi va bu she‘riyat ahli orasida keng tarqalgan an‘analigini qayd etadi. Bu erda muallif voqeа va g‘azal mazmunining kengayishiga e’tibor bermagan va uni o‘ziga xos istiora deb hisoblagan. G‘azalda istiora yordamchi san’at bo‘lib, jonsiz jismlarning harakatlanishi yoki ularga insoniy xususiyatlar berish bevosita tashxis san’ati bilan bog‘liq. Yuqorida misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlar fors-tojik she‘rshunosligida tashxisni istiora va tashbihning bir turi deb hisoblash tufayli u chuqur o‘rganilmagan, bu san’atni ifodalovchi alohida atama ham adabiyotshunoslikda mayjud bo‘limgan. Ammo izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, tashxis san’ati qadim zamonalardan buyon mustaqil san’at sifatida ijodkorlar tomonidan foydalanim kelimmoqda.

Tashxis san’atining istiora va tashbihning maxsus turi sifatida bilish XX asrning birinchi yarmigacha adabiyotshunoslikda hukmron edi. Xususan, ushbu asrning mashhur adabiy asari Shibliy No“moniyning “She‘r ul-ajam” kitobida Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni baytlarining tahlili asosida muallif

LITERARY CRITICISM

bu san'atni qayd etmasdan, tashbih va istiora san'atlariga mansub deb hisoblagan. Shibliy No“moniy mazkur kitobining to‘rtinchı jildi “Taxayyul” qismida Firdavsiy davrigacha shoirlar tashxisni adabiyotda qo‘llamaganliklarini, keyinchalik she’riyatda foydalilanligi haqida shunday deydi: “Xayoliy ma’nolar, xayoliy tashbehtar va istioralarni o‘z ichiga olgan xolis taxayyul Firdavsiy davriga qadar an'anaga aylanmagan, chunki she’ru shoirlikning tadrijiy takomilida bu san’atlar yo‘q edi, lekin keyinchalik mashhur bo‘lib ketgan, ammo shu bilan birga bu mashhur shoirlarning sirf taxayyulidan o‘ziga xos poydevor yaratgani va kelajak shoirlariga yo‘l ochgani juda ajablanarlidir...”[7:268]. O‘rta asrlar adabiyotshunosligida ko‘pchilik muhaqqiqlar tashxis san’atining nazariy va poetik xususiyatlardan to‘liq xabardor bo‘limganliklari, uni istiora va tashbihning bir turi sifatida qayd etishganligi an’ana sifatida Shibliy No“moniy tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. U tashxisning xususiyatlari va nazariy jihatlarini alohida bir san’at sifatida tilga olmaydi. Ammo “Bejan va Manija” dostonining muqaddimmasidan misol tariqasida keltirgan baytlarida tashxis san’atining ko‘plab namunalari mavjud. Chunonchi, she’rda “tunning qiron keltirishi”, “oyning o‘zini bezatib, zerikkanidan berkinishi”, “zulmatli tun lashkarining dashtu o‘tloqlarga hujum etishi”, “sovut qishdan quyoshning qo‘l-oyog‘i sust bo‘lishi”, “yerning hayot tiraligidan uyquga ketmog‘i”, “dunyoning noxush vaz’iyatdan vahshatga kelishi”, “zamonaning yaxshi-yomondan og‘iz ochmagani” kabi badiiy tasvirlar Firdavsiyning tashxisiga asoslangan yangi obrazlaridir:

*Shabe chun shabah ro ‘y shusta ba qir,
Na bahrom paydo, na kayvon, na tir.
Digar guna oroishe kard moh,
Basechi guzar kard bar peshgoh.
Shuda tira andar saroi dirang,
Miyon karda boriku dil karda tang.
Zi tojash se bahra shuda lojvard,
Siparda havoro ba zangor gard.
Sipohi shabi tira bar dashtu rog’,
Yake farsh afkanda chun parri zog’.
Namuda ba har so ‘ ba chashm ahriman,
Chu mori siyah boz karda dahan.
Har on gah ki barzad yake bodi sard,
Chu zangi barangext zi angisht gard.
Chunon gasht bog‘u labi jo ‘ybor,
Kujo mavj xezad zi daryoi qor.
Furo ‘ mond garduni gardon ba joy,
Shuda sust xurshedro dastu poy.
Zamin zeri on chodari qirgun,
Tu gufti, shudasti ba xob andarun.
Jahonro dil az xeshtan purharos,
Jaras bargirifta nigahboni pos
Na ovoi murg‘u na hurroi dad
Zamona zabon basta az neku bad [5:289-290].*

Mazmuni: Kecha qiron keltirib ul tun, na Bahrom bor ediyu, na Zuhal va na Tir. Oy boshqacha o‘zini bezatib yuqoriga o‘tish tadorigin ko‘rdi. Tira bo‘lib, tavaqquf ayladi. Ingichka beli yurakni tang qilardi. Uning toji sho ‘lasidan bo‘ldi osmon lojuvard. Qorong‘u tunning lashkarlari dashtu sahroga, Zog‘ning par tashlashi kabi yoyildi. Havo zangori gard zarralari bilan qurshaldi. Falak zanglagan po‘lod misol, Sen aytding chehrasi nokom ayladi. Har qayonga nazar tashlasam ko‘zlarimga ko‘rindi Ahriman, Qora ilon kabi og‘zini ochardi. Har vaqt kim esa sovuq shamol, Go‘yo xabashdek qora zarrachalar yoyildi. Ariq va bog‘u roq‘larda bo‘ldi shu hol takror, Ko‘mirday zarralardan daryolar to‘ldi. Vaznin olam joyida turib qolib, Oftobning dastu poyi sovuqdan sustlashdi. Ona yer go‘yoki ul qora chodir ostida, Aytursan ki ketibti qattiq uyquga. Jahon taqdirdan qo‘rquvga tushdi va go‘yoki zangulani bo‘yniga ildi. Na qush va na dahshatli ovoz eshtilmash, Zamona yaxshilik va yomonlikdan zabonin boylagay.

Tahlil va natijalar. Olimning ta‘kidlashicha, tashxis san’ati Firdavsiy ijodigacha adabiyotda keng tarqalmagan bo‘lib, faqatgina “To‘s piri” ijodi orqali shoirlar she’rlarida rivojlangan. Shibliy No“moniy ta‘biri bilan aytganda, Firdavsiyning bu xildagi tasvir uslubi keyingi shoirlar ijodi uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tgani. Muallif qaysi manba asosida bunday xulosaga kelgani bizga noma‘lum. Chunki bunday badiiy tasvir uslubi nafaqat Firdavsiy davrida, balki shoir ijodidan ancha oldin ham ko‘zga tashlanishi, ayniqsa, O‘rta Osiyo xalqlarining asotiri va qadimiy manbalari jamlanmasi bo‘lgan “Avesto” kitobida,

LITERARY CRITICISM

shuningdek, Rudakiyning zamondosh shoirlari ijodida ham tashxis orqali yaratilgan ko‘plab obrazlar mavjudligi Shibliy No‘moniyning fikrini rad etayotgandek tuyuladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tashxis san’atining istiora va tashbih san’atlari doirasida tushunilishi jahon xalqlari adabiyotshunosligida umumiy xususiyat kasb etgan. Adabiyot nazariyasiga doir ko‘pgina ilmiy risola va tadqiqotlarda tashxis va jonlantirish san’atining nazariy xususiyatlari, shakli, ifodalanishi va mazmuni, boshqa badiiy san’atlar bilan o‘zaro bog‘liqligi borasida bir-biridan farq qiladigan turli ilmiy qarashlar va mulohazalar mavjud. Tashxis san’atini mustaqil san’at sifatida qayd etish va nazariy xususiyatlariga doir bir-biridan farqli qarashlarni o‘rtas asrlar she’rshunosligi va zamonaviy tadqiqot ishlarida kuzatishimiz mumkin. O‘rtas asrlar adabiyotshunoslarining aksariyati o‘z asarlarida tashxis san’atini tashbih, istiora yoki majoz san’atining maxsus bir turi sifatida qayd qilib, uning nazariy xususiyatlari, mazmuni va she’riyatda ifodalanish imkoniyatlarini inobatga olmaganlar. Mazkur tendensiya an’ana sifatida asrlar davomida G‘arb va Sharq olimlari tomonidan davom ettirilgan. O‘rtas asrlar adabiyotshunosligidan farqli ravishda zamonaviy adabiyotshunoslik tashxis san’atining nazariy xususiyatlarini ochib berib, uni alohida badiiy san’at turi sifatida e’tirof etgan.

Shunday qilib, tojik adabiyotshunosligida tashxisni alohida san’at sifatida tilga olmaslik tendensiyasi XX asrgacha hukmron bo‘lib, Muhammadrizo Shafeiy Kadkaniy va To‘raqul Zehniy sa’y-harakatlari bilan tashxis nomi ostida mustaqil san’at sifatida qayd etilgan.

Jonlantirish va tashxis san’ati nazariy xususiyatlari, hajmi va mazmuniga ko‘ra istiora va tashbih san’atlaridan butunlay farqlanadi va ko‘p hollarda she’riyatda alohida badiiy san’at sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqola tashxis san’atining mustaqil va yagona badiiy san’at ekanligini va qadimdan hozirgi kungacha adabiyotda muhim o‘rin tutishini asoslaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Арнаудов М. *Психология литературного творчества*. – Москва: Прогресс, 1985 г.
2. Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадоев ус-саноев.-Душанбе: “Ирфон”, 1974.
3. Зеҳнӣ Т. Санъати сухан. – Душанбе: Ирфон, 1967, 102 бем.
4. Камоли Ҳӯҷандӣ. Куллиёт. Ч 2. –Душанбе: Ирфон, 1985.- 461 с.
5. Фирдавсӣ Абулқосим. Шоҳнома. Ҷилди IV. - Душанбе: Адиб, 1988.-408с.
6. Шамси Қайси Розӣ. Ал мӯъҷам: Муаллифи сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандай чоп Урбатулло Тоиров. –Душанбе: Адиб, 1991. – 464 с.
7. Шиблӣ Нӯмонӣ. Ҷилди савум, чаҳорум ва панҷум. –Душанбе ДДОТ, 2016. – 575 с.
8. Каюмов N. Fors-tojik adabiyotida tashxis san’atining tarixiy shakllanish tamoyillari va uning nazariy xususiyatlari. Samarqand davlat chet tillari instituti nashriyoti, 2024-yil.

Y.V.GYOTENING "G'ARB-U SHARQ" DEVONI TARJIMASI S.S.BUXORIY TALQINIDA

*Maxmudova Muattar Maxsatilloevna,
Buxoro davlat universiteti
Nemis filologiyasi kafedrasи dotsenti, PhD*

Annotatsiya. Ma'lumki, jahon adabiyoti durdonalariga o'zining salmoqli ulushini qo'shgan mashhur nemis adibi Y.V.Gyotening asarlari dunyoning tillariga tarjima qilingan. Mashhur o'zbek adiblari M.Shayxzoda va S.S.Buxoriyning Gyote ijodidan tarjimalari o'zining falsafiy pur ma'noligi bilan o'zbek adabiyotida beqiyos o'rinn egallagan. Mazkur maqolada Y.V.Gyotening "G'arb-u Sharq" devonining S.S.Buxoriy tarjimalaridagi o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: devon, tarjimon, Sharq, hijrat, she'riy tarjima, Hofiz, ilmiy-tadqiqot, adabiy aloqa, ijodkor, falsafa.

ПЕРЕВОД ПРОИЗВЕДЕНИЯ И.В. ГЁТЕ «ЗАПАД-ВОСТОК» В ИНТЕРПРЕТАЦИИ С.С. БУХАРИ

Аннотация. Известно, что произведения знаменитого немецкого писателя И.В. Гёте, внесшего значительный вклад в сокровищницу мировой литературы, переведены на различные языки мира. Переводы произведений Гёте, выполненные известными узбекскими писателями М. Шайхзаде и С.С. Бухари, занимают несравненное место в узбекской литературе благодаря своей философской глубине и содержательности. В данной статье рассматриваются особенности переводов С.С. Бухари произведения И.В. Гёте "Западно-восточный диван".

Ключевые слова: диван, переводчик, Восток, хиджра, поэтический перевод, Хафиз, научное исследование, литературная связь, творец, философия.

TRANSLATION OF J.W. GOETHE'S WORK "WEST-ÖSTLICHER DIWAN" IN THE INTERPRETATION OF S.S. BUKHARI

Abstract. It is well-known that the works of the famous German writer J.W. Goethe, who made a significant contribution to the treasury of world literature, have been translated into various languages worldwide. The translations of Goethe's works by renowned Uzbek writers M. Shaykhzoda and S.S. Bukhari hold an unparalleled place in Uzbek literature due to their philosophical depth and richness of content. This article examines the distinctive features of S.S. Bukhari's translations of J.W. Goethe's «West-Eastern Divan».

Keywords: divan, translator, East, Hijra, poetic translation, Hafiz, scholarly research, literary connection, creator, philosophy.

Kirish. Y.V. Gyotening asarlari bashariyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qila olishi jihatidan jahon adabiyotining durdonalari qatoridan o'rinn oldi. Hozirgacha ular jahonning ko'plab tillariga qayta-qayta tarjima qilingan. Jumladan, Gyote asarlarini tarjima qilish jarayoni o'zbek adabiyotida ham katta qiziqish bilan kechdi. Chunki Gyote ijodiga e'tibor o'zbek kitobxonlari orasida ham kuchli. Albatta, bunda tarjimonlarning alohida xizmati borligini qayd etmoq joiz.

Gyote ijodidan o'zbek tiliga dastlabki tarjimalar XX asrning yigirmanchi yillardan boshlangan. Uning she'rlaridan namunalar Cho'lpom, Oybek tomonidan tarjima qilingan. Keyinchalik Gyote she'rlarini Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Muhammad Ali, Nasriddin Muhammadiyevlar ham o'zbek tiliga o'girishgan.

Adabiyotlar sharhi. Sho'r Maqsud Shayxzoda – "G'arb-u Sharq devoni"ning ilk tarjmoni. U bu asarni she'riy ko'rinishda rus tilidan o'zbek tiliga o'girgan. Asar "Hijrat – ko'chish" she'ri bilan boshlanadi.

Ma'lumki, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning dushmanlardan qochib, Makkadan Madinaga ko'chishi "hijrat" deb nomlangan. Lekin bunda Gyote o'z yurtida barcha umidlari sarobga aylangach, "hijrat etish" iborasini ramziy ma'noda qo'llab, o'zining xayolan G'arb-u janub va shimoldan Sharqqa, sharqona she'riyat olamiga "ko'chishi"ni ifoda etgan. Shu "ko'chish" va "qochish" orqali yangi hayot boshlaganini va bunga boshqalarning ham ergashishini ta'kidlagan.

Buzildi g'arb, janub va shimal,
Taxtu tojlar bo'ldi poymol!

LITERARY CRITICISM

Sen yiroqqa, kun chiqarga boq!
Unda qo'shiq, sevgi bor, may bor...,
U tabarruk havoni shimir
Va boshlagil yangidan umr.

A.Saidov fikricha, shoir yashagan davrda, G'arbda ijtimoiy-davlat tuzumi tanazzulga yuz tutayotgan bir sharoitda, o'zi nafas olayotgan muhitda ma'naviy tirkak bo'lguli biron narsa topolmagan Gyote xayolan Sharqqa "hijrat" qiladi. Sharq she'riyatidan ilhom oladi va "G'arb-u Sharq devoni"ni yozish bilan mashg'ul bo'ladi.

Nemis xalqining buyuk adibi I.V.Gyotening Sharqqa, Sharq xalqiga, uning she'riyatiga, shuningdek, islom diniga bo'lgan ixlosu ehtiromi namunasi sifatida yaratilgan "G'arb-u Sharq devoni" yoki "Mag'rib-u Mashriq devoni" Sadriddin Salim Buxoriy tomonidan ham nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilingan. Shoir va tarjimon sifatida tanilgan Sadriddin Salim Buxoriy chorak asr davomida ushbu asarning ayrim boblarini bevosita asliyatdan tarjima qilib, ularni turli gazeta-jurnallarda e'lon qilib bordi. Jumladan, shoir bu boradagi tarjimalarini "Mag'rib-u Mashriq" devonidan, "Mag'rib-u Mashriq" devonidan parcha, "Mag'riblik Hotami Zulayho", "Hofiz Sherioziya payrov", "Behishtnomma", "Muhammad Alayhissalom", "Tasavvuf va Gyote", "G'arbning Sharqqa hijrati" nomlari bilan peshma-pesh nashr qilib bordi. Yana shoir tarjimalari ayrim she'riy to'plamlari tarkibida, "Jahon adabiyoti" jurnalida ham berib borildi.

Shoir o'z "Yodhoma"sida tarjima jarayoni haqida shunday yozadi: "Gyotening «G'arb-u Sharq devoni» tarjimasi og'ir kechdi. Gyote Qur'onidan, hadisdan, Xoja Hofiz, amir Navoiylardan ta'sirlanib bu asarini yozgan. Shunday bir holat menda paydo bo'ldiki, shuni tarjima qilmasam, o'zimni kechirolmayman. Lekin bir yerda ishlab turib uni tarjima qilib bo'lmadi-da. Keyin ishdan bo'shadim. Ikki yil davomida uyda o'tirib qattiq ishладим. Uyda o'tiribman, ishламайман, oylik olmayman. Ro'zg'or kattagina, Xudoga shukur. Hamma narsa ayolimning gardanida. Ikki yil badalida, biror marta bo'lsin, ayolim ortiqcha gap qilmadi, nolimadi, chidadi, sabr qildi. Mana, alhamdulilloh, nek kunlar bo'ldi. Tarjimalarim chop etildi".

S.Salim Buxoriy "Mag'rib-u mashriq devoni" tarjimasi ustida ko'proq 1985-1990-yillarda qattiq ishlagan. Nihoyat, 1999-yilda "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Buxoroga Buxoro keldi" nomli lirik, falsafiy, so'fiyona, ayniqsa, Buxoroyi sharif, mustaqil yurtni madh etuvchi she'rлari o'rin olgan she'riy to'plamiga buyuk nemis allomasi I.V.Gyotening "G'arb-u Sharq devoni"dan tarjima qilgan ayrim boblarini ham kiritib, kitobxonlarga tuhfa qildi.

S.Salim Buxoriyning bu tarjima asari 2011-yilda "Yangi asr avlodni" nashriyoti sakkiz bosma taboqda chop etgan "Yohann Wolfgang Gyote. Zakovat durdonalari" kitobidan ham o'rin olgan. Asar alohida kitob holida taniqli olim A.Saidovning kirish so'zi bilan 2010-yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida chop qilindi. Asar mundarijasini A.Saidovning "Gyote. "G'arb-u Sharq devoni": Sharqshunoslikka kirish" nomli so'zboshi maqolasi, undan so'ng S.S.Buxoriyning Gyote qalamiga mansub "G'arb-u Sharq devoni"dan she'riy tarjimalari hamda buyuk adibning "Muhammad salollohu alayhi vasallam" maqolasining tarjimasi, "G'arbning Sharqqa hijrati" bo'limida esa mutarjimning "G'azalhnavis nemis shoirlari", "Gyote va Hofiz", "Gyote va tasavvuf" singari maqolalari tashkil etadi. Ko'rindaniki, mazkur kitob ikki qismidan iborat. Shoir-tarjimon uni tartib berishda, A.Saidov ta'kidlaganidek, Gyote nuqtayi nazaridan yondashgan. Ya'ni kitobning boshlang'ich qismida "G'arb-u Sharq devoni"ning she'rлari tarjimalari, ikkinchi qismida esa tarjimonning shu asar yuzasidan badiiy-falsafiy va ilmiy sharhlari keltirilgan.

S.S.Buxoriy mazkur kitobning sharhlar qismini mantiqan ikkiga ajratib, uning dastlabki qismida Gyote ijodidan tarjimalarini bergen. So'ngra esa Gyotening Sharqqa, tasavvuf ta'limotiga, Hofiz ijodiga munosabati, keyinchalik unga ergashib g'azallar yozgan nemis shoirlari haqidagi ilmiy maqolalarini keltirgan. Lekin, afsuski, Sadriddin Salim Buxoriy o'z tarjimasida chop etilgan bu kitob nashrini ko'ra olmay, o'sha yili (2010-yil 11-martda) olamdan erta ketdi.

S.S.Buxoriy tarjimalari nafaqat kitobxonlar, balki adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Ular haqida G'aybullha Salomov, Najmiddin Komilov, Yanglish Egamova, Salim Jabborov, Kamola Bobojonova kabi mashhur adabiyotshunos va tarjimashunos olimlar iliq munosabat bildirib, o'zlarining ilmiy asar va maqolalarida tarjimon mahoratini yuqori baholadilar.

Muhokama va natijalar. Sadriddin Salim Buxoriyning Gyote qalamiga mansub "G'arb-u Sharq devoni"ni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishiga shoirning nafaqat nemis tilini yaxshi bilishi, u bo'yicha mutaxassis ekanligi, balki buyuk olmon shoirining qalban Sharqqa hijrat qilib, xayolan Sharq gavhari darajasiga ko'tarilgan Buxoro, Samarqand, Balx kabi qadimiy va mashhur shaharlarning ko'chalarini kezishi, ulardagи ma'naviy olamga havas qilishi, intilishi va ruhan oziqlanishi, xususan, Buxoroni o'zgacha shukh bilan tarannum etgani ham sabab bo'lgandir, ehtimol. Chunki Sadriddin Salim Buxoriy ham umri

LITERARY CRITICISM

davomida Buxoroni sevib, ardoqlab, uning ma'naviy olamidan kuch va zavq olib yashadi. Qolaversa, bundan quyidagi misralar ham darak berib turganday go'yo:

Buxoro-yu, Samarqand – qulluq!
Biyiklarni biyik sezadi.
"Devon"ini javohir bilan
Piri dono Gyote bezadi.

Bizningcha, yana Sadriddin Salim Buxoriy tabiatiga xos so'fiyona ruh, shoiru olim sifatida qalbini, ongu shuurini, o'y-kechinmalarini zabt etgan tasavvufona qarashlar, Hofizu Navoiy singari so'z darg'alariga chin muhabbat bilan ergashish tuyg'usi uni Gyote bilan ruhan va ma'nан yaqinlashtirdi. U Gyote devonining o'zbekcha (Maqsud Shayxzoda nusxasi) va ruscha tarjimalarini mutolaa qilib, shoirga ehtirom va muhabbatini "G'arb-u Sharq devoni"ni tarjima qilish orqali ifoda etishga muyassar bo'ladi.

Maqsud Shayxzoda tarjimasini bilan Sadriddin Salim tarjimasini o'rtasida ba'zi mushtarakliklar borligi barobarida anchagina farqliklar ham mavjud. Ularga xos **mushtarakliklar**, asosan, quyidagilarda ko'rindi:

birinchidan, har ikkala tarjimon katta tajriba, bilim va ko'nikmaga ega shoir sifatida devonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini shoirona yuzaga chiqara olishgan;

ikkinchidan, har ikkala tarjimon ham o'z tarjimasida asar nomini "G'arb-u Sharq devoni" deb emas, "Mag'rib-u Mashriq devoni" deb atashgan.

Ikkala tarjimaga xos **farqliklar** esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, Maqsud Shayxzoda o'z tarjimasini rus tili vositasida amalga oshirgan bo'lsa, Sadriddin Salim Buxoriy devonni bevosita nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Natijada devon asliyatdan to'ppadan-to'g'ri tarjima qilingani uchun asarning bu tarjima varianti boshqalaridan aniqligi, mazmunan mukammalligi, badiiyatining kuchliligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, Maqsud Shayxzoda devonni shoir sifatida tarjima qilgan bo'lsa, Sadriddin Salim Buxoriy bu ishni nafaqat shoir, balki tarixchi va tasavvufshunos olim, yetuk tarjimon-mutaxassis sifatida amalga oshirdi. Shuning uchun Maqsud Shayxzoda tarjimasini badiiy tarjima bo'lsa, Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasini ilmiy-ijodiy tarjima deyish mumkin.

Uchinchidan, Sadriddin Salim Buxoriy nemis tilini yaxshi bilganligi uchun nemis adabiyoti tarixiga oid manbalarni asliyatdan o'qib tushunish imkoniyatiga ega edi. Shu boisdan u "G'arb-u Sharq devoni" tarjimasiga qo'l urishdan oldin mazkur asarga hamda uning muallifi Gyote hayoti va ijodiga oid nemis tilidagi ilmiy-adabiy va tarixiy ma'lumotlar bilan chuqur tanisha oldi. Shu tariqa Sadriddin Salim Buxoriy gyoteshunos olim sifatida ham shakllanib, Gyote va uning falsafasini, ijodiga xos sharqona hamda tasavvufona rujni to'g'ri anglab, to'g'ri sharhlay oldi. Bu haqdagi ilmiy qarashlarini maqolalar ko'rinishida matbuotda e'lon qilib bordi. Shuning uchun Sadriddin Salim Buxoriyning "Mag'rib-u Mashriq devoni" tarjimasini oddiy tarjima emas, shoirona va olimona ilmiy-ijodiy tarjimadir.

To'rtinchidan, Sadriddin Salim Buxoriy ko'proq so'fiyona ruh va ohangga ega she'rlar tarjimasiga e'tibor qaratgan bo'lsa, Maqsud Shayxzoda esa, aksincha, o'z davri hukmon mafkurasining bunday asarlarga keskin qarshiligidan kelib chiqib, umuminsoniy qarashlar talqinidagi she'rlarni tanlab tarjima qilgan. Shuning uchun Maqsud Shayxzodaning "Mag'rib-u Mashriq devoni" tarjimasini birmuncha qisqa bo'lib qolgan.

Beshinchidan, Maqsud Shayxzodaning "G'arb-u Sharq devoni" tarjimasini asarni to'lig'icha qamrab olgan emas. U asardan parcha ko'rinishida tarjima qilingan bo'lsa, Sadriddin Salim Buxoriy devonning tarjima matnini va unga oid ilmiy tadqiqotlarini yagona kitob holida e'lon qilishga imkon va jur'at topdi. Lekin shu o'rinda Sadriddin Salim Buxoriy ham Gyote "Devon"ida asliyatida mavjud bo'lgan she'rlarning barchasini o'z tarjima kitobiga to'liq kiritmaganligini ta'kidlash lozim. Tarjimonning o'zi bu haqda: "Ayrim tarjimalarim o'zimga ma'qul bo'lmagani uchun, ularni kitobga kiritmadim", – degan kamtarona izohni berib o'tgan.

Oltinchidan, Sadriddin Salim Buxoriy "G'arb-u Sharq devoni" tarjimasiday murakkab va katta ishga katta tayyorgarlik bilan jiddiy yondashganini uning "Devon" tarjimasiga qo'l urishdan oldin Gyote ijodi va devoniga oid manbalar bilan nafaqat yaqindan tanishish, balki shoir uy-muzeyini ziyorat qilib, uni ruhan anglash maqsadida maxsus Germaniyaga borib kelishi ham tasdiqlaydi. Shu tariqa Sharq va G'arb adabiy aloqalari tarixini puxta o'rgangan shoir-olim-tarjimon Germaniya safaridan qaytgach, avval Gyotening ijodidan ayrim namunalarni, jumladan, uning "O'rmon shohi", "Sayyohnning tungi qo'shig'i", "Qo'shiqchi" kabi qator she'r va balladalarini nemischadan o'zbekchaga o'girib, o'zining qalami ohangini "G'arb-u Sharq devoni" usuliga sozlaydi. Mana shu tarzda "Devon" tarjimasining o'ta murakkabligi va bu ishning katta mas'uliyatini his qilgandan so'ng shoir-tarjimon hech qayerda ishlamasdan ikki yil o'z ijodxonasiga yashirinib, uning tarjimasini bilan shug'ullangan.

LITERARY CRITICISM

Yettinchidan, Hofiz ijodini Gyoteden kam sevmagan Sadriddin Salim Buxoriy uchun yoshligidan fors-tojik tili ona tili – o‘zbek zaboni kabi so‘zlashuv tili bo‘lib kelgani sababli u boshqa forsiyzabon shoirlar qatorida Hofiz ijodini asliyatdan o‘qib-tushunib, anglab olish salohiyatiga egaligidan Gyotening “G‘arb-u Sharq devoni”dagi Hofizga ergashib yozilgan misralarni qiyalmay, keragicha maromiga yetkazib o‘zbekchalashtirishda aziyat chekmadi.

Xulosa. Xullas, Gyote ijodida o‘zining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan alohida mavqega ega bo‘lgan “G‘arb-u Sharq devoni”ni taniqli shoir Maqsud Shayxzoda bilvosita, buxorolik ijodkor, tarjimon Sadriddin Salim Buxoriy esa bevosita nemis tilidan o‘zbekchaga tarjima qilishgan.

Yuqorida omillardan ko‘rinadiki, Sadriddin Salim Buxoriyning tarjimalari tilini va mavzu yo‘nalishini ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Nemis ijodkorlarining, xusan, I.V.Gyote she’rlari hamda “G‘arb-u Sharq” (“Mag‘rib-u Mashriq”) devoni tarjimasи.

2. Tasavvuf olimlarining fors-tojik tilida bitilgan asarlari tarjimasi.

Xullas, sharqona hayot tarzi bilan yashagan, Sharq adabiyotini chuqr bilgan, targ‘ib etgan va imkon qadar boyitgan ziyoli Sadriddin Salim Buxoriy G‘arb adabiyotini ham chuqr o‘rgangandi va targ‘ib eta oldi.

ADABIYOTLAR:

1. Maxmudova M.M. Y.V. Gyote “G‘arb-u Sharq devoni”ning Maqsud Shayxzoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar. // Ilm sarchashmalari. 2021 yil. 1-son. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1612

2. Makhmudova M.M. Sadriddin Salim Bukhariy’s rolle in the Development of the Literary Environment of Bukhari in the late XX and early XXI Centuries. // Scholastico. - 2021. Angliya. 2021-yil. 92-92 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1610

3. Makhmudova M.M. Preservation of Originality in the Translation of Goethe’s Works. // International journal of Psichosocial Rehabilitation. 2020.01. 152-159 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1608

4. Maxmudova M.M. Y.V. Gyote “G‘arbu-Sharq devonining Maqsud Shayxzoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar. // Ilm sarchashmalari. 2021-yil. 1-son.

5. Maxmudova M.M. Sadriddin Salim Bukhariy’s rolle in the Development of the Literary Environment of Bukhara in the late XX and early XXI centuries. 2021. Angliya.

OMON MUXTOR HIKOYALARIDA DAVR TASVIRI IFODASI

*Ahatova Durdona Davron qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida mustahkam o'rinni egallagan, yozuvchi, shoir, dramaturg Omon Muxtorning hikoyalari tavsif etilgan. Buxorolik ijodkorning she'riy va nasriy asarlari ichida alohida ahamiyat kasb etuvchi kichik epik tur hisoblangan hikoyalari nafaqat o'zbek, balki jahon kitobxonlari tomonidan sevib o'qiladi. Mazkur hikoyalardagi badiiy makon va zamon (xronotop) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xronotop barcha janrdagi asarlarining ajralmas va zaruriy jihatni hisoblanadi. O'zi yashagan davr va joy barcha ijodkorlar asarlarida bevosita ta'sir o'tkazadi. Maqolada mazkur masalalarning yozuvchi Omon Muxtor hikoyalardagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: xronotop, xarakter, makon, zamon, janrlar, statik, dinamik.

ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЭПОХИ В РАССКАЗАХ ОМОНА МУХТАРА

Аннотация. В данной статье рассматриваются рассказы Омона Мухтара - писателя, поэта и драматурга, занявшего прочное место в узбекской литературе. Рассказы бухарского писателя, относящиеся к малому эпическому жанру и имеющие особое значение среди его поэтических и прозаических произведений, пользуются любовью не только узбекских, но и мировых читателей. Концепция художественного пространства и времени (хронотопа) в этих рассказах играет важную роль. Ведь хронотоп является неотъемлемым и необходимым аспектом произведений всех жанров. Эпоха и место, в которых жил автор, непосредственно влияют на творчество всех писателей. В статье обсуждается роль этих аспектов в рассказах писателя Омона Мухтара.

Ключевые слова: хронотоп, характер, пространство, время, жанры, статический, динамический.

EXPRESSION OF THE PERIOD IN THE STORIES OF OMON MUKHTAR

Abstract. This article examines the stories of Omon Mukhtor, a writer, poet, and playwright who has secured a prominent place in Uzbek literature. Among the poetic and prose works of this Bukharan author, his short stories, which are considered a small epic genre, hold special significance and are beloved by readers not only in Uzbekistan but also worldwide. The concept of artistic space and time (chronotope) in these stories is of great importance. Indeed, the chronotope is an integral and essential aspect of works across all genres. The time and place in which an author lived directly influence the works of all creators. This article discusses the role of these elements in Omon Mukhtor's short stories.

Keywords: chronotope, character, space, time, genres, static, dynamic.

Kirish. Asli Buxoro shahrida tug'ilib, o'sgan va asarlarining asosiy voqeligini Buxoro hududida tasvirlagan Omon Muxtor o'z tuprog'ini chindan qadrlovchi asl ijodkordir. Omon Muxtor she'riyatda ijod qilish bilan bir qatorda epik turning deyarli barcha janrlarida sermahsul ijod etgan.

Yozuvchining hikoyalari oddiy insonlarning oddiy hayotini tasvirlash orqali insonning haqiqiy ichki dunyosini ro'yirost ochib berishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, hikoyalardagi makon va zamon tushunchasi alohida ahamiyatiga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Adabiyotshunoslikda kichik epik janrlarga, jumladan, hikoya janriga xos xususiyatlari, badiiy tuzilishi, unda aks etadigan muammolar, obrazlar tizimi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan, darslik, qomusiy lug'atlarda uning mohiyati va hajmiy imkoniyatlari o'rganilgan. O'zbek olimlari – M. Qo'shjonov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, B.Karimov, U.Jo'raqulov, D.Quronov, G.Imomovalarning ishlarida ushbu oid ba'zi muammolar tadqiq etilgan.

Adabiyotdagagi xronotop hodisasi bo'yicha, xususan, jahon adabiyotida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus adabiyotchisi Baxtin bu borada sermahsul izlanishlar olib borgan. O'zbek adabiyotida ham xronotop hodisasini o'rganish bo'yicha bir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, mazkur maqolada Omon Muxtorning bir necha to'plamlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-qiyosiy, biografik, germenevtik, lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

LITERARY CRITICISM

Tahlil va natijalar. O‘z o‘rnida, badiiy makon va vaqt har qanday badiiy asarning, chunonchi, musiqa, adabiyot, teatrning ajralmas mulki hisoblanadi. Syujet ahamiyatiga ega bo‘lgan adabiy xronotoplar, avvalo, muallif tomonidan tasvirlangan asosiy voqealarning tashkiliy markazlari hisoblanadi. Janr va janr navlarini belgilashning asosiy xususiyatlardan biri xronotopdir. Adabiyotdagi barcha vaqt-fazoviy ta’riflar bir-biridan ajralmas va hissiy jihatdan turlichadir.

Badiiy vaqt - bu adabiy asarda tasvirlangan zamondir. Badiiy vaqtini quyidagicha tavsiflash mumkin: statik yoki dinamik; haqiqiy yoki haqiqiy emas; vaqt harakatining tezligi; istiqbolli - retrospektiv - tsiklik; o‘tmish - hozirgi - kelajak (qahramonlar va harakatlar qaysi vaqtida jamlangan). Zamon adabiyotda yetakchi tamoyil hisoblanadi.

Shuningdek, badiiy makon ham asarning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Uning matndagi o‘rni voqealar bo‘lib o‘tadigan joyni, syujet chiziqlari bog‘langan makonni aniqlash bilangina cheklanmaydi. Badiiy makon, vaqt kabi xarakterlarni axloqiy baholash uchun maxsus til sifatida xizmat qiladi. Belgilarning xatti-harakatlari ular joylashgan makon bilan bog‘liq.

Har qaysi ijodkor zamon va makonni o‘ziga xos tarzda anglaydi, ularga muallifning dunyoqarashini aks ettiruvchi o‘ziga xos xususiyatlarini beradi. Shuning natijada, yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy makon boshqa biron bir badiiy makon va zamonga o‘xshamaydi.

Ijodkor yashagan joy hamda davr, shu xronotopning, ma’rifiy-madaniy, axloqiy-tarbiyaviy, badiiy-estetik ijtimoiy-siyosiy talab va ehtiyojlari. Ijodkorlar odatda o‘zi mansub bo‘lgan joy va davr bilan bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Uning tafakkur darajasini aks ettiradi. Har qanday asarda ham muallifning ilg‘or dunyoqarashi o‘z davri, yashagan hududi, muhitidagi qarash, g‘oya va falsafiy-axloqiy ta’limotlardan oziqlangan holda yuzaga keladi.

Omon Muxtorning bir qator hikoyalari muallifning o‘zi bevosita ishtirok etgan, his qilgan, boshidan kechirgan davr nuqtayi nazaridan yozilganki, ba’zi muammolar bor bo‘y-basti bilan maydonga chiqqan. Umrining asosiy qismini sobiq sovet davrida o‘tkazgan, zamonning qiyinchiliklarini birma-bir boshidan kechirgan yozuvchi mazkur voqealardan chizgilarni hikoyalarda aks ettiradi. Chunonchi, bolaligi ikkinchi jahon urushidan qaytgan va qaytmagan jangchilar oilalari atrofida o‘tgan. Urushning dahshatli nafasi va oqibatlari izlar qoldirgan odamlar orasida ulg‘aygan ijodkorning, tabiiyki, ijodi ma’lum darajada urush voqeligiga, uning natijalariga yo‘naladi.

Jumladan, yozuvchining “O‘lImagen jon” hikoyasida tasvirlangan dorbonlik Eshmurod ota taqdirdagi chizgilarda zamon nafasini yaqqol his etish mumkin. Uylanganidan keyin jangga borib kelishi, qarigan chog‘ida o‘g‘li Bahrom, kelini Viloyat kunlarini dalada o‘tkazishi otaning tengqurlari ichida barchasining hayotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holat hisoblanadi. Ammo hikoyada keltirilgan bir-biriga juda bog‘liq bo‘sa-da ikki qishloq o‘rtasida ko‘prik yo‘qligi, odamlar quvurdan o‘tishlari, aholi o‘zları ko‘prik qurish tashabbusi bilan chiqishsa-da, negadir ruxsat berilmasligi yozuvchining bolaligi va yoshligi o‘tgan davr manzaralariga ishoradir. Shu bilan birga Eshmurod ota borgan shahar bekti atrofida bosphanasiz, bozor va bekat orasida amal-taqlal kun kechiradigan insonlarning ko‘plab topilishi urushdan keyingi hayot qiyinchiliklarining bevosita aksi hisoblanadi.

Hikoyaga epigraf sifatida qo‘yilgan Fuzuliyning quyidagi misralari, go‘yoki shaharda Eshmurod otaning yoniga kelib, uning bu yerda nima qilib yurganini so‘roqlagan militsiya xodimiga qarata aytildi:

Ey so‘ran holim bu istig‘no,

Savolindan ne sud??!

Holim aylarsan savol,

Ammo eshitmazsan javob...

Yozuvchining yana bir hikoyasi borki, har bir ona, har bir ota, umuman, har bir insonni yig‘lata oladi. Mazkur hikoya qahraton faslida, qahraton zamonda, ba’zi qahraton ko‘ngilli boyalar tanqid ostiga olingan “Qahraton” hikoyasidir.

“Ming to‘qqiz yuz o‘n yettinchi yilning qahratoni dunyoga qahatchilik bilan birga kirib keldi.” jumlesi bilan boshlanadi hikoya. Dunyoda birinchi jahon urushining shiddathi va ayanchli janglari kechayotgan vaqtida Buxoro manzarasi, aholining hayoti aks ettirilgan. Ayniqsa, hikoyadagi “non tilashni or bilmagan gadolar”, “juldur choponli machoyilar” Buxoro ko‘chalaridagi hayotni namoyish etgan. Omon Muxtor qahramonlarga nom qo‘yishga ham katta ahamiyat qaratadi. Jumladan, ushbu hikoyadagi ko‘ngli hech qachon shod bo‘lImagen, ikki yosharlik go‘dakligida qahratonga qurban bo‘lgan Dilshod, uning onasi hayoti davomida oydinlik ko‘rmagan Munavvarbibi timsolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bolaning otasi Majid hammolni arava bosib o‘ldirganidan keyin, ona-bola yolg‘iz, nonsiz, najotsiz qolishadi. “Sovuq qahraton shamoli achchiq tili bilan yuragini beshafqat yalab o‘tgan” qozi oyim o‘zining xizmatida bo‘lgan Munavvarbibiga haqini bermaydi.

LITERARY CRITICISM

Hikoyaning kulminatsiya qismida esa, “Unga biror ko‘z qaramadi, unga biror so‘z aytilmadi... Qorong‘ilik, uvullayotgan shamol tovushi, hech zog‘ yo‘qligi Dilshodning go‘dak yuragiga vahm va qo‘rquv soldi... Bu balodan qanday qutulishini bilmay, qichqira boshladi... qo‘rqib ketdi... Titrab-qaqshab, qo‘lchalari bilan savatga yopishib turmoqchi edi, allaqachon muzlab qolgan qo‘lchalari ortiq qimirlamadi...” tasviri keltiriladi.

Omon Muxtorning “Uy parrandas” deb atalgan hikoyasida kundalik turmushimizda uchrab turishi mumkin bo‘lgan oddiy hodisa tasvirlangan bo‘lsa-da, uning natijasi quyuq bo‘yoqlarda berilgan. Chunonchi, hikoya Karomat ismli qiz haqida. Hikoya avvalida 3-sinf bo‘lgan Karomat oilasi bilan shaharga ko‘chib keladi. Qishloqda a’lochi bo‘lgan qiz shahardagi maktabda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Buning bir tomonlama sababi o‘qituvchisiga ham bog‘liq: urushdan keyingi qiyinchilik, qahatchilik, taqchillik davrlarida “Azroil” deb laqab olgan o‘qituvchi Karomatni ustma-ust qiyashni, butun sinf oldida masxara qilishi natijasida qiz maktabga borishdan bosh tortadi. Butun bolaligi uydai uy ishlarini bajarib “xarob va achinarli” o‘tadi. Turmushga chiqib ketgan opasini ko‘rishga kelgan hikoyachi ko‘chaga chiqib “bo‘ynini qisib turgan ona musicha”ni ko‘rib, “bu dunyoda izdan chiqqan narsalar ko‘pligini, ularni yengilgina izga solib bo‘lmasligini” o‘yaydi.

Muallif ushbu hikoyasiga “eski voqealar” deya izoh berishi ham bejizga emas, ehtimolki, ayni ikkinchi jahon urushi tugagan, barcha qiyinchiliklar avjiga chiqqan paytda bolalik chog‘larini kechirgan yozuvchi mazkur hikoyasidagi “uy parrandalari”ga duch kelgan, ular bilan suhbatlashgan, ularning hissiyotlarini ijodkor sifatida his qilgan.

Aynan urush tasviri keltirilmagan bo‘lsa-da, urushda ishtirot etib, uning zarbalaridan aziyat chekkan, sofdil o‘zbek qalamga olingan “Maston buva” hikoyasini ham kitobxon bir nazarda “yutib yuboradi”.

Omon Muxtorning ushbu hikoyasida urushga ketib, ikki marta yaralangan Maston buva hayotidan qisqa lavha berish orqali uning ibratli hayot yo‘li, sabr-bardoshli xarakteri ochib beriladi. Ayniqsa, hikoya qahramoni urush vaqtidagi qiyinchiliklar davrida onasi va bir emas, to‘rt farzandidan judo bo‘lgan, rafiqasi Muhamramxon esa uni sabr va sadoqat bilan kutganligi buvaning bugungi kundagi xarakterini ochishga xizmat qilgan.

“Shahardagi obro‘li bir muassasada xizmat qiladigan” Mirzaabdulla avvaliga otaga napisand bo‘ladi, ammo uning umri haqida ogoh bo‘lgandan so‘ng o‘ylagan o‘yidan uyalib ketadi. Maston buvaning kuylashi esa bunday taassurot uyg‘otadi: “Unga qarshisida o‘tirgan qariya, o‘zi yonib kuylayotgan qo‘shiqlar singari, tarix qa‘ridan chiqib kelgandek va ana-mana deguncha, qaytib tarix qa‘riga singib ketadigandek bo‘lib tuyuldi.”

Nafaqt urushning oqibatlarini, balki inson ruhiyatining ichki qatlamlari, kechinmalarini tasvirlagan “Omadsiz odam” hikoyasida chin insoniylik qalamga olinadi.

“Odam hamisha odam uchun g‘aroyib bir olam bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qolaveradi.” Belinskiyning mazkur jumlesi hikoyaga epigraf sifatida tanlangani bejizga emas. Buxoro shahrida istiqomat qiluvchi ikki qo‘shni Sharifjon va Qurbonboylarning urushdan keyingi hayotini tasvirlash mobaynida Sharifjonning naqadar mehribon va samimiy ekanligi, Qurbonboy esa birmuncha omadsiz ekanligi aks etadi. Qurbonboyning o‘g‘li Qudrat va Sharifjonning qizi Hafiza tengdosh bo‘lib, bir o‘sib-ulg‘ayishadi. Taqdir shamoli Qudratni urushga yetaklaydi.

Qurbonboylar oilasiga o‘g‘lidan xat kelmay qo‘yadi va harbiy kelib, Qudrat yaralanganligini aytadi. O‘g‘liga o‘q tekkanligi, undan xabar kelmayotgani oilada uni vafot etgan degan fikr uyg‘otadi. Sharifjon esa, o‘z uyini ikki o‘g‘li bo‘lgan Qurbonboyga beradi, Qudratga uzatmoqchi bo‘lgan qizi Hafizani “uvoliga qolmaslik uchun” turmushga beradi. Qurbonboy hovlining pulini bo‘ynida qarz bilib, doimo qarzdan qutulishni o‘yaydi.

Umuman olganda, hikoyadagi omadsiz odam bo‘lgan Qurbonboyning omadsizligiga birinchi omil darv hisoblanadi. Chunonchi, “Qurbonboy burungi zamonda dunyoga kelgan. Otasi umrini riyozaatda o‘tkazgan mashhur Buxoro shayxlaridan bo‘lgan”. Avvalo, u ota kasbini tutmoqchi bo‘ladi, ammo, inqilob natijasida otasi unga “hunar odami bo‘l”ishni tayinlaydi. Zargarlik ilmini o‘rgangan Qurbonboyga yana omad kulib boqmaydi, yurtda odamlarning zarga ishi tushmay qo‘yadi. Ustachilikka jismoniy holati yo‘l qo‘ymaydi. Xullas, yoshi ulg‘ayganida sartaroshga shogird tushadi. Endigina kasbini topganida dahshatli urush mard o‘g‘lonlarni birma-bir terib ketadi, natijada Qurbonboyning ishi yana susayadi. Mullalik, zargarlik, ustachilik, sartaroshlik kasbi-korlarining boshini tutish uchun umri va harakatini ketkazgan Qurbonboy g‘oyat toliqadi. Hikoya so‘ngida Qudrat oilasi bag‘riga qaytadi, uning ukasi va singlisi ulg‘ayib, o‘z yo‘lini topadi. Qurbonboy Sharifjoni vafotidan so‘ng ko‘p eslaydi. Hovlisini unga bergani, haqini olmay tashlab ketgani, do‘stining yonida har qanday vaziyatda doim birga bo‘lganligi Qurbonboyni har vaqt yodidan chiqmaydi.

LITERARY CRITICISM

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Omon Muxtor kichik epik janrlarda ham samarali ijod qilgan.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, kichik epik janr namunalarida inson obrazidagi asosiy xususiyatlar – uning ichki dunyosi, shaxsiyati, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi faoliyati ijodiy metod imkoniyatlari, badiiy xronotop, yozuvchi shaxsiyati, individual muhiti, oilasi, o‘qigan kitoblari, ruhiy-jismoniy salomatlik darajasi, atrofdagilarning munosabati, xususan, bolalik davri kabi omillar bilan bog‘liq.

Omon Muxtorning hikoyalari o‘zbek hikoyachiligini bir pog‘ona balandga ko‘targan. Uning hikoyalarda o‘z ona yurti Buxoro g‘oyat tabiiy tasvirlanadiki, Buxoro shahri ko‘chalarida yurgan kishi beixtiyor “Qahraton” hikoyasidagi Munavvarbibi o‘g‘lini saqlab qolish uchun shu ko‘chalarda sarson yurmagannikan, “Uy parrandas” hikoyasidagi Karomat mana bu uyda umrini o‘tkazmaganmikan kabi fikrlar aylana boshlaydi. Muallifning hayotida ko‘rgan-kechirganlari esa davrni to‘la tasvirlashga, kitobxon ko‘nglini zabit etuvchi asarlar bitishiga ko‘maklashgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Muxtorov O. Ayollar mamlakati va sultanati. roman va hikoyalar to‘plami.* -T.: “Sharq” nashriyotmatbaa konsernining bosh tahriri, 1997.
2. *Muxtorov O. Aflatun. Roman, qissalar, hikoyalar to‘plami.* -T.: Ma’naviyat, 1998.
3. *Jo‘raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi.* - T.: Turon-iqbol, 2017.
4. *Muxtorov O. Ming yildan so‘ng.* -T.: Kamalak, 1991.
5. *Muxtorov O. Vazifa. Hikoyalar qissalar to‘plami.* -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
6. *Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild (Adabiy asar).* – Toshkent: Fan, 1978.

“THE DEW BREAKER” ASARIDA OLAM VA ODAM MUNOSABATLARINING BADIY IFODASI

Ganiyeva Orzigel Khayriddinovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
o.x.ganiyeva@buxdu.uz

Ahmedova Aziza Azamat qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
a.a.axmedova1@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Edvidj Dantiket AQSh ko‘pmadaniyatli adabiyotining yetakchi vakillaridan biri sifatida, “The Dew Breaker” romanini orqali inson ruhiyatining murakkabligini chuqur tahlil qilish orqali psixologik travmalar va shaxsiy tarixning inson hayotidagi ta’sirini yoritib beradi. Muallif asarda Gaitidan AQSHga ko‘chib kelgan insonlarning hayoti va shaxsiy tajribalarini yoritish bilan birga, o‘tmishdagi azobli voqealar ularning ruhiyatida qanday iz qoldirganini, og‘ir ruhiy travmalar haligacha ular bilan yashashi va hech qachon ularni tark etmasligi haqida fikr yuritiladi. Romanda xarakterlar o‘z ruhiy jarohatlari bilan kurashib, yangi hayotga moslashishga intilishadi va shu orqali inson psixologiyasidagi ichki kurash va ziddiyatlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: diasporik tajribalar, Duvalier rejimi, travmatik realizm, ijtimoiyadolat, muhojirlik, paramilitar kuchlar, realistik uslub, inson psixologiyasi.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ МИРА И ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «THE DEW BREAKER»

Аннотация. В этой статье Эдвидж Дантика, как одна из ведущих представительниц мультикультурной литературы США, раскрывает влияние психологических травм и личной истории на жизнь человека посредством глубокого анализа сложности человеческой психики в романе «The Dew Breaker». Автор не только освещает жизнь и личный опыт людей, переехавших из Гаити в США, но и размышляет о том, как мучительные события прошлого остали неизгладимый след в их психике, как тяжёлые душевные травмы продолжают жить с ними и никогда их не покидают. В романе персонажи борются со своими душевными ранами и стремятся адаптироваться к новой жизни, тем самым раскрывая внутреннюю борьбу и противоречия в человеческой психологии.

Ключевые слова: диаспорический опыт, режим Дювалье, травматический реализм, социальная справедливость, эмиграция, paramilitarные силы, реалистический стиль, психология человека.

ARTISTIC EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE WORLD AND HUMANS IN THE WORK «THE DEW BREAKER»

Abstract. In this article, Edwidge Danticat, as one of the leading representatives of multicultural literature in the USA, reveals the impact of psychological trauma and personal history on human life through a deep analysis of the complexity of the human psyche in the novel «The Dew Breaker». The author not only illuminates the lives and personal experiences of people who moved from Haiti to the USA but also reflects on how the agonizing events of the past have left an indelible mark on their psyche, how severe emotional trauma continues to live with them and never leaves them. In the novel, the characters struggle with their emotional wounds and strive to adapt to their new life, thereby revealing inner struggles and contradictions in human psychology.

Keywords: diasporic experience, Duvalier regime, traumatic realism, social justice, emigration, paramilitary forces, realistic style, human psychology.

Kirish E. Dentiket, AQSH ko‘p madaniyatli adabiyotiga qo‘shgan hissasi bilan nafaqat adabiyot, balki ijtimoiyadolat va madaniyatlararo aloqalar masalalariga ham ta’sir ko‘rsatgan muhim shaxsdir. Uning asarlari, Gaitiy madaniyati, diasporik tajribalar, ayollarning roli va madaniyatlararo aloqalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. E. Dentiket, o‘zining nozik uslubi va kuchli hikoya qilish qobiliyati bilan, ko‘plab o‘quvchilarni o‘z asarlariga jalb etgan va ularni hayratda qoldira olgan yozuvchidir. Uning asarlari, nafaqat

LITERARY CRITICISM

o‘ziga xos madaniyatni, balki insoniyatning umumiy muammolarini ham yoritadi. E. Dentiketning adabiy merosi, AQSH ko‘p madaniyatli adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo‘sib, kelajakdagi avlodlar uchun muhim ilhom manbai sanaladi. E. Dentiket, AQSHdagi gaiti-amerikalik yozuvchi sifatida o‘z asarlarida Gaiti tarixini, madaniyatini va diasporik tajribalarini kuchli va ta’sirchan tarzda yoritadi. Uning “The Dew Breaker” romanı, 2004 yilda nashr etilib, Gaitidan AQSHga ko‘chib kelgan insonlarning hayotini va shaxsiy tajribalarini chuqur tahlil qiluvchi asar hisoblanadi. Ushbu roman, vaqt va xotira, shaxsiy va kollektiv travmalar, shuningdek, qiyinchiliklar va insoniy munosabatlar haqida hayratga soluvchi hikoyalar jamlanmasidir.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. M.R. Bellamy “More than Hunter or Prey: Duality and Traumatic Memory in Edwidge Danticat’s “The Dew Breaker” maqolasida 1957-yildan 1971-yilga qadar Gaitida davom etgan sobiq dictator tuzumi hamda uning salbiy oqibatlari, ijtimoiy bo‘g‘iq muhitning jamiyat a’zolari hayotiga keskin ta’siriga urg‘u bergen holda tahlil qiladi [1]. Muallif E. Dentiketning madaniy ta’sir hamda ruhiy jarohatning insonga bir umrlik muhrini tahlilga tortib, asardagi qahramonlar misolida asoslab beradi. “The Dew Breaker” asari, muhojirlik, o‘zlik va o‘tmish bilan bog‘liq travmalarini o‘rganadi. Roman, asosan, Gaitidan AQSHga ko‘chib kelgan oila va ularning har bir a’zosi orqali ularning o‘zaro munosabatlar va hayotidagi qiyinchiliklarini yoritadi. Asarda, Gaiti tarixidagi muhim voqealar va Duvalier rejimi ostida ro‘y bergen travmalar personajlar orqali keltiriladi.

Natijalar va tahlil. Asarning markazida, qahramonlardan biri, “Dew Breaker” deb ataladigan sobiq tonton makut (paramilitar kuchlar) a’zosi hisoblanadi. U, o‘zining o‘tmishi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladi va o‘zining qilmishlarini to‘g‘rilashga intiladi. Ushbu shaxs, o‘tmishdagi qo‘rqinchli voqealar va insonlarga yetkazilgan zarar haqida chuqur o‘ylashga majbur bo‘ladi.

“The Dew Breaker” asarida ko‘plab qahramonlar mavjud bo‘lib, ular har biri o‘zining shaxsiy hikoyasini va travmalarini o‘z ichiga oladi. Asarda keltirilgan qahramonlar orasida Beatrice Saint Fort, uning qizi Aline, va Dew Breaker o‘zi mavjud. Har bir qahramon, o‘zining shaxsiy tajribasi orqali o‘zaro munosabatlar va kelib chiqishi, o‘zgarishlari haqida hikoya qiladi.

Beatrice, qizining sobiq rejimga qarshi kurashayotganini bilmasdan, o‘z hayoti va o‘tmishi haqida fikr yuritadi. U, Gaitida o‘tkazgan yillari va uning ta’siri haqida ko‘p o‘ylaydi. Aline, onasining o‘tmishini bilmaydi va uning haqidagi haqiqiy hayotni kashf etishga intiladi. Bu o‘zaro munosabatlar, asarda ijtimoiy va siyosiy masalalarni o‘rganishga yordam beradi. “We called them choukèt lawoze,” Beatrice said, the couch’s plastic cover squeaking beneath her. “They’d break into your house. Mostly it was at night. But often they’d also come before dawn, as the dew was settling on the leaves, and they’d take you away. He was one of them, the guard ” [2]. Bu parchada Beatrice “choukèt lawoze” degan atamadan foydalanib, qo‘riqchi va uning guruhibi tasvirlaydi. Ushbu fransuzcha atama, odatda, “shafqatsiz qo‘riqchilar” yoki “kechasi ov qiluvchilar” deb tarjima qilinishi mumkin, bu qahramonlarning hatti-harakatlarini anglatadi: ular odamlarga hujum qilish uchun tun yoki tong oldi vaqtlarini tanlashadi. Shu tarzda, yozuvchi voqeа sahnasini keskin va tahlikali ohangda aks ettiradi, bu orqali o‘quvchiga inson qo‘rquvi va zo‘ravonlikka duch kelayotgan vaziyatlarning og‘irligini his qilish imkonini beradi. Matnda ta’kidlangan “tong oldi vaqt,” yoki “shudring tushayotgan payt,” tasviri orqali voqeaga maxsus estetik va hissiy ma’no beriladi.

Beatrice plastik qoplangan divanda o‘tirib, so‘zlayotganda, bu detallar ham bejiz keltirilmagan. Plastik qoplamasini bilan divan – insonlarning qulay yashash imkoniyatidan mahrumligi va noqulayliklarini anglatadi. Bunday oddiy, ammo aniq detal orqali muallif o‘quvchiga Beatrice va boshqa qahramonlarning hayotidagi bezovtalik va xavfli muhitni his qilish imkonini beradi. Bu shuningdek, Beatrice qachonlardir boshdan kechirgan travmalar va ularning hayotida qoldirgan izlari haqida ham bir ishoradir.

Choukèt lawoze qahramonlarning hayotidagi tahdidli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Ular “kechasi hujum qilishadi” va “seni olib ketishadi,” deyish orqali muallif jinoyatchilikning qanchalik kutilmagan va muqarrar ekanini ko‘rsatadi. Bu tasvir o‘quvchida Beatrice va uning oilasining doimiy qo‘rquv ostida hayot kechirishiga ishora qiladi va bu qo‘rquv ularning shaxsiy hayotiga chuqur ta’sir qilganini his qildiradi.

Parcha bevosita o‘quvchini travmatik voqeа markaziga olib kiradi, ayniqsa “olib ketish” tasviri bilan, bu esa ixtiyorilik yo‘qotilgan vaziyatni va insonni qo‘rquituvchi, unga zug‘um qiluvchi kuchni anglatadi. Shu bilan birga, parchaning dramatik ohangi o‘quvchiga Beatrice hayotida chuqur va o‘tkir iz qoldirgan tajribalarning ahamiyatini anglatadi. Bu obraz orqali yozuvchi, jamiyatda mavjud qo‘rquv va zo‘ravonlik muhitining shaxslar ruhiyatiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishini ochib beradi.

Muallifning bu tasviri travmatik realizm janrinining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Travmatik realizm shaxslar ichki dunyosini, ularning tajriba va his-tuyg‘ularini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Ushbu uslubda yozilgan asarlar o‘quvchilarni qahramonlar his qilgan hissiy og‘irlik va iztiroblarni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Beatrice ning his-tuyg‘ulari, shaxsiy kechinmalari va hayotidagi muhim tafsilotlar muallif tomonidan realistik uslubda keltirilgani uchun o‘quvchi bilan hissiy bog‘lanish o‘rnatadi.

LITERARY CRITICISM

Beatricening hikoyasi va uning “choukèt lawoze” tasviri – bu faqat bir insonning tajribasi emas, balki zo‘ravonlik va u bilan yashashga majbur bo‘lgan jamiyatdagi ko‘pchilik insonlarning o‘xshash hayotiy tajribalarini ifodalaydi. Muallif bu obraz orqali o‘quvchiga o‘z tajribalarini qayta anglashga, ularni hayotiga nisbatan tahlil qilishga zamin yaratadi, travmatik realizm an’anasi esa bu jarayonda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. E. Dentiketning “The Dew Breaker” asarida muhim mavzular orasida travma, o‘zlik, va ijtimoiy adolat masalalari mavjud. O‘tmishdagi travmalar qahramonlarning hayotida doimiy iz qoldiradi va ular o‘zlarini qanday his qilishlariga ta’sir qiladi. Dantiket, shuningdek, Gaitiy va AQSH o‘rtasidagi madaniy aloqalar va muhojirlilik masalalarini ham yoritadi.

Dew Breaker – asardagi eng murakkab xarakterlardan biri hisoblanadi. U, sobiq tonton makut a’zosi sifatida o‘tmishdagi qilmishlaridan qochish istagi bilan yashaydi. Dew Breaker, o‘zining o‘tmishini, ya’ni insonlarga qarshi qilingan zulmni inkor etishga harakat qiladi, lekin uning ruhiyati, travma va vinul yozuvlaridan ozod bo‘lishga intilayotgan, lekin davom etayotgan azoblardan qocha olmaydigan inson sifatida namoyon bo‘ladi. U, o‘zining qilmishlaridan, o‘zining ichki qo‘rquvlaridan va o‘zligini qidirishidan qochishga harakat qilsa-da, shaxsiy shafqat va jamoat oldidagi mas’uliyatni his qiladi. “Regrets? Did he have any? What would be the meaning of life, or death, without some lingering regrets? Maybe he shouldn’t have preached those “sermons to the beast”, as he liked to think of them”[3]. Bu parcha insonning o‘z hayotidagi tanlovlari, xatolari va ularni anglash haqidagi ichki savollarni o‘rganadi. Muallif o‘quvchini qahramonning ongidagi murakkab savollarga olib kiradi va “pushaymon bo‘lish” hamda uning hayotdagi o‘rnini yoritishga qaratadi. “Regrets? Did he have any?” kabi qisqa va ta’sirli savollar orqali qahramonning o‘z hayotini sinchkovlik bilan ko‘zdan kechirayotganini sezamiz. Bu savollar insoniyatning umumiyo‘t kechinmalaridan biri – hayotimizda qilgan tanlovlارимиз va ularning natijalari ustida chuqur o‘ylashni ifodalaydi. Matnda “hayot yoki o‘limning ma’nosi, pushaymonliksiz, qanday bo‘lardi?” degan savol o‘rtaga tashlanadi. Bu savol qahramonning hayot va o‘lim o‘rtasidagi munosabatga, o‘zi va o‘zi qilgan ishlар o‘rtasidagi ziddiyatga e’tibor qaratadi. Shu tarzda, muallif pushaymonlikning hayot va o‘lim tushunchalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini o‘rganadi. Hayotda pushaymonlik qilmaslik, qahramon uchun, yashash ma’nosini yo‘qotish bilan barobar kabi ko‘rinadi. Insonlarning o‘z kechinmalaridan, xatolaridan va o‘tgan tajribalaridan saboq olishlari hayot mazmunining bir qismi sifatida tasvirlanadi.

Asarda, “dew breaker” (shoshilinch qat’iy qaror) atamasi muhim simvol sifatida ishlatiladi. Bu, qahramonning o‘tmishdagi harakatlariga ishora qiladi va uning qilmishlarining oqibatlarini ko‘rsatadi. Ushbu simvol, shuningdek, qahramonlarning o‘zlarini va o‘tmishi bilan yuzma-yuz kelishi, shaxsiy kurashlari va o‘zgarishlarini namoyon etadi.

E. Dentiketning uslubi, asar ichida murakkab va nozik tasvirlar, lirik va his-tuyg‘ular bilan to‘la. U, o‘z hikoyalarida ko‘p vaqtini va joyni, o‘zaro munosabatlar va har bir qahramonning ichki holatini aks ettirishga sarflaydi. Bu esa o‘quvchini asar dunyosiga chuqur tortadi.

“The Dew Breaker” asari, turli xil voqealar va hikoyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchini qahramonlarning hayoti va his-tuyg‘ulari bilan bog‘laydi. Har bir hikoya, boshqa qahramonlarning fikr va his-tuyg‘ularini aks ettiradi va ularning o‘zaro munosabatlariga yangi nuqtai nazar kiritadi. E. Dentiket, o‘z asarlarida ijtimoiy adolat masalalarini doimiy ravishda ko‘taradi. “The Dew Breaker” asarida, o‘tmishdagi travmalar va ularning ta’siri orqali insonlarning hayotini qanday shakllantirishi ko‘rsatiladi. Ushbu asar, muhojirlilik masalalari va inson huquqlari uchun kurashni ham yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, The Dew Breaker” romani inson ruhiyatidagi murakkablikni chuqur yoritadigan asar hisoblanadi. E. Dentiket asarda inson psixologiyasi, shaxsiy tarix va travmalar orqali o‘zligini anglash jarayonini o‘quvchiga yetkazishga muvaffaq bo‘ladi. Shaxsiy tarix va o‘tgan tajribalar, inson hayoti va o‘zligini shakllantiruvchi asosiy elementlar sifatida tasvirlanadi. Gaitidan kelgan qahramonlar orqali ularning shaxsiy tarixidagi og‘irlik va azoblar qanday qilib yangi hayotga, yangi imkoniyatlarga intilishlariga xalaqit berishi va ularning o‘zlarini bilan kurashini ko‘rsatadi. Bu bilan o‘quvchini inson ruhiyatidagi ziddiyatlar va ichki kurashlarga qiziqtirib, ularni anglashga chorlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *A Companion to Literary Theory*. Edited by David H.Ritcher. – The USA: John Wiley & Sons Ltd, 2018. – P. 360.
2. *Caruth, Cathy. Unclaimed experience: trauma, narrative, and history*. – B.: John Hopkins University Press, 1996. – P.172. <https://archive.org/details/unclaimedexperie0000caru/page/n7/mode/2up>
3. *Caruth, Cathy. Trauma: Explorations in Memory*. – B.: The Johns Hopkins University Press, 1995. – P.284.

LITERARY CRITICISM

4. Ganieva Orzigel Khayriddinovna, & Ashurova Nigina Aziz Qizi. (2023). *Indirect characterization in Jamaica Kincaid's «Mr. Potter».* // *International Journal of Literature and Languages*, 3(12), 51–56. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-10>
5. LaCapra, Dominick. *Writing History, Writing Trauma*. – B.: John Hopkins University Press, 2001. – P.256. <https://archive.org/details/writinghistorywr0000laca>
6. Khayriddinovna G. O. et al. *Personal relations in the bridal seamstress story (The dew breaker)* by Edwidge Danticat // *The theory of recent scientific research in the field of pedagogy*. – 2023. – T. 2. – № 16. – C. 115-117.
7. Khayriddinovna, G. O. "Description of Parental Influence in "East of Eden" by John Steinbeck" // *International journal of inclusive and sustainable education* 1.4 (2022): 94-97.
8. Rothberg, Michael. *Traumatic Realism: the Demands of Holocaust representation*. – M.: University of Minnesota Press, 2000. – P.326. <https://archive.org/details/traumaticrealism0000roth>
9. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Safarova Dildora Kabilovna. (2023). *The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre*. *Miasto Przyszłości*, 42, 726–729. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2172>
10. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich. (2022). *Peculiar features of Henry James's early novels*. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 36-38. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2996>
11. Sadullayev F. B. *Inner characterization of the main character in the novel "The wings of the dove"* by Henry James // *Conferencea*. – 2022. – C. 132-135.
12. Caruth, Cathy. *Unclaimed experience: trauma, narrative, and history*. – B.: John Hopkins University Press, 1996. – P.172. <https://archive.org/details/unclaimedexperi0000caru>
- LaCapra, Dominick. *Writing History, Writing Trauma*. – B.: John Hopkins University Press, 2001. – P.256.

CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA BOLA OBRAZI

Beknazarova Gulasal Qudrat qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi 1- bosqich doktoranti
gulasalnazar1992@gmail.com

Annotatsiya. Chingiz Aytmatov asarlarida bola obrazi markaziy mavzulardan biri bo'lib, insoniyatning ma'naviy qiyofasi, jamiyatning kelajagi va uning axloqiy mezonlari haqida chuqur mulohaza yuritish uchun muhim ramz sifatida qaraladi. Yozuvchi bolalar orqali inson qalbining beg'uborlik, poklik, shafqat va umidga to'la qirralarini ochib beradi. Ushbu maqolada bola obrazining Aytmatov ijodidagi o'rni va ma'nosi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Chingiz Aytmatovning ijodi jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, unda inson qalbi va jamiyat muammolari chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: bola obrazi, ma'naviyat, hayot sinovlari, orzular va haqiqat, adabiyot tahlili, "Oq kema", "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi", "Jamila", "Asrga tatigulik kun".

ОБРАЗ РЕБЁНКА В ТВОРЧЕСТВЕ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА

Аннотация. В произведениях Чингиза Айтматова образ ребёнка является одной из центральных тем и рассматривается как важный символ для глубокого осмысливания духовного облика человечества, будущего общества и его нравственных критерииев. Через детей писатель раскрывает невинные, чистые, сострадательные и полные надежды грани человеческой души. В данной статье научно анализируются роль и значение образа ребёнка в творчестве Айтматова. Творчество Чингиза Айтматова занимает особое место в мировой литературе, глубоко освещая проблемы человеческой души и общества.

Ключевые слова: образ ребёнка, духовность, жизненные испытания, мечты и реальность, литературный анализ, «Белый пароход», «Плаха», «Тавро Кассандры», «Джамиля», «И дальние века длиятся день».

IMAGE OF A CHILD IN CREATION OF CHINGIZ AITMATOV

Abstract. In the works of Chingiz Aitmatov, the image of a child is one of the central themes and serves as an important symbol for profound reflection on humanity's spiritual character, the future of society, and its moral standards. Through child characters, the writer reveals the innocence, purity, compassion, and hope-filled facets of the human soul. This article scientifically analyzes the role and significance of the child image in Aitmatov's works. Chingiz Aitmatov's literary creations hold a unique place in world literature, offering deep insights into the human spirit and societal issues.

Keywords: child image, spirituality, life trials, dreams and reality, literary analysis, "The White Ship", "Doomsday", "The Mark of Cassandra", "Jamila", "The Day of the Captive".

Kirish. Chingiz Aytmatov Qirg'izistonidagi Talas vodiysidagi Shakar ovulida dunyoga kelgan. Qirg'iziston Fanlar Akademiyasi akademigi. Qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan. Asarlarini qirg'iz va rus tilida yozadi. Ilk hikoyalari "Baydamtol sohillarida", "Yuzma-yuz", "Jamila", "Sarvqomat dilbarim", "Bo'tako'z", "Birinchi muallim", "Momo yer", "Somon yo'li", "Alvido, Gulsari" kabi qissalarida muhabbat mavzusi katta ehtiros bilan tarannum etilgan. Chingiz Aytmatovning "Tog' va cho'l qissalarini" turkumiga kirgan asarlari yuksak baholandi. Aytmatovning "Oq kema" qissasida insoniy go'zallik, ezzulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasida muhim ma'naviy masalalar, sho'ro davridagi hayotning mash'um manzaralari o'z ifodasini topgan. "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi" romanlarida zamonomizning umuminsoniy tomonlari, ona Sayyoramizning taqdiri, kuchli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar yoritib berilgan. Yozuvchining "Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori" (M. Shoxonov bilan hamkorlikda) asari ma'naviyatga bag'ishlangan. Aytmatovning asarlari jahonning 176 tiliga tarjima qilinib, 20 milliondan ortiq nusxada chop etilgan. "Sarvqomat dilbarim" ("Dovon"), "Bo'tako'z" ("Jazirama"), "Birinchi Muallim", "Jamila", "Alvido, Gulsari" va boshqa ekranlashtirilgan, o'zbek va chet el teatrlarida sahnalashtirilgan.

LITERARY CRITICISM

“Momo yer” asariga I.Akbarov musiqa yozgan. Adib 2008-yilning 10-iyunida Germaniyaning Nyurnberg shahrida vafot etgan.

Ch.Aytmatov o‘zbek xalqi va o‘zbek adabiyotining katta do’stidir. Jahan madaniyati ravnaqiga nechog‘li katta xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘zbek madaniyati Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojiga shu darajada ta’sir ko‘rsatgandir, deydi Chingiz Aytmatov [1].

Jahan adabiyoti va o‘zbek adabiyotlarida bolaning ichki kechinmalari va uning bolalarcha beg‘ubor harakatlari juda chiroqli tasvirlangan. Bolaning o‘y-fikrlari naqadar hissiyotlarga boy tarzda tasvirlanadi va inson qalbiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Bola haqidagi asarlarni qanchalik o‘qiganimiz sari yangi narsalarni o‘zimiz uchun kashf qilib boraveramiz. Nafaqat bola, balki bolalarning his-hayajonlarini tasvirlash orqali oilaning muqaddasligini ham anglab boramiz. Insonning insoniyligi tasvirlanadi, bola obrazi orqali. Bolalalar haqida yaratilgan badiiy-ilmiy ommabop va publisistik asarlarini juda ham ko‘plab topsa bo‘ladi. Jahan xalqlarida jumladan, o‘zbek xalqi o‘lmas adabiyotlarida ham maqollar, tez aytishlarida, afsona, ertak, hikoya, masal, o‘yin qo‘shiqlarida-yu dostonlarida ham beg‘ubor bolalik haqida so‘z ketadi. O‘zbek adabiyotida bola qalbini hamda go‘zal bolalikni ulug‘lab yozilgan yuzlab hatto minglab asarlarni topish mumkin.

Chingiz Aytmatov ijodi Markaziy Osiyo adabiyotining xalqaro maydonidagi yirik yutuqlaridan biri sanaladi. Uning asarlari insonning ruhiy kechinmalari, jamiyat bilan munosabati ma’naviy qadriyatlarini va jamiyatdagi muammolarni chuqur yoritish bilan ajralib turadi. Muallif ijodida bola obrazi alohida o‘ringa ega. Bola obrazlari orqali Ch.Aytmatov insoniyatning pokligi, oq va qorani ajrata olishi, ezzulik sari intilishi va murakkab voqealarga munosabatini chuqur talqin qila oladi. Yozuvchi o‘z asarlarida bol obraziga alohida ahamiyat berib, u orqali insoniyatning beg‘uborlik, ma’naviy qadriyatlar va tabiat bilan uyg‘unlikka muhim jihatlarini aksettiradi. Bola obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi adolatsizlik, shafqatsizlik va axloqiy inqirozni ko‘rsatib, insoniyat kelajagi haqida mushohada yuritadi. Aytmatov bolalar obrazlarini nafaqat hayot voqeliklarini ochib berishda, balki asar mazmunini chuqurlashtirish va umumiyligi insoniy qadriyatlarini ifodalashda ham muhim vosita sifatida qo‘llaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Chingiz Aytmatovning asarlari insoniyatning ma’naviy hayoti, ijtimoiy muammolari va axloqiy qadriyatlarini yoritishdagi chuqur falsafiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ijodida bola obrazi jamiyatning ma’naviy holati va uning kelajagini aks ettiruvchi ramziy unsur sifatida tasvirlanadi. Bola timsoli hayotning beg‘uborligi, insoniylik va sof muhabbatni yoritishda alohida o‘rin egallaydi. Bu maqola Aytmatovning “Jamila”, “Oq kema”, “Sarvqomat dilbarim”, va “Asrga tatigulik kun” kabi asarlaridagi bola obrazini tahlil qilishga qaratilgan.

Mazkur mavzu yuzasidan quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Adabiy tahlil usuli — Aytmatovning “Oq kema”, “Jamila” va “Qiyomat” kabi asarlaridagi bola obrazlari tahlil qilindi.

2.Komparativ tahlil usuli — Bola obrazlari orqali yozuvchi yoritgan ma’naviy va ijtimoiy masalalar boshqa adabiy obrazlar bilan qiyoslandi.

3.Falsafiy tahlil usuli — Bola obrazlari orqali ifodalanayotgan insoniyat kelajagi va tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyalari falsafiy jihatdan ko‘rib chiqildi.

4.Ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish — Chingiz Aytmatov asarlari va ular haqida yozilgan ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson irodasi va sha’niga tiklagan badiiy obidalari tufayli Chingiz Aytmatovni ko‘pchilik ilm va ijod ahli Alisher Navoiy, Lev Tolstoy, Mixail Sholoxov, Gabriel Markeslarga qiyoslashadi. Chunki har bir davr o‘z g‘oyalalarining ifodasi o‘larroq ana shunday mutafakkirlarni tarix sahnasisiga olib chiqadi.Tasavvuf talqiniga ko‘ra, olamning yaratilishidan maqsad – inson, insonning yaratilishidan maqsad komil insondir.Komillikka yo‘l– shod-u xurramlikka yo‘l emas, qayg‘uga safar, musibatlarga safar. Haqiqiy talantning hayot va ijod yo‘li ham xuddi shunday – mashaqqat va zahmatlardan yaraladi, o‘zlikni anglash va tinglashga da’vat etadi, ma’naviy poklanish va yuksalishga chorlaydi.Ana shu azaliy va abadiy haqiqatni Chingiz Aytmatov o‘z asarlari bilan hayot va davr tasdig‘idan o‘tkazdi.

F.Shelling ta’kidlaganidek, Ch.Aytmatov “zamon va olamni qalbiga singdirish salohiyatiga ega bo‘lgan” insonlar sirasidandir. Chingiz Aytmatov asarlarida bola obrazi insoniyatning ma’naviy qiyofasini ko‘rsatish uchun muhim vosita sifatida ishlatalidi. Bola timsoli orqali yozuvchi inson qalbining pokligini, jamiyatdagi axloqiy inqirozni va kelajakka bo‘lgan umidni yoritadi. Aytmatov bolalar orqali jamiyatga o‘z ma’naviy mezonlari haqida chuqurroq o‘ylash zarurligini eslatadi. Bu obrazlar nafaqat adabiyotda, balki hayotda ham insoniyatning ma’naviy ideallarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.Chingiz Aytmatovning asarlarida bola obrazi jamiyatning ma’naviy qiyofasi va insoniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bola obrazi

LITERARY CRITICISM

faqatgina oddiy qahramon sifatida emas, balki katta falsafiy va ramziy ma'no kasb etadi. Ular quyidagi asosiy g'oyalarni ifodalaydi:

1) Beg'uborlik va poklik

Bola timsoli insoniyatdagi eng sof va samimiy his-tuyg'ularning ramzidir. Masalan, "Oq kema" asaridagi bola obrazi orzular va beg'ubor dunyoni aks ettirsa, u jamiyatningadolatsizligi bilan to'qnashganida ham o'z ichki pokligini yo'qotmaydi. Bola o'zining sof orzulari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning murakkabligini ko'rsatadi.

2) Fojea va sinovlar

Aytmatov asarlarida bolalar hayotning qattiq sinovlariga duch keladi. Bu orqali yozuvchi insoniyatning o'z harakatlari va mas'uliyatsizliklari bilan bolalarga qanday zarar yetkazayotganini ochib beradi. "Asrga tatigulik kun" asarida bola shafqatsiz hayotiy sharoitlar va insoniy inqiroz qurban bo'ladi.

3) Umid va kelajak

Aytmatov bolalarni jamiyatning kelajagi sifatida ko'rsatadi. Bola obrazi insoniyatning yaxshilik va mehr-muhabbatga bo'lgan ishonchini ramziy qiladi. Masalan, "Sarvqomat dilbarim" asarida bola obrazi jamiyatdagi pok niyatli insonlarning umid ramzi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, Aytmatovning bola obrazlari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Beg'uborlik va poklik timsoli. Orzular va haqiqatning to'qnashuvi.

Bola orzulari ko'pincha haqiqatning shafqatsizligi bilan to'qnashadi. "Oq kema" qissasida bola tabiat va afsonalar dunyosidan ruhiy tasallli topishga urinadi, ammo kattalar dunyosi uning bu orzularini barbod qiladi. [2]

"Oq kema" asarida bola obrazi beg'ubor qalb, tabiatga muhabbat va orzular dunyosini aks ettiradi. Bola kattalar dunyosidagi shafqatsizlik vaadolatsizlikka qarshi ichki kurash olib boradi.

Ushbu asarda bola timsoli orqali inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, insoniyatning tabiiy dunyo bilan bog'liqligi aks ettiriladi. Bola o'z orzularida dengizni va oq kemani tasavvur qiladi, bu uning sof va beg'ubor dunyosining ramzidir. Ammo real hayotdagi shafqatsizliklar va kattalarning beparvoligi bolani umidsizlikka olib keladi. Bola tabiatni qadrlash va uni asrash kerakligini tushunadi, lekin jamiyat bu haqiqatga ko'zi yumiladi.

2. "Asrga tatigulik kun"

Bu asarda bola shafqatsiz hayotiy haqiqatlar bilan to'qnashadi. Bola obrazi insoniyatning begunohlikni yo'q otishi va dunyoning axloqiy inqirozini ramziy qiladi. U jamiyatdagi zo'r avonlik va axloqsizlikka qarshi chiqishga qodir emas, lekin o'zining sof qalbida yaxshilikni saqlab qoladi.

3. "Sarvqomat dilbarim"

Ushbu asarda bola obrazi sevgi va mehrning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bola o'zining sof qalbi va beg'ubor tuyg'ulari bilan kattalarning qiyin hayotiy muammolarini tushunishga harakat qiladi.

4. Hayot sinovlari orqali yuksalish.

Bola obrazlari hayot sinovlari orqali ichki o'sish va insoniy qadriyatlarini anglash jarayonini aks ettiradi. "Jamila" asarida bola dunyosining sof qarashlari orqali jamiyatdagi murakkabliklar ochib berilgan.

4. Kelajakning ramzi.

Bola obrazlari insoniyatning kelajagi, umid va ezbilikning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa, "Qiyomat" romanida yaqqol seziladi. [3]

Chingiz Aytmatov bola obrazlarini jamiyatdagi ma'naviy inqiroz va axloqiy qadriyatlarning pasayishini ko'rsatish vositasi sifatida ishlataladi. Bola obrazlari orqali yozuvchi tabiat bilan uyg'unlik va inson qalbining beg'uborligini saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi.

Bola obrazlari faqat dramatik voqealarni yoritish vositasi bo'lib qolmay, balki insoniyat kelajagi haqidagi chuqur falsafiy mulohazalarini ham aks ettiradi. Masalan, "Oq kema" asarida bolaning afsonalar dunyosiga intilishi hayotning shafqatsizligi oldida inson qalbining zaifligini ko'rsatadi. Shuningdek, bola obrazlarining hayot sinovlari orqali o'sishi yozuvchining insoniy qadriyatlarni tiklashga bo'lgan chaqirig'ini ifodalaydi. Bola obrazi orqali yozuvchi o'quvchini ezbilik va ma'naviyatni saqlashga undaydi.

"Kassandra tamg'asi"ga kelib, yozuvchi o'zliidan, qadriyatlardan voz kechishning fojeali oqibatlari global miqyosga chiqqanligini ko'rsatadi. Krilsov o'z laboratoriyasida undirilgan embrionlardan mahkuma ayollarning bachardonlariga ko'plab iks surriyotlar, ya'ni ota-onasi ham, aka-ukalar ihmam, tog'a-jiyanlari ham, xullas, birorta qarindosh-urug'i yo'q bolalar yetishtira boshlaydi.

Xulosa va takliflar. Chingiz Aytmatov asarlarida bola obrazi inson qalbining sof tuyg'ulari, jamiyatdagi ziddiyatlar va kelajak haqidagi umidlarni aks ettiruvchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining ijodidagi bolalar obrazlari o'quvchini hayotning ma'nosini va insoniy qadriyatlarni haqida chuqur o'ylashga chorlaydi. Aytmatovning ijodidagi bola obrazlarining nafaqat badiiy, balkim a'naviy jihatdan ham

LITERARY CRITICISM

katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu obrazlar nafaqat adabiyotda, balki hayotda ham insoniyatning ma’naviy ideallarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, yillar o’tgani sari Chingiz Aytmatov asarlari butun jahon adabiyotida yanada ko‘proq ahamiyat kasb etib boradi, ulug‘ adibning nomi, xuddi yulduzlar joyidan urtaratib turganidek, yanada yangicha jilolanaveradi. Uning ulug‘ nomi buyuk adib, faylasuf va insonparvar zot sifatida mangulikka muhrlanib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Akmaliev Abdildajon «Jahon adabiyoti jurnali», 2020-yil 3-sonidan.
2. Aytmatov, Ch. “Oq kema”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘a tnashriyoti. 1978.
3. Aytmatov, Ch. “Qiyomat”. Toshkent: O‘zbekiston. 1980.
4. “Jamila”, Toshkent: O‘zbekiston, 1967.
5. “Asrga tatigulik kun”, Toshkent: Adabiyot, 1986.
6. Jo‘rayev, M. “Chingiz Aytmatovni gadabiy olami” Toshkent: Fan, 1998.
7. Rasulov, N. “Adabiy tahlil: Bola timsoli va uning ramziy ma’nolari”. Toshkent: Sharq, 2015.
8. Xolmirzayev, A. “Adabiyot va tarbiya”. Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
9. Rasulov, A. “Chingiz Aytmatov va ma’naviyat masalalari”. Toshkent: Fan. 1991.
10. Mahmudov, N. “O‘zbek va qardosh adabiyotlar tadqiqoti”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000.
11. Qosimov, O. “Adabiyot va estetik qadriyatlar”. Toshkent: O‘zbekiston. 2020.
12. Jo‘rayev, M. “Chingiz Aytmatovning adabiy olami”. Toshkent: Fan, 1998.
13. Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." // Proceedings of The ICECRS 4 (2019).

LITERARY CRITICISM

UDC 81

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE NOVEL “A THOUSAND SPLENDID SUNS” AND ITS TRANSLATIONS INTO RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Nazarova Gulbahor Pirmanovna,
Associate Professor of the Department of
English Literature and Translation Studies
in Bukhara State University

g.p. nazarova@buxdu.uz

Davronova Rano Alisher kizi,
M.A. student of the Department of
English Literature and Translation Studies,
Bukhara State University

r.a.davronova@buxdu.uz

Abstract. In this article, a comparative analysis of the novel “A Thousand Splendid Suns” and its translations into the Russian and Uzbek languages is conducted according to the usage of culture-bound words, intertextuality, transliteration, metaphor and meanings, namely, logical, nominative and emotive ones. During the analysis, it can be clear that how culture plays a significant role in translation and interpretation of the text, which actually demands a huge tolerance from the translator in the process of translating a certain literary work.

Keywords: comparison, culture-bound words, intertextuality, transliteration, logical meaning, nominative meaning, emotive meaning, metaphor, connotative meaning.

“A THOUSAND SPLENDID SUNS” ROMANINING QIYOSIY TAHLILI VA UNING RUS VA O’ZBEK TILLARIGA TARJIMALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ming quyosh shu’lasi” romani va uning rus hamda o’zbek tillariga qilingan tarjimalari tahlil qilinadi. Qiyoziy tahlil jarayonida har bir millat madaniyatiga xos so’zlardan foydalanish, intertekstuallik, transliteratsiya, metafora va mantiqiy, nominativ va emotsiyal ma’no turlari o’rganiladi. Izlanish davomida tarjima jarayonida madaniyat muhim rol o’ynashi va badiiy asarni tarjima qilish tarjimondan ulkan matonat talab qilishi yaqqol namoyon bo’ladi.

Kalit so’zlar: taqqoslash, madaniyatga oid so’zlar, intertekstuallik, transliteratsiya, mantiqiy ma’no, nominativ ma’no, emotsiyal ma’no, metafora, ko’chma ma’no

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РОМАНА “A THOUSAND SPLENDID SUNS” И ЕГО ПЕРЕВОДОВ НА РУССКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ романа «Тысяча сияющих солнц» и его переводов на русский и узбекский языки с точки зрения использования культурно обусловленных слов, интертекстуальности, транслитерации, метафор, а также значений – логического, номинативного и эмотивного. В ходе анализа становится очевидным, какую важную роль играет культура в переводе и интерпретации текста, что требует от переводчика большой терпимости в процессе перевода того или иного литературного произведения.

Ключевые слова: сравнение, культурно обусловленные слова, интертекстуальность, транслитерация, логическое значение, номинативное значение, эмотивное значение, метафора, коннотативное значение.

Introduction. “A Thousand Splendid Suns” is a novel written by Khaled Hosseini, an Afghan-American novelist who could portray the lifestyle and culture of Afghan people by adding different colors to the plot of this literary work. It tells the story of Mariam, an illegitimate teenager from Herat, who is forced to marry a shoemaker from Kabul after a family tragedy. Laila, born a generation later, lives a relatively privileged life, but her life intersects with Mariam’s when a similar tragedy forces her to accept a marriage proposal from Mariam’s husband. This work was translated into more than 50 languages yet the comparison by us is based on the translated versions of eighth chapter in the Uzbek and Russian languages by Rustam Jabborov and Sergei Sokolov. The translators tried to keep original sense of the work and also contributed to

LITERARY CRITICISM

its popularity of being read by many around the globe. During the analysis, we will be able to see their competence in delivering translations in quite smooth and beautiful ways.

Materials and Methodology. For primary source, we took the eighth chapter of the novel “A Thousand Splendid Suns” by Khaled Hosseini, its translations into Uzbek “Ming quyosh shu’lasi” by Rustam Jabborov and into Russian “Тысяча сияющих солнц” by Sergei Sokolov. They are considered as the main objects of the analysis.

Besides, comparative and cultural-historical methods are used to write this article, because each word in this excerpt is analyzed in comparison by relying on cultural background of different nation.

Results and Discussion. “A Thousand Splendid Suns” by Khaled Hosseini is firstly translated into Russian, then from Russian into Uzbek language. While finding similarities and differences among them, we were able to count several features of each version. We have tried to define logical, nominal and emotive meanings of the words given in this chapter. Now, we want to give several examples to them by analyzing the literary work “A Thousand Splendid Suns” in 3 languages.

According to the logical meaning, we can tell that all sentences are constructed well following strict grammar rules. One thing, we have noticed during analysis was that there are a lot of simple sentences in English version of the work, whereas translator tried to make some complex sentences using conjunctions such as va, ammo in Uzbek version. Another example:

- The **size** of him almost made her gasp, and she had to drop her gaze, her heart hammering away. [1,35]
- Ostonada keng yag’rini, baland bo’yli erkak paydo bo’ldi, uning **haybatini** ko’rib, Maryamning nafasi ichiga tushib ketdi. [3,40]
- На пороге комнаты остановился высокий, широкоплечий и пузатый мужчина — такой **огромный**, что у Мариам дыхание перехватило. [2,39]

The highlighted words are used to describe the character Rasheed. The word *size* has connotative meaning, because it explores not dimension, but the hugeness of a person. It is translated into Russian as *огромный*, into Uzbek as *haybat*.

- The eyes, mirthless green and set so closely together that one might mistake her for being **cross eyed**. [1,36]
- Mahzun, moviy ko’zлari shu qadar yaqin joylashgandiki, bir qarashda uni **g’ilay** deb o’ylash mumkin. [3,40]
- Печальные зеленые глаза (посаженные так близко, что ее можно было принять за **косую**). [2,40]

This sentences are about the replacement of Mariam’s eyes. When author used word *cross eyed*, other translators had chosen *косую* and *g’ilay* which have somehow negative meanings.

When it comes to nominal meaning, we have chosen the name of characters in this literary work as well as name of the settings, as they are considered as proper nouns. **Mariam, Afsoon, Khadija, Nargis, Rasheed, Kabul** are the examples for this category. Among 3 languages, they are not changed and translated.

In order to express emotive meaning of the words, author and translators have used adjectives, adverbs, diminutives and others. In all versions, descriptions of Mariam’s and Rasheed’s appearance are explored by using adjectives. We can also see some phrases and words which depict characters’ feelings through the sequence of events. For example:

- 1) When he pulled out the chair for her, he tried to **smile encouragingly**. [1,35]

Mayin sochlari endigina yuvilgan Jalil **kulimsirash** urinib, Maryamga o’tirgani joy ko’rsatdi. [3,39]

Джалиль (коричневый костюм, красный галстук, пушистые волосы только что вымыты) указал ей на стул и попытался **ободряюще улыбнуться**. [2,39]

- 2) “Yes” she **said shakily**. [1,36]

“Нা”, dedi Maryam ovozi **titrab**. [3,40]

Да, — произнесла Мариам **дрожащим голосом**. [2,40]

In the first example, highlighted words are verb+adverb in all languages and they are describing actions, while being translated into Russian and Uzbek, they have kept their own features as part of speech. In the second example, only in Russian translation, it is changed like adjective+noun, *дрожащим голосом*.

- 3) And do you, **Mariam jan**, accept this man as your husband? [1,35]

А ты, **Мариам-джан**, принимаешь ли этого человека в мужья? [2,39]

- 4) **Mariam jo!** [1,38]

Maryamjo! [3,42]

Мариам-джо! [2,42]

LITERARY CRITICISM

In the third and fourth examples, there is a diminutive degree which is performed by the words such as *jan* and *jo*. In English and Russian, they are written separately from the name Mariam, when it is vice versa in Uzbek version.

5) His **harsh, raspy voice** reminded Mariam of the sound of dry autumn leaves crushed underfoot.

[1,35]

Rashid **dag' al ovozda** “ha” deya javob berdi. [3,40]

Да, — ответил Рашид **хриплым грубым голосом**. [2,39]

6) In it, Mariam saw her own face first, the **archless, unshapely eyebrows, flat hair, the eyes, mirthless green** and set so closely together that one might mistake her for being cross eyed. [1,36]

Maryam avval o'z aksiga boqdi: **qoshlari notejis, sochlari mayin va jonsiz, mahzun moviy ko'zlari** shu qadar yaqin joylashgandiki, bir qarashda uni g'ilay deb o'ylash mumkin. [3,40]

Сперва Мариам увидела в нем себя: **неровные брови, жидкие волосы, печальные зеленые глаза** (посаженные так близко, что ее можно было принять за косую), нечистая пористая кожа.

In the former sentences, adjectives are used as usual, coming before the noun. But in the latter, there is an inversion in English. Also in Uzbek language, theirs function as attributive changed into predicate, as they come after nouns (*qoshlari notejis, sochlari mayin va jonsiz*).

7) I used to worship you, **said** Mariam. [1,37]

Men sizni hamisha duo qillardim, dedi Maryam **o'pkasi to'lib**. [3,42]

Я молилась на тебя, — **выпалила** она. [2,41]

Uzbek and Russian translation can affect to the reader deeply, because it shows how in an awful situation Mariam is and even her inner thought can be read by only this phrase. In original version, it is given as *said*.

We can also analyze several cultural bound words and phraseological units:

English	Uzbek	Russian
She was taken to the room with then long, brown table, except now there was a bowl of sugar coated almond candy, Koran, a green veil , and a mirror. [1,35]	Uzun stol ustida vazada shakarli bodom, uning yonida esa Qur'on, ko'k chodra va oyna qo'yilgan edi. [3,39]	Посередине длинного тёмного стола стояла ваза с засахаренным миндалем, тут же лежали Коран, зелёная вуаль и зеркало. [2,39]
Mariam saw a tall man, thick bellied and broad shouldered , stopping in the doorway. [1,35]	Ostonada keng yag'rini , baland bo'yli erkak paydo bo'ldi. [3,40]	На пороге комнаты остановился высокий, широкоплечий и пузатый мужчина. [2,39]
The size of him almost made her gasp, and she had to drop her gaze, her heart hammering away . [1,35]	Ostonada keng yag'rini, baland bo'yli erkak paydo bo'ldi, uning haybatini ko'rib, Maryamning nafasi ichiga tushib ketdi . [3,40]	На пороге комнаты остановился высокий, широкоплечий и пузатый мужчина — такой огромный, что у Мариам дыхание перехватило . [2,39]
Then his slow, heavy footed movement across the room. [1,35]	Kuyov shahdam qadamlar bilan Maryam o'tirgan qatordan joy oldi. [3,40]	Мужчина, тяжко ступая , опустился на стул рядом с Мариам. [2,39]
So, in the interest of time, we will bypass some of the traditional steps to speed up the proceedings. [1,35]	Vaqtni tejash uchun biz rasm-rusumlarni tezlashtirishimiz lozim. [3,40]	Чтобы сберечь время, нам придётся пропустить некоторые традиционные звенья обряда . [2,39]
He asked Jalil if he had any objections to this union, he shook his head . [1,35]	Jalil bosh irg'adi . [3,40]	Джалиль отрицательно покачал головой . [2,39]
On Thursdays, I sat for hours waiting for you. [1,37]	Payshanba kelishini kutib, ko'zim to'rt bo'lardi . [3,42]	По четвергам я дождаться тебя не могла . [2,41]

Words which are connected with culture are called *culture-bound words*. What is most important in translating culture-bound words is the audience's perception and reaction. Translating culture-bound words and expressions is a serious problem, and the translator should look for equivalents in the language he is translating that correspond to those words and expressions, without translating them word by word, and if such equivalents do not exist, then translate them literally or give their meaning. Both Uzbek and Russian

LITERARY CRITICISM

translators gave perfect equivalent for each word representing their cultural aspects. Idioms and phraseological units are considered as essential part, while relating words to the term “culture”.

There are also another process which is called transliteration. It is a phenomenon of transferring a word from the alphabet of one language to another. Starting from the original language to Uzbek and Russian translations, the following words are not translated, but by changing some sounds, they are interpreted through the texts.

- 1) Mullah - мулла
- 2) Koran - Коран
- 3) Hijab - хиджаб
- 4) Nikka - никаб
- 5) Agha - ага

A stylistic device metaphor is used to enrich the language of the novel as well as depicting author's effective writing abilities. Metaphors can make words come to life, and often, writer can use it to make the subject more relatable to the reader or to make a complex thought easier to understand. Here, we can analyze some of them:

ENGLISH	UZBEK	RUSSIAN
Voice - dry autumn leaves	-	-
Teeth- a gabled roof	-	-
Nail- inside of a rotting apple	-	Ногти-словно сердцевина подгнившего яблока
Jalil- an overgrown child	Jalil-yosh boladek	Джалиль-словно мальчишка-переросток
-	Qoshlari jar labidagi yantoqdek	-

Instead giving the whole sentence, seeing examples in the table can remain in our memory for a long time. According to the table, we can conclude that a huge number of metaphor can be observed in original version, whilst in Uzbek and Russian, translators tried to find an appropriate phrase to give a pure meaning of the words.

Intertextuality is another device used in this novel. In “A Thousand Splendid Suns”, this is shown through the **Quran**. As it is religious book of Muslims, it can be reference of moral concepts for the relationship between wife and husband. In 8 section of the literary work, there is a scene where mulla reads Quran in the ceremony nikah. This connects the characters to the Islamic tradition of appreciating Quran during their life.

Another example is **Arabic letters**. While writing the name of Mariam, author wrote consonant sounds: the **meem**, the **reh**, the **ya**, the **meem** to remind us Arabic alphabet.

Next one is about our ancestor **Babur** who was born in Kabul lands but ruled India for many years. It is considered as Moghul emperor in English and Russian, but it is false. His roots go back to Timurids dynasty and he is from the generation of Tamurlane. Uzbek translator corrected this mistake relying on his knowledge about history.

Conclusion. To conclude, I could manage to gain a deep understanding of relevant similarities and differences of word usage, writing style, cultural concepts and author's attitudes by analyzing and comparing translations of literary work “A Thousand Splendid Suns” from the perspective of different cultures.

REFERENCES:

1. Hosseini, Khaled. *A Thousand Splendid Suns*. New York, Riverhead Books, 22 May 2007.
2. Хусейни, Халид. Тысяча сияющих солнц / перевод Сергея Соколова. - Москва, Phantom Press, 2009.
3. Ҳусайнӣ, Ҳолид. Минг қуёши шуъласи: роман / таржимон Рустам Жабборов. – Тошкент, Янги аср аэлоди, 2016. – 288 б.

BADIY MATN VA KITOBOXON MUNOSABATI: QAYTA O‘QISH YOKI DEKONSTRUksiYA STRATEGIYASI

*Farmonova Mohinur Faxritdinovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
farmonovamohinur91@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada matnning ko‘p qatlamliliga asoslangan qayta o‘qish, ya’ni dekonstruksiya strategiyasining mohiyati ochib berilgan. Ushbu tadqiqot obyekti badiiy matnga dekonstruktiv yondashuv va uning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Maqola badiiy asarning g‘oyasi va obrazlari tahliliga asosiyligini qaratadigan an‘anaviy tahlil nazaridan chetda qolib ketuvchi matndagi polifonik ohang, ko‘p qatlamlilik va kitobxon dunyoqarashi kabi jihatlarga diqqat qaratishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etgan. Badiiy matnning yagona talqinini yaratish mumkini emasligi borasidagi fikrlar kitobxon shaxsiyati bilan bog‘lab izohlangan. Maqolada adabiyotlar tahlili ilmiy-tanqilidiy yondashuvga asoslanadi. Muallif Jak Derridaning dekonstruksiya strategiyasini batafsil tushuntirgan, strategiyaning mohiyatini qamrab oluvchi umumiy xulosalar bergen va uni zamonaviy o‘zbek adabiy tanqildchiliga tatbiq qilish zaruratinini ta‘kidlagan.

Kalit so‘zlar: matn ko‘p qatlamliligi, dekodlash, deshifrovka, qayta o‘qish, differans, talqin, binar oppozitsiya, qayta yozish.

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ И ЧИТАТЕЛЕМ: СТРАТЕГИЯ ПЕРЕЧИТЫВАНИЯ ИЛИ ДЕКОНСТРУКЦИИ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность стратегии перечитывания, или деконструкции, основанной на многослойности текста. Объектом исследования является деконструктивный подход к художественному тексту и его своеобразные особенности. Статья актуальна благодаря тому, что в ней уделяется внимание таким аспектам, как полифонический тон, многослойность и мировоззрение читателя в тексте, которые остаются вне традиционного анализа, фокусирующегося на идеях и образах художественного произведения. Мысли о невозможности создания единой интерпретации художественного текста объясняются в связи с личностью читателя. Анализ литературы в статье основан на научно-критическом подходе. Автор подробно объясняет стратегию деконструкции Жака Деррида, приводит общие выводы, охватывающие сущность стратегии, и подчёркивает необходимость её применения к современной узбекской литературной критике.

Ключевые слова: многослойность текста, декодирование, дешифровка, перечитывание, дифферанс, интерпретация, бинарная оппозиция, переписывание.

THE RELATIONSHIP BETWEEN A LITERARY TEXT AND THE READER: A RE-READING OR DECONSTRUCTION STRATEGY

Abstract. This article reveals the essence of the re-reading or deconstruction strategy based on the multilayeredness of the text. The object of this research is the deconstructive approach to a literary text and its specific features. The article is relevant due to its focus on aspects such as the polyphonic tone, multilayeredness, and the reader’s worldview in the text, which remain outside the traditional analysis that focuses on the idea and images of a literary work. The ideas about the impossibility of creating a single interpretation of a literary text are explained in connection with the reader’s personality. The literature analysis in the article is based on a scientific-critical approach. The author explains Jacques Derrida’s deconstruction strategy in detail, provides general conclusions that cover the essence of the strategy, and emphasizes the need to apply it to modern Uzbek literary criticism.

Keywords: text multilayeredness, decoding, deciphering, re-reading, differance, interpretation, binary opposition, rewriting.

Kirish. 1960-yillarning o‘rtalarida jahon adabiyotshunosligida yuzaga kelgan strukturalistik yondashuv matnning tag ma’nosini undagi mavjud strukturaviy kodlarni tahlil qilish orqali kashf etish mumkin, degan qarashni ilgari surdi. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir matn cheksiz ma’nolarga ega va shuning

LITERARY CRITICISM

uchun matnni aniq talqin qilish mumkin emas. Badiiy matnni mutolaa qilish davomida o‘quvchi matnni qayta kodlaydi, ya’ni matn muallif kodidan o‘quvchi matniga dekodlanadi. Muallif kodi o‘z-o‘zidan o‘quvchi dekodlari ichida yo‘qolib ketadi. Ya’ni bu o‘rinda o‘quvchining dekodlash jarayonida – matnni idrok qilish jarayonida muallif kodlarining entropiyasi shu darajada ahamiyatsiz bo‘lib qoladiki, muallif matnining kodi o‘quvchi idrok qilgan matn kodlariga aylanib ketadi. Bu o‘rinda muallif so‘zi ham ahamiyatsizlashib, muallif butunlay yo‘qola boshlaydi. Bartning matnga bergan ta’riflaridan biri quyidagicha edi: “Matn ichkarida qoladigan tashqilikdir” [6;25]. Bu fikrni quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir: matn ko‘rinib turadigan reallik, hodisadir, lekin u aynan ko‘rinib turgan holaticha matn emas. Ya’ni o‘quvchi matnni o‘qigandan so‘ng uning ongida qoladigan “yuq”ni haqiqiy matn deb baholash mumkin. Aynan shu sababdan ham matn ichkarida qoladigan tashqilikdir. Qolaversa, Bartning matnga bergan yana bir ta’rifi borki, unga alohida to‘xtalish joiz: “Matn-yozuv – romansiz roman, she’rsiz she’r, inshosiz insho, uslubsiz yozuv, mahsulotsiz ishlab chiqarish, tuzilmasiz tuzilish” [6;22]. Bartning adabiyotga taqdim qilgan yangicha yondashuvi ayni shu jumlada to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Bu fikrni Bart tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin: matn kitobxon tomonidan o‘qib turib qayta yoziladi, shu sabab matn cheksiz yozuvga aylanadi – har bir kitobxon matnni o‘ziga xos tarzda qayta yaratadi; bu jarayon matnning hatto bitta o‘quvchisi qolganida ham davom etaveradi. Shu sababdan ham biz uni adabiy-nazariy qoliplarga sig‘dirolmaymiz, matnni she’r yoki roman sifatida baholash mumkin emas, chunki u har bir o‘quvchi ongida alohida struktura bilan yashaydi. Bu mulohazalarni tom ma’noda anglab yetish uchun fransuz olimi Jak Derrida tomonidan ishlab chiqilgan *qayta o‘qish strategiyasi* muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning muhokama qismida ayni shu strategyaning mohiyatini izohlashga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodlari. Maqolada ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va xulosalashda analiz, sintez, muhokoma usulidan foydalanildi. Nazariyotchilar fikrlarini qiyoslab, umumiy va obyektiv xulosaga kelish uchun qiyosiy tahlil metodiga ham murojaat qilindi.

Muhokama va natijalar. Badiiy matnni mukammal struktur tahlil qilishda matndagi kodlar ma’nosini ochib berish – deshifrovka jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon esa o‘z navbatida matnning tub qatlamlariga kirib borish natijasida yuz beradi. Bart ayni shu hodisani “qayta o‘qish” deb nomlaydi: “Darhaqiqat, qayta o‘qish til (ongdag‘i tizim) ishidir. O‘qish ma’nolarni aniqlashdir, ma’nolarni aniqlash esa ularni qayta nomlashga sabab bo‘ladi; ammo gap shundaki, qayta nomlangan bu ma’nolar boshqa nomlar tomon oshiqadi, shuning uchun ismlar bir-birining aks-sadosini, guruhanishini boshlaydi va bu guruhalr yana nomlashni talab qiladi: men nomlayman, nomlarni tanlayman, yana nomlayman va bu, aslida, matnning hayoti: bu – nominatsiya, uzluksiz yaqinlashish jarayoni. Qayta o‘qish – jamiyatimizning savdogarlik odatlari va masifikuraviy odatlari zid bo‘lgan faoliyat; yuqoridagi odatlar u yoki bu hikoyani o‘qib bo‘lgach, darhol uni “tashlab qo‘yish” va yangisini olishni, o‘zingizga boshqa kitob sotib olishni tavsiya qiladi. Biz o‘quvchilarining ayrim toifalari (bolalar, qariyalar va o‘qituvchilar) uchun qayta o‘qish huquqini tan olamiz; biz qayta o‘qishni boshlang‘ich tamoyil sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilamiz, chunki faqat u matnni takrorlashdan himoya qilishi mumkin (qayta o‘qishni e’tiborsiz qoldiradigan odamlar har qanday matndan bir xil hikoyani o‘qishga majbur bo‘ladi)” [6;27].

Matnning ko‘p qatlamlilagini inobatga olgan holda, uning eng teran qatlamini anglish uchun qayta o‘qish odatini shakllantirish kerak. Faqat shundagina siz har bir matnning o‘ziga xos bo‘lgan asl matniy go‘zallikni his qilasiz; aksincha, yuza qatlam bilan kifoyalaran ekansiz, siz dunyo adabiyotining xoh janriy, xoh g‘oyaviy, xoh uslubiy xilma-xil asarlarini o‘qisangiz ham, baribir muallif to‘sig‘idan osha olmaysiz. Qayta o‘qish matnni vaqt va makon chegarasidan tashqariga olib chiqishi, har qanday tashqi bog‘lardan xalos qilishi kerak. Faqat matn va kitobxon, boshqa hech kim va hech nima! Bart ta’kidlagan haqiqiy matn shu muhitda o‘qib turib yoziladi. Badiiy matnning go‘zalligi ham, qudrati ham shunda. Matn har bir kitobxonga ko‘ra alohida hodisaga aylanib boraveradi, har bir o‘quvchi uni o‘z shaxsiyati, ilmi va dunyoqarashiga qarab, qayta kashf qiladi. Bu uchun esa matn bir marta emas, qayta-qayta o‘qilishi lozim, shundagina kitobxon dastlabki o‘qish stereotiplarini yenga oladi. Bu esa o‘z navbatida yangicha kitobxonlik madaniyatini shakllanishiga zamin hozirlaydi. Bugungi dunyo adabiyotining shaxsiyat dolzarb mavzuga aylangan namunalarini o‘qib, zavq olish uchun ayni shu dekonstruksiya strategiyasiga zarurat sezilmoqda.

Bart “qayta o‘qish” deb nomlagan uslubga Derrida chuqur to‘xtaladi va uni “dekonstruksiya strategiyasi” deb ataydi. Dastavval, bu atamaning izohiga to‘xtalsak: “Dekonstruksiya” so‘zi fransuzcha “deconstruction” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘z “de” (tashqariga, olib tashlash) va “construction” (qurilish, yaratish) degan ikki qismdan iborat. U, asosan, postmodernizm va falsafa kontekstida qo‘llaniladi. Bu uslub matnlarning yoki fikrlarning ichki tuzilishini tahlil qilish va ularni an‘anaviy tushunchalardan ozod qilishni maqsad qiladi. Dekonstruksiya metodologiyasi matn yoki nazariyani bir necha qatlamlarga ajratishga yordam beradi va uning ichidagi qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Umuman olganda, dekonstruksiya – bu

LITERARY CRITICISM

biror narsaning o‘ziga xosligini yoki qoidalarini qayta ko‘rib chiqish jarayoni bo‘lib, u ko‘pincha an‘anaviy fikrni tanqid qilish va yangicha nuqtayi nazar keltirish uchun qo‘llaniladi.

Derrida o‘z ilmiy tadqiqotlarida [2] dekonstruksiya deb nomlagan yangicha o‘qish yondashuvini faqatgina maqsadga yetkazuvchi to‘g‘ri strategiya sifatida ko‘radi. Adabiyotshunos Charlz E. Bressler “Adabiy tanqid: nazariya va amaliyotga kirish” asarida badiiy matn xususiyatlari haqida yoza turib, Derridaning dekonstruksiya nazariyasiga ham to‘xtaladi: “...bu metodologiya emas, nazariya ham emas, balki adabiyotga bir yondashuv, strategik vositadir” [1;117]. Bizningcha ham, dekonstruksiya kitobxonni yuqori saviyaga ko‘tarilishga undaydigan strategiyadir. Derrida o‘z ta‘limotida matnning chinakam egasi kitobxondir, degan fikrni ilgari suradi, ayni shu fikr asosida matn muallif emas, balki kitobxon hukmi asosida ekan, demak, uning yakuniy tahlili borasida mulohaza yuritish imkonsizdir, degan xulosaga keladi.

Derrida o‘zining yangicha o‘qish strategiyasini tushuntirishni Ferdinand de Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” [3,8] asarini tahlil qilishdan boshlaydi. Derrida Sossyurning lingvistik belgining ixtiyoriy va an‘anaviy ekanligi haqidagi farazini qabul qiladi. Shuningdek, lingvistik belgining ikki qismidan iboratligini ta’kidlaydi: “belgi” (signifier) va “belgilangan” (signified), ya’ni belgi orqali ifodalangan tushuncha. Sossyur uchun til ichidagi ma’no belgilarning farqlari asosida yaratilgan tizimlashtirilgan tovushlar kombinatsiyasiga joylashadi, bu esa belgilarning ichki xususiyatlariga bog‘liq emas. Bu tushuncha — til mohiyatidagi ma’noning belgilardagi o‘zaro farqlar bilan aniqlanishi — Derridaning dekonstruksiya nazariysi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Yorqinroq tasavvurga ega bo‘lish uchun bu fikrni fonema-tovush ziddiyati misolida tushuntiramiz: fonemadagi belgining farqlari asosida yuzaga chiqadigan tovushlar kombinatsiya hosil qiladi. Masalan, til tizimidagi [a] fonemasining nutqda turli shakllari mavjuddir, tabiiyki, ular orasida ma’lum bir o‘ziga xos farqlar ham bo‘ladi: *qarz* (talaffuzi qattiq a), *səhīh* (talaffuzi yumshoq a), *tabiat* (talaffuzi tor a), *otə* (talaffuzi keng a), ... Demak, [a] fonemasining reallashi sifatida yuzaga chiqqan tovushlar kombinatsiyasidagi ma’lum bir ziddiyati farqlar fonemанин asl mohiyatini tashkil qiladi. Derridaning dekonstruksiya strategiyasi Sossyur ilgari surgan ayni shu fikrlarga tayanadi – *har qanday matnning tub mohiyati, qatlamlararo ma’nosи faqatgina uning o‘quvchi tomonidan o‘qilgan variantlaridagi farqlar, shu farqlar yuzaga chiqargan ziddiyatlar asosida shakllanadi*.

Xulosalar va takliflar. Jak Derridaning tadqiqotlarini o‘rganib chiqib, dekonstruksianing asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarga to‘xtaldik:

1. Ma’no va matnning o‘zaro bog‘liqligi: Derrida, ma’no doimo o‘zgaruvchan va matnga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. U ma’noni biror narsa bilan cheklash mumkin emasligini, shu sababdan matnning yagona va oxirgi tahlilini yaratib bo‘lmasligini aytadi. Haqiqiy matn uchun zamон, makон va shu bilan bir qatorda muallif chegarasi bo‘lmasligi kerak. Har bir matnning kitobxonlar ongida minglab talqinlari bo‘lishi kerak va bu holat strukturalizm uchun juda tabiiydir.

2. Ikkilik ziddiyati (binar oppozitsiya): Derrida, an‘anaviy falsafada mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni (masalan, subyekt va obyekt, moddiyat va ruhiyat) dekonstruksiya qilishni taklif qiladi. U bu qarama-qarshiliklarning aslida bir-birini to‘ldirishi va bir-biriga bog‘liqligini badiiy matn misolida ko‘rsatadi.

3. Differans tushunchasi: Derrida “différance” (farqlash) atamasini kiritadi, bu matnning yakunlovchi ma’nosи bo‘lmasligini va har bir matn boshqa matnlар orqali ma’no kasb etishini anglatadi. Bu tushuncha, ma’nuning statik emas, balki dinamik jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Differansning ahamiyati shundaki, matnni o‘qiyotganda aynan o‘sha matn endi mavjud emas. Chunki barcha ma’no va bilimlar farqlarga asoslanganligi sababli, biror matn faqat bitta narsani anglatishi mumkin emas; matnlар intertekstual holatdadir. Bir matnning ma’nosи boshqa ko‘plab matnlarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadi. Ushbu atama mohiyatiga ko‘ra, kimdir matnning bir talqinini to‘g‘ri deb e’tirof etishi yoki boshqa talqinini notо‘g‘ri deb aytishi mumkin emas; chunki matndagi ma’no doimo harakatda, dinamik va vaqtincha hisoblanadi.

4. O‘qish va talqin: dekonstruksiya o‘qish jarayonida matnni faqat uning yuzaki ma’nosи bilan cheklamaydi. Balki matnni qatlamlarga ajratish va qatlamlararo tub ma’noni ilg‘ay olishni zaruratga aylantiradi. Bu borada esa o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, ilmi va tajribasi muhim rol o‘ynaydi.

5. Qayta yozish: Derridaning nazariyasida dekonstruksiya jarayoni mavjud matnlarni qayta yozish va ularni yangi kontekslarda ko‘rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Bu esa faqat kitobxon ongida yuz beradi. Matnning o‘quvchisi bor ekan, dekonstruksiya jarayoni hech qachon to‘xtamaydi.

Derridaning qayta o‘qish strategiyasi yangilanayotgan tafakkur mahsuli sifatida yaratilayotgan modernistik va postmodernistik adabiyot namunalarini tahlil qilish jarayoniga tatbiq qilinsa, o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy tanqidning, qolaversa, kitobxonlikning yangi bosqichini boshlab beradi. Badiiy matn bilan aloqador ilmiy tadqiqotlar ham bu yangicha yondashuvga asoslansa, obyektiv xulosa chiqarish osonlashadi. Bu esa jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi sahnasida o‘zbek adabiyotining mavqeyini yana-da yuksaltirishga ta’sir ko‘rsatadi.

LITERARY CRITICISM

ADABIYOTLAR:

1. Bressler, Charles E. *Literary Criticism and Introduction to Theory and Practice*. New Jersey: Pearson Education, 2007. – P.118.
2. Derrida, Jacques. “Structure, Sign, and Play in the Discourse of the Human Sciences” in *The Languages of Criticism and the Sciences and The Sciences of Man: The Structuralist Controversy*. eds. Richard Macksey and Eugenio Donato. Maryland: John Hopkins University Press, 1970.
3. Ferdinand de Saussure. *Cours de linguistique générale*. Wiesbaden, Harrassowitz, 2, 1968. -P. 272.
4. Rasulov A. *Struktura va strukturalizm*. – Manba: Rasulov A. Badiylik – bezavol mezon. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh muharriyati, 2007.
5. Semih Gümuş. *Modernizm ve Postmodernizm*. Istanbul.,2021.
6. Барт Ролан .S/Z (перевод с французского Г. К. Косикова и В.П.Мурат). — М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С.25
7. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989.
8. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. Пер. с французского. М.: Едиториал УРСС, 2004. — 256 с.
9. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 371 с.
10. <https://coollib.net/b/194994-ilya-petrovich-ilin-poststrukturalizm-dekonstruktivizm-postmodernizm/read>
11. <https://www.thecollector.com/jacques-derrida-postmodernism/>
12. <https://literariness.org/2019/04/17/the-philosophy-of-jacques-derrida/>
13. <https://cyberleninka.ru/article/n/rolan-bart-tekst-i-zhizn>
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/rolan-bart-paradigma-neytralnoe-dao>
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/taynaya-zhizn-slov-literaturnaya-teoriya-rolana-barta/viewer>

PIRIMQUL QODIROVNING «YULDUZLI TUNLAR» ROMANIDAGI KO‘CHIMLAR VA STILISTIK JIHATLARI

*Hamroyeva Laylo Zulfidinovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik
litseyi xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
khamrayeva_98@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini misolida inglizcha tarjimalardagi ko‘chimlarning talqini va ularning ahamiyati tahlil etiladi. Maqola, tarjima jarayonida ko‘chim va boshqa badiiy elementlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni ko‘rsatadi va ularning samimiyatini saqlab qolish uchun qanday strategiyalarni qo‘llash mumkinligi muhokama qilinadi. Shuningdek, romandagi metaforalarning badiiy ahamiyati va stilistik jihatlari o‘rganilib, ko‘chimlarning roman mazmuniga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatiladi. Bu tahlillar orqali o‘quvchilarga "Yulduzli tunlar" romanining tarjima jarayonidagi o‘ziga xosliklari va badiiy tafakkurining muhim jihatlari haqida yanada chuoqorroq tushuncha beriladi.

Kalit so‘zlar: ko‘chimlar, badiiy asar tarjimasi, badiiy elementlar, stilistik jihatlar, "Yulduzli tunlar".

МЕТАФОРЫ И ИХ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА «ЗВЁЗДНЫЕ НОЧИ»

Аннотация. В данной статье на примере романа Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи» анализируется интерпретация метафор в английских переводах и их значение. В статье демонстрируются трудности, связанные с метафорами и другими художественными элементами в процессе перевода, и обсуждается, какие стратегии можно применить для сохранения их аутентичности. Также исследуются художественное значение и стилистические аспекты метафор в романе, показывается, как они влияют на содержание произведения. Благодаря этому анализу читателям предоставляется более глубокое понимание особенностей романа «Звёздные ночи» в процессе перевода и важных аспектов художественного мышления.

Ключевые слова: метафоры, перевод художественного произведения, художественные элементы, стилистические аспекты, «Звёздные ночи».

METAPHORS AND THEIR STYLISTIC ASPECTS IN PIRIMKUL KADYROV’S NOVEL “STARRY NIGHTS”

Abstract. This article analyzes the interpretation of figurative language in English translations and its significance using the example of Pirimqul Qodirov’s novel «Starry Nights». The article highlights the challenges associated with translating figurative language and other literary elements, and discusses strategies that can be applied to preserve their authenticity. Additionally, the artistic significance and stylistic aspects of metaphors in the novel are examined, demonstrating how figurative language influences the novel’s content. Through these analyses, readers gain a deeper understanding of the unique features of «Starry Nights» in the translation process and the important aspects of its artistic expression.

Keywords: figurative language, literary translation, artistic elements, stylistic aspects, «Starry Nights».

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni tarjima qilish, ayniqsa, ko‘chirmalarning tahlili muhim o‘rin tutadi. Tarjima jarayonida ko‘chirmalar orqali asarning badiiy qiymati, muallif uslubi va milliy madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini o‘quvchiga yetkazish tarjimon oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Ushbu maqola Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi ko‘chirmalarning inglizcha tarjimasini o‘rganish, ularning talqini va badiiy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Mazkur tahlil jarayonida quyidagi asosiy jihatlar o‘rganiladi: romandagi ko‘chirmalarning mazmuni va ularning inglizcha tarjimada qanday o‘zgargani, tarjima jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar hamda metaforalarning badiiy ahamiyati. Bu jihatlar nafaqat tarjimonlar, balki adabiyotshunoslar uchun ham romanining mazmunini chuoqorroq anglash va tarjima sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Inglizcha tarjimalardagi ko‘chimlarning talqini va ularning ahamiyati

LITERARY CRITICISM

Tarjima jarayonida ko'chimlarni asliyatdagi badiiy ruhni saqlagan holda boshqa tilga o'tkazish juda murakkab ijodiy jarayon bo'lib, inglizcha tarjimada ham bunga alohida e'tibor qaratilgan. "Starry Nights" tarjimasi tahliliga ko'ra, quyidagi tamoyillar tarjimadagi ko'chimlar ifodasida muhim o'rinni tutadi:

Mazmuniy aniqlik: Asliyatdagi ko'chimning mazmuni tarjima tilida to'liq aks ettirilgan. Bu o'quvchiga Boburning ichki kechinmalarini his qilish imkoniyatini beradi.

Badiiylikni saqlash: Tarjimon o'zbekcha badiiy obrazlarni ingliz tilida estetik jihatdan boy uslubda ifodalashga harakat qilgan. Masalan, "yurakdagagi yulduzlar" kabi iboralar ingliz tilida "stars within the heart" tarzida o'ziga xos ohang bilan keltirilgan.

Madaniy moslashuv: O'zbek tilidagi ba'zi ko'chimlar ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilishi qiyin bo'lган. Shunday hollarda tarjimon mazmunni madaniy kontekstga moslab, boshqa ko'chimlar orqali ifodalagan. Masalan, "Boburning tog'lar bilan suhbatlashishi" kabi obrazlar ingliz tilida "Bobur's dialogue with the mountains" tarzida qayta ishlangan.

2.Tarjima nazariyasida ko'chimning o'rni

Ko'chimni tarjimada to'g'ri aks ettirish ilmiy jihatdan bir necha nazariy asoslarni talab qiladi. Tarjima nazariyasida quyidagi asosiy yondashuvlar e'tiborga olinadi:

- **Dinamik ekvivalentlik (Dynamic equivalence):** Tarjimada matnning literal ma'nosi emas, balki uning hissiy va madaniy ta'siri saqlanishi kerak. Masalan, asl matndagi kuch ifodalarini boshqa madaniyatda o'xshash hissiyot uyg'otadigan obrazlar bilan almashtirish.

- **Madaniy moslashuv (Cultural adaptation):** Tarjimon "begonalashtirish" yoki "tanishlashtirish" usullaridan foydalanishi mumkin. Bu yondashuvlarda tarjimon matnni o'quvchiga yaqinlashtiradi yoki uni asl madaniyat kontekstida saqlab qolishga harakat qiladi.

- **Literal va kontekstual yondashuv:** So'zma-so'z tarjima qilish usuli ko'pincha ko'chimning chuqur semantik ma'nosini yo'qotadi. Shu sabab, tarjimon matnni chuqur kontekstda tushunishi va ijodiy yondashishi muhim.

Ko'chimni tahlil qilishning ahamiyati

Ko'chimlar orqali yozuvchi o'z asarida bir nechta ma'nolarni birlashtiradi: tarixiy voqealiklar, ijtimoiy qarashlar va madaniy qadriyatlar. Bu tushunchalarni tahlil qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- **Asarning asosiy g'oyasini anglash:** Ko'chimlar orqali yozuvchi o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealiklarni qanday tasvirlaganini tushunish.

- **Tarjima jarayonini baholash:** Tarjima davomida ko'chimlarning qay darajada saqlanganligini va qanday usullar qo'llanilganligini aniqlash.

3.Romanda metaforalarning stilistik jihatlari

Adabiyotlar shari. Romanning badiiy jihatlarini tahlil qilishda, metaforalarning stilistik roli ham alohida e'tiborga loyiqidir. Qodirovning yozuv uslubi, uning metaforalarga bo'lgan yondoshuvi adabiyotshunoslikda o'ziga xos o'rın egallaydi.

Stilistik tahlil: Yulduz va tun obrazlarining ishlatalishi

Qodirovning yulduzlar va tunlarni metafora sifatida ishlatalishi, albatta, uning stilistik ustaligini ko'rsatadi. Ushbu tasvirlar ko'pincha uning asarida psixologik va ma'naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi kuchli tasvirlar sifatida paydo bo'ladi. Ular o'quvchiga inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ko'rsatadi, uning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.

Qahramonlar va metaforalarning stilistik integratsiyasi

Qahramonlarning hayotdagi o'z o'rnnini topish yo'li va ularning yulduzlar va tunlar obrazlarida qanday tasvirlanganligi, romanning stilistik manzarasini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Har bir qahramon o'zining ichki kurashini metaforalarda ifodalaydi, bu esa romanni stilistik jihatdan yanada boyitadi.

Badiiy tasvir vositalari

Metafora va taqqoslashlar: Qodirov romanida metafora va taqqoslashlar keng qo'llanib, voqealodisalarni yanada obrazli va ta'sirchanroq ifoda etadi. Masalan, tabiat tasvirlari orqali qahramonlarning ichki kechinmalarini ko'rsatilgan.

Epitetlar va tasviriy iboralar: Obrazlar va hodisalarning chuqurroq ifodalaniishi uchun muallif epitetlarni mohirona ishlatajdi. Bu orqali voqealar va personajlarning his-tuyg'ulari tasviriy jihatdan boyitiladi.

Dialoglarning stilistik funksiyasi

Dialoglar yordamida nafaqat voqealarning rivojlantiriladi, balki qahramonlarning psixologiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeyi ham ochib beriladi. Har bir dialog dramatik kuchga ega bo'lib, romanning umumiy badiiy kompozitsiyasini mustahkamlaydi.

Dialoglarda qadimgi fors va turkiy tillar izlari, sheva elementlari ham uchraydi, bu esa tarixiy davrga xos realizmni kuchaytiradi.

LITERARY CRITICISM

Simvolik va allegorik elementlar

Asarda ayrim hodisalar va obrazlar ramziy ma'noga ega. Masalan, tabiat tasvirlari (tong, yulduzli tun, daryo) orqali inson va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglatadigan falsafiy mazmun shakllangan.

"*Bilagingizda kuch ko'p, amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir!*" –asl matn ("Yulduzli tunlar" Primqul Qodirov)

Stilistik jihatdan tahlil qilsak:

Muhokama. Bu gap badiiy uslubda yozilgan. Undagi metaforalar ("Sherpanjasiz", "Bobur arabcha sher demakdir") ifodalaniш kuchini oshiradi. Undagi so'z tanلامи ("amirzodam", "Podshoh hazratlari") voqealikni xususiy va nisbatan rasmiy tarzda tasvirlaydi. Gap tuzilishi murakkab, fe'l bilan tugallangan. Bu uslubiy jihatdan gap mazmunini kuchaytiradi. Bunda Bobur obrazini kuchli, botir va hurmatli inson sifatida taqdim etadi...

Stilistik Tahlil.

(Asl matn) *E'tibor bergan bo'lsangiz, uning unvoni: «Xalifayi Rahmon, Iskandari soniy!». Shayboniyxon Iskandar Zulqarnayndek barcha mamlakatlarni fath etmoqchi, yana bu bilan qanoatlanmay, butun musulmon olamining diniy rahbari . Xalifayi zamon bo'lmochi! (Yulduzli Tunlar asaridan olingan parcha)*

Did'nt you notice his title ? Warior caliph. 'Like Iskander the Two -Horned, Shaybani has set his sihts on the whole world! And sees himself as caliph, spiritual leader.... He even wants the soul of every Muslim!"(Carol Ermakova tarjimasi)

Berilgan parchada, P. Qodirovning "Yulduzli tunlar" asariga asoslanib, Carol Ermakova tomonidan qilingan tarjimada ko'chimlar va ularning stilistik jihatlari quyuq tahlil qilinishi mumkin. Ushbu ko'chimlar matnning semantik va estetik qirralarini ochib beradi.

1. **Metafora va tarqoqlik:** "Iskander Zulqarnay" obrazida qudrat va hukmronlikning badiiy tasviri ko'rindi. Ermakovaga tarjima qilishda, "warrior caliph. ' Like Iskander the Two-Horned" degan iboralarni qo'llagan, bu usul orqali tarixiy aloqalarni kuchaytiradi. Iskandar qahramonligi va Xalifa unvonining to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishi ko'chim orqali asarning semantik qatlamin kengaytiradi.

2. **Chuqurlashtirish:** "Shaybani has set his sights on the whole world!" iborasi imkoniyat va maqsadlarning kengligini ko'rsatadi. Bu erda "eyes on the whole world" ko'chimi yordamida Shaybaniyning ambitsiyalari badiiy usulda keltirilgan. Tarjima jarayonida rayosat, belgi va qahramon obrazini yanada chuqurlashtirish uchun kerakli yondashuv qo'llaniladi.

3. **Tarjimalarda ruhiyat aks ettirish:** Asl matndagi "butun musulmon olamining diniy rahbari" kabi iboralar tarjimada "spiritual leader" qilib o'zgartiriladi. Bu ko'chim orqali tarjimachi Iskandar o'rnidagi autoridad va ruhiy hokimiyatni aks ettiradi, va bu raqamlashuv qahramonning ichki motivatsiyasini ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Natijada bu parchada ko'chimlar P. Qodirovning asaridagi badiiy ma'no va ichki hissiyotlarni qayta tiklaydi. Ermakova metin va shaklni saqlab qolgan holda, o'quvchida kuchli tasavvur va hissiy reaksiyalar yaratadi. Bunday stilistik jarayonlar tarjima vaqtida, matnning mahiyati va ruhiyatini uzluksiz saqlashga imkon beradi. Tarjima orqali ko'rsatilgan ko'chimlar, asar muallifining original g'oyasini yanada boyitadi va o'quvchilarga muallifning niyatini aniq yetkazadi.

Biroq... kemaga tushganning joni bir bo'lmasmi? – «Jonimiz bir» deb bechora singlimga shuncha azob bergenlaringiz yetar. Ozib cho'p bo'lib keldi. Endi sog'ayganda yana sarsonlik, yana lomakonlik! (Asl matn , Yulduzli tunlar asaridan parcha)

So much for a common fate My poor sister has suffered so much And it is you who set that 'coomon fate ' for her. Has'nt she suffered enough now ? She came from starving Samarkand nothing but a sliver of a sliver. She has just recovered and now you want to subject her to more ordeals!What for? (Carol Ermakova tarjimasi)

Berilgan parchada P. Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida, va Carol Ermakova tomonidan qilingan tarjimada ko'chimlarning stilistik jihatlari bilan bog'liq qiyosiy tahlilni amalga oshirish mumkin. Har ikkala versiyada muallifning hissiyati va obrazlari kuchli aks ettirilgan.

1. "**Biroq... kemaga tushganning joni bir bo'lmasmi?" vs. "So much for a common fate..."**

• **O'zbekcha variant:** "Biroq... kemaga tushganning joni bir bo'lmasmi?"

• **Inglizcha tarjima:** "So much for a common fate..."

Tahlil: O'zbekcha ifoda "joni bir bo'lmasmi?" degan savol bilan hayotiylikni tushunishga chaqiradi, ya'ni umumiy muhabbat, bir-biriga bog'liqlikni tasvirlaydi. Tarjimada esa, "so much for a common fate" iborasi bilan tafakkur tarzida so'zlanadi va har bir qahramonning qismati ko'plab azoblarga sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Bu ko'chimlar hissiy yuki o'zgartiradi, o'zbek tilidagi ibora tomonidan nafaqat o'zaro bog'lanish,

LITERARY CRITICISM

balki hamjihatlikni ham hissiy ahamiyatga ega bo'lgan hidoi qaratilmoqda. Inglizcha variant bu ahamiyatni yanada amaliy ko'rinishda tajribali qiladi.

2. "«Jonimiz bir» deb bechora singlimga shuncha azob bergenlaringiz yetar." vs. "And it is you who set that 'common fate' for her."

- O'zbekcha variant: "«Jonimiz bir» deb bechora singlimga shuncha azob bergenlaringiz yetar."
- Inglizcha tarjima: "And it is you who set that 'common fate' for her."

Tahlil: O'zbekcha ibora bechora singlini ko'rsatadi va "shuncha azob bergenlaringiz yetar" so'zlari kuchli hissiy hissiyor bilan ifodalangan. Bu ta'kid, ayblov va dardni ko'rsatadi. Ingliz tilidagi "And it is you who set that 'common fate' for her" iborasi esa qattiq ayblov va oniy pozitsiyaga keladi; bu ilgari mavjud bo'lgan tuzilmalarni Shaxsiy mas'uliyatga bog'laydi.

3. "Ozib cho'p bo'lib keldi." vs. "She came from starving Samarkand nothing but a sliver of a sliver."

- O'zbekcha variant: "Ozib cho'p bo'lib keldi."
- Inglizcha tarjima: "She came from starving Samarkand nothing but a sliver of a sliver."

Tahlil: O'zbek tilidagi ibora "ozib" va "cho'p" so'zlari bilan singlini jismonan va ruhiy jihatdan qanday muammolarni boshdan kechirgani haqida aniq tasavvur beradi. Bu ko'chim oddiy, ammo kuchli. Tarjimada "starving Samarkand" ifodasi ham muhim kontekst taqdim etadi, bu yerda muallif geografik joyni va u erdag'i qiyinchiliklarni ta'riflaydi. "nothing but a sliver of a sliver" iborasi esa, nafaqat jismoniy zaiflikni, balki ruhiy darajada ham befarqlikni ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar orqali asl holat haqida yanada chiroyli va yorqin tasavvur hosil bo'ladi.

4. "Endi sog'ayganda yana sarsonlik, yana lomakonlik!" vs. "She has just recovered and now you want to subject her to more ordeals! What for?"

- O'zbekcha variant: "Endi sog'ayganda yana sarsonlik, yana lomakonlik!"
- Inglizcha tarjima: "She has just recovered and now you want to subject her to more ordeals! What for?"

Tahlil. O'zbekcha iborada "sog'ayganida yana sarsonlik, yana lomakonlik" so'zlari bechora singlidan olingan azob-uqubatlarni ifodalash uchun ortiqcha bayonlar keltiradi. Bu ko'chim nafaqat jismoniy holatni, balki ruhiy holatni ham yoritadi. Tarjimada "you want to subject her to more ordeals" iborasi orqali muallif shaxsiy ayblov ko'rsatadi va hayotdagi yangi qiyinchiliklarga duchor qilinishi haqidagi savolni qo'yadi. "What for?" iborasi, o'quvchini, ichkaridagi hissiyorlar va anglashlar yordamida yanada chuqur fikr yuritishga undaydi.

Xulosa. Ushbu maqola Primqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi ko'chimlar va ularning inglizchaga tarjima jarayonidagi ahamiyatini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Ko'chimlar, badiiy asarlarda muhim rol o'ynab, roman mazmuni va muallifning yaratgan obrazlari bilan bog'liq bo'lib, tarjima jarayonida ularga beriladigan talqinlar va ularning saqlab qolish muammolari alohida e'tiborni talab qiladi. Ushbu tahlil natijasida, dastlabki yozilgan asar va uning ingliz tilidagi tarjimalari o'rtasidagi tafovutlarning chuqur tahlili, o'quvchilarga badiiy asarlardagi tarjima jarayonining murakkabligi va uning nitqiy unsurlarining ta'sirini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Natijada, "Yulduzli tunlar" romanining badiiy qiymati va tarjimada saqlanadigan estetik hissiyorlar o'rtasidagi aloqalar ko'rilib, asarning o'ziga xosligini yanada oydinlashtiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
2. "Starry Nights" (Tarjima qiluvchi: Carol Ermakova). – La Maison de l'Ouzbékistan, Nouveau Monde Éditions. ISBN: 978-2-38094-388-7.
3. Алексеева И.С. "Введение в переводоведение". – Москва: МГУ, 2004.
4. Newmark, Peter. "A Textbook of Translation". – Prentice Hall, 1988.
5. Jung, C.G. (1964). *Man and His Symbols*. London: Aldus Books.
6. Shklovsky, V. (1965). *Art as Technique*. In L. T. (Ed.), *Russian Formalist Criticism: Four Essays*. Lincoln: University of Nebraska Press.

DETEKTIV ADABIYOT: TARIXI, EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TALQINI

Izamova Nigin O'ktamovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
izamovanigina08@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada detektiv janrining xalq og'zaki ijodidan tortib, zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan rivojlanish tarixi yoritiladi. Dastlab xalq dostonlari, afsonalar va rivoyatlarda uchraydigan sirli voqealar va jinoyat syujetlari tahlil qilinadi. Keyinchalik, yozma adabiyotda detektiv janrining shakllanishi va taraqqiyoti, uning klassik namoyandalari va zamonaviy adabiyotdagi o'zgarishlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, janrning adabiyotimizdagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Maqola detektiv janrining asosiy xususiyatlari, uslublari hamda uning jahon adabiyotiga ta'sirini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: folklor, gotik romanlar, jinoyat qirolichalari, Newgate Calendar, modernistik detektivlar, postmodern detektivlar, zamonaviy detektiv yozuvchilar.

ДЕТЕКТИВНАЯ ЛИТЕРАТУРА: ИСТОРИЯ, ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В статье рассматривается развитие детективного жанра от устного народного творчества до современной литературы. Анализируются таинственные события и криминальные сюжеты, встречающиеся в народных сказаниях, легендах и преданиях. Далее освещается становление и эволюция детективного жанра в письменной литературе, его классические представители и изменения в современном литературном процессе. Также изучается роль жанра в национальной литературе и тенденции его развития. Статья направлена на раскрытие основных особенностей, стилей детективного жанра, а также его влияния на мировую литературу.

Ключевые слова: фольклор, готические романы, королевы преступлений, Newgate Calendar, модернистские детектизы, постмодернистские детектизы, современные детективные писатели.

DETECTIVE LITERATURE: HISTORY, EVOLUTION, AND MODERN INTERPRETATION

Abstract. The article explores the historical development of the detective genre from folklore to modern literature. It first analyzes mysterious events and crime plots found in folk epics, legends, and tales. Then, it discusses the formation and evolution of the detective genre in written literature, highlighting its classic representatives and transformations in contemporary literary works. Additionally, the article examines the role of the genre in national literature and its development trends. The study aims to shed light on the key characteristics, styles, and global influence of the detective genre.

Keywords: folklore, gothic novels, queens of crime, the Newgate Calendar, modernistic detectives, postmodern detectives, modern detective writers.

Kirish. Detektiv janri dunyo adabiyotida keng rivojlangan bo'lib, o'z o'quvchilarini sirli hodisalar, jinoyat tergovlari va aql bovar qilmas voqealar bilan rom etadi. Dunyo adabiyotida detektiv syujetlar dastlab xalq ertaklari va dostonlarida kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u mustaqil janr sifatida shaklland. O'zbek adabiyotida esa detektiv janrga bo'lgan qiziqish nisbatan kech shakllangan bo'lsa-da, uning ayrim elementlari milliy adabiyotimizning turli bosqichlarida uchraydi. Detektiv janrining shakllanishi XIX asrda G'arb adabiyotida Edgar Allan Po tomonidan boshlab berilgan bo'lsa, XX asrda u butunlay mustaqil yo'naliishga aylandi. Shu bilan birga, detektiv janrining rivojlanishi jahon adabiyotida turli davrlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijtimoiy o'zgarishlar, huquq tizimining rivojlanishi va adabiy oqimlar ta'siri ostida o'zgarib kelgan. Mazkur maqolada detektiv janrning paydo bo'lishi, turli adabiy oqimlar ta'siri ostida o'zgarishi va zamonaviy adabiyotda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – detektiv janrning rivojlanish jarayonini tarixiy, sotsiologik va estetik jihatdan o'rganish hamda adabiy davrlar bilan bog'liqligini aniqlashdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Ushbu tadqiqot obyekti sifatida har bir adabiy davrning eng mashhur asarlari tanlangan bo'lib, bu asarlarni tarixiy tipologik metod orqali tahlil qilib, bu asarlardagi

LITERARY CRITICISM

detektiv janrining kelib chiqish tarixi izohlanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan "Ali bobo va qirq qaroqchi" asari, O'rta asrlar g'arb adabiyotining yorqin namunasi bo'l mish Bokachchoning "Dekameron" asari, Uyg'onish davrining yetuk yozuvchisi Shekspirning "Gamlet" va boshqa tragediyalari, Ma'rifatchilik davri adabiyotining nodir asarlaridan bo'l mish Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari chuqur o'rganilib, ulardagi detektivga xos bo'lgan elementlarni aniqlab, bu asarlarning detektiv janrning paydo bo'lishidagi unsurlari tahlil qilindi. Ilk detektiv yozuvchi Edgar Allan Po, Artur Konan Doyl, va XX asr detektiv yozuvchilari D.Hammet asarlarini komparativ metod orqali taqqoslab, bu asarlarning detektiv janrga xos xususiyatlari tadqiq qilindi. Romantizm davridagi gotik romanlarning detektiv janri bilan uyg'unlikj jihatlari o'rganilib, struktur-semiotik metodi orqali detektiv asarlarning syujet qurilishi va kompozitsiyasi o'rganildi. Sotsiologik metod orqali realizm davri adabiyotining motivlari jamiyat ehtiyojlariga qarab detektiv janrining paydo bolishi va ommalashuv sabablari o'rganildi. Modern va postmodern adabiyotning detektiv asarlar syujetiga ta'siri, murakkab mavzular va yondashuvlar, detektiv oqimlar tahlilini olib borildi.

Olingen natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Detektiv janrining o'ziga xos shakllari va strukturasi, albatta, XIX asrda paydo bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy adabiyotda mavjud edi. Dastlabki adabiyotdagi sirlar va jinoyatlarni hal qilishga intilish, asosan badiiy tasvirlash va og'zaki an'analar asosida bo'lgan. Dastlabki adabiyot namunalarida jabrlanuvchi, aybdor va uni topish yo'lidagi intrigalar yaqqol berilsa-da, jinoyat ko'pincha ilohiy kuchlar yoki xudolar aralashuvi bilan hal qilingan. Detektiv janridagi jinoyat va sirli voqealarni ochish elementlarini B. Xoliquv ozining "Detektiv romanlarda Voqelikning badiiy talqinini tizimli modellashtirish" nomli dissertatsiyasida Qur'ondagi Qobil va Hobil hikoyasini misol keltirib, buni "aynan detektiv uchun asos bo'ladigan voqe, qotil va Maqtul obrazlari uchun mos prototiplar bor" ligini aytadi. [1; 40] Bu hikoyada "jumboq ilohiy vahiy orqali yechiladi. Qotil haqida Xudoning qudrati bilan maqtulning o'zi xabar beradi. Ammo bunda detektiv uchun ibrat bo'ladigan bir jihat bor. Qotilni topmoqchi bo'lgan detektiv ishni, avvalo, maqtulni o'rganishdan boshlashi kerak. Sinchkov tahlil mantiqiy tizim maqtul va qotil o'rtasidagi uzilgan iplarni bog'lashga xizmat qiladi" deydi olim o'z ilmiy ishida. Xususan, "**Ali Bobo va qirq qaroqchi**" ertagida sirli g'or va yashirin xazina Ali Bobo qaroqchilarning sirini bilib olishiga va murakkab voqealar zanjirining boshlanishiga turki beradi. Asarda asosiy qahramon jinoyatga duch kelib, haqiqatni ochishga vaadolatni qaror toptirishga intiladi. Bu detektiv janrning markaziy motivlaridan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlaridagi sirli voqealar, mantiqiy tadqiqotlar vaadolatni qaror toptirish kabi motivlar detektiv janrining asosiy xususiyatlari bilan uyg'unlikda namoyon bo'lgan. Bunday xulosalar o'zbek olimi Sh. Sulaymonovning "O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiat" nomli dissertatsiyasida ham keltirib o'tilgan bo'lib, Sharq va G'arb og'zaki ijodidagi bir qancha namunalardan keltirib, ulardagi detektivlik unsurlari tahlil qilingan.

O'rta asr G'arb adabiyotidagi Bokachchoning "Dekameron" asaridagi detektiv unsurlar haqida Sh. Sulaymonovning "O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiat" nomli dissertatsiyasida bir qancha misollar keltiradi. Detektivlik hikoyalari uchun xos bo'lgan tarzda, asardagi voqealar sirli boshlanib, oxirida ma'lum bir mantiqiy yechim topiladi. Ba'zi hikoyalarda esa qahramonlar sirli voqealarni aniqlash yoki gumonlarni fosh qilish uchun kuzatuvchanlik va tergov usulidan foydalanishadi. Bu usullar zamonaviy detektivlik hikoyalarda uchraydigan xususiyatlarga yaqin. Bokkachcho hikoyalarda qahramonlar odatda o'zlarining muammolarini hal qilish uchun aql va mantiqni ishga solishadi. Bu xususiyatlar detektiv hikoyalarning asosiy unsurlaridan biridir. Misol uchun, *Mazoni ismli ruhoniy hikoyasi da* Mazoni aldangan bo'lsa-da, u hiyla-nayrang va aql bilan o'z foydasini ta'minlaydi. Sh. Sulaymonovning "O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiat" nomli dissertatsiyasida "Bokachchoning "Dekameron" ida makkora ayollar asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi novellalarning yetakchi qahramonlari" ekanligini aytib o'tadi.

Uyg'onish davri adabiyoti insoniyat, axloq,adolat va ichki ruhiy ziddiyatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu davrda ilm-fan rivojlanib, inson aqlining kuchiga ishonch ortdi. Tergov va sababiyatni aniqlash (deduktiv mantiq) tamoyillari rivojlandi, murakkab xarakterli qahramonlarga e'tibor kuchayib, sirli qahramonlar va ziddiyatli motivlar detektiv janrning boshlanishiga zamin yaratdi. Ko'plab pyesa va hikoyalardaadolatni izlash markaziy mavzu bo'lib, jinoyat va jazoni muhokama qilish ommaviyashdi. Bu kabi elementlar keyinchalik detektiv janrga moslasha bordi. Uyg'onish davridagi siyosiy intriga, diniy reformatsiya va jamiyatdagi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar adabiyotda jinoyatlar va sirlarni o'rganishga sabab bo'ldi va natijada qotillik, jinoyat va aldonlarga asoslangan asarlar keng tarqaldi. G'arb adabiyotidagi Uyg'onish davrining eng mashhur vakili Shakespearening mashhur asarlarida detektivdag'i juda ko'p elementlarni topish mumkin. Jefrey K. Wilsonning "Shakespeare and Criminology" maqolasida Shekspir tragediyalari va kriminologiya sohasining qiziqarli parallelligini ta'kidlaydi. Shekspirni ilk "kriminolog" sifatida talqin qilish orqali ushbu parcha uning tragediyalari 19-asr oxirida akademik fan sifatida kriminologiya paydo bo'lishidan ancha oldin jinoyatni tizimli o'rganishni oldindan sezganini ko'rsatadi.

LITERARY CRITICISM

Shekspir dramasi va kriminologiya, tarixiy va metodologik farqlarga qaramay, insoniyatning doimiy savoliga javob izlaydi: nima uchun odamlar boshqalarga zarar yetkazadi? Shekspir asarlaridagi dtektiv unsurlar inglez olimlari tomonidan chuqur tatqiq qilinib, Susan Baker o'zining "Shakespearean Authority in the Classic Detective Story" nomli maqolasida Shekspir asarlarini o'rganayotgan har qanday olim uning asarlarini klassik detektiv bilan birgalikda o'rganishi kerakligini yozadi. D. Murphy o'zining "Ranking Shakespeare's works as crime fiction" nomli maqolasida Shekspir har qanday hikoya qilish shaklining ustasi va asoschisi sifatida keng e'tirof etilishini, uning oilaviy dramadan tortib tarixiy epik janrlarga va zamonaviy romantik komediyaligacha detektivlik ruhiyati baland ekanligini ta'kidlaydi. "Uning deyarli barcha asarlarini — tragediya, komediya yoki tarix bo'lishidan qat'i nazar — jinoyat adabiyoti sifatida ko'rish mumkin." deyiladi maqolada. [5; 11]

Ma'rifatparvarlik shaxsiy erkinlik, tenglik vaadolatni targ'ib qilgan. Ma'rifatparvarlar shaxsiy erkinlikni va huquqlarni himoya qilishni, odamlarni o'z fikrini erkin ifodalashga va o'z taqdirini o'zi belgilashga undaganlar. *Gulliverning sayohatlari* asari Jonathan Swift tomonidan yozilgan va XVIII asrda Ma'rifatparvarlik davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolariga o'ziga xos qarashlarni taqdim etadi. Asarda detektivlik elementlari bir qator asosiy tafsilotlar orqali ko'rindi, hatto asar to'liq detektiv janrida yozilmagan bo'lsa-da. Jonathan Swiftning ushbu mashhur satirik asarida, Gulliverning turli mamlakatlarga qilgan sayohatlari orqali, detektivlikka xos bir necha elementlar mavjud. [7; 5] Detektiv kabi, Gulliver o'ziga berilgan vazifalar yoki maqsadlar asosida bu sirlarni ochishga harakat qiladi. Masalan, Lilliputda kichik odamlarning katta dunyoda qanday yashashini tushunishga harakat qilganda, ularning siyosiy tizimi va ijtimoiy tuzilmasining murakkabligini kashf etadi. Sayohatlari davomida uning kuzatuvchanligi va aql-idroki detektiv kabi muhim rol o'ynaydi. [8; 7] Detektiv hikoyalarda, asosan, jinoyatlarni ochish vaadolatni tiklashga qaratilgan bo'lsa, *Gulliverning sayohatlari*da Gulliver turli mamlakatlardagi siyosiy va ijtimoiy muammolarni o'rganadi va bu muammolarni hal qilishga intiladi. Detektiv hikoyalardagi kabi Gulliverning sayohatlarda ham, Lilliput va Brobdingnag kabi joylarda, u turli xil manipulyatsiyalar va o'ziga xos tuzoqlarga duch keladi. Lino Matteo o'zining "Guliverning qonun haqidagi fikrlari" (Gulliver's thoughts on law) nomli maqolasida Jonatan Swiftning sud va jinoyat haqidagi quyidagi fikrlarini iqtibos qiladi. "Davlatga qarshi barcha jinoyatlar bu yerda eng og'ir jazoga tortiladi; ammo agar ayblanuvchi sud jarayonida o'zining aybsizligini aniq isbotlasa, unda ayblovchi darhol sharmandali o'limga hukm qilinadi." Yana bir maqolada Jonatan Swiftning sud jarayoni haqidagi qarashlari maqolada epigraf sifatida keltiriladi: "Davlatga qarshi jinoyatlarda ayblangan shaxslarning sud jarayoni ancha qisqa va maqtovga loyiq usulda olib boriladi: sudya avval hokimiyatdagilarning kayfiyatini bilish uchun so'rov yuboradi, shundan so'ng u jinoyatchini osish yoki qutqarish masalasini osonlik bilan hal qiladi." [8; 11]

Muhokama. Romantizm ma'rifatparvarlik oqimiga javoban XVIII- XIX asr o'rtalarida paydo bo'lib, inson his-tuyg'ulari, fantaziya, erkinlik va tabiiy go'zallikka urg'u bergen. Bu davr yozuvchilar asosiy urg'uni inson kechinmalari, tabiiy go'zallik, taqdir va erkinlik mavzulariga qaratgan. Ammo XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Gotik romanlar rivojlangan bo'lib, ular misteriya, dahshat, qorong'u muhit va sirli hodisalarga asoslangan. Detektiv janr esa XIX asrning o'rtalarida shakllana boshlagan. Detektiv adabiyotda asosiy e'tibor jinoyat, tergov va mantiqiy tahlilga qaratilgan bo'lsa-da, uning ilk namunalari gotik romanlarga juda yaqin edi. Gotik adabiyotdan detektiv janrga o'tgan asosiy xususiyatlar sifatida sirli jinoyatlar va jumboqli voqealarni keltirishimiz mumkin. Gotik romanlarda g'ayritabiiy yoki dahshatli hodisalar uchrasa, detektiv janrda bu sirlar mantiqiy tahlil orqali ochiladi. M. Miranda o'zining maqolasida gotik romanlarga quyidagicha izoh beradi: "Gotik davr dahshat va noma'lumlik bilan tavsiflanadi; o'lim, ruhiy inqiroz va sir-sinoat gotik adabiyotga xos asosiy elementlardir." [9; 16] Ko'plab detektiv qahramonlar masalan, Edgar Allan Poning Ogüst Dyupeni yoki Konan Doylning Sherlok Holmsi ichki ziddiyatga ega bo'lib, gotik qahramonlarga o'xshab yolg'iz va tushkun holatda bo'ladi. Edgar Allan Poning "Morg ko'chasidagi qotillik" (1841) asari dunyodagi birinchi detektiv hikoya hisoblanadi, lekin unda gotik elementlar juda kuchli. Qorong'u Parij muhiti, sirli qotillik, zo'ravonlik va jumboqli hodisalar gotik romanlarga xos. Asardagi qahramon August Dyupen tergovchi bo'lsa-da, gotik qahramonlar singari tushkun, sirli va o'ziga xos fikrlash uslubiga ega. Aksinchalik Meri Shelli ning "Frankenstein" (1818) asari gotik roman bo'lsa-da, sirli jinoyatlar va ilmiy tergov unsurlariga ega. Asardagi doktor Viktor Frakensteyn jinoyat tergoviga o'xshash jarayonni o'tkazadi — u o'z yaratgan maxluqining qilmishlarini tahlil qiladi va javobgarlik his qiladi. Ushbu asar keyinchalik ilmiy-fantastik va detektiv janrlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu masaladagi ilmiy izlanishlarni o'rganar ekanmiz, M. Miranda o'zining "The detective in Gothic crime fiction" nomli maqolasida Edgar Allan Po ning asarlarini tahlil qilar ekan, uning dastlabki asarlarida Gotik romanlarga xos xususiyatlar yaqqol ko'ringan bo'lsa, keyinchalik ularda sof detektivlik unsurlari sezilishini aytadi. Keyinchalik Konon Doyle ham uning izidan borib, gotik elementlariga boy bo'lgan detektiv asarlar yozuvchisiga aylandi. "Po va Doylning detektiv hikoyalari muhim ahamiyat kasb etishining sababi shundaki,

LITERARY CRITICISM

ular tergov jarayonida, ayniqsa, jinoyat sodir bo‘lgan joy va dalillarni baholashda ilmiy mantiqni qo‘llay oladigan shaxsnинг ahamiyatini tan oldilar” degan xulosaga keladi olima. Bundan tashqari Jon Bowen “Detektiv romanlar Viktoriya davri gotik romanlarining an’alaridan chetlashgandek tuyulsa-da, aslida ular hanuzgacha ko‘plab gotik motivlardan foydalanadi. Shu sababli, ularni gotik janrning bir tarmog‘i sifatida ko‘rish mumkin” deydi o‘z maqolasida [10]. Shuningdek Baloch K.Ch o‘zining “Comparative analysis of the detective literary works by Edgar Allan Poe” nomli dissertatsiyasida bu yozuvchiga quyidagicha ta’rif beradi. “Edgar Allan Poning adabiy merosi xilma-xil va sirli go‘zallikka ega. U tushkunlikning eng quyi qatlamlaridan osmonning yuksak cho‘qqilarigacha yetib borib, ham tafakkurga chorlaydi, ham zavq bag‘ishlaydi. Uning hayotiga singib ketgan qorong‘u va sirli hissiyotlar asarlarida aks etib, ikki muvaffaqiyatli adabiy janrda mukammal tarzda uyg‘unlashadi.”

Realizm va detektiv janr XIX asrda parallel ravishda shakllangan va rivojlangan bo‘lib, ular orasida kuchli bog‘liqlik mavjud. Detektiv adabiyot o‘zining dastlabki shakllarida gotik romanlarga yaqin bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan realistik yondashuvni qabul qilib, dalillarga asoslangan mantiqiy tahlilni oldingi o‘ringa qo‘ya boshladi. Realistik adabiyot kabi detektiv hikoyalarda jinoyatlar, tergov jarayonlari va huquqiy tizimlar ko‘pincha real hayotdagi voqealarga asoslangan holda tasvirlanadi. Ular kriminalistika, huquq va tergov usullarini aniq va ishonarli tasvirlashga intiladi. Realistik adabiyot singari, detektiv asarlar ham sabab-oqibat tamoyiliga asoslanadi. Jinoyatning sabablari, tergov jarayoni va yechim mantiqiy izchillikda bo‘lishi kerak. Detektiv asarlarda qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, atrof-muhit va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar realizmga mos tarzda aks ettiriladi. Realistik adabiyot kabi detektiv asarlar ham o‘quvchini ishontirish uchun hayotiy va tabiiy dialoglardan foydalanadi. Qahramonlarning so‘zlashuv uslubi ularning kasbiga, ijtimoiy mavqeiga va shaxsiy xarakteriga mos keladi. “Har qanday shakldagi badiiy adabiyot har doim realistik bo‘lishni maqsad qilgan,” deydi Chendler, va detektiv adabiyot bundan mustasno bo‘lishi kerak emas.” Edgar Allan Poening “Murders in the Rue Morgue” (1841) ilk detektiv asar sifatida tan olingan va Poe “detektiv janrining otasi deb ataladi. Ammo bundan avval The Newgate Calendar, jinoyat hikoyalari to‘plami ilk bor XVIII asrda nashr etilgan antologiya sifatida paydo bo‘lgan va ko‘pincha detektiv adabiyotning muhim ajdodlaridan biri sifatida tilga olinadi. The Newgate Calendar dastlab har oyda Newgate qamoqxonasi ruhoniysi tomonidan qatl etilgan jinoyatchilar haqidagi yozuvlar sifatida chiqarilgan. Newgate romanlari, o‘sha o‘n yillikda juda katta mashhurlikka erishgan asarlar bo‘lib, ular jinoyatchilar va jazolash manzaralariga asoslangan edi. Bu romanlarda keyinchalik detektiv obrazidan ajralmas bo‘lib ketadigan intizomiy nazorat emas, balki jazolash jarayonining o‘zi markaziy o‘rinni egallagan va Wilkie Kollinzning “The Moonstone” (1868) zamонавиј detektiv romanning birinchi namunasi deb hisoblangan bo‘lsa-da, Artur Konan Doyl yaratgan qahramon Poening Ogust Dyupin yoki Kollinzning serjant Kaffidan ancha mashhurroq bo‘lib ketdi. [12 ;25] Sherlok Holms birinchi muvaffaqiyatli seriyali detektiv bo‘ldi, chunki u o‘sha davr o‘quvchilari uchun ishonchli bo‘lgan qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan edi. U, avvalo, fan va faqat o‘z aqlining qudrati bilan jinoyatga qarshi kurashgan. Biroq, Doyl uni mutlaqo ideal qahramon sifatida emas, balki mag‘rur, sabrsiz va g‘alati xarakterga ega qilib tasvirlagan. Shu tariqa, u Holmsni jonli va insoniy qahramonga aylantirdi. [11 ;25] Sherlok Xolms asari detektiv janrining oltin davridagi eng mashhur asarlardan biri hisoblanib, detektiv janrining Oltin davri (Golden Age) asosan 1920-1940-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi va bu davrda klassik sirli hikoyalar yozishning muayyan qoidalari shakllangan bo‘lib, u o‘ziga xos asosiy xususiyatlarga ega bo‘ldi. O‘quvchi jinoyatni ochishda detektiv bilan bir xil ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Dalillar yashirilmaydi, shunday qilib, o‘quvchi ham jinoyatchini oldindan aniqlay olishi mumkin. Asosiy e’tibor sirli jinoyatni mantiqiy tahlil qilishga qaratiladi. Oltin davrda qisqa hikoyalar asta-sekin detektiv romanlarga o‘rin bo‘shata boshladi, chunki syujetlar tobora murakkablashib, rivojlangan edi. Detektiv janri bu davrda yanayam rivojlanib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘la boshladi. Symons bu o‘zgarishni Birinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘laydi: “Urush davrida yuz bergan ayollarning emancipatsiyasi (ozod bo‘lishi) uy hayotida yangi tuzilmaning shakllanishida katta rol o‘ynadi, ayniqsa Yevropada, bu esa ayollarga ko‘proq bo‘sh vaqt berdi va ularning ko‘pchiligi bu vaqtdan kitob o‘qishga sarfladi.” [11 ;26] Shu sababli, ko‘proq rivojlangan va shuning uchun uzunroq hikoyalarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu vaqt ichida bir qator iste’dodli ayol yozuvchilar detektiv janrida hukmronlik qilishdi va “Jinoyat qirolichalari” (Queens of Crime) deb atalgan davr paydo bo‘ldi. ularning asarlari nafaqat janrning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi, balki bugungi kungacha eng mashhur detektiv romanlar sifatida tan olinadi. Bu yozuvchilar qotillikni faqat jinoiy hodisa sifatida emas, balki murakkab sir-sinoat, mantiqiy tahlil va inson psixologiyasini o‘rganish vositasi sifatida ko‘rsatganlar. “Erkaklar detektiv adabiyotning urug‘ini sepgan bo‘lsa, uni porloq yuksalish cho‘qqisiga yetkazgan ayollar edi. 1920-, 1930- va 1940-yillarda detektiv janrining to‘rt buyuk malikasi — Agata Kristi, Doroti Sayers, Marjeri Allingem va Ngaio Marsh — nashriyot sohasida ommabop madaniyat fenomeniga aylanishdi va butun dunyo bo‘ylab keng kitobxonlar auditoriyasini zabit etdilar. Ular dunyoda eng ko‘p

LITERARY CRITICISM

roman sotgan yozuvchi hisoblanadi.” deydi Joan Dryden o’zining “How the Queens of Crime Fiction Developed a Modern Myth” nomli maqolasida. Bu yozuvchilar janrni yanada mukammallashtirgan va detektiv janrining o’ziga xos xususiyatlariga ega bo’lishiga erishgan. Ular “Oltin asr” qoidalariga rioya qilibgina qolmay, ularning asarlarida jinoyatni mantiqiy yo’l bilan ochish muhim o’rin tutadi. Sirli qotillik va tergov jarayoni aniq sxema asosida yoziladi. O’quvchi asar davomida barcha dalillarga ega bo’lib, o’zicha taxmin qilish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu davr asarlarida qahramonlar va detektiv obrazlarining xilma-xilligi o’quvchini yanada jalb qiladi. Agata Kristi – Erkül Puar va Miss Marpl kabi o’ziga xos va unutilmas qahramonlarni yaratdi. Doroti Sayers – Lord Piter Uimzi ismli aristokrat-detektivni kitobxonlarga taqdim etdi. Marjeri Allingem – sirli va zukko tergovchi Albert Kempion obrazini yaratdi. Ngaio Marsh – Roderik Alleyn ismli politsiya inspektori orqali detektiv janriga professional tergov elementlarini qo’shdi. Murakkab syujet va intellektual jumboqlar asarlarni yanada ommabop bo’lishiga xizmat qildi. Jinoyatlarning yechimi ko’pincha o’quvchini hayratga soluvchi tarzda yoritilib, Psixologik portretlar va ijtimoiy tahlil muhim o’rin tutadi.

Modernizm XX asrning boshlarida (asosan, 1910-1940-yillarda) rivojlangan adabiy va madaniy oqim bo’lib, u an’anaviy tushuncha va uslublardan voz kechib, inson tafakkuri, ichki kechinmalar va sub’ektiv tajribalarni ifodalashga e’tibor qaratdi. Klassik detektiv janridagi Agata Kristi, Doroti Sayers asarlarida voqealar aniq sxema bo’yicha rivojlanadi: jinoyat sodir bo’ladi → tergovchi dalillarni izlaydi → qotil aniqlanadi. Ammo modernistik detektivlarda esa bu sxema buziladi. Ba’zan jinoyat ochilmay qolishi yoki jinoyatchining ruhiy holati tergov markaziga chiqishi mumkin. Klassik detektivlardan farqli ravishda modernistik detektivda haqiqat nisbiy bo’lib, voqealar turli nuqtai nazardan yoritiladi. Masalan, tergovchining qarashlari bilan jinoyatchining ichki kechinmalari o’zaro zid kelishi mumkin. Yoki tergovchining o’zi ham hayotiy muammolar girdobida bo’ladi. Masalan, Reymond Chandlerning Filip Marlou qahramoni detektiv bo’lish bilan birga ichki ziddiyatlar va depressiya bilan ham kurashadi. Klassik detektivlarda tili aniq va tushunarli bo’lsa, modernistik detektivlар murakkab psixologik tahlillar, metaforalar va oqimiga qarab o’zgaruvchi hikoya uslubidan foydalanadi. Masalan, Uilyam Folknerning “Qo’rquv va titroq” romanida detektiv syujet bo’lsa-da, til murakkab va ongi oqimi uslubida yozilgan. Klassik detektivlar jinoyatchilikni alohida shaxslarning yovuzligi sifatida ko’rsatsa, modernistik detektiv jamiyatdagи muammolarni ko’rsatishga intiladi. Masalan, Dashiell Hammett va Reymond Chandler asarlarida jinoyat nafaqat alohida shaxslar, balki korrupsiya, kuch ishlatish, mafiyalar va ijtimoiy nosozliklar bilan bog’lanadi. Modernistik detektiv davrida Reymond Chandler, Umberto Eco, Paul Auster kabi yozuvchilar asarlari ommalashdi. Reymond Chandler – “Uzun xayrlashuv” (The Long Goodbye, 1953) katta jinoyat ortida shaxsiy dramalar, insoniy munosabatlar va zamonaviy jamiyat tanqidi yotadi. Syujet detektiv qoidalariga amal qiladi, lekin asosiy urg’u inson tabiatining ziddiyatlariga qaratiladi.

Postmodernizm detektiv janrga murakkablik va falsafiy o’lchov olib keldi. Haqiqatning nisbiyligi, syujetning ochiq qolishi, ishonchsiz hikoyachi, metafiktsiya va intertekstualik kabi elementlar postmodernistik detektiv romanlarning asosiy xususiyatlariga aylandi. Bu esa janrni an’anaviy sxemalardan chiqarib, uni falsafiy, ijtimoiy va eksperimental yo’nalishlarga yo’naltirdi. Bugungi kunda postmodernistik detektiv romanlar zamonaviy adabiyotning ajralmas qismiga aylangan bo’lib, ular nafaqat jinoyatni ochish, balki inson tafakkurining murakkab tomonlarini ham o’rganishga intiladi, postmodernistik detektiv asarlar an’anaviy syujet sxemasidan voz kechishadi, ya’ni jinoyat ochilmay qolishi mumkin, hatto jinoyatning o’zi ham shubha ostida bo’lishi ehtimoli bor. Ciocia shunday deb yozadi: “Detektiv adabiyoti ko’pincha postmodern adabiy eksperimentlar uchun samarali zamin bo’lib xizmat qilgan va shu bilan birga yozuv san’atti haqida fikr yuritishga hamroh bo’lgan” Haqiqatan ham, yozuvchilar o’z ishlarida turli xil yangiliklar bilan detektiv janrini boytdilar. *Paul Austerning The New York Trilogy (1985-1987)* asari uchta detektiv hikoyadan iborat bo’lib, unda tergov jarayoni o’zining mantiqiy maqsadini yo’qotadi va qahramonlar o’z izlanishlari davomida hayotining sir-asrorlarini kashf qiladilar. Barcha postmodernizm adabiyoti namunalari kabi detektiv asarlarda ham haqiqat va yolg’onning chegarasi yo’qoladi, haqiqat nisbiy bo’lib, o’quvchi real voqealar bilan xayoliy voqealar orasidagi farqni aniqlay olmay qoladi. Odatda hikoyachi ishonchsiz hikoyachi (unreliable narrator) bo’lib, uning aytganlariga ishonish qiyin. *Umberto Econing The Name of the Rose (1980)* asari Tarixiy detektiv roman bo’lsa-da, voqealar turli xil tafsir qilinishi mumkin, haqiqat esa o’quvchining anglash qobiliyatiga bog’liq. Postmodernistik detektiv romanlar ko’pincha boshqa adabiy asarlarga yoki real hayotdagi tarixiy voqealarga ishora qiladi. *Jorge Luis Borgesning Death and the Compass (1942)* hikoyasida tergovchi jinoyatning murakkab mantiqiy sxemasini ochishga harakat qiladi, ammo oxir-oqibat o’zi shu sxemaning qurbaniga aylanadi. Postmodernistik detektiv hikoyalar ba’zan absurd, surrealistik yoki g’ayrioddiy elementlarga ega bo’lib, o’quvchini haqiqat va fantastika o’rtasida adashtirib qo’yadi. Jinoyat sababli kelib chiqadigan tergov jarayoni nonsens holatiga tushib qolishi mumkin.

LITERARY CRITICISM

Zamonaviy adabiyotda detektiv obrazlari ko‘pincha postmodernistik elementlar bilan boyitiladi. Bu yerda tergov jarayoni va uning natijalari an’anaviy mantiqiy yechimdan ko‘ra, haqiqatning nisbiyligi, noaniqlik va absurdlikni aks ettiradi. Bunday yondashuvda tergov jarayoni — hatto yechim ham — ko‘proq savol va shak-shubhalarni keltirib chiqaradi, bu esa janrni yangicha interpretatsiya qilish imkonini beradi. Hozirgi adabiyotda detektiv obrazlari shahar va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, tarixiy jarayonlar va madaniy kontrastlarni aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Detektiv hikoyalari orqali yozuvchilar shahar hayotining, siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlarning, shuningdek, globalizatsiya jarayonining murakkab tomonlarini o‘rganishga intilishadi. Zamonaviy detektiv qahramonlar ko‘pincha faqat jinoyatni ochish bilan cheklanmay, o‘zlarining shaxsiy izlanishlari, ichki dunyosi va identitet qidiruviga ham urg‘u beradilar. Ular uchun tergov jarayoni — o‘zlikni anglash, o‘tmish va hozirgi orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash vositasi ham bo‘lib qoladi. Hozirda detektiv hikoyalari ko‘pincha triller, psixologik roman, tarixiy asarlar va hatto fantastika elementlari bilan aralashadi. Bu esa detektiv obrazini yanada ko‘p qirrali va murakkab qiladi. Bunday yondashuv janrning o‘zini kengaytirishiga, yangi o‘quvchilar auditoriyasiga murojaat qilishiga va adabiy eksperimentlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotda detektiv qahramoni an’anaviy tergovchi roldan tashqariga chiqib, insoniyatning murakkabligi, shaxsiy qiyinchiliklari va jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ko‘p qirrali obrazga aylandi. Bu esa janrni faqat jinoyat voqealarini yechishdan ko‘ra, falsafiy, ijtimoiy va psixologik o‘lchovlarga boyitishga olib keldi. Natijada, detektiv obraz hozirgi adabiyotda nafaqat tergov jarayonining, balki insoniy tajriba va madaniy muhitning ramzi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi zamonaviy detektiv adabiyoti butun dunyo miqyosida keng tarqalgan va turli xil yondashuvlar bilan boyitilgan. Hozirda Stieg Larsson bu janrda samarali ijod olib bormoqda. Uning “Millennium” trilogiyasi dunyo miqyosida katta ommalashdi va jinoyat, siyosiy intriga va ijtimoiy tanqidni uyg‘unlashtirgan asari sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa. Detektiv janri uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishida xalq og‘zaki ijodi, adabiy an’analar va turli davrlarning estetik tamoyillari muhim rol o‘ynagan. Bokachchoning *Dekameron* asarida sirli voqealar va ularning mantiqiy yechimi, *Gulliverning sayohatlari* va Shekspir tragediyalarida esa jinoyat, taqdir va inson tabiatini tahlili detektiv uslubning dastlabki ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Detektiv adabiyotning shakllanishi va rivojlanishi modernizm va postmodernizm ta’sirida o‘zgarib bordi. Modernistik detektiv hikoyalarda syujet chuqurlashdi, qahramonlarning psixologik tahliliga alohida e’tibor qaratildi va jinoyat faqtgina voqeа emas, balki inson tafakkurining murakkab jihatni sifatida talqin qilindi. Postmodernizm esa detektiv janrini dekonstruksiya qilib, an’anaviy qoidalarni buzdi, syujet murakkablashdi va haqiqat nisbiy tushuncha sifatida talqin qilina boshladi. Bugungi zamonaviy detektiv asarlari klassik elementlarni saqlagan holda, yangi texnologiyalar, global muammolar va murakkab ijtimoiy masalalarni o‘z ichiga oladi. Ular nafaqat jinoyatni ochish, balki inson ruhiyatining chuqur tahlilini ham o‘zida mujassam etadi. Shu tariqa, detektiv janri o‘z taraqqiyoti davomida turli adabiy oqimlar ta’sirida shakllangan va har bir davrga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan holda doimiy ravishda yangilanib bormoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Irishboev T.T. *Hozirgi o‘zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari* (Tohir Malikning «Shaytanat» asari asosida): Filol. fan. nom. ... diss. – T.: 2001. – 157 b.
2. Sulaymonov Sh.S. *O‘zbek detektiv nasri: genezisi va tabiatı: Filol. fan. nom. ... diss.* – Buxoro: 2002. – 151 b.
3. Xolikov B.A. *Detektiv romanlarda voqelikning badiiy talqinini tizimli modellashtirish* (Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” (“The Godfather”) va Tohir Malikning “Shaytanat” asarlari misolida) filologiya fan. falsafa doktori dis. – Toshkent, 2018. 170 b.
4. Киреева Н.В. Трансформация жанровых конвенций автобиографии и детектива в прозе американского постмодернизма. Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. Москва, 2011.
5. Лаврентьев А.И. «Чёрный юмор» в американском романе 1950-х – 1970-х гг. Дисс. канд. филол. н. Ижевск, 2004.
6. Dower Murphy Ranking Shakespeare’s works as crime fiction: domestic suspense, hardboiled, Spy thrillers: *The Bard did it all*. March 15, 2018.
7. Baker, S. (1995). Shakespearean Authority in the Classic Detective Story. *Shakespeare Quarterly*, 46(4), 424–448. <https://doi.org/10.2307/2870981>
8. Nozen, S., Isaxanli, H., & Amani, B. (2021). From Hamlet to Holmes: literary detective tradition. // *Linguistics and Culture Review*, 5(S1), 1087-1099. <https://doi.org/10.37028/lingcure.v5nS1.1494>.

LITERARY CRITICISM

9. Bezrucka, Yvonne. "Johnathan Swift's *Gulliver's Travels* and 'The Cow Trial': Law, Power, Justice and Eristics". *Law and the Humanities: Cultural Perspectives*, edited by Chiara Battisti and Sidia Fiorato, Berlin, Boston: De Gruyter, 2020, pp. 215-232. <https://doi.org/10.1515/9783110670226-012>
10. Miranda, M. Reasoning through madness: the detective in Gothic crime fiction. *Palgrave Commun* 3, 17045 (2017). <https://doi.org/10.1057/palcomms.2017.45>
11. Bowen, John. "Gothic motifs" British Library, www.bl.uk/romantics-and-victorians/articles/gothic-motifs. Accessed 15 November 2022.
12. Symons, Julian. *Bloody Murder: From the Detective Story to the Crime Novel: A History*. London: Penguin Books, 1985. Print.
13. Worthington, Heather. "From the Newgate Calendar to Sherlock Holmes." *A Companion to Crime Fiction*, edited by Lee Horsley and Charles J. Rzepka, Wiley-Blackwell, 2010, pp. 13-27. Print.
14. Ciocia, S. (2009). Postmodern Investigations: The Case of Christopher Boone in *The Curious Incident of the Dog in the Night-time*. *Children's Literature in Education*, 40(4), pp.320–332.
15. Link, S.J. (2023). Defining Detective Fiction. In: *A Narratological Approach to Lists in Detective Fiction. Crime Files*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-33227-2_2
16. <https://newlinesmag.com/essays/how-the-queens-of-crime-fiction-developed-a-modern-myth/>
17. <https://library.fiveable.me/key-terms/introduction-to-comparative-literature/postmodern-detective>

INGLIZ VA O‘ZBEK LIRIKASIDA SAROYMULKXONIM SIYOSI: TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

*Jumanova Orzigel Sa‘dulla qizi,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Qarshi filiali Axborot ta‘lim
texnologiyalari va gumanitar kafedrasi tadqiqodchisi
jumanovaorzigel@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek lirik adabiyotida temuriy malikalar, ayniqsa, Saroymulkxonim siyosining badiiy talqini tahlil qilinadi. Temuriy malikalar nafaqat siyosiy yetakchilar, balki ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘sghan ayollar bo‘lib, adabiyotda turlicha yoritilgan. Ingliz lirik she’riyatida ular ko‘proq romantik va ekzotik timsollar sifatida tasvirlangan bo‘lsa, o‘zbek she’riyatida ularning davlat arbobi, dono va ma’risfy homiy sifatidagi qiyofasi oldinga chiqadi.

Maqola tarixiy haqiqat va badiiy talqin o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga qaratilgan. Charles Lambning “Qirolicha Ariananing orzusi” hamda To‘ra Mirzoning “Saroymulkmi yo Bibixonim” she’rlari asosida qiyosiy tahlil olib boriladi. Ushbu asarlarda Saroymulkxonim obraz诗人 va ramziy jihatdan qanday aks etgani o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz lirkasi Saroymulkxonimni sirli va afsonaviy qahramon sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida u tarixiy shaxs sifatida, foyjali qismati va dono ayol timsolida tasvirlangan. Ushbu farqlar adabiyotlararo tafakkurning turlicha yo‘nalishlarini ochib berib, temuriy malikalar merosining ilmiy va ma‘naviy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Saroymulkxonim, sirli qahramon, afsonaviy qahramon, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, temuriy malikalar, poetik timsol.

ОБРАЗ САРОЙМУЛЬХАНУМ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИРИКЕ: ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация образа тимуридских цариц, особенно Сароймульханум, в английской и узбекской лирической литературе. Тимуридские царицы были не только политическими лидерами, но и женщинами, внесшими большой вклад в развитие науки и культуры, и по-разному освещались в литературе. Если в английской лирической поэзии они изображаются преимущественно как романтические и экзотические образы, то в узбекской поэзии на первый план выходит их образ государственного деятеля, мудрого и просвещённого покровителя.

Статья направлена на раскрытие связи между исторической правдой и художественной интерпретацией. Проводится сравнительный анализ стихотворений Чарльза Лэмба «Мечта королевы Арианы» и Туры Мирзы «Сароймульк или Бибиханум». В этих произведениях исследуется поэтическое и символическое воплощение образа Сароймульханум.

Результаты исследования показывают, что если в английской лирике Сароймульханум изображалась как загадочная и легендарная героиня, то в узбекской литературе она представлена как историческая личность, в образе женщины с трагической судьбой и мудростью. Эти различия раскрывают разные направления межлитературного мышления и служат для освещения научного и духовного значения наследия тимуридских цариц.

Ключевые слова: Сароймульханум, загадочный персонаж, легендарный герой, историческая правда, художественная интерпретация, тимуридские царицы, поэтический образ.

THE FIGURE OF SAROYMULKHANUM IN ENGLISH AND UZBEK LYRICS: HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC INTERPRETATION

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of Timurid queens, especially Saroymulkhanim, in English and Uzbek lyrical literature. Timurid queens were not only political leaders but also women who made significant contributions to the development of science and culture, and were portrayed differently in literature. While in English lyric poetry they are depicted primarily as romantic and

LITERARY CRITICISM

exotic figures, in Uzbek poetry their image as stateswomen, wise and enlightened patrons comes to the forefront.

The article aims to reveal the connection between historical truth and artistic interpretation. A comparative analysis of Charles Lamb's poem "The Dream of Queen Ariana" and Tura Mirza's "Saroymulk or Bibikanum" is conducted. These works explore the poetic and symbolic embodiment of Saroymulkhanim's image.

The research results show that while in English lyrics Saroymulkhanim was depicted as a mysterious and legendary heroine, in Uzbek literature she is presented as a historical figure, in the image of a woman with a tragic fate and wisdom. These differences reveal distinct directions in interliterary thinking and serve to illuminate the scientific and spiritual significance of the Timurid queens' legacy.

Keywords: Saroymulkhanum, enigmatic character, legendary heroine, historical truth, artistic interpretation, Timurid queens, poetic image.

Kirish. Temuriylar sulolasi faqatgina buyuk hukmdor Amir Temur va uning avlodlari orqali emas, balki madaniyat, ilm-fan va san'atga ulkan hissa qo'shgan ayol hukmdorlar – malikalar orqali ham tarixda chuqur iz qoldirgan. O'zbek adabiyotida temuriy malikalar, ayniqsa, Saroymulkxonim obrazining badiiy talqini alohida o'rinn tutadi. Saroymulkxonim nafaqat Amir Temurning sevikli rafiqasi, balki davlat ishlari, madaniyat va siyosatda muhim rol o'ynagan dono ayol sifatida tarix sahnasida qolgan. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek lirik adabiyotida Saroymulkxonim siyimosi qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek adabiyotida ularning obrazi turlicha aks ettirilgan: birida romantik va ekzotik, ikkinchisida esa tarixiy va ma'rifiy qahramon sifatida. Ushbu maqola tarixiy haqiqat va badiiy tasvir o'rtasidagi bog'liqlikni olib berish uchun quyidagi tadqiqot savollariga javob topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan:

- 1) Inglizzabon va turkiy tilli lirik adabiyotda temuriy malikalar siyimosi qanday tasvirlangan?
- 2) Tarixiy haqiqat va badiiy talqin o'rtasida qanday tafovutlar mavjud?
- 3) Ingliz va o'zbek adabiyotlarida malikalar obrazi poetik jihatdan qanday farqlanadi?

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqola qiyosiy adabiyotshunoslik va tarixiy tahlil metodlariga asoslanadi. Amir Temurning zamondoshlari tomonidan yozilgan asarlar: Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", va 19-asrda temurshunos olim Turg'un Fayziyev tomonidan yozilgan "Temuriy malikalar", "Temuriylar shajarası" kabi tarixiy-ilmiy asarlari tahlili asosida temuriy malikalar haqidagi tarixiy ma'lumotlar o'rganildi.

Tadqiqotning asosi qilib inglizzabon adabiyotidan **Charles Lemb "Qirolichcha Ariananing orzusi"** (*Queen Oriana's dream*) lirikasi va o'zbek she'riyatidan To'ra Mirzo ijodiga mansub "Saroymulkmi yo Bibixonim" she'riy asarlari olindi va qiyosiy o'rganildi. Bu she'rlardagi Saroymulkxonimning ramziy obrazi, poetik timsoli tadqiq etildi. Inglizzabon adabiyotda ularning qiyofasi qanday aks ettirilgani solishtirildi.

Natijalar. G'arb va sharq adabiyotida Amir Temur siyemosining badiiy talqin qilish, sarkarda obrazini yaratish tamoyillarini o'zaro qiyoslash, erishilgan yutuq va kamchiliklarni tarixiy haqiqatga nisbat bergan holda baholashga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ammo ingliz va o'zbek adabiyotida aynan temuriy malikalar obraziga bag'ishlab yozilgan asarlar va tadqiqot ishlari salmog'i ko'p emas va malikalar obrazining tarixiy va badiiy talqini shu davrgacha bu ikki tilda qiyoslab o'rganilmagan. "Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda" [1]. Shu bois, jahon, ingliz va o'zbek adabiyotidagi temuriy malikalar obrazi qatnashgan asarlarni, ularda aks etgan g'oyalarni ilmiy tahlil qilish yosh avlodni buyuk siymolarimizga, boy ma'naviy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Inglizzabon adabiyotshunosligida, xususan lirkasida temuriy malikalardan birining nomi zikr etilgan asarlardan biri bu Charles Lembning "Qirolichcha Ariananing orzusi" (*Queen Oriana's dream*) she'ridir.

Charlz Lambning "Qirolichcha Ariana orzusi" she'ri nafis va xayolparast uyqu sahnasini tasvirlaydi. Xushbo'y atirgullar soya solgan va nozik binafshalarning yam-yashil ko'rpasi bilan bezangan qirg'oqda qirolichcha Ariana sokin musiqa sadosida orom olayotgani tasvirlanadi. Oltita xos kanizaklar uning boshi uzra oltin soyabon tutib turgani aytildi. Tasvirlar boy va ehtirosli bo'lib, hashamat va xotirjamlik tuyg'usini uyg'otadi.

Lambning bu she'ri Viktoriya davrida keng tarqalgan romantik va hayoliy uslubni aks ettiradi. Muallif ritstarlik va ekzotik mamlakatlар haqidagi ertaklardan ilhomlanib, o'sha davr kishilarining sirli va noma'lum narsalarga bo'lgan maftunkorligini namoyish etadi. Lambning boshqa asarlari bilan solishtirganda, bu she'r

LITERARY CRITICISM

o‘zining hayoliy sirli dunyo va hissiy tafsilotlar tarifiga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Shoiring boshqa asarlarida ko‘p murojaat qilingan satira farqli ravishta bu she’rda uchramaydi.

Charles Lemb “Qirolicha Ariananing orzusi” (tarjima o‘zimizniki)

On a bank with roses shaded, Whose sweet scent the violets aided, Violets whose breath alone Yields but feeble smell or none, (Sweeter bed Jove ne’er repos’d on When his eyes Olympus closed on,) While o’er head six slaves did hold Canopy of cloth o’ gold, And two more did music keep, Which might Juno lull to sleep, Oriana who was queen To the mighty Tamerlane, That was lord of all the land Between Thrace and Samarchand, While the noon-tide fervor beam’d, Mused herself to sleep, and dream’d. Thus far, in magnific strain, A young poet sooth’d his vein, But he had nor prose nor numbers To express a princess’ slumbers.— Youthful Richard had strange fancies, Was deep versed in old romances, And could talk whole hours upon The great Cham and Prester John,— Tell the field in which the Sophi From the Tartar won a trophy— What he read with such delight of, Thought he could as eas’ly write of— But his over-young invention Kept not pace with brave intention. Twenty suns did rise and set, And he could no further get; But, unable to proceed, Made a virtue out of need, And, his labours wiselier deem’d of, Did omit what the queen dream’d of.	Gul ichra bir sohilda, Binafshalar hid sochar. Xushbo‘y gullar aralash, Mayin havoga yo‘l ochar. (Zebs ham bunday uxlamas, Olympusda yotgan chog‘.) Oltin to‘nli soyabon, Olti xizmatchi tatar. Ikki hofiz soz chalar, Juno uchun ohangdor. Oriana, malikadir, Temurbekga oydek yor. Frakiyadan Samarqand, Qadar saltanati bor. Tush chog‘ining jazirasin, Orzulari olib bor. Shoir buni bitar ekan, So‘zlar qilar ko‘hna safar, Ammo malika tushini, Tasvirlayolmay qiyinalar. Richard yoshlik ehtirosda, Afsonalarga oshno ham, Soatlab gapirar edi, Cham va Prester Jon haqida. Asl jang maydonini, G‘alabasini bilardi, O‘qigan har satrini u, Oson yozmoqni istardi. Lekin yoshlik tasavvuri, Orzular bilan teng emas, Yigirma kun keldi ketdi, She’ri bir qadam oldi emas. Yo‘lni topmay, so‘z qurib, O‘yladi bu yaxshi bo‘lar, Shuning uchun orom bilan, Malika tushini yozmay qo‘yar.
---	--

Asarda Ch.Lamb Soxibqironni “Frakiyadan Samarqandgacha bo‘lgan yerlarning yakka hukmdori, quadratli Temur” (*mighty Tamerlane, That was lord of all the land between Thrace and Samarchand*) deb tariflaydi va uning rafiqasiga ham G‘arb muhitiga mos ammo tarixiy haqiqatga zid nom beradi va Qirolicha Ariana deb nomlaydi:

“Oriana who was queen

To the mighty Tamerlane”

“Ariana quadratli Temurning rafiqasidir”

Bu she’r Charles Lemb hayoloti mahsuli bo‘lib, tarixiy haqiqatdan tamoman yiroqdir, shuning uchun she’rni sof badiiy asar desak bo‘ladi. “She’riy asarda faqat bizga tanish ikki nom Temur va Samarqand uchraydi. Shunday bo‘lsa ham, inglizzabon she’riyatda Amir Temur mavzusida birinchi she’rni bitgan Charlz Lamb o‘zidan keyin Amir Temur mavzusining G‘arb she’riyatida keng tarqalishiga yo‘l ochib berdi. She’rda Sohibqiron rafiqasi malika Ariana cheksiz xayoliy orzulari Amir Temurning sarhadbilmas imkoniyatlari timsoli sifatida berilgan.” [3]

Biz o‘z izlanishlarimizdan kelib chiqib taxmin qilamizki bu she’rda malika Ariana deb tasvirlangan go‘zal malika katta ehtimol bilan Amir Temurning suyukli rafiqasi Saroymulkxonimdir. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroymulkxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, aql-zakovatli,

LITERARY CRITICISM

husn-latofat bobida tengi yo‘q ayollaridan bo‘lgan. Saroymulkxonim davlatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan, xarbiy yurishlarida Amir Temurga hamrohlik qilgan. O‘ylaymizki, Amir Temur bilan birga malikaning ham dovrug‘i G‘arb mamlakatlariga qadar yetib borgan va Charles Lambni shu she’rini yozishga ilhomlantirgan.

Diqqatimizni tortgan keyingi lirik asar O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi va O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi a‘zosi, adabiy emakdosh, shoir, dramaturg va teatrshunos To‘ra Mirzo (To‘ramirza Jabborov 1956-yilda tug‘ilgan) ijodiga mansub “Saroymulkmi yo Bibixonim” she’ri bo‘ldi. O‘zbek adapiyotida Temuriy malikalar, ayniqsa, Saroymulkxonim obrazining badiiy talqini alohida o‘rin tutadi. Saroymulkxonim nafaqat Amir Temurning sevikli rafiqasi, balki davlat ishlari, madaniyat va siyosatda muhim rol o‘ynagan dono ayol sifatida tarix sahnasida qolgan. To‘ra Mirzo “Saroymulkmi yo Bibixonim” nomli she’rida uning fojiali qismati, tarixiy voqealar va ayollarning saroy fitnalari qurbanini bo‘lishi mavzusini lirik ohangda tasvirlagan:

*Saroymulkka kun, oy mulk,
Oyni o‘yan chiroy mulk,
Qozonxon suluv qizi,
Bibixonimga loy mulk.*

Bu misralarda shoir Saroymulkxonimning nafaqat Temur saroyidagi obro‘-e’tibori, balki uning Qozonxon qizi sifatida kelib chiqishi yuksak ekanini ta’kidlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub tarixiy asar “Boburnomada ham zikr etiladiki, “Saroymulkxonim 1341- yilda Chig‘atoy ulusiga mansub xon, Qozonxon xonadonida tavallud topgan.”[2] “Kun, oy mulk” iborasi uning husnini osmon jismlari bilan qiyoslash orqali ulug‘lashdir. Biroq so‘nggi misra – “Bibixonimga loy mulk” – she’rning umumiy fojiali ohangini belgilaydi. Loy – pastkashlik, tuhmat va ayanchli qismat ramzi bo‘lib, bu yerda Bibixonimning saroy fitnalari qurbanini bo‘lgani ishora qilinmoqda.

*Xalil Sulton kuydiku,
Zoti pastni suydiku,
Taxt ostini o‘ydiku,
Bibixonimga loy mulk.*

Bu bandda Xalil Sultonning Shodmulkka bo‘lgan muhabbati davlat va sultanatga qanday ta’sir qilgani ifodalanadi. Shoiring “zoti past” iborasi orqali Shodmulkning ijtimoiy kelib chiqishi Saroymulk darajasida emasligi, uning taxt uchun munosib emasligi ta’kidlanadi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha Shodmulk Samarqandda quyi tabaqali xonadonda tug‘ulgan. Xalil Sulton esa bobosi Temur boshli butun avlod qarshiligiga va zamonasi talablariga qaramasdan shu qizga uylanadi . “Taxt ostini o‘ydiku” misrasi esa kun kelib Xalil Sultonning noto‘g‘ri qarori Temuriylarning siyosiy barqarorligiga putur yetkazganini anglatadi.

*Amir Temur zavjasি
Saroymulk sust nafasi,
Tor saroydir qafasi,
Bibixonimga loy mulk.*

Bu bandda Saroymulkxonimning hayotining so‘nggi davri tasvirlanadi. Shoir uni “sust nafasi” deb ataydi, bu esa uning siyosiy kuchi yo‘qolganini, Shodmulkning fitnasi natijasida saroy ig‘volari ichida zaiflashganini bildiradi. “Tor saroy” iborasi esa uning hayotiy makoni endi ozodlik emas, balki qafasga aylanganini ko‘rsatadi.

*Temurbek vasiyatин,
Temirdek qat‘iyatin,
Buzdiku Shodmulk betin,
Bibixonimga loy mulk.*

Shoир bu yerda Temurning vasiyati – sultanatning mustahkamligi va buyukligini saqlash– Shodmulk tomonidan buzilganini aytadi. “Temirdek qat‘iyatin” – Amir Temurning qat‘iyatiligi va mustahkam siyosiy irodasini bildirsa, “Buzdiku Shodmulk betin” – bu qadriyatlarni Shodmulk oyoqosti qilgani ifodasi.

*Bittadir Bibixonim,
Turk-mo‘g‘ul ipi xonim,
Mehrning sepi xonim,
Bibixonimga loy mulk.*

Bu misralarda shoir Saroymulkxonimning noyob shaxs ekanini ta’kidlaydi. “Turk-mo‘g‘ul ipi xonim” iborasi uning kelib chiqishiga ya’ni mo‘g‘il xonining qizi bo‘lgani Amir Temur unga uylangach “ko‘ragon” unvoniga nozil bo‘lganligi va mo‘g‘il yerlarida erkin harakatlanish imkonini qo‘lga kiritganligiga ishora

LITERARY CRITICISM

beradi “*Mehrning sepi xonim*” iborasi esa uning olivjanobligi, saxovatini ulug’laydi. Ammo bu go’zal fazilatlarning hammasi saroy fitnlari oldida yengilgan – “*Bibixonimga loy mulk*” degan misra yana fojiani eslatib turadi.

To’ra Mirzo ushbu she’rda turli badiiy san’atlardan foydalangan:

Tashbih (Saroymulkka kun, oy mulk) – Saroymulk husni osmon jismlari bilan qiyoslanadi.

Metafora (Bibixonimga loy mulk) – Loy ramzi fojiali qismat, taqdirning beshafqatligiga ishora qiladi.

Takrorlash (Bibixonimga loy mulk) – Bu so’z takroran ishlatilgan bo’lib, she’rning asosiy dramatik nuqtasini belgilaydi va o’quvchiga kuchli ta’sir qiladi.

Antiteza (Saroymulkka kun, oy mulk – Bibixonimga loy mulk) – Buyuklik va sharmandalikning keskin qarama-qarshiligi. Xalil Sultonning Shodmulk bilan muhabbatni ham tarixiy fakt bo’lib, bu nikoh natijasida Temuriylarning siyosiy barqarorligi qaysidir ma’noda dars ketgan chunki 1408-yilda Shodmulk Saroymulkxonimni zaxarlab o’ldiradi, bu haqida Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” tarixiy asarida yozib qoldirilgan. Shuning uchun shoir badiiy talqin orqali tarixiy voqealarga dramatik tus bergenining guvohi bo ‘lishimiz mumkin.

To’ra Mirzoning “Saroymulkmi yo Bibixonim” she’ri Saroymulkxonimning buyukligi va fojiali qismatini o’zbek lirik she’riyatining chuqur falsafiy va tarixiy mazmunli na’munasi sifatida ochib beradi. She’rda shoir tarixiy haqiqat va badiiy tasvirni mohirlik bilan birlashtirgan holda, saroy ig‘volari, siyosiy o’zgarishlar va insoniy taqdirlarning keskin burilishlarini ifodalagan. Bibixonimning ulug’vor siymosi va Shodmulkning fitnasi she’rdagi asosiy oppozitsion kuchlarni tashkil etgan.

Xulosa. Tarixiy va adabiy obrazlar o’tasidagi farqlarni tahlil qiladigan bo’lsak inglizzabon adabiyot ko’proq Temuriy malikalarni go’zal va sirli ayollar sifatida tasvirlansa, turkiy adabiyot ularning ijtimoiy roliga urg’u beradi.

Gender masalasi: Ingлизабон va turkiy tilli adabiyotda ayollar obraziga yondashuvning o’ziga xos jihatlari ochib berildi. G’arbda ular ko’proq romantik, Sharqda esa siyosiy yetakchi sifatida aks ettirilgan.

Adabiy meros va qadriyatlarni nuqtayi nazaridan ushbu tadqiqot Temuriy malikalarning yosh avlodga o’rnak bo’luvchi obrazining bugungi kunda ham dolzarbligini ko’rsatadi. Maqolada inglizzabon va turkiy tilli adabiyotda Temuriy malikalar siyosining poetik talqini o’rganildi. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, inglizzabon adabiyotda ular ko’proq romantik va ekzotik tasvirlangan bo’lsa, turkiy she’riyatda ularning tarixiy yetakchilik va ma’rifiy homiylik qirralariga katta urg’u berilgan. Ushbu farqlar adabiy tafakkurning o’ziga xosligini ko’rsatib, turkiy she’riyatning tarixiy xotirani saqlashdagi rolini ochib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoev Sh.M. Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o’rganish va targ’ib qilish maqsadida yoshlar o’rtasida kitobxonlik tanlovlарини ташкіл етиш төг’рисида.* // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 2018-yil 4 avgust.
2. *Boburnoma. T. Yangi Asr avlodni. 2018-y. - 180 bet.*
3. Якубов М. Инглиззабон адабиётда Амир Темур сиймоси. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD). дисс. аштотреф. – Бухоро, 2021. – 20 б.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent. Sharq. - 1997.
5. *Ibn Arabshoh Temur tarixida taqdir ajoyibotlari Toshkent. Mehnat.* - 1992.
6. *Turg’un Fayziyev. Temuriy malikalar. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.* -1994.
7. *Azamat Ziyo. O’zbek ayollari tarix sahnasida. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti,* - 2008.
8. *Manz, B. F. Temuriylar imperiyasi tarixi. Cambridge University Press.* - 1999.
9. Schimmel, A. *Islamic Literature and Women.* Princeton University Press. - 1996.
10. *Mirzoev, M. Temuriy malikalar adabiyoti. Toshkent. O’zbekiston Fanlar Akademiyasi,* 2010.
11. Richards, J. F. *The Mughal Empire.* Cambridge University Press. 1993.

ABDULLA QAHHORNING “SINCHALAK” QISSASIDAGI LINGVOPOETIK XUSUSIYATLAR

Kaxarova Mohigul Yusufovna,
Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti
mohigulkaharova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada A. Qahhorning "Sinchalak" qissasi chuqur tahlil qilinadi. Mazkur maqolada tahliliy, tarixiy, psixologik va estetik metodlar orqali bosh qahramonning ichki kurashlari va 1950-yillardagi jamiyatdagi, ayniqsa, gender tengsizlik masalalari tadqiq qilinadi. Bosh qahramon Saida va uning Tohirjon Nosirov hamda Qalandarov kabi boshqa personajlar bilan bo‘lgan munosabatlari orqali jamiyatda adolat o‘rnatish va o‘sma davrdagi ayollarining boshidan kechirgan qiyinchiliklari muallifning badiiy niyatini ifodalaydi. Maqolada, shuningdek, qissa janrining rivojlanishida qahramonlar va ularning psixologik portretlarining markaziy o‘rni, yozuvchining metafora, tasvir, va simvolizm kabi badiiy vositalardan qanday foydalangani muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: qissa, protagonist, portret, stilistik vositalar, xronotop, kompozitsiya va suyjet.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ПОВЕСТИ АБДУЛЛЫ КАХХОРА «СИНИЦА»

Аннотация. В статье проводится глубокий анализ повести А. Каҳхара «Синица». В данном исследовании с помощью аналитического, исторического, психологического и эстетического методов рассматриваются внутренние конфликты главной героини и проблемы гендерного неравенства в обществе 1950-х годов. Главная героиня Саида и её отношения с другими персонажами, такими как Тохирджон Носиров и Каландаров, отражают художественный замысел автора по установлению справедливости в обществе и демонстрируют трудности, с которыми сталкивались женщины того времени. В статье также обсуждается центральная роль персонажей и их психологических портретов в развитии жанра повести, а также то, как писатель использовал такие художественные средства, как метафора, описание и символизм.

Ключевые слова: повесть, главный герой, портрет, стилистические приёмы, хронотоп, композиция и сюжет.

THE LINGUA-POETIC FEATURES IN ABDULLA QAHHOR'S NOVELLA “TITMOUSE”

Abstract. The article provides a deep analysis of A. Qahhor's novella «Titmouse». In this article, through analytical, historical, psychological, and aesthetic methods, the internal struggles of the main character and the issues of gender inequality in the society of the 1950s are explored. The attitude of the protagonist Saida with other characters like Tohirjon Nosirov and Qalandarov reflects the author's artistic intent to portray the establishment of justice in society and the hardships faced by women of that time. The article also discusses the central role of characters and their psychological portraits in the development of the novella genre, as well as, how the writer uses stylistic devices such as metaphor, description, and symbolism.

Keywords: novella, protagonist, portrait, stylistic devices, chronotope, composition and plot.

Kirish. Adabiy vaziyatning shartliligi va metaforikligi, shakl va mazmun yaxlitligini tashkil etadigan lingvopoetik tamoyillar va janraro munosabatni ilmiy talqin etish, badiiy adabiyot kontekstida o‘zbek nasri tahlili, bosh qahramonlar ruhiyati tasviri, yoshlar tarbiyasida adabiyotning estetik rolini ochish muhimligini ilmiy asoslash zarurdir.

Ma’lumki, qissa – o‘rta epik janr hisoblanib, G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida novella deb yuritilgan. [6] Rus adabiyotida nasriy asarlar povest deb atalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida yozilgan tarixiy afsonaviy asarlar qissa deb atalgan. Jumladan, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Qissayı Sayfulmuluk”. [5, 54]

LITERARY CRITICISM

Qissada bir necha qahramonlarning hayotiy voqealari bayon etiladi. Unda bosh qahramonning muayyan davri olib beriladi. Qissalar romanlar kabi mavzusi jihatidan quyidagi turlarga ajratiladi: 1. Avtobiografik. (Oybek “Bolalik” A.Qahhor “O’tmishdan ertaklar”) 2. Tarixiy. (Mirkarim Osim, Y.Ilyosov)

3. Fantastik. (T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov) 4.Biografik (Oybek “Navoiy”, G’.G’ulom “Shum bola”) 5. Detektiv. (T.Malik “Alvido bolalik”) 6. Axloqiy. A. Qodiriyning “Obid ketmon”, M. Shermuhammedovning “Befarzand Ochilidboy” o’zbek realistik qissalarining ilk namunalari hisoblanadi. A.Qodiriy, S.Ayniy, G’.G’ulom, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, O’Hoshimov XX asr o’zbek realistik qissachiligining takomillashib borishiga o’z hissasini qo’shgan adiblar sanaladi. XX asr oxirida M.M.Do’st, T.Murod, X. Do’stmuhammad, N.Eshonqul, Sh.Boltayev kabi yosh ijodkorlar qissa janrining takomillashib borishiga o’z ulushlarini qo’shdilar.

Qissa syujetida ishtirok etadigan personajlar orqali muayyan g’oya va mavzu ilgari suriladi; undagi voqealar protagonist atrofida uyushtiriladi. [7, 170]

Qissa quyidagi o’ziga xos jihatlarga ega:

- a) qissa romanga qaraganda qisqaroq, hikoyadan kattaroq hajmda bo‘ladi;
- b) qissada bosh qahramonlar botiniy va zohiriylar olamining ma’lum bir qirralari yoritiladi;
- c) yozuvchi qissada muhit va tasviriy ifodalarni aniq beradi, kitobxon qissa syujeti voqealari rivojini aniq va haqqoniy tassavvur hosil qilishi uchun dialoglardan ko‘p foydalananadi;
- d) qisqa, ravon, sodda tilni qo’llash orqali adib o’z konsepsiyasini ifodalashga intiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqola quyidagi tadqiqot metodlariga asoslangan:

– Tahliliy metod: Maqlada badiiy asarlarning tahlili, xususan, “Sinchalak” qissasining personajlari va voqealari, shuningdek, adibning badiiy uslublarini chuqur o’rganish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Masalan, bosh qahramon Saidaga xos insoniy fazilatlar va voqealar rivoji tahlil qilingan.

– Tarixiy metod: Maqlada XX asrning 50-yillardagi jamiyat muammolari va undagi ijtimoiy qatlamlar o’rganilgan. Qissa orqali o’sha davrning ijtimoiy muhitini va undagi ayollar va erkaklar o’rtasidagi tengsizlikni tahlil qilish uchun tarixiy metoddan foydalilanigan.

– Psixologik metod: Qahramonlarning ruhiy holatlari, qarorlar qabul qilish jarayonlari va ularning ichki dunyosini tahlil qilishda psixologik metoddan foydalilanigan. Masalan, Saidaning qarorlarini tushunish va uning ichki kurashlarini aniqlash.

– Estetik metod: Qissaning badiiy tasvir vositalari va adibning uslubi, metafora, mubolag‘a, portretlar va peyzajlar orqali asarining estetik jihatlari tahlil qilingan.

Ushbu metodlar yordamida maqlada qissa janrining o’ziga xos xususiyatlari va adibning badiiy niyatlari o’rganilgan.

Natijalar. A.Qahhor “Sinchalak” qissasini 1958-yilda yozgan. Mazkur qissani E. Bryummer nemis tiliga tarjima qilgan va 1961-yilda chop ettingan. Qissa bosh qahramoni Saida sodda, o’z haq-huquqini biladigan samimi, aqli va ishbilarmon yigirma ikki yoshli qiz edi. Asar voqealari bahor tasviri bilan boshlanadi. Bosh qahramonning boshlig‘i Tohirjon Nosirov uni “Bo’ston” kolxzogiga kotiba sifatida yuboradi. Muallif “Sinchalak” qissasi xronotopni sifatida mazkur kolxzoni tanlaydi.

A.Qahhor qissa voqealari tugunini Tohirjon Nosirovning kotibasiga bergen savoli orqali berishga urinadi. U ko‘chada borayotgan mashina odamni urib yuborsa, nima bo‘lishini Saidadan so‘raydi. Yosh qiz Nosirovning savoldidan cho‘chib ketadi, chunki u inson hayoti hamma narsadan ustun kelishini yaxshi tushunadi. Kitobxonga “Bo’ston” kolxzoning raisi Arslonbek Qalandarov tanishtiriladi.

Tohirjon Nosirovning maqsadi “soyada o’sgan” raislardan bo‘lgan Qalandarov kolxzogiga kotiba yuborish edi. Asar bosh qahramoni Saidaga ushbu taklif kutilmagan bo‘lib, qizni dovdiratib yuboradi. Qiz Nosirovning kabinetidan rangi qizarib chiqqan Qalandarovni tezroq ko‘rishni istaydi. Protagonist qalbida “Bo’ston” kolxzogiga kotiba bo‘lib borish bir tomondan yoqsa, ikkinchi tomondan xavotirga soladi.

Saida kechasi bilan rejalar tuzib chiqadi va erta tongdan kolxzoga jo‘nab ketadi. Saida “Bo’ston” kolxzogiga kelgach, sada ostida o’tirgan Qalandarovni uchratadi. Qalandarov qizga parvo qilmay, unga sovuq munosabat bildiradi: Saidaga oddiygina, polsiz, qorong‘i, zax hidi anqib turgan bir kichkina kulbani ajratadi.

Muhokama. Badiiy asarlarda protagonist va antagonistlarni yaratish yozuvchi uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Anjela Akerman fikriga ko‘ra, kitobxonga badiiy asar protagonistining quyidagi jihatlari ta’sir ko‘rsatadi:

1. Bosh qahramon hayotidagi maqsadiga erisha olishi yoki erisha olmasligi.

2. Protagonist ideal obraz sifatida xarakter xususiyati va xulq-atvori jihatidan boshqa barcha badiiy asar personajlari ichida ustun turadi. Protagonist – o’ziga ishonchi baland, shubhasiz, badiiy asar syujetining rivojlanib borish jarayonida har bir hatti-harakatini o’ziga ishongan holda bajaradi. Shu sababli kitobxon ideal obraz – protagonistga hamisha taqlid qilishga urinadi.

LITERARY CRITICISM

3. Protagonistning yo'l qo'yan kamchiliklari orqali kitobxon o'ziga zarur bo'lgan xulosalarni chiqarishi mumkin. Bunda u protagonistning ruhiyatidagi salbiy xislatlaridan (qo'rquv, jazavaga va tushkunlikka tushish) ta'sirlanadi.

4. Protagonistning hayotidagi maqsadiga erishishi uchun kurashishi, ba'zan, beixtiyor jinoyat ko'chasiga kirib qolishi mumkin. Protagonistning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi badiiy asarning kulminatsion nuqtasini ifodalab, bosh qahramonning bunday holatdagi hatti-harakati har bir insonga katta taassurot uyg'otishi mumkin.

5. Bosh qahramon botiniy hamda zoxiriy olamidagi evrilishlarni, ya'ni, badiiy asar voqealarini rivoji jarayonida protagonistning ham ma'naviy, ham ruhiy dunyosidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Antagonist – (raqib) badiiy asar bosh qahramoniga zid bo'lgan obraz hisoblanadi. U badiiy asarning bosh qahramoni va boshqa obrazlarga tahdid o'tkazib, ularni to'g'ri yo'ldan noto'g'ri yo'lga chorlaydi. Antagonist doimo protagonistga baxtsizlik va kulfat keltirishga urinadi, unga turli-xil to'siqlar qo'yib, maqsadiga erishishiga yo'l qo'yaydi.¹

Josefin Burman o'z tadqiqot ishida protagonist va antagonist qahramonlarini "flat" (o'zgarmas) va "round" (murakkab) xarakterlar sifatida ko'rsatib berdi. Antagonist g'alaba qilishni hayotidagi asosiy shiori deb hisoblaydi. Keng ma'noda protagonist kitobxonga simpatiya, ya'ni yoqtirish hissini uyg'otsa, antagonist esa "nafrat" va "jirkanish" hissini uyg'otishi mumkin.

Shakl va mazmun birligi:

A.Qahhor Qalandarov obrazi orqali milliy xarakterni ko'rsata olgan. Raisga xos bo'lgan barcha fazilatlar manmanlik, odamlarni sensirab gapirishi, boshqalarning oldida odamlarni urushmasligi, kotibasi Umidaning aytishicha, agar biror kishiga tanbeh bermoqchi bo'lsa, kabinetiga chaqirar edi va "odamlarning chiqiti bo'lmaydi" deya hamisha ta'kidlar edi.

Qalandarov ayol kishining ustidan shikoyat qilishni ham o'ziga munosib deb ko'rmaydi. Saidani tanqid qilib, yugurdagiga uninig sha'niga qarshi ariza yozdiradi. Ammo ushbu arizani yuqori tashkilotga ko'rsatishga erkaklik g'ururi yo'l qo'yaydi. Tadqiqot jarayonida muallifning Qalandarov obraziga xos milliy xarakterni ifodalashi orqali shaklning va mazmunga o'zaro mos kelganini kuzatish mumkin.

Xususiylikdan umumiylikka o'tish

Adib XX asrning 50-yillardagi jamiyatning dolzarb muammolarini va uning sabablarini tasvirlaydi. Jumladan, ayollar va erkaklar o'tasidagi tengsizlik munosabatni ko'rsatadi: ayollarning dalaga chiqib ketmon chopishi-yu, erkaklarning velosipedda pochtatichi bo'lib xat va gazeta tashishi, maktablarda bitiruvchi qiz bolalarning soni kamayib borishi kabi muammolarni yoritadi.

"Sinchalak" qissasida Kozimbek deuteragonisti syujet voqealarining rivojlanib borishi jarayonida kitobxonlarga havola qilinadi. Havorang galstuk, oq shoyi ko'ylak kiygan Kozimbek obrazi Qalandarovning o'gli bo'lib, yosh vrach bo'lib ishlar edi. Kozimbek Saida betob bo'lib qolganida uni davolab, qizga g'amxorlik qila boshlaydi. U vrach sifatida ayol kishini davolayotganida ularni opasi yoki onasi kabi ko'rib davolashini ta'kidlaydi. Hattoki, yosh vrach Kozimbek Saidaga bo'lgan sof muhabbbati tufayli unashirilgan qiziga uylanishdan bosh tortadi. U doim Saidani aylantirib kelishni o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri deb hisoblaydi.

"Sinchalak" qissasi yaxshilik bilan yakun topadi. Rais Qalandarov Saidaga yomonlik istagani uchun qizdan kechirim so'raydi. Bosh qahramon Saidaning taqdiri baxtli yakun topadi, u Kozimbek bilan turmush quradi.

Abdulla Qahhor qo'llagan badiiy tasvir vositalari orqali o'z badiiy niyatini ifodalashga uringan:

Peyzaj: "Dim kabinetga bog'chadan muzday havo, handalaknimi, bosvoldi qovunnumi esga soladigan yalpiz hidi kirdi; chumchuqlarning chug'urlashi, deraza ostida oqayotgan ariqchaning shovullashi eshitildi." [1,3]

Portret: Protagonist Saidani Abdulla Qahhor quydagicha tasvirlaydi: "Nosirov qabulxonada hurmat yuzasidan o'rnidan turgan yordamchisi – yigirma ikki yoshlardagi baland bo'ysi, xushqomat, juda nozik qizga salom berib, kabinetga kirib ketdi." [1,3]

Adib bosh qahramon portretida yosh bo'lishiga qaramay, mehnatkash, o'z kolxzoning ravnaqi uchun ter to'kib mehnat qiladigan Saida obrazini shakllantirgan.

Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasini aynan bahor fasli bilan bog'lashidan asosiy maqsadi yosh qiz Saidaning hayotini tasvirlashdan iborat.

Metafora: "O'sha kuni kechqurun raykom sekretari Rustam Qodirov 'Bo'stonga' borib, Qalandarovni shu munosabat bilan tabrikaldi va kolxozchilar oldida uni: "Kolxozi dalalarining arsloni" deb atadi." [1,9]

¹ Wilda. Social Status towards the Characters in Dickens' Great Expectation" A Thesis Submitted to the Faculty of Cultural Sciences Hasanuddin University, Indonesia. – P.23.

LITERARY CRITICISM

Qissada Qalandarovga o‘xshagan mag‘rur, qat’iyatlari raislarni yozuvchi arslonga qiyoslaydi.

Mubolag‘a: “Karima dadasini darrov ko‘tarib oldi. Uning ham ich-ichidan xuruj qilib kelgan yig‘i shiddat bilan otilib chiqadigan paytda ko‘z oldiga o‘sha mash‘um oqshom manzarasi keldi-yu, qalbidan chiqqan sovuq bir to‘lqin tomog‘iga tiqilgan yig‘ini surib, yuvib ketdi” [1,16]

Saidaning oilaviy hayoti fojiaviy yakun topgan edi. Otasi onasining o‘limiga sababchi bo‘lganidan so‘ng qamoqqa tushib qoladi. Kunlarning birida Saidaning singlisi Karima dadasini qamoqdan chiqqani ko‘rgach, ko‘zlar yoshlanadi. Dadasi qizidan kechirim so‘rash uchun engashib, qizining oyog‘iga o‘zini tashlab yuboradi.

Badiiy detal: “Polsiz, qorong‘i, supurgi bilan oqlangan, zax hidi anqib turgan bir kulba. Uning butun jihoz sholko‘rpa to‘shalgan oddiy temir karavot, ustiga allanima to‘kilib qotib qolgan qo‘pol stol, 2 ta taburetka, devorlariga qoqilgan “surat-purat” kattakon bezgak pashsha, go‘zani nobud qiladigan har-xil hasharotlar, zotli cho‘chqa tasviri singari turli plakatlardan iborat.” [1,23]

Asar protagonisti ‘Bo‘ston’ kolxoziga kelgach, raisning qizga bo‘lgan mensimaslik va unga muhtoj emaslik munosabatini oddiy kulbani Saidaga berishi bilan aniqlash mumkin.

Rais Saidadan uzr so‘rash maqsadida unga telegraamma jo‘natadi va qiz o‘zicha Qalandarov yarashish uchun qo‘l uzatyapti deb o‘ylaydi. – *Ot minganmisiz? – deb soradi Qalandarov. Saida ilgari ot mingan emas, kolxozga kelganidan beri biroz mingan edi. – Uncha muncha... – dedi. – O‘rganish kerak! – dedi Qalandarov. – kolxozchilik!.. G‘o‘zalarni bir ko‘rib kelaylik... .* [1,113]

Rais atayin “kolxozchilik” deb kotiba qizni ishidan sovutish maqsadida ot mindirib charchatmoqchi bo‘ladi.

Xulosa. A.Qahhorning “Sinchalak” qissasi lingvopoetik tamoyillar asosida tahlil qilinib, badiiy asarda muallifning tanlagan personaj va obrazlari, zamon va makon, kompozitsiya va syujet, mavzu va o‘ziga xos uslubidan tashqari, yozuvchi tasvirlagan qahramon psixologiyasi hamda muhit kabilalar o‘rganildi.

Qissa bosh qahramoni haqiqat va adolat tarafdori bo‘lib, badiiy asardagi qarama-qarshi obrazlar bilan kurashib, jamiyatda adolat o‘rnatishga intilishi orqali kitobxonlar qalbini zabit etadi. Yozuvchi qissada personajlar dunyosini tasvirlashda dialoglarda juda ko‘p foydalangan.

XX asr o‘zbek nasrida qahramonlar asar personajlari tizimida yetakchi mavqega ega. Badiiy asardagi voqealar protagonist atrofiga uyuştirilib, qolgan personajlar unga bog‘liq holda asar voqealariga kiritilgan. Qahramonning ishtiroki qissa janrini belgilovchi omil sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. *Sinchalak*. Toskent: Global books, 2021.
2. Kakharova M.Y. *Similarities and Discrepancies in English and Uzbek Children’s Prose// American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 02, Issue 01, The USA , – 2024. ISSN (E): 2993-2769. P.447-451. (SJIF: 7.759)*
3. Kakharova M.Y. *The Specific Features of Crossover Literature // Scientific Reports of Bukhara State University. – Buxoro, 2024. № 1-son. – P.266-271.*
4. Kaxarova Mohigul Yusufovna. *Ingлиз ва о‘zbek bolalar nasrida o‘smirlar ruhiyati tasviri*. Buxoro: Durdona, 2024. – 5-124 b.
5. G‘ Murodov, R.Imomova, Z. Jalilova. *Adabiyotshunoslik nazariyasi epic tur janrlari*. – Buxoro: Durdona, 2023.
6. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/novella>
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. *Davlat Ilmiy Nashriyoti*. Toshkent: – B.170.

AN ANALYSIS OF THE CHALLENGES FACED BY AMERICAN YOUTH IN JACK LONDON'S "MARTIN EDEN"

Niyazova Mokhichekhra Khayatovna,

PhD, Associate Professor of English Literary and Translation Studies,

Bukhara State University

m.x.niyazova@buxdu.uz

Saidova Dilnoz Zarif qizi,

1st grade master student of History and Philology

department of Asian International University

dilisaidova07@gmail.com

Abstract. Jack London's "Martin Eden" explores the struggles of American youth through the experience of its protagonist Martin Eden, a working-class aspiring writer. This article examines the major challenges faced by American youth depicted in the novel, such as social class barriers, economic hard knocks, restrictions in education, personal tolls wrought by ambition and self-betterment. The novel condemns the stiff structure of capitalism, stressing the problems faced by social mobility and the alienation felt from intellectual and personal development. Additionally, the article discusses Martin's conflict between his pursuit of individual success and societal expectations, and how these result in personal disillusionment. An analysis of these themes reveals how Martin Eden crystallizes the greater struggle of youth in America and that remains ever so relevant today as an expression of his social critique.

Keywords: Jack London, Martin Eden, American youth, social class struggle, economic hardship, ambition, education, self-improvement, capitalism, social mobility, alienation, disillusionment, individualism, literary analysis, societal expectations.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЕТСЯ МОЛОДЁЖЬ АМЕРИКИ В РОМАНЕ ДЖЕКА ЛОНДОНА "МАРТИН ИДЕН"

Аннотация. В романе Джека Лондона «Мартин Иден» исследуется борьба американской молодёжи через опыт своего главного героя, Мартина Идена, начинающего писателя из рабочего класса. В этой статье рассматриваются основные проблемы, с которыми сталкивается американская молодёжь, изображённая в романе, такие как социальные классовые барьеры, экономические трудности, ограничения в образовании, личные издержки, вызванные амбициями и стремлением к самосовершенствованию. Роман осуждает жёсткую структуру капитализма, подчёркивая проблемы социальной мобильности и отчуждение от интеллектуального и личностного развития. Кроме того, в статье обсуждается конфликт Мартина между его стремлением к индивидуальному успеху и общественными ожиданиями, и как это приводит к личному разочарованию. Анализ этих тем раскрывает, как «Мартин Иден» отражает более широкую борьбу молодёжи в Америке, что остаётся актуальным и сегодня как выражение социальной критики автора.

Ключевые слова: Джек Лондон, Мартин Иден, американская молодёжь, социальная классовая борьба, экономические трудности, амбиции, образование, самосовершенствование, капитализм, социальная мобильность, отчуждение, разочарование, индивидуализм, литературный анализ, общественные ожидания.

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" ROMANIDA AMERIKA YOSHLARI DUCH KELGAN MUAMMOLAR TAHLILI

Annotatsiya. Jek Londonning "Martin Iden" romani, Amerikalik yoshlar duch kelgan muammolar va bosh qahramon Martin Edenning hayot yo'lini o'r ganishga qaratilgan. Martin Iden, ishchi sinfigagi, yozuvchi bo'lishni orzu qilgan qahramondir. Ushbu tahlil, romanda tasvirlangan yosh amerikaliklar duch kelgan asosiy muammolarni, jumladan, ijtimoiy sinf to'siqlari, iqtisodiy qiyinchiliklar, ta'lim cheklvlari va o'zini rivojlantirishning psixologik oqibatlarini ko'rib chiqadi. Roman, kapitalizmning qattiq tuzilmalarini tanqid qiladi, ijtimoiy qiyinchiliklarni va intellektual va shaxsiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, maqolada Martinning individual muvaffaqiyatga erishish uchun bo'lgan intilishiga

LITERARY CRITICISM

jamiyatning munosabati shaxsiy norozilikka olib kelishini muhokama qiladi. Ushbu mavzularni chuqur tahlil qilish orqali, "Martin Iden" romanining Amerikadagi yoshlarning keng qamrovli muammolariga munosabatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Jek London, Martin Iden, amerikalik yoshlar, ijtimoiy sinf kurashi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ambitsiyalar, ta'lim, o'zini rivojlantirish, kapitalizm, ijtimoiy harakatlanish, ajralish, norozilik, individualizm, adabiy tahlil, jamiyat kutishlari.

Introduction. Jack London's novel "Martin Eden" is a powerful story of struggle, ambition, and hardship to make it in America. The book depicts the life of Martin Eden, a poor and uneducated young man who dreams of becoming a famous author. His career is full of financial difficulties, social games, and mental difficulties associated with personal growth. London shows the difficulties of using Martin's story to improve their life, especially their lives, especially lower backgrounds. One of Martin Eden's most important themes is the problem of social mobility. Martin was born into a working-class family and society expects him to remain in that class. But he refuses to accept this fate and works tirelessly to educate himself. He falls in love with Ruth Morse, a woman from a wealthy background, who introduces him to the world of high society. Martin believes that success and intellectual development will help him gain a place in this world, but he soon realizes that society does not easily accept outsiders.

Another major problem Martin faces is economic hardship. He dreams of becoming a writer but struggles to make a living: the publishing industry keeps rejecting his work, forcing him to live in poverty. His financial predicament reflects the reality for many young Americans who strive for success but lack the resources and support to achieve their goals. London highlights the difficulties of pursuing a creative or intellectual career in a society that values wealth and status over talent and hard work. In addition to social and economic hardships, Martin must also deal with serious psychological difficulties: as he becomes more educated and knowledgeable, he begins to feel alienated from both the working and upper classes. He no longer fits into either world, leaving him feeling lonely and isolated. His personal journey reveals the emotional cost of ambition and the difficulty of finding true belonging in a society that judges people by their background. Through Martin Eden, Jack London paints a striking picture of the challenges facing ambitious young men in America. The novel is both an inspiring tale and a warning about the rewards and dangers of personal ambition. This analysis examines the major issues facing young people in Martin Eden's America, including class struggle, economic hardship, and psychological strain. Understanding Martin's journey can give us a greater understanding of the social and personal obstacles that continue to face many young people today.

Literature review. Jack London's "Martin Eden" has been widely analyzed by scholars, critics, and literary enthusiasts for its deep exploration of social class struggles, individualism, and the psychological impact of ambition. This section reviews key literature and critical perspectives on the novel, focusing on themes such as social mobility, economic hardship, self-education, alienation, and the philosophical underpinnings of Martin Eden's journey.

Many scholars have examined "Martin Eden" as a critique of the rigid class structure in American society. According to Pizer, [1,96] the novel highlights the difficulty of moving from the working class to the upper class, revealing the deep prejudices and barriers that prevent true social mobility. Similarly, Labor [2,32] discusses how London portrays the American Dream as an illusion, showing that social class is not just about wealth but also about cultural acceptance.

Several literary critics view "Martin Eden" as London's critique of capitalism and its failure to reward genuine talent. Cassuto[3,24] points out that Martin's financial struggles represent the economic realities faced by young people trying to achieve success in a system that values profit over artistic or intellectual contributions.

London's portrayal of Martin Eden's psychological deterioration has been a major focus of literary analysis. Many scholars interpret Martin's alienation as a result of his intellectual and social transformation. Hendricks [4,57] argues that Martin's journey illustrates existential loneliness -he is caught between two worlds and belongs to neither. Kershaw [5,88] connects Martin's isolation to Nietzschean philosophy, suggesting that his downfall results from his attempt to transcend societal norms without finding meaningful human connections. This perspective highlights the dangers of unchecked ambition and the need for emotional fulfillment alongside intellectual growth.

Critics have also examined "Martin Eden" within the framework of literary naturalism, a movement that emphasizes the influence of environment, heredity, and social conditions on human fate. London, influenced by thinkers like Herbert Spencer and Friedrich Nietzsche, incorporates themes of determinism and survival of the fittest. Norris [6,69] discusses how "Martin Eden" reflects the harsh realities of

LITERARY CRITICISM

naturalistic philosophy-Martin's environment shapes his struggles, and despite his personal efforts, he cannot escape his fate. Additionally, Lundquist[7,41] examines the tension between individualism and society, arguing that Martin's extreme self-reliance ultimately leads to his downfall, reinforcing London's critique of individualist ideology.

Methodology. Contextual analysis is a crucial method used in this study to examine Jack London's "Martin Eden" within the historical, social, and philosophical background of early 20th-century America. This approach helps in understanding how the novel reflects the realities of its time and how its themes remain relevant to contemporary discussions on youth struggles, social mobility, and individualism. By using contextual analysis as a method, this study provides a deeper understanding of "Martin Eden" beyond its surface narrative, revealing how the novel serves as both a personal reflection and a broader social critique of American youth's struggles.

Discussion. Jack London's life provides a compelling backdrop for the analysis of his novel, Martin Eden. London personally faced poverty, engaged in self-education, and battled for literary acclaim, mirroring the journey of his protagonist. Many scholars identify Martin Eden as a semi-autobiographical narrative, which underscores the importance of London's experiences in grasping the text's thematic elements. This study will explore London's ideological perspectives, particularly his socialist tendencies, to evaluate whether the novel critiques individual ambition or reflects London's own internal struggles.

In Martin Eden, Jack London delves into the trials encountered by passionate youth during early 20th-century America. Through Martin's odyssey, the narrative scrutinizes themes such as social mobility, financial hardship, individualism, and the emotional toll wrought by intellectual striving. This discussion will analyze Martin Eden's principal conflicts while linking them to societal concerns and assessing how these issues resonate with modern audiences. One prominent obstacle that Martin Eden confronts is the entrenched class system that hinders upward movement within society. Coming from a working-class background, he operates under the belief that education and diligence can propel him toward higher social standings. However, even after attaining educational accomplishments and achieving recognition in literature, he remains an outsider in elite circles. His interactions with Ruth Morse a character from an affluent family underscore pervasive class biases that existed at that time.

London employs Martin's narrative to critique the concept of the American Dream: the notion that anyone can attain success through determination alone. The protagonist's plight illustrates that social mobility may not be as readily attainable as it seems; instead, systemic class distinctions continue to limit access to opportunities. The theme remains current today as social class and economic oppression dictate the lives of young people aspiring to achieve greatness.

All through the novel, the financial difficulties that confront Martin Eden are the main hurdle he had to cross to achieve success. His dreams of becoming a writer are always met with rejections from publishers, thereby forcing him into abject poverty. He works tirelessly while often going without food as society shuns his efforts. This aspect strongly resonates with the reality that has confronted many young artists and intellectuals, from the time of London to the present.[8,35-39]

London forwards a critique on the system that apotheosizes commercial success over genuine artistic talent. Martin qualifies only when he has their approval; in effect, success seems frequently to be measured in external validation instead of upon true merit. The same theme finds resonance yet today, as many young creators try to make a living in industries that favor profit over originality. Martin's pursuit of self-education is one of the defining aspects of his character. Unlike conventional scholars, who are molded and educated through formal institutions, Martin's education comes through the reading of books and real-life experiences; hence he becomes the man of learning only marginally above many around him, if not a lonely intellect. He is too intellectualized to be accepted into the working class and yet not acceptable into the upper class. This theme reiterates the irony of intellectual growth while it liberates people, at the same time, it may take them away from their original milieu.

Martin's is truly a reflection of many-a-young struggling individual correspondingly the agonizing pains of change, and this change always comes with a price of being ostracized by old friends. The foremost dilemmas the novel presents are the price to be paid for the dream of intellectual ambition and whether anybody could consider himself to have really belonged for the actuary who lived for self-doctoring.

Each character dies when he is corrupted by fame, wealth, and materialism. The protagonist suffers the existential anguish- it's a kind of intense existential loneliness- leading to his disillusionment and a tragic end. London presents Martin's downfall as a warning against collectivism and the dangers of too much faith in personal ambition with his delirium. Martin's psychological decline reflects those struggles which numerous young people endure in such dubious pursuits of existence for their mental health. This novel argues that isolation in the chase for ambitious pursuits leads to isolation and not fulfillment, and in our

LITERARY CRITICISM

present day, this message is most pertinent as youthful pursuit collides with societal pressures from ourselves and others to succeed in an already cut-throat environment. [10, 11-15]

Scholars argue Martin Eden to be either promotion or comment on individualism. Martin represents the qualities of self-reliance and hard work; yet in the end, his life suggests that extreme individualism is an aspect of dying by self-destruction.

London viewed the novel as an attack on capitalism, influenced somewhat by socialist ideas: it is too late for Martin by the time he is remembered to have fallen out of belief in those values he once chased after. This mirrors London's own disillusionment with the idea of American Dream and begs the question: Does individual success really fulfill under materialist ideas? Although Martin Eden was written more than a century ago, the themes are still startlingly relevant. Many of today's youth wrestle with economic instability, social barriers, and the pressure of succeeding in a competitive world. The continuous discussion of ambition, mental growth, and mental health remains relevant to a modern audience. Additionally, the novel's critique against capitalism and societal expectations aligns with contemporary discourse on economic inequality and the inequalities of meritocracy. Like Martin Eden, still today, many individuals find that hard work and talent alone do not guarantee success.

Conclusion. Jack London's "Martin Eden" is a profound exploration of the struggles faced by ambitious young individuals in America. Through Martin's journey, London critiques social class divisions, economic hardship, intellectual alienation, and the dangers of extreme individualism. The novel remains relevant in modern society, offering insights into the ongoing challenges of social mobility and personal ambition. Ultimately, "Martin Eden" serves as both an inspiring and cautionary tale, reminding readers that success, if pursued in isolation, may not lead to true fulfillment.

REFERENCES:

1. Pizer, Donald. *Realism and Naturalism in Nineteenth-Century American Literature*. Southern Illinois UP, 1978.-P.96.
2. Labor, Earle. *Jack London: An American Life*. Farrar, Straus and Giroux, 1994.-P.32.
3. Cassuto, Leonard. *The Inhuman Race: The Racial Grotesque in American Literature and Culture*. Columbia UP, 2004.-P.24.
4. Hendricks, Kyle. "The Existential Crisis in Martin Eden: Alienation and the Dangers of Extreme Individualism." // *American Literary Naturalism*, vol. 6, no. 2, 2013. - P. 57.
5. Kershaw, Andrew. "Nietzschean Themes in Martin Eden: A Study of Individualism and Alienation." // *Philosophy and Literature Journal*, vol. 21, no. 1, 2007. - P. 88.
6. Norris, Frank. *The Responsibilities of the Novelist and Other Essays*. // U of Nebraska P, 1979.-P.69.
7. Lundquist, James. *Naturalism and the Self-Made Man in American Literature*. // U of Illinois P, 1993.-P. 41.
8. Niyazova, M. Kh, and M. Temirova. "Semantic analysis of old english phraseological units." // *Asian Journal of Multidimensional Research* 12.3 (2023): 35-39.
9. Niyazova, Mokhichekhra. "Ingliz va ozbeklarda toy marosimi olqishi." // Центр научных публикаций (buxdu.uz) 2.2 (2020).
10. Tolibovna, S. Z. (2023). "Longing" as a main theme in english and Uzbek bildungsromans. // *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 12(8), 11-15.

XVII ASR FRANSUZ ADABIYOTIDA ASOSIY OQIMLAR

*Radjabov Ruslan Rajabmurodovich,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Karimova Maftuna Ismat qizi,
Buxoro davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVII asr fransuz adabiyotining asosiy oqimlari, she'riyati va uslublari haqida so'z boradi. XVII asr fransuz she'riyatining butun Yevropa adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatganligi, klassitsizm, barokko va prezija g'oyalari boshqa mamlakatlarda ham adabiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaganligi haqidagi fikrlar keltiriladi. Ushbu asrning mashhur shoirlar tomonidan yozilgan she'rlaridan parchalar tahlil qilinadi. Bu davrda yaratilgan she'rlar o'zining aniqligi, mantiqiyligi, tartibi va o'lchovi bilan ajralib turadi hamda keyingi avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qildi va o'z qimmatini saqlab goldi.

Kalit so'zlar: she'riyat, klassik asr, barokko she'riyati, klassitsizm, prezija, une mode féminine, sonet, odalar, epigramma, tragediya, komediya.

ОСНОВНЫЕ ТЕЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XVII ВЕКА

Аннотация. В этой статье рассматриваются основные течения, поэзия и стили французской литературы XVII века. Приводятся мнения о том, что французская поэзия XVII века оказала большое влияние на всю европейскую литературу, а идеи классицизма, барокко и презии сыграли важную роль в развитии литературы в других странах. Анализируются отрывки из стихов, написанных известными поэтами этого века. Стихи, созданные в этот период, отличаются своей точностью, логичностью, упорядоченностью и размерностью, служат примером для последующих поколений и сохраняют свою ценность.

Ключевые слова: поэзия, классический век, поэзия барокко, классицизм, презия, женская мода, сонет, оды, эпиграмма, трагедия, комедия.

MAIN TRENDS IN 17TH CENTURY FRENCH LITERATURE

Abstract. This article discusses the main currents, poetry, and styles of 17th-century French literature. It highlights that French poetry of the 17th century had a significant influence on European literature as a whole, and that the ideas of classicism, baroque, and préciosité played an important role in the development of literature in other countries as well. The article analyzes excerpts from poems written by famous poets of this century. The poems created during this period are distinguished by their precision, logic, structure, and meter, serving as an example for subsequent generations and retaining their value over time.

Keywords: poetry, classical era, Baroque poetry, classicism, préciosité, une mode féminine, sonnet, odes, epigram, tragedy, comedy.

Kirish. XVII asr fransuz she'riyati o'zining uslubi va mavzularining boyligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha adabiyotda "klassik asr" deb hisoblangan bu davr fransuz adabiyotida o'chmas iz qoldirgan nufuzli shoirlar yetishtirib berdi. Fransiyaning adabiyoti tarixida muhim o'rin tutgan bu davr klassik qadriyatlarg'a, mantiqqa, tartibga va o'lchovga alohida e'tibor qaratgan. Bu davrda yozuvchilar va shoirlar she'rlari asosan, qirol va saroy a'zolariga bag'ishlangan bo'lib, saroy hayoti, hashamat va hokimiyat madh etilgan. Xudo, axloq, insonning o'rni kabi diniy mavzular muhokama qilingan. Qadimgi davr qahramonlarining jasorati va fojiali taqdiri tasvirlanar edi. Sevgi mavzusi ham keng yoritilgan, ammo bu tuyg'u aql-idrok va nazorat ostida ko'rsatilgan. Axloqiy masalalar ko'tarilib, insonning burchi va mas'uliyati haqida mulohazalar yuritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XVII asr o'rtalarida Fransiyada 2200 ga yaqin mualliflar (asosan zodagonlar va ruhoniylar) adabiy ishda ishlaganlar. O'qish auditoriyasi bir necha o'n minglab odamlardan iborat edi[1]. XVII asr fransuz she'riyati o'zining uslubi va she'riy shakllari bilan ayniqsa mashhur edi. Bu davrda adiblar bir qator she'riy shakllarda, masalan:

- **Oda (les odes):** Ulug'vorlikni, tantanani ifodalovchi she'riy shakl.
- **Sonet (les sonnets):** 14 qatordan iborat she'riy shakl, aniq qofiya va ritmga ega.

LITERARY CRITICISM

- **Epigramma (les épigrammes):** Qisqa, o'tkir va hajviy she'r.
- **Tragediya (la tragédie):** Fojiali voqealarni tasvirlovchi dramatik asar. Bu davrda tragediya she'riy uslubda yozilar edi.[2]

XVII asr mashhur fransuz shoirlari, jumladan:

- Fransuz Malerb (François de Malherbe) (1555-1628): Klassitsizmning asoschilaridan biri. U she'riyatda aniqlik va tartibni o'matishga katta hissa qo'shgan. Malerb o'zidan keyingi shoirlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning asarlari klassik she'riyatning yorqin namunasi edi.

- Teofil de Viyo (Théophile de Viau) (1590-1626): Barokko davrining vakili. Uning she'rlarida erkinlik, his-tuyg'ularning o'ziga xosligi va yorqin obrazlar ustunlik qiladi. U Malerbning qat'iy qoidalariga qarshi chiqqan va o'zining betakror uslubini yaratgan.

- Kornel (Pierre Corneille) (1606-1684): Klassik tragediyaning mashhur vakili. Uning dramatik asarlari she'riy uslubda yozilgan bo'lib, qahramonlarning axloqiy kurashi va fojiali taqdiri tasvirlanadi.

- Rasin (Jean Racine) (1639-1699): Klassik tragediyaning yana bir buyuk vakili. Rasinaning she'riy uslubi nafisligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida insonning ichki dunyosi, ehtiroslar va insoniy zaifliklar chuqur tasvirlangan.

- Nikola Bualo (Nicolas Boileau) (1636-1711): Tanqidchi va shoir. U o'zining "She'riy san'at" ("L'Art poétique") nomli asari bilan tanilgan. Unda klassik she'riyatning asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan.

XVII asr she'riyatining 3 ta o'ziga xos asosiy oqimlari va xususiyatlari:



Muhokama. Barokko she'riyati (Le baroque): Yevropa badiiy harakati, taxminan XVI asrda Italiyada paydo bo'lgan bo'lib, XVII asrning o'rtalarigacha davom etgan. Barokko harakati inqiroz va metamorfoz sharoitida paydo bo'ldi: (o'ta halokatli din urushlari va Kopernik inqilobi kabi) dunyoning beqarorligini shafqatsizlarcha eslatdi[3]. Bu muayyan kontekstda yozilgan asarlarda o'lim va vaqtning nomuvofiqligi mashhur mavzuga aylandi, lekin avvalgidan ko'ra ko'proq zo'ravonlik ruhi ko'rinish turardi. Bu uslubda yozilgan asarlar uzining mubolag'aga boyligi, tez sur'atliligi va ko'p harakatliligi bilan ajralib turadi. Barokko shoirlarga tildan san'atkorlik bilan foydalanish, obrazlar yaratish, so'z bilan o'quvchini lol qoldirish imkoniyatini ustalik bilan taqdim etadi. Matyurin Regniye (Mathurin Régnier) yoki Teofil de Viyo (Theophile de Viau) kabi barokko shoirlari XVI asrda, xususan, Pleyada (Pleiade) shoirlari tomonidan ishlab chiqilgan sonet kabi she'riy janrlardan foydalanadilar, lekin ular o'z she'rlariga satirik maqsad yoki juda kuchli muhabbat va denga shaxsiy lirikani berdilar. Fransuz shoiri Sent-Amand (Saint-Amant) 1629-yilda o'zining "Oeuvres" to'plami bilan barokko she'riyatining eng yuqori cho'qqisini belgiladi, unda shakli va mavzulari jihatidan juda xilma-xil she'rlar yaratdi. Bu asar XVII asrning ikkinchi yarmidagi adabiy oqim: klassitsizmga burilish nuqtasi bo'ldi desak mubolaga bulmaydi.

Quyida XVII asrning mashhur adibi, barokko she'riyati yetuk shoiri Piyer de Marbo'f (Pierre de Marbeuf) ning « *Et la mer et l'amour ont l'amer pour partage* » she'ridan parcha bunga misol bo'лади.

*Et la mer et l'amour ont l'amer pour partage,
Et la mer est amère, et l'amour est amer,
L'on s'abîme en l'amour aussi bien qu'en la mer,
Car la mer et l'amour ne sont point sans orage.*

Klassitsizm (Le classicisme): Fransuz she'riyatida asosan XVII asrda gullab-yashnagan klassitsizm uyg'unlik, tartib va ravshanlikni qadrlaydigan adabiy oqim hisoblanadi. Bu 1661-yilda Lyudovik XIVning shaxsiy hukmronligi boshlanishi bilan Fransiya adabiy uslubiga kirib keldi. Klassizm halol inson siyosida gavdalangan idealga asoslanadi. Bu Uyg'onish davri ideallari qadimgi modellarga, xususan, yunon va rim

LITERARY CRITICISM

davrige qaytish istagi bilan aralashgan madaniy kontekstning bir qismi deyish mumkin. Bu harakat yozuvda uyg'unlik, muvozanat va anqlikni targ'ib qiladi. Shoirlar umumbashariy mavzularni tadqiq qilishda versifikasiya qoidalarini hurmat qilishga intiladilar. Albatta, she'riyat klassitsizmning asosiy adabiy janri emas edi, aksincha, bu harakat dastlab teatrda yaxshi rivojlana boshladi. Bu davr adabiyotida asosan *odalar*, *epik she'rlar*, va *epigrammalar* keng rivojlana boshladi. Quyida XVII asrda fransuz shoiri Pier Kornel (Pierre Corneille) tomonidan yozilgan "Temps" - "Vaqt" nomli odasidan parchani ko'rishimiz mumkin.

*Marquise, si mon visage
A quelques traits un peu vieux,
Souvenez-vous qu'à mon âge
Vous ne vaudrez guère mieux.*

Preziya yoki Pretsioz (La préciosité): XVII asrda Fransiyada paydo bo'lган adabiy va madaniy harakat bo'lib, fransuz jamiyatida avval dvoryanlar, keyin esa burjuaziya o'rtasida o'ziga xos ta'limot maktabi hisoblanadi. Bu aristokratik urf-odatlarda o'ta nozik ijtimoiy xulq-atvirlarda namoyon bo'ladi. Preziya tarafdarlari so'zlarning go'zalligi va ifoda nozikligini qidiradilar va ko'pincha murakkab tilni ishlatish bilan ajralib turadi. Bu harakat 1620-1660-yillarda rivojlandi. O'sha paytda yuqori martabali ayollar saroylarda hayotni tartibsiz deb hisoblashardi. Shuning uchun ular yanada xushmuomala til va xulq-atvorni rivojlanirishga intilishadi. « La préciosité est aussi un phénomène social entraîné par l'importance toute nouvelle des salons et par le rôle accru des femmes»[4]. Bu adabiy oqim ayni paytda fransuz tilini bezashga intiladigan bir guruh ayollar tomonidan asos solingan "une mode féminine"[5] edi desak buladi. Ular o'zlariga (ayollarga) ko'proq ahamiyat berilishini istashardi, o'zlarini "Precieuses" (qimmatli xonimlar) deb atay boshladilar va o'zlarining tez-tez odobli va bo'rttirilgan tillari bilan ajralib turishga intildilar. Ular orasida Madlen de Skuderi (Madeleine de Scudéry), Madam de La Fayette (Madame de La Fayette) va Ketrin de Vivian (Catherine de Viviane)lar bor edi. Preziya asarlari ko'pincha muhabbat, jinslar o'rtasidagi munosabatlar va his-tuyg'ularni ifodalashga qaratilgan edi. Unda emotsiyalar nozik va aniq tarzda tasvirlanardi.

*Je suis toute à vous, et je n'ai point de cesse
De penser à vos charmes et à votre tendresse.*

(Madame de La Fayette, poemadan parcha)

Natijalar. Preziyada ijtimoiy xulq-atvor va sevgi munosabatlarida ma'lum bir etiketa targ'ib qilinadi. Odob-axloq qoidalari qat'iy rioya qilinadi va yaxshi tarbiya qadrlanadi. Muhabbat ko'pincha idealizatsiya qilinadi, u "noble" – "pok" his sifatida taqdim etiladi, ritsarlik va xushmuomalalik mavzularidan kuchli ta'srlanadi. Preziya, ayniqsa, yangi janrlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shdi, masalan, *roman preziysi*, bu esa hikoya va insoniy munosabatlar ustida fikr yuritishni birlashtiradi. Adabiyot va san'at muhokamalari uchun joy bo'lган adabiy salonlar esa ayol yozuvchilar va ta'sirli mezonlar tomonidan boshqarilar hamda intellektual almashinuvlar rag'batlantirilar edi. Quyida XVII asr fransuz shoiri Vinsan Vuatur (Vincent Voiture)ning "Sonnet à une belle" dan olingan parcha bunga yaqqol misol buladi :

*Quand je vous vois, ma belle, il me semble que l'onde
De vos beaux yeux, en moi, fait naître un doux trouble;
Et mon cœur, dans ce feu, se consume et se gronde,
Comme un vaisseau perdu dans l'orage qui double.*

O'zining masallari bilan mashhur bo'lган fransuz yozuvchisi La Fonten (Jean-Baptiste de La Fontaine) ham preziya qadriyatlarini aks ettiruvchi masallar va she'rlar yozgan. Masalan, uning masallari ko'pincha nozik axloq va urf-odatlarga yaxshi rioya qilishi bilan ham qadrlanadi. Masalan uning "Le corbeau et le renard" "(Qarg'a ila tulki) masalida buni yaqqol kurish mumkin:

*Hé ! bonjour, monsieur du corbeau.
Que vous êtes joli ! que vous me semblez beau !
Sans mentir, si votre ramage
Se rapporte à votre plumage,
Vous êtes le phénix des hôtes de ces bois.*

Garchi ko'pincha yengil bir harakat sifatida qaralsa-da, preziya o'z davrining odob-axloqiga nisbatan tanqidiy fikrlarni o'z ichiga olishi ham mumkin edi, ayniqsa jinslar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha deyish mumkin. Ushbu harakat teatrda ham ta'sir ko'rsatdi, unda ruhiy dialoglar va sevgi munosabatlariga qaratilgan intrigalarga ega pyesalar yaratildi. Shu bilan birga, preziya Molier (Moliere) va boshqa zamondosh yozuvchilar tomonidan tanqid ham qilingan, u "Preziya qizlari" kabi asarlarda uning ortiqchaligini masxara qilgan edi. Biroq, preziya fransuz adabiyotida barqaror iz qoldirdi va klassitsizmga o'tishda adabiy uslubning rivojlanishiga hissa qo'shdi deya ayta olamiz.

LITERARY CRITICISM

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XVII asr fransuz she'riyati butun Yevropa adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Klassitsizm g'oyalari boshqa mamlakatlarda ham adabiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu davrda yaratilgan asarlar keyingi avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qildi va o'z qimmatini saqlab qoldi. XVII asr fransuz she'riyati klassitsizmning yuksak cho'qqisiga chiqqan davr hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan she'rlar o'zining aniqligi, mantiqiyligi, tartibi va o'lchovi bilan ajralib turadi. Bu davr shoirlari nafaqat Fransiyada, balki butun dunyoda adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ular tomonidan yaratilgan asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR :

1. Alain Viala. *Naissance de l'écrivain*, Paris: Minuit, 1985, p.145 and pp.240-246.
2. Antoine Adam, *Histoire de la littérature française au XVII^e siècle*, collection « Bibliothèque de l'Évolution de l'Humanité », Éditions Albin Michel, 1997, 3 vol.
3. Michèle et Michel Chaillou, *Petit guide pédestre de la littérature française au XVII^e siècle : 1600-1660*, Hatier, coll. Brèves littérature, 1990 ; repris sous le titre *La Fleur des rues*, Fayard, 2000; et Pocket, coll. Agora, 2017.
4. Roger Lathuillière *La Préciosité: Étude historique et linguistique*, Librairie Droz Genève 1966 Volume 1, p. 14
5. Joan Dejean, *Le dix-septième siècle*, dans Martine Reid (dir.), *Femmes et littérature: une histoire culturelle: tome I*, Paris, Folio, 2020, 1035 p.
6. Jean Rohou, *Histoire de la littérature française du XVII^e siècle*, Presses universitaires de Rennes, 2000.
7. Rajabmurodovich, Radjabov Rouslan. "Le rôle et l'importance des accents dans les conceptions scientifiques des premiers grammairiens français." Conferencea (2023): 33-36.
8. Radjabov, R. (2020). *Moyens d'exprimer du sens futur dans les constructions hypothétiques*. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 6(2).
9. Radjabov, R. (2023). *Fransuz tili orfografiyasiga uyg'onish davri tilshunos olimlari tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida*. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 29(29).
10. Rajabmurodovich, R. R. (2023, October). *Orfoepiya va zamonaviy fransuz tilining orfoepik normasi xususida*. In International scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 05.10, pp. 364-366).
11. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslар аhamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlari."// *Scientific-theoretical journal of International education research* 1.1 (2023): 97-100.
12. Radjabov, R. (2023). *Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari*. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 30(30).

РОЛЬ ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЙ В ПРОЗАИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Милованова Елена Валерьевна,
преподаватель кафедры русского языка и литературы
Каршинского государственного университета

Аннотация. Статья посвящена исследованию функциональной роли цветообозначений в структуре прозаического текста. Цветовые лексемы анализируются как семиотические маркеры, обеспечивающие создание символического поля произведения. Рассматривается амбивалентность семантики базовых цветов (белый, красный, чёрный), проявляющаяся в их способности одновременно отражать противоположные значения в зависимости от контекста. Выявляются когнитивные механизмы, обуславливающие использование цветообозначений для формирования ассоциативных рядов и усиления эмоционального воздействия на читателя. Материалом исследования послужили тексты русской прозы XIX–XXI веков, в которых прослеживается эволюция цветовой символики от архетипических структур к индивидуализированным авторским моделям.

Ключевые слова: цветообозначения, семиотика, символика цвета, прозаический текст, когнитивные механизмы, амбивалентность, семантическое поле, архетипические структуры, эмоциональное воздействие.

THE ROLE OF COLOR TERMS IN PROSE TEXTS

Abstract. The article focuses on the functional role of color terms in the structure of prose texts. Color lexemes are analyzed as semiotic markers that contribute to the creation of the symbolic field of the work. The ambivalence of the semantics of basic colors (white, red, black) is considered, manifested in their ability to simultaneously reflect opposite meanings depending on the context. Cognitive mechanisms underlying the use of color terms to form associative chains and enhance emotional impact on the reader are identified. The material of the study includes texts of Russian prose from the 19th to the 21st centuries, tracing the evolution of color symbolism from archetypal structures to individualized authorial models.

Keywords: color terms, semiotics, color symbolism, prose text, cognitive mechanisms, ambivalence, semantic field, archetypal structures, emotional impact.

PROZA MATNLARIDA RANG NOMLARINING O'RNI

Annotatsiya. Maqola proza matni tuzilmasida rang nomlarining funksional o'rnini tadqiq etishga bag'ishlangan. Rang leksikalari asar ramziy maydonini yaratishda ishtirok etadigan semiotik belgilar sifatida tahlil qilinadi. Asosiy ranglar (oq, qizil, qora) semantikasi ambivalentligi, ya'ni ularning kontekstga qarab qarama-qarshi ma'nolarni aks ettira olish qobiliyati ko'rib chiqiladi. Rang nomlaridan foydalanish orqali assotsiativ qatorlar shakllantirish va o'quvchiga emotsiyal ta'sirni kuchaytirishga sabab bo'ladigan kognitiv mexanizmlar aniqlanadi. Tadqiqot materiali sifatida XIX–XXI asr rus proza matnlari tanlangan bo'lib, unda rang ramziyatining arxetipik tuzilmalaridan individual mualliflik modellariga evolyutsiyasi kuzatiladi.

Kalit so'zlar: rang nomlari, semiotika, rang ramziyat, proza matni, kognitiv mexanizmlar, ambivalentlik, semantik maydon, arxetipik tuzilmalar, emotsiyal ta'sir.

Введение. Цветообозначения в прозаическом тексте функционируют как значимые семантические единицы, способные структурировать художественное пространство произведения и формировать ассоциативные ряды. Их роль выходит за рамки описательной функции, влияя на создание эмоциональной выразительности и символической

LITERARY CRITICISM

насыщенности текста. В прозаическом дискурсе цветовые лексемы выполняют когнитивные, эстетические и семиотические функции, обусловленные культурным контекстом и авторским замыслом.

Актуальность исследования цветообозначений определяется их тесной связью с культурно-ментальными установками и исторически сложившимися символическими значениями. В русской прозе XIX–XXI веков наблюдается устойчивое использование базовых цветов (белый, красный, чёрный), семантика которых демонстрирует амбивалентность и многозначность. Эти цветовые лексемы отражают как архетипические структуры коллективного сознания, так и индивидуальные авторские интерпретации.

Цветообозначения в прозаическом тексте выполняют многогранные функции, способствуя созданию образности, эмоциональной насыщенности и символизма. Исследования показывают, что использование цветовой лексики в художественной прозе позволяет авторам не только описывать внешние характеристики объектов, но и передавать сложные эмоциональные состояния и культурные ассоциации. Например, анализ рассказов А.П. Чехова выявил, что точность и краткость его словоупотребления наделяет каждое слово текста особыми значениями и функциями, где цветообозначения играют ключевую роль в создании художественного образа [1, с. 226].

В поэтике цвета особое внимание уделяется двуполярности и контрасту личностного и общекультурного, что позволяет глубже понять внутреннее единство и целостность текста. Без анализа имплицитных смыслов, заложенных в цвето- и светообозначениях, невозможно полностью осознать структуру и эволюцию миропонимания лингвокультурного сообщества [2, с. 391].

Кроме того, символика цветообозначений играет важную роль в интерпретации произведений русской литературы. Анализ произведений М. Булгакова, А.С. Пушкина и других авторов показывает, что цветовые символы помогают читателю проникнуть во внутренний мир персонажей и понять художественный замысел автора [3, с. 51–72].

Цель статьи — выявить и проанализировать особенности функционирования цветообозначений в прозаическом тексте, определить их роль в создании художественной образности и раскрытии культурных коннотаций, а также проследить эволюцию символической семантики цвета в русской литературе XIX–XXI веков.

Материалы и методы. Материалом исследования послужили прозаические тексты русской литературы XIX–XXI веков. В анализ были включены произведения А.П. Чехова, Л.Н. Толстого, Ф.М. Достоевского, И.С. Тургенева, М.А. Булгакова и Л. Улицкой. Отбор произведений осуществлялся на основе частоты и значимости использования цветообозначений в структуре текста.

Методологическая база исследования включает лингвокультурологический и семиотический анализ цветовой лексики. Применились методы количественного анализа для выявления частотности употребления цветообозначений, а также контекстуальный анализ для определения семантических функций цветовых лексем в тексте. Особое внимание уделялось выявлению амбивалентных значений цветообозначений в зависимости от контекста. Сравнительно-сопоставительный метод позволил проанализировать использование цветовой символики в произведениях разных авторов и литературных эпох.

Результаты и обсуждение. Анализ цветообозначений в прозаических текстах русской литературы XIX–XXI веков выявил не только частотность их употребления, но и особенности семантического наполнения в зависимости от исторического контекста и авторского стиля.

В произведениях XIX века цветообозначения использовались преимущественно для создания реалистичных описаний и усиления эмоциональной выразительности. Например, в повести А.П. Чехова «Палата №6» белый цвет описывает атмосферу больничного пространства: «*Больничная палата была вся белая, от потолка до пола, и этот холодный белый свет давил на глаза и мысли*». Здесь белый приобретает функцию не только описания, но и символической передачи холода и безысходности.

LITERARY CRITICISM

В литературе XX века наблюдается расширение функций цветообозначений, особенно в их символическом значении. В романе М.А. Булгакова «Мастер и Маргарита» чёрный цвет приобретает мифологическое и демоническое значение: «Перед ним стоял человек в чёрном плаще, с чёрным же портфелем и с невероятно острыми чёрными глазами». Воланд и его окружение символизируют силы зла, хаоса и метафизической неопределенности. Цвет здесь становится ключевым элементом в построении символической структуры произведения.

В произведениях XXI века цветообозначения часто используются для подчёркивания психологического состояния персонажей или деконструкции традиционной символики. В рассказе Л. Улицкой «Дочь Бухары» красный цвет приобретает ироническую окраску, отражая внутренние противоречия героини: «Она надела ярко-красное платье, которое казалось слишком вызывающим для её скромного нрава, но почему-то именно в нём она чувствовала себя свободной». Здесь красный цвет, традиционно ассоциируемый с любовью и страстью, становится символом освобождения от социальных стереотипов и внутренних запретов.

Таблица 1.

Функции цветообозначений в прозаических произведениях русской литературы XIX–XXI веков

Произведение	Цветообозначение	Контекст использования	Функция цвета
А.П. Чехов «Палата № 6»	Белый	«Больничная палата была вся белая...»	Описание, символ отчуждения
М.А. Булгаков «Мастер и Маргарита»	Черный	«Человек в чёрном плаще с чёрным портфелем...»	Символика зла и мистической силы
Л.Н. Толстой «Анна Каренина»	Красный	«На ней было красное платье, как кровь, притягивающее взгляды»	Символ страсти и трагизма
Л. Улицкая «Дочь Бухары»	Красный	«Ярко-красное платьеказалось слишком вызывающим, но дарило чувство свободы»	Психологическая символика, ирония
Ф.М. Достоевский «Преступление и наказание»	Желтый	«Жёлтая комната напоминала Родиона о тлении и нищете»	Символ разложения и морального кризиса
В.П. Астафьев «Царь-рыба»	Серый	«Серый холодный туман стелился по реке, скрывая всё живое»	Атмосфера неопределенности и тревоги

Результаты анализа показывают, что в XIX веке цветообозначения использовались преимущественно для создания реалистичных описаний, в то время как в XX веке усилилась их символическая и метафорическая нагрузка. В XXI веке цветообозначения становятся частью сложной системы художественных средств, отражая не только внешние характеристики, но и психологические состояния персонажей, а также авторские попытки переосмысления традиционных культурных кодов.

Заключение. Анализ цветообозначений в прозаических текстах русской литературы XIX–XXI веков продемонстрировал их значимость как инструмента художественной выразительности и формирования символической структуры произведения. Цветовые лексемы выполняют не только описательную функцию, но и активно участвуют в создании эмоционального фона, передаче культурных и исторических контекстов, а также в раскрытии внутренних состояний персонажей. В литературе XIX века доминировала описательная

LITERARY CRITICISM

функция цветообозначений, тогда как в XX веке усилилось их символическое и метафорическое значение. В произведениях XXI века цветовая символика претерпела деконструкцию, приобретая многозначность и психологическую глубину.

Данные исследования подтверждают, что цветообозначения являются неотъемлемой частью художественного текста, способствующей углублению читательского восприятия и интерпретации произведения. Перспективы дальнейших исследований связаны с углубленным изучением межкультурных различий в восприятии цветовой символики и её роли в различных литературных жанрах.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Гатауллина Л.Р. Роль цветообозначений в концептуализации мира: на материале фразеологизмов английского, немецкого, французского, русского и татарского языков. Уфа: Башкирский государственный педагогический университет, 2005. – 172 с.
2. Бреслав Г.Э. Цветопсихология и цветолечение для всех. СПб.: Питер, 2000. – 240 с.
3. Корсаков С.В. Этноколористика. М.: Издательство Московского университета, 2009. – 230 с.
4. Гуз Ю.В. Экспериментальное исследование базовых концептов цвета: на материале русского, английского, немецкого и китайского языков. Барнаул: Алтайский государственный университет, 2010. – 188 с.
5. Шелестюк Е.В. О лингвистическом исследовании символа // Вопросы языкоznания. – 1997. – №4. – С. 125–132.
6. Азаренко С.А. Символ // Современный философский словарь. – М.: Гардарики, 2004. – С. 613–614.
7. Бидерманн Г. Энциклопедия символов. М.: Республика, 1996. – 784 с.
8. Тресиддер Д. Словарь символов. М.: Эксмо, 2001. – 544 с.
9. Квятковский А.П. Символ // Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 263–265.
10. Выродова А.С. Лингвокультурологическое пространство колоративов в поэтическом дискурсе первой половины XX века. Белгород: Белгородский государственный университет, 2008. – 210 с.
11. Емельянова О.Н. Символ // Культура русской речи: Энциклопедический словарь-справочник. – М.: Флинта, 2003. – С. 616–618.
12. Машибиц-Веров И. Символ // Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 348–349.
13. Доброхотов А.Л. Символ // Новая философская энциклопедия. [Электронный ресурс]. URL: <http://iph.ras.ru/elib/2711.html>
14. Миронова Л.Н. Символика цвета. [Электронный ресурс]. URL: http://www.mironovacolor.org/theory/humans_and_color/symbolism/
15. Жигалова М.П. Использование символики цветообозначений в ходе анализа произведений русской литературы в высшей школе Республики Беларусь // Исследовательский журнал русского языка и литературы. – 2023. – Т. 11, вып. 1. – С. 51–72.

HAJVIY SHE'RLARDA DAVR ZIDDIYATLARI TALQINI

Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qarshi davlat universiteti dotsenti, Sh.Karamova taqrizi ostida
ravshanovagulruxbegim@gmail.com

Annotatsiya. Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidolangan va so'ngra umumkayfiyatga tutashuvi hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, insoniy munosabatlarning tig'izlashuvi, dard va og'irqlarni yengib o'tishga yo'l ochish hajvnavislikning oldida turgan asosiy masalalardan bo'lib, kulgi zamiridagi ziddiyat orqali davr nafasini teran fahmlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: humor, tanqid, satira, hajvnavislik, ma'rifatparvarlik, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВРЕМЕННЫХ КОНФЛИКТОВ В КОМИЧЕСКИХ СТИХАХ

Аннотация. В цепочке социально-культурной жизни, прежде всего, наиболее масштабные образцы жанрово-композиционной целостности проявились в произведениях творцов эпохи Просвещения, а затем начали совершенствоваться по строгим принципам. Начавшись с индивидуального характера и затем перейдя к общему настроению, это подготовило почву для обновления философско-эстетических критерии сатиры. Сильное критико-психологическое настроение стало трансформироваться в совершенствование сатирических произведений. Эта тенденция привела к появлению новых жанров в литературных направлениях. Кроме того, усложнение человеческих отношений, преодоление боли и страданий являются одними из основных вопросов, стоящих перед сатирическим творчеством, и служат для глубокого понимания духа эпохи через противоречие, лежащее в основе смеха.

Ключевые слова: юмор, критика, сатира, сатирическое творчество, просветительство, пафос, тема, идея, критерий, мотив смеха и плача.

INTERPRETATION OF TIME CONFLICTS IN COMIC POEMS

Abstract. In the evolution of socio-cultural life, the most significant elements of genre-compositional integrity first emerged in the works of Enlightenment period writers, and later began to be further refined according to strict principles. Beginning with individual character and subsequently connecting to the general mood, this development laid the groundwork for renewing the philosophical and aesthetic criteria of satirical writing. A strong critical-psychological atmosphere began to transform into the improvement of satirical works. This identity led to the emergence of new genres in literary trends. Additionally, the intensification of human relationships and paving the way to overcome pain and hardships became one of the main issues facing satirical writing, serving to deeply understand the spirit of the era through the conflict underlying laughter.

Keywords: humor, criticism, satire, satirical writing, enlightenment, pathos, theme, idea, criterion, motifs of laughter and crying.

Kirish. O'zbek she'riyatida hajvnavislik an'anasi muhim ikki davr mumtoz va ma'rifatparvarlik davri hamda zamonaviy o'zbek she'riyati, ya'ni mustaqillik va ungacha bo'lgan davr oralig'ini o'z ichiga qamrab oladi. Ana shu ikki davrning shoirlari hajviy she'rlarida yetakchi tendensiyalarni ham davrga, zamon va makonga mos ravishda talqin qilish ishonchni oqlaydi. Xo'sh, o'tgan davrning 60-yillarda badiiy adabiyotga kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Anvar Obidjon poetik izlanishlaridagi asosiy tendensiyalar nimalardan iborat bo'ldi? Ularning badiiy izlanishlarida qaysi mavzu (motiv)lar yetakchi ahamiyat kasb etdi? Ulardagi mavzu-mundarija, shakl va uslub, lirik kechinma tabiatidagi uzil-kesil o'zgarishlar, rivojlanishlar

LITERARY CRITICISM

asosan qanday masalalarni idrok qilishga keng yo'l ochdi? Mana shu masalalarga ushbu bob va fasllarda to'xtalib o'tishni joiz bildik.

Dunyo she'riyati mavzu-mundarijasida ham, qardosh xalqlar adabiyotida ham, o'zimizning o'zbek she'riyatimizda ham ayni bir-biriga o'tib turuvchi "sayyor syujet" chiziqlarini, mavzularni, muammo va yutuqlarni, eng asosiysi – tasvir o'ziga xosliklarini ko'rishimiz mumkin. Davrning, zamonning, makonning iztiroblari hech bir hajvnavis yozuvchi yoki shoirni tark etmagan. Shunday bir olamki, undan o'zingni onadan qayta tug'ilgandek, pokiza va iymonli shuur bilan yengillik ila chiqib olishing mumkin deyiladi muqaddas o'gitlarda ham. Hajv, kulgi, yengil humor – tabiatida insoniy dard, iztirob, qayg'u va jafokash xalqning, sodda olomonning yuksak muhabbat, sadoqati, bir-biriga bo'lgan shafqat nashidasi turibdi. U hamma zamonlarda ham yashashga mahkum ekanligini to'laqonli his etadi, anglaydi, iztirob chekadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Erkin Vohidov she'rlarida zamon va makon birligi masalasi mohiyatiga yondashishdan oldin bir ibratlari hikmatni eslash joiz deb bilamiz: "*Mavlono bir kuni, biz yetmish uch mahzab ila birgamiz debdi. Bu gap uning raqibi qozi Sirojiddin Qazviniyning qulog'iga yetib boribdi. Qozi bir muridini chaqirib, shu gapni ko'pchilik ichida Jaloliddindan so'ra, aytganiga iqror bo'lsa, ayama, haqorat qil, deb buyuribdi. Murid shunday qilibdi, Mavlonusi og'iziga olib bo'lmash so'zlar ila haqoratlabdi, it, eshak, debdi. Shunda Mavlono tabassum qilib; "Biz o'shalar bilan ham birgamiz" deb, uni mulzam etgan ekan*"[1]. Ushbu parchani keltirishdan maqsad shuki, o'tgan sobiq ittifoq davrida ijodkor davrning, uning ichida kun kechirayotgan insonning iztiroblarini to'g'ridan to'g'ri ayta olmas edi, yengil humor, hazil-mutoyiba bilan zamonning og'riqlarini sizdirib, yuksak namunada inkishof qilib o'tardi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Anvar Obidjon olib borgan shakliy-uslubiy izlanishlarda zamon va makon talqini hajviy-kinoyaviy usul o'ziga xosligini tayin etadi. Erkin Vohidov davrning og'riqlarini ko'pchilik hajviy she'rlarida kuyunchaklik bilan yoritadi. Hajviyalarida mung, g'am va qayg'u bor edi. Shoir teran fikrlari orqali falsafiy-estetik go'zallikni yarata oldi. Natijada sobiq tuzum odamlarining mehnatga layoqati bo'lmagan qatlamning safarbar qilinishi, ko'p joylarning rejasiz o'zlashtirilishi oqibatida Orol fojeasining kelib chiqish sabablari, uning joriy kundagi oqibatlarini butun dunyo ahli bilib, his qilib turibdi. Hajv qilinayotgan obyekt va uning predmeti har qanday zamonning ravishi bilan tez sur'atda hisoblashadi. Chunonchi hajviy she'r tagida millatning taqdiri, uning zalvorli hayoti, umuminsoniy tamaddun chorrahasida yashayotgan "men"ning ixlosi, niyati turadi. Buni hech bir zamon shoiri inkor qilolmasa kerak, deb o'yaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi. She'riyat, umuman adabiyotda zamon masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, u qaysi davr, qaysi vaziyat, qaysi holatda bo'lishidan qat'iy nazar makon bilan bog'liq holda idrok qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Gegel ta'biri bilan baholasak: "Poeziya o'z-o'zini ro'yobga chiqarishda botinan erkin va hissiy material bilan aloqador bo'lmagan ruhning, tasavvur va hissiyotlarning faqat botiniy makoni va botiniy zamonida mavjud bo'lgan ruhning eng umumiy san'atidir"[2]. "Erkin bo'lmagan, hissiy material bilan aloqador bo'lmagan", deganda faylasuf ikki jihatni nazarda tutgan:

Birinchidan, hajvnavis qaysi makonda, qaysi zamonda erkin bo'lsa, o'shandagina his va tafakkurni yuragida, shuurida chandalab ko'radi. Agar shu mavzuga qo'l ursam, odamlar nima derkin? Siyosat-chi? O'tgan zamon siyosatning rangini, holati va ruhiyatining murakkab ekanligini har bir shoirga, ayniqsa, Erkin Vohidovlar avlodiga ko'rsatdi. Amalda shoir buni muvaffaqiyat bilan uddaladi.

Ikkinchidan, ko'ngil sirlariga oshufta shoir anglamlari o'rinni tashbehlarda namoyon bo'ladi. U botinida bo'y y ko'rsatgan har qanday masalaning nozik tomonlarigacha qayta kashf qiladi. Sezgi, his va tafakkur birligida yaxshilab qaynatadi. U xoh hajv bo'lsin, xoh hajviy she'r emas, jiddiy bo'lsin, jamiyatning ongli, sezgir va tafakkurla a'zosi sifatida ish yuritadi. Mana shu jihatlar yozuvchi yoki shoirga og'irlilik qiladi. Biz ayni shu ikki jihatni aralashtirib yubormasligimiz lozim. Quyidagi she'rda uning yorqin ifodasiga qulog tutamiz:

Dini – poklik, insof muruvvat,
Tariqati – mardlik, futuvvat.
Do'sti – mehnat, yori – uqubat,
O'zbek bo'lish oson emasdir.
U hammani o'yashi kerak,
Ko'ngil olish, yo'qlashi kerak.
O'zbek qachon uxlashi kerak?
O'zbek bo'lish oson emasdir. (Vohidov E., Tabassum. B.275)

Millatsevar va elsevar shoir Erkin Vohidovning mazkur she'riga e'tibor berilsa, qadim zamonlardan, qadriyat bo'lib qon-qonimizga singib ketgan –noyob sifatlarni og'ir turmush sharoitda she'r qilib yozish uchun, unda yengil, latif kulgi ya'ni humor tariqasida ifodalash joiz bo'ladi. O'sha sobiq ittifoq davrida esa tarixni tilga olish u yoqda tursin, u haqda o'yashning o'zi mumkin bo'lmagan "qaltis" zamonlar edi. Erkin Vohidov bu she'rni istiqlol davrida yozdi, ya'ni 2009-yilda. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'liga

LITERARY CRITICISM

kiritgandan keyingi poetik izlanishlari: millat sifatidagi OVOZning borligini bildirib qo'yish uchun bitilgan satrlaridir bu! Demak, hajv qilinayotgan obyekt va predmetda millatning orzu-havasini kuylash bиринчи о'rinda turadi. Sobiq ittifoq davrida bir zamonning ikkinchi jihatni, odamlarning tafakkur qilishga izn berilmaganida qabarib ko'rinadi. Unday vaziyatdan shoir osonlik va ustalik bilan foydalanadi.

Ma'lumki, "bir qarashda makon va zamon ("topoxronos" ham) kategoriyasi mavjudlikning umumiyligi belgisi sifatida har qanday asarning badiiyligini ta'minlaydi, deyish mumkin. Ammo atamalar chuhurroq tahlil etilsa, makon (topos) va zamon (xronos) mustaqil leksik ma'noga ega ekanligi ko'rinadi. Chunki borliq mutlaq mavjudlik sifatida e'tirof etiladi, ammo unga inson nigohi, e'tibori bilan qaralsa vaqt, zamon harakati seziladi. Demak, topoxronos inson omiliga bog'liq. (Shu yerda mental olam va undagi topoxronos, mental olam va real borliq munosabatlari, bu ikki mavjudlikning yaxlitligini ta'minlovchi topoxronos qanday, qayusulda namoyon bo'lishi hamda topoxronoslar tipologiyasi, topoxronos va badiiy matn strukturasi, badiiy anglam, topoxronos va konsept kabi masalalarni tadqiq etish kerakligi ko'rinadi.) Topos va xronos mustaqil leksemalar sifatida qo'llanadi"^[3]. Ko'rinadiki, har qanday topoxronos tabiatida muhim ichki belgilar mavjud: unda qaysi davrning kayfiyati aks etishi bilan ham o'lchanadi. Erkin Vohidovning aksariyat she'rlarida makoni kengliklar zamonning nashidasini surib yashayotgan obrazlarni tartiblashtiradi. U hajviy yo'sinda bo'ladimi, falsafiy-estetik jiddiy she'riyat tarzidami har birida o'z makoni va zamoni tadrijiy talqini namoyish qilinadi. Yetakchi tendensiyalar ayni shu masalalarni o'z ichiga qamrab olishi bilan belgilanadi.

"No'noq shoirlar" she'ri o'sha zamon, o'sha makonda istiqomat qilayotgan davrning "ursang o'laman" deb, yoqa "mushtlab" yurganlariga bag'ishlangan bo'lsa ne ajab:

Biz bir zamon muharrir bo'ldik,
Qismat ekan, bo'ldik noshirlar.
O'lsak yomon she'rlardan o'ldik,
Ado qildi no'noq shoirlar.
Qo'lyozmalar o'qirdik dil g'ash,
Ko'rgilikdan ohlar urardik.
So'zi chalkash,
O'zi janjalkash
She'rbozlardan ochib yurardik.
(Vohidov E., Tabassum. B.273)

Shoir "bir zamon muharrir bo'lganini" yengil mutoyiba, ichki izardrob bilan eslarkan, o'sha paytlari "janjalkash", "she'rboz"lardan rosa bezor bo'lganini o'kinch bilan eslaydi. Kinoya qilinayotgan "no'noq shoirlar" Erkin Vohidovga katta saboq bo'lgani, ularidan ba'zi jihatlarni "yaxshi ma'no"da o'zlashtirganini qayd etadi. Zamon teskari aylanib, o'sha "no'noqlar" davraning to'riga chiqib olganini yana istehzo bilan kinoyalaydi. Shoir 80-yillarda "Yoshlik" jurnaliga asos soladi. Atrofiga kuchli shoirlarni, muharrirlarni to'plagan Erkin Vohidov adabiyot uchun katta ishlarni amalga oshiradi. She'rdan she'rning farqi bo'lganidek, so'zdan so'zning farqini ajratishni o'zidan kichkina zamondoshlariga "nimtabassum" bilan tushuntirmoqchi bo'ladi. Eslang: davr kimniki edi? U paytlar kim sobiq ittifoq tuzumini maqtab, qator va qator ash'orlar bitsa, o'shaniki bo'lgan. Erkin Vohidov "No'noqlar"dan istiqlol davriga kelib ham qutula olmaganligini chuqur kinoyaga, yumorga o'rabi tasvirlaydi. She'rni o'qigan odam gap kim haqida ekanini darrov fahmlashi tabiiy. Negaki, she'rda biror kimsani nomi zikr qilinmaydi. Shoir umumiy pafos bilan yondoshadi. Demak, "no'noqlar"dan ehtiyyot bo'lish ham farz, ham qarzligini zamondosh ijodkorga, unda haqiqiy talant, tajriba va iste'dod bo'lsa tushuntiradi:

Baxtni uyg'oq tunlardan so'ra,
Bo'lma kinu hasadga jo'ra.
Yumaloq xat yozgandan ko'ra,
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Dunyo no'noq she'rga to'lsa ham,
Munaqqidlar xunob bo'lsa ham,
Didi nozik o'qib o'lsa ham,
She'r yoza ber, yozganing yaxshi.

Zinhor-zinhor bu ishdan to'yama,
Ishqibozlik umrning naqshi.
Bizga o'xshab yozmasdan qo'yama,
She'r yoza ber, yozganing yaxshi. (Vohidov E., Tabassum. B.274)

LITERARY CRITICISM

She'mning keyingi bandlaridagi uchta bandda syujet shunday o'xshatishlar bilan yakunlangan. Aslida, davrning o'tishi bilan yangi-yangi ijodkorlar kirib kelishini alohida ta'kidlarkan, shoir bundan chuqur xavotirga tushadi. Istiqlol yillarida bu achchiq haqiqatni aytadi: "Bizga o'xshab yozmasdan qo'yma// She'r yozaber, yozganining yaxshi". Shoir sobiq ittifoq davridagi zamonasoz shoirlarni nazarda tutarkan, o'sha paytda qanchadan-qancha iste'dod sizlar minglab, millionlab she'r yozgan. Haqiqiy iste'dodlarga esa o'sha paytda ham yashashi oson kechmagan. Mazkur she'mni 2009-yilda yozgani va unda 60-70-yillar avlodida aralashib yurgan "no'noqlar" shoir tomonidan kinoyaga olinadi. "Biz bir zamonlar..." deb boshlangan she'rida o'sha kayfiyatni keltirib chiqarmoqda. Dunyoda so'zga, ilhomga, iqtidorga tayanib so'z aytish hammaning ham ilkidan, qurbi-idrokidan keladigan ish emas. Chunki zamon o'sha so'zni sevadiganlarga, so'z qadrini biladiganlargagina omad tuhfa etishini sinovli yillar tegrasidan o'tgan ijodkorgina yaxshi fahmlaydi. Hajv o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Unda ijtimoiy-falsafiy maqsad ham, ma'no ham qo'yilishi kerak. Shundagina shoir o'z ijodiy konsepsiyasini amalga oshirgan bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Turkiyalik olim Veli Savash Yelok "Erkin Vohidov she'rlarida til va uslubiy xususiyatlar" nomli doktorlik dissertatsiyasi tadqiqotini olib boradi. Ish Anqarada 2007-yil tadqiq qilingan. Veli Savash Yelok tadqiqotning xulosa qismida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Izlanuvchining tadqiqot so'ngida kelgan quyidagi xulosasi diqqatni tortdi: "Erkin Vohidovning hayoti yashagan davri kabi turli hodisotlarning ta'siri ostida qolgan. Ikkinchisi jahon urushining mashaqqatli kunlari, Sovet hukumatining istibdodiy boshqaruv tushunchasi, qayta qurish va oshkoraliq davri va bu davrdan keyin mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topish davrini shaxsan boshidan o'tkazgan Erkin Vohidovning so'z boyligi dunyosining kengligi mana shu davrlardagi ijtimoiy va siyosiy hodisalarini aks ettiriradi. Shu bois haqiqiy qiyatlari matnning ichida ekani bilan birga dramatik va tragik o'xhashliklar bilan falokat va umidsizlik atmosferasining nishonasi mohiyatida bo'lgan so'zlarning ko'tarinkilik darajasi e'tiborni jalb etadi. Qo'llagan so'zlar bilan shaxs sifatida dramatik idrokni namoyon etgan shoir falsafiy qarashlari bilan lirikani bir-biriga ularshga intiladi. Erkin Vohidovni qanchalik ishq va muhabbat shoiri deyish mumkin bo'lsa, shunchalik fikr va qarash, hurriyat va xayolot shoiri ham deyish mumkin" [4]. Ko'rinaradiki, fikr va dunyoqarash, xayolot bilan bir paytning o'zida dunyoga qalbidagi ezgu shuuri – muhabbatini ham qo'shib izhor qilish bilan hajviy yo'sinda borligini bildirgan ijodkorning tutumlari baland edi. Chunki u borliqqa ana shu balandlikdan turib yondoshardi. Zamonning og'riqlarini goh mahzun qabul qilsa, goh quvnoq tarzda ifodalar, undan hamisha zavqlanardi. Mana shu jihatlari bilan Erkin Vohidov she'rlarida hajviyaning, yumorning ikki davr oralig'ida shakllangan, ayniqsa, 70-80-yillardagi "haybarakallachilik", "kommunizmga bir qadam" tarzidagi hayqiriqlar orasida o'z "men"ini qayta kashf qilib ulgurganiga tassanno aytish lozim. Axir, ozmi-ko'pmi o'sha davrning – yolg'onlari tagida kechgan umr, sobiq sho'ro siyosatining iroda va ruhga, e'tiqod va dinga qaratilgan g'ayritabiyy uringishlarini ichichidan his qilgan va mudom yaxshilikni kuylagan.

Xulosa va takliflar. Umuman, XX asr o'zbek she'riyatining atoqli shoirlaridan Erkin Vohidov lirikasidagi hajviy she'r modifikatsiyasi yangi davr adabiyotidagi o'ziga xos halqani qamraganligi bilan xarakterlidir. Millat dardu tashvishlari, eng muhim, istiqlolga tashna bo'lgan damlaridagi izziroblar sistembutunlik kasb etib, yangi-yangi syujetlarda, shakllarda namoyon bo'ldi. Insonki bor, hamisha og'riqlar, izziroblar qurshovida umr kechiradi. Yuqoridagi nomlari zikr qilingan ijodkorlar insoniylikning eng muhim fazilati ulug'lanadi. Erkin Vohidov she'riyatidagi zamon va makon ifodasi hajv qilinayotgan motivlarni aniqlashda, ularning mohiyati aks etgan ma'noni idroklashga yo'naltirilgan. Mazkur birliklar sistemasi badiiy xronotop qiyamatini dalolatlaydi. Eng asosiysi, insoniy munosabatlar tig'izligi, dard va og'irqlarni yengib o'tishga yo'l ochadi. Kulgi zamiridagi ziddiyat esa davr nafasini teran fahmlashga yo'naltiriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Жамол Камол. Абадият остонасида. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б.263.
2. Гегель. Эстетика. – Ташкент: Файласуфлар жамияти, 2012. – Б.72.
3. Йўлчиеев К. Хозирги ўзбек шеъриятида макон ва замон категорияси. Филол. фан. док. дисс. – Фарғона. 2021. – Б.128.
4. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.215.
5. Куронов Д. ва боши. Адабиётшунослик лугати. –Т., "Akademnashr". 2010. – Б. 139-140.
6. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.308.
7. Йўлдошев К. Сўз ёлқини. Т., "F.Гулом номидаги нашириёт-матбаса ижодий уйи". 2018. – Б.258.

LITERARY CRITICISM

8. Воҳидов Э. Шеър дунёси. Танланган асарлар, 2-жилд. – Т., “Шарқ”. 2001. –Б.180.
9. Шукуров Н. Жоним – шеъриятим. Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Т., “Turon-Iqbol”. – Б.104.
- 10.Воҳидов Э. Умрим дарёси. Танланган асарлар, 2-жилд. – Т., “Шарқ”. 2001. –Б.103.

BOBUR IJODIDA XO'JA AXROR VALIY OBRAZI

Bekova Nazzora Jo'rayevna,

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)

Xolmurodova Gulruk Qahramonovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiy haqidagi qarashlar va fikrlar chuqur nazariy tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Xo'ja Axror Valiyning obraziga alohida e'tibor qaratilib, uning o'rni va ta'siri ilmiy jihatdan o'rganilgan. Bobur ijodida tasavvufiy ta'limotlar va Xo'ja Axror Valiyning falsafiy qarashlarining izlari o'rganilgan, shuningdek, bu fikrlarning asar mazmuniga qanday aks etganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Xo'ja Axror Valiy, Boburnoma, tasavvuf.

ОБРАЗ ХОДЖИ АХРОРА ВАЛИ В ТВОРЧЕСТВЕ БАБУРА

Аннотация. В данной статье глубоко проанализированы взгляды и мнения о Ходже Ахроре Вали в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура. В статье также уделяется особое внимание образу Ходжи Ахрора Вали в произведении Мухаммада Бабура "Бабур-наме," и его роль и влияние изучаются с научной точки зрения. Изучены следы суфийских учений и философских взглядов Ходжи Ахрора Вали в творчестве Бабура, а также проанализировано, как эти идеи отразились на содержании произведения.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Ходжа Ахрор Вали, Бабур-наме, суфизм.

THE IMAGE OF KHOJA AHROR VALI IN THE CREATION OF BABUR

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the views and opinions of Zahiriddin Muhammad Babur regarding Khoja Akhror Vali. Additionally, the article focuses on the portrayal of Khoja Akhror Vali in Babur's work Baburnama, examining his role and influence from a scholarly perspective. The study explores the traces of Sufi teachings and the philosophical ideas of Khoja Akhror Vali in Babur's work, as well as how these concepts are reflected in the content of the text.

Keywords: Zahiruddin Muhammad Babur, Khoja Akhror Vali, Baburnama, Sufism.

Kirish. Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siymosi muhim ahamiyatga ega, chunki Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy ta'limotlari va diniy hayoti Bobur davrining ijtimoiy va madaniy muhitida keng tarqalgan edi. Xo'ja Axror Valiy nafaqat diniy lider sifatida, balki uning o'ziga xos adabiy va falsafiy tasavvufiy qarashlari ham Bobur ijodiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Boburning yozgan asarlarida diniy, tasavvufiy va falsafiy ta'sirlar mavjudligi ko'rsatiladi, bu esa Xo'ja Axror Valiyning ta'limoti va u bilan bo'lган aloqalarining ahamiyatini oshiradi. Shu o'rinda Zahiriddin Muhammad Bobur va Xo'ja Axror Valiy shaxsi haqida qisqa ma'lumotlar berib o'tamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — O'rta Osiyo va Hindistonda kuchli davlatni tashkil etgan, shuningdek, adabiyot, san'at va ilm-fanga katta hissa qo'shgan buyuk shaxsdir. Uning o'zi faqat hukmdor sifatida emas, balki adib va shoir sifatida ham mashhur bo'lgan. Bobur o'zining asarları, xususan, "Boburnoma" asari orqali o'zining siyosiy va shaxsiy hayoti, urushlari va ijtimoiy tahlillari bilan tanilgan.

Xo'ja Axror Valiy (1404–1490) temuriylar davrida o'zining ilm fandagi ilmiy faoliyatini yuritgan buyuk siymo hisoblanadi. XV asrda Sharqdagi falsafiy tafakkuri rivojlanishida o'z o'rniiga ega bo'lgan, naqshbandiya ta'limotining yirik namoyandalaridan biri, naqshbandiya ta'limotida islohotchi va davomchi, naqshbandiylikni jahoniya ta'limotga aylantirishda munosib hissa qo'shgan mutasavvuf. U Samarqandda yashab, ko'plab shogirdlar tarbiyalagan va o'zining diniy va tasavvufiy ta'limotlari bilan katta obro'ga ega bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan "Boburnoma" asarining 1502-1503-yildagi berilgan ma'lumotlarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, Bobur shu ma'lumotlarida Xo'ja Axror Valiy borasida fikrlari va qarashlarini keltirib o'tgan. Boburning yozishicha, Xo'ja Axror Valiy g'oyibona tarzda Bobur Mirzoni ham ma'nani ham ruhan qo'llab quvvatlab kelgan.

LITERARY CRITICISM

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bobur ijodida Xo‘ja Axror Valiyning siyoshi mavzusida ilmiy izlanish olib borgan adabiyotshunos olimlar haqida ma’lumot berish, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar va yirik olimlar ishlarini yoritishga yordam beradi. Bobur va Xo‘ja Axror Valiy o‘rtasidagi aloqalarni tadqiq etish, asosan, ikki soha – adabiyotshunoslik va tasavvufiy tafakkur nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bu mavzu

1. Muhammad Aliy Axmedov — O‘zbekistonning taniqli adabiyotshunos olimi bo‘lib, u Bobur va uning ijodi haqidagi ko‘plab tadqiqotlar bilan tanilgan. Aliy Bobur ijodida diniy, tasavvufiy va adabiy ta’sirlarni o‘rgangan va Xo‘ja Axror Valiyning tasavvufiy o‘gitlari bilan Boburning ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlagan. Adabiyot sohasida ko‘plab ilmiy izlanishlari bilan tanilgan Muhammad Aliy Axmedov nafaqat adabiy bilimlar balki, tasavvufiy bilimlarni ham o‘rgangan. Bizning xulosamiz bo‘yicha Axmedov ishlaridan kelib chiqib, Boburmirzo hayotida Xoja Axror Valiyning o‘rni juda yuqori bo‘lgan.

2. Shamsiddin Kamoliddinov — Boburshunoslik sohasidagi yetakchi olimlardan biri bo‘lib, Xo‘ja Axror Valiyning Bobur ijodidagi o‘rni va tasavvufiy ta’sirini chuqur o‘rgangan. U Boburning shaxsiy hayotidagi tasavvufiy ta’sirlar va Xo‘ja Axror Valiy bilan bo‘lgan aloqalarini o‘rganish orqali uning adabiy merosini yanada boyitgan. Sh.Kamoliddinov nafaqat tarix bilimlari balki, diniy va tasavvufiy bilimlar borasida ham ko‘plab ilmiy izlanish olib borgan.

3. X. Raxmatova o‘zining “Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili” nomli maqolasida Xo‘ja Axror Valiyning diniy va tasavvufiy ta’limotlarini o‘rganish va ularning Bobur ijodiga ta’sirini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy bir qator ilmiy tahlillarni olib borgan. Raxmatovaning tadqiqotlari Xo‘ja Axror Valiyning Bobur yaratgan adabiy muhitga qanday ta’sir ko‘rsatganini va bu ta’sirning tasavvufiy qarashlarini qanday aks ettirganini ko‘rsatadi.

4. N. Komilov — Yozuvchi va adabiyotshunos, shuningdek, Boburshunoslik bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlarga hissa qo‘shtan olimlardan biridir. U Bobur va Xo‘ja Axror Valiyning o‘rtasidagi aloqalarni tadqiq etgan va ularning adabiy an‘analari va diniy qarashlaridagi uyg‘unlikni chuqur tahlil qilgan.

5. B. Valixo‘jayev — Xo‘ja Axror Valiyning tasavvufiy ta’limotlarini va uning Bobur ijodiga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilishda o‘z ilmiy izlanishlarini olib borgan. Valixo‘jayev o‘zining tadqiqotlarida Xo‘ja Axror Valiyning diniy-nazariy fikrlarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan adabiy ifodalarni Bobur asarlariga tatbiq etgan.

Shuningdek, **Boburshunoslik** va **tasavvufshunoslik** sohalarida faoliyat yuritayotgan boshqa olimlar ham ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ularning ishlari Bobur va Xo‘ja Axror Valiy o‘rtasidagi aloqalarni yanada yoritish, o‘ziga xos diniy va adabiy qarashlarni ochib berish maqsadida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Bobur ijodida Xo‘ja Axror Valiyning siyoshi mavzusida muhokama qilish, ikki buyuk shaxsning hayoti, diniy ta’limotlari va adabiy meroslarini o‘rganishda bir nechta asosiy nuqtalar va qarashlar yuzaga keladi. Ushbu mavzu bir nechta istiqbolga ega bo‘lib, turli adabiyotshunoslari va tarixchilarining fikrlarini yoritadi. Quyida ba’zi muhim masalalar va muhokama nuqtalari keltirilgan:

Xo‘ja Axror Valiy — tasavvufning kuchli namoyandalardan biri bo‘lib, uning diniy ta’limoti va tasavvufiy qarashlari o‘z davrida keng tarqalgan. Bobur esa o‘zining hukmdorligi, adabiy faoliyati va ilmiy merosi bilan mashhur. Bobur o‘zining shaxsiy hayotida Xo‘ja Axror Valiy bilan ilohiy aloqalarda bo‘lgani, ayniqsa uning tasavvufiy ta’limotlaridan qanday ta’sirlanganligi haqida aniq dalillar mavjud emas. Ammo, bir nechta tarixiy va adabiy manbalarga asoslanib, Boburning tasavvufga qiziqishi va Xo‘ja Axror Valiyning ta’limotlariga hurmat bilan qaragani ko‘rsatiladi.

- **Xo‘ja Axror Valiyning tasavvufiy ta’limoti:** Xo‘ja Axror Valiyning diniy va tasavvufiy ta’limoti Bobur ijodida aks etgan. Ularning tasavvufiy qarashlari Boburning yozgan asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

- **Bobur va diniy ta’lim:** Bobur tasavvuf ilmiga nisbatan doim hurmat bilan qaragan. Bobur o‘z asarlarida Xo‘ja Axror Valiyning ta’limotlari haqida va u insonning o‘zi haqida hamda tasavvufiy g‘oyalari haqida ko‘plab ma’lumotlarni o‘zining “Boburnoma” sida keltirib o‘tgan.

Boburning adabiyotga bo‘lgan muhabbati va yozgan asarlari, xususan, uning “Boburnoma” asari, ko‘plab diniy va tasavvufiy elementlarni o‘z ichiga oladi. U o‘zining hayotiy tajribalari, siyosiy kurashlari, shaxsiy va diniy qarashlari haqida yozgan. Boburning “Boburnoma”da ba’zi tasavvufiy g‘oyalari va diniy tushunchalar mavjud bo‘lib, bu uning tasavvufga, shu jumladan, Xo‘ja Axror Valiyning ta’limotlariga qiziqishini ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur, tog`asi Sulton Ahmadxonni kutib olish uchun barcha qarindoshlar birgalikda Toshkent bilan Sayram o‘rtasidagi Yag`mon qishlog`iga peshvoz chiqqanlari haqida yozib goldirar ekan: “Ibrohim ota va Ishoq otaning qabri andadur” degan jumlanli aytib o‘tishni esdan chiqarmaydi. Bu ham – uning tasavvufga alohida e’tibor bergenligidan dalolat beradi.

LITERARY CRITICISM

• **Tasavvuf ilmi:** Bobur adabiyotida tasavvuf aks ettiruvchi bir qator qarashlarini keltirib o'tgan. Bobur tasavvufni faqat diniy o'git sifatida emas, balki madaniyat va jamiyatni tushunish vositasi sifatida ham ko'rsatib o'tgan.

• **Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy o'gitlarining Boburga ta'siri:** Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy ta'limotlari Boburning adabiy ijodiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan desak mubolog'a bo'lmaydi. Ularning o'rtasidagi ilohiy bog'liqlik va Xo'ja Axror Valiyning Boburni g'oyibona tarzda qo'llab quvvatlab turishi nafaqat diniy, balki adabiy va falsafiy jihatlardan ham tahlil qilinishi kerak.

Xo'ja Axror Valiyning Samarqandda tashkil etgan tasavvuf maktabi, uning o'gitlariga riosa etgan shogirdlarining faoliyati va tasavvufni tarqatishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Xo'ja Axror Valiyning ta'limoti va uning shogirdlari Bobur atrofidagi madaniy va diniy muhitda o'z ta'sirini ko'rsatgan.

• Xo'ja Axror Valiyning o'gitlari va ularning ta'siri bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Xo'ja Axror Valiyning shogirdlari ham ma'lum ma'noda Boburning siyosiy va madaniy faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

• Xo'ja Axror Valiyning qo'llab quvvatlashi Boburga bevosita ta'sir ko'rsatgan va uning ham davlatni boshqarish ham adabiyot sohasida ishlar olib borishida muhim o'rinn tutgan.

Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi haqida ilmiy izlanish olib borgan adabiyotshunoslar va tarixchilar turli yondoshuvlar bilan bu mavzuni o'rganadilar. Ba'zilar, Boburning tasavvufiy ta'limotlar bilan qanday aloqalari borligini tahlil qilsa, boshqalar uning diniy qarashlarini, shuningdek, shaxsiy hayotidagi diniy tafakkurini o'rganadilar.

• **Tadqiqotlar va fikrlar o'rtasidagi farqlar:** Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi haqida ishlar olib borgan adabiyotshunos olimlar tahlillari o'rtasida turli farqlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar Xo'ja Axror Valiyning ta'sirini yuksak baholasa, boshqalar bu ta'sirni cheklovchi yoki noaniq deb hisoblashadi.

• **Bobur va diniy jihatlar:** Boburning diniy qarashlarini o'rganishda tasavvufiy bilimlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Unga qaratilgan adabiyotshunoslik va tarixiy yondoshuvlarning o'ziga xos jihatlari o'rganish ham Bobur ijodi va Xo'ja Axror Valiy shaxsi haqida yanada chuqurroq tahlil qilishga zamin yaratadi.

Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi va uning tasavvufiy ta'limotlari haqida muhokama qilish, ikki buyuk shaxsning o'zaro aloqalari, madaniy va diniy kontekstda qanday o'zaro ta'sir ko'rsatganini tushunish uchun muhimdir. Bu mavzu adabiyotshunoslik, tarix va diniy tafakkur nuqtai nazaridan keng tahlilni talab qiladi, shuningdek, bu ikki shaxsning ijodi va ta'limotlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi mavzusida xulosa qilishda, ikki buyuk shaxsning ilohiy va g'oyibona munosabatlari, diniy va tasavvufiy ta'limotlarining Bobur ijodiga ta'siri, shuningdek, uning madaniy va adabiy ahamiyati haqida umumiy fikr yuritish mumkin.

1. **Xo'ja Axror Valiyning ta'limoti va Bobur ijodi:** Xo'ja Axror Valiy, tasavvufiy ta'limoti va diniy g'oyalari bilan o'z davrinining yetakchi murshidi bo'ldi. Uning ta'limoti, shubhasiz, o'sha davrda Samarqand va boshqa hududlarda keng tarqaldi. Bobur, o'zining adabiy va siyosiy faoliyatida, diniy qarashlarida va shaxsiy hayotida Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy g'oyalardan ta'sirlangan bo'lishi mumkin. Bobur ijodida tasavvufning muhim o'rni bor, lekin uning asarlarida bu ta'sir aniq va to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan.

2. **Xo'ja Axror Valiyning shogirdlari va ta'siri:** Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy maktabi va uning shogirdlarining ta'siri ham Bobur ijodiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Bobur o'z asarlarida nafaqat o'zining shaxsiy hayoti va siyosiy kurashlarini, balki diniy va tasavvufiy qiziqishlarini ham yoritgan. Xo'ja Axror Valiyning tasavvufiy o'gitlari, uni taqlid qilgan shogirdlari va o'sha davrning diniy-madaniy muhitida uning o'rni Bobur uchun ahamiyatli bo'lган.

3. **Bobur ijodida diniy va tasavvufiy elementlar:** Bobur o'z asarlarida tasavvufiy va diniy elementlarni qo'llagan, ammo bu elementlar ko'pincha yashirin va subtil tarzda ifodalangan. Xo'ja Axror Valiyning ta'limotlari, uning o'ziga xos diniy va tasavvufiy qarashlari, Bobur ijodida naqshli tarzda aks etishi mumkin. Bobur o'zining adabiy merosida tasavvufni faqat diniy ta'limot sifatida emas, balki insoniyatni tushunish va hayotga qarash usuli sifatida ham ko'rgan.

4. **Adabiyotshunoslar va ilmiy izlanishlar:** Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi haqida adabiyotshunoslar va tarixchilarning ilmiy izlanishlari davom etmoqda. Tadqiqotchilar Boburning tasavvufga bo'lgan qiziqishini, Xo'ja Axror Valiyning ta'limotlari bilan bog'liq aloqalarni va bu ta'sirlarning uning adabiy asarlarida qanday aks etishini o'rganishadi. Shuningdek, Bobur va Xo'ja Axror Valiyning diniy, adabiy va falsafiy tarzda bo'lgan ilohiy aloqalari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga qaratilgan izlanishlar muhim ilmiy qadriyatga ega.

Bobur ijodida Xo'ja Axror Valiyning siyoshi, uning tasavvufiy ta'limotlari va shaxsiy qarashlari muhim o'rinn tutadi. Bu mavzu, ikki buyuk shaxsning diniy va adabiy o'gitlari orqali o'zaro bog'lanishini,

LITERARY CRITICISM

shuningdek, Boburning tasavvufga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganishni taqozo etadi. Xo‘ja Axror Valiyning ta’limotlari va tasavvufiy qarashlarining Bobur ijodiga ta’siri, shubhasiz, uning adabiy merosini yanada boyitgan va shaxsiy hayotining muhim qismlaridan biriga aylangan.

ADABIYOTLAR:

1. *Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: "Movarounnahr"- "O'zbekiston", 2009. – 446 b.*
2. *Valixo'jayev B. Biiyuk ma'naviy murshid. - T.: Fan, 2004.-B.65.*
3. *Бобохонов.Ш., Мансур А. Нақибандия тариқатига оид қўлёзмалар фикрости. Т.: Мовароуннаҳр, 1993. 22-23-б.*
4. *Каримов Э. Хўжса Ахрор ҳаёти ва фаолияти. - Тошкент: Маънавият. 2003. -Б. 24;*
5. *Умрзок Б., Амин Х. Табаррук рисолалар. - Тошкент:2004. - Б.386.*
6. *Хасаний М. Рazzokova M. Хўжса Ахрорга бағишиланган рисола ва маколалар. - Тошкент:2004.-Б.27.*

РОЛЬ ФРАГМЕНТИРОВАННОЙ ЛИЧНОСТИ В РОМАНЕ «ТРАНСАТЛАНТИКА» КОЛУМА МАККЕННА

Хажиева Феруза Мэлсовна,
профессор кафедры Английской литературы и переводоведения

Факультета иностранных языков
Бухарского государственного университета, Узбекистан
доктор филологических наук (DSc)

f.m.xajieva@buxdu.uz

Рахимова Шахноза Рахимовна,
магистрант кафедры Английской литературы и переводоведения

Факультета иностранных языков
Бухарского государственного университета, Узбекистан

sh.r.raximova@buxdu.uz

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция фрагментированной идентичности через призму имени, акцента и происхождения. Анализируются примеры из романа «ТрансАтлантик» Колумна Маккенна, которые демонстрируют, как изменение имени, смешение акцентов и многослойность происхождения формируют личность и её восприятие. В работе исследуется, как личные и культурные факторы взаимодействуют, создавая сложные образы «разделённого я». Особое внимание уделяется влиянию миграции на идентичность, а также роли памяти в сохранении первоначального «я». Опираясь на труды исследователей, делается вывод о том, что идентичность представляет собой динамичный и многогранный процесс, в котором имя, язык и происхождение играют ключевые роли.

Ключевые слова: идентичность, фрагментация, имя, акцент, происхождение, миграция, культурное наследие, язык, адаптация.

THE ROLE OF FRAGMENTED IDENTITY IN COLUM MCCANN'S NOVEL “TRANSATLANTIC”

Abstract. This article explores the concept of fragmented identity through the aspects of name, accent, and origin. It analyzes examples from Colum McCann's novel *TransAtlantic* to show how changes in a person's name, the blending of accents, and diverse origins shape their identity and how others perceive them. The study examines how personal and cultural factors interact to create complex images of a “divided self”. Special attention is given to the impact of migration on identity and the role of memory in preserving one's original sense of self. Based on scholarly research, the article concludes that identity is a dynamic and multifaceted process in which name, language, and heritage play key roles.

Keywords: identity, fragmentation, name, accent, origin, migration, cultural heritage, language, adaptation.

KOLUM MAKKENNING “TRANSATLANTIKA” ROMANIDA SHAXSIYAT FRAGMENTATSIYASINING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fragmentar shaxsiyat tushunchasi ism, talaffuz va kelib chiqish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Kolum Makkennning “TransAtlantika” romanidan olingan misollar asosida ismning o'zgarishi, talaffuzning aralashuvi va turli kelib chiqish insonning shaxsiyatini va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini qanday shakllantirishi ko'rsatiladi. Tadqiqot shaxsiy va madaniy omillar qanday o'zaro ta'sir qilib, insonning “bo'lingan men” obrazini yaratishini o'rganadi. Migratsyaning shaxsiyatga ta'siri hamda xotiraning o'zlikni saqlab qolishdagi roli alohida tahlil qilinadi. Tadqiqotchilarining ishlari asosida shunday xulosa chiqariladi: shaxsiyat doimiy o'zgarib turadigan va ko'p qirrali jarayondir, bunda ism, til va madaniy meros asosiy o'rinn tutadi.

Kalit so'zlar: shaxsiyat, bo'linish, ism, talaffuz, kelib chiqish, migratsiya, madaniy meros, til, moslashuv.

LITERARY CRITICISM

Введение. Понятие идентичности является ключевым в исследованиях культуры, лингвистики и социальной психологии. В современном мире, характеризующемся миграцией, глобализацией и межкультурными контактами, идентичность человека становится всё более многослойной и фрагментированной. Особую роль в этом процессе играют такие факторы, как имя, акцент и происхождение, которые могут определять восприятие индивида как самим собой, так и окружающими. В данной статье рассматривается, каким образом имя, акцент и происхождение влияют на формирование фрагментированной идентичности, а также как они могут становиться маркерами принадлежности или отчуждения в различных социокультурных контекстах. Анализ будет основан на междисциплинарном подходе, включающем элементы социолингвистики, культурологии и психологии.

Литературный обзор. В этой статье мы рассмотрим концепцию «Фрагментированное имя, фрагментированное происхождение и фрагментированная речь» в романе «ТрансАтлантика» Колумба Маккена, чтобы углубить понимание фрагментации идентичности. Этот термин поможет нам лучше объяснить, как различные аспекты имени, происхождения и речи влияют на восприятие разделённого «я». Во-первых, мы исследуем, как вариации и ассоциации, связанные с именем человека, могут способствовать чувству раздробленности идентичности. Имена играют ключевую роль в формировании нашей личности, и их изменения или ассоциации могут отражать внутренние конфликты и фрагментацию. Анализируя, как имена влияют на восприятие себя, мы надеемся лучше понять, как идентичности могут быть многослойными и раздробленными. Этот подход поможет нам выявить, как разные аспекты личной идентичности взаимодействуют и создают сложные образы самих себя.

1. *A woman's name could swerve. She was Lily Fitzpatrick now. At times, Bridie Fitzpatrick. But she thought of herself, still, as Lily Duggan: if she carried anything, she carried that. The sound of Dublin in it. A name that belonged to the Liberties. The grayness, the cobbles. In America you could lose everything except the memory of your original name.* [2, 160]

Этот отрывок из романа «ТрансАтлантик» исследует, как смена имени влияет на личность человека, особенно когда человек переезжает в другую страну и начинает новую жизнь. Опыт Лили с изменением своего имени показывает сложные связи между личной идентичностью, культурным наследием и процессом адаптации к новому окружению. Лили переключается между разными именами — от Лили Фицпатрик до Брайди Фицпатрик, что отражает её умение адаптироваться и необходимость принятия новых идентичностей для интеграции в американскую жизнь. Однако её привязанность к изначальному имени, Лили Дуган, подчёркивает её связь с родным городом Дублином и его уникальной атмосферой. Идея о том, что в Америке Лили может потерять всё, кроме воспоминания о своём оригинальном имени, подчёркивает, насколько важно имя для формирования личной идентичности. Имена несут культурное и историческое значение, и они играют ключевую роль в том, как человек воспринимает себя и как его воспринимают другие. Лили сохраняет своё первоначальное имя даже после принятия новых, что свидетельствует о её стремлении сохранить связь с ирландским наследием, несмотря на сложности миграции и изменений.

Обсуждение и результаты. Мери Симан, канадский психиатр и исследователь, говорит, что «Identity, though complex, can be encoded in a name.» [3, 136] (Идентичность, хотя и сложная, может быть закодирована в имени) Исходя из этого, можно сделать вывод, что даже несмотря на то, что личность человека многослойна и сложна, его имя играет важную роль в формировании и выражении этой личности. Таким образом, хотя идентичность человека сложна и включает много разных аспектов, имя может быть важным символом, который отражает многие из этих аспектов. Оно помогает выразить, кем мы являемся, и как мы себя ощущаем в мире. Во многих культурах имя является важным элементом личности, и его изменение может сильно повлиять на то, как человек воспринимает себя и как его видят другие. Этот отрывок хорошо показывает, как имя связано с чувством собственного «я» и как сложно сохранить идентичность в процессе миграции и культурной адаптации.

«Фрагментированный язык» или «фрагментированная речь» в нашем исследовании касается того, как разные акценты влияют на личную идентичность. Мы рассматриваем, как акценты могут рассказать историю человека и раскрыть его опыт, миграцию и культурную адаптацию. Акценты могут показывать, откуда человек приехал, его культурные корни и жизненный путь. Они могут рассказать о его прошлом, миграции и о том, как он приспособился к новой среде. Язык — это не только способ передачи информации. Он также выражает сложные аспекты нашей идентичности. Через акценты можно увидеть, как человек изменился со временем, какие культурные

LITERARY CRITICISM

влияния его окружали и какие новые аспекты его жизни возникали. Акценты могут показывать как принадлежность к определённой группе, так и различия от неё. Они могут быть признаками как интеграции, так и отделения. Каждый акцент несёт в себе элементы фрагментированной идентичности и рассказывает о жизненных путях человека. Таким образом, акценты играют важную роль в понимании личной идентичности, показывая, как язык может быть связан с культурной и жизненной историей человека.

2. *She has taken on many elements of the northern accent, though it is still bedrocked by her Newfoundland days, so there are times that it catches, and the music mixes, and she is not sure which is which anymore. [2, 228]*

Этот отрывок ярко демонстрирует, как язык и акцент могут влиять на фрагментацию личной идентичности. Лотти, которая родилась и выросла в Ньюфаундленде, но большую часть жизни провела в Ирландии после замужества, показывает, как её личность изменяется под воздействием разных языков и культур. Лотти начала использовать элементы северного акцента после переезда в Ирландию. Это показывает, как она приспосабливается к языковым привычкам нового места. Однако её акцент всё ещё сохраняет черты её родного Ньюфаундленда, что говорит о том, что её первоначальная идентичность и язык остаются важными. Когда Лотти говорит, её акцент может звучать по-разному, что делает её речь иногда неясной. Это указывает на то, что она испытывает трудности с различием между своей прежней идентичностью и новой, полученной в Ирландии.

Майкл Байрам, профессор Даремского университета, считает, что «people acquire new identities and new languages or language varieties throughout life; it is a dynamic process.» [1, 12] (люди приобретают новые идентичности и новые языки или языковые варианты на протяжении всей жизни; это динамичный процесс) Он отмечает, что личная идентичность меняется по мере того, как человек осваивает новые языки и культуры. Язык и акцент — ключевые части личной идентичности, которые отражают влияние различных мест и культур. В целом, опыт Лотти показывает, как язык и акцент могут служить знаками фрагментации идентичности, демонстрируя, как личность развивается и меняется в зависимости от разных культурных влияний.

Фрагментированное происхождение. В этой части исследования мы сосредоточимся на том, как происхождение, включая географические, культурные и семейные аспекты, влияет на формирование личности. Происхождение играет важную роль в создании нашей идентичности и формировании чувства собственного «я». Иногда происхождение может приводить к фрагментации идентичности. Например, люди с мультикультурным происхождением могут чувствовать себя разделёнными между различными культурами или регионами. В этом разделе мы рассмотрим случаи, когда несколько аспектов происхождения пересекаются и могут иногда конфликтовать в рамках одной личности. Происхождение не остаётся неизменным. По мере жизненного опыта идентичность человека может меняться. Мы обсудим, как происхождение продолжает влиять на личность, даже когда оно адаптируется и изменяется со временем.

The summer he was seven the Pony Express riders came from America and set up their Wild West show along the Irwell River. His people. From his mother and father's country. Americans. Brown wanted to know who exactly he was. [2, 27]

В этом отрывке ключевым является то, как Артур Уиттен Браун ощущает свою идентичность и происхождение. Упоминание о наездниках Пони-экспресс, которые устроили шоу Дикого Запада в его родном городе, вызывает у него размышления о себе и своём происхождении. Отрывок подчёркивает, как важно географическое происхождение для формирования чувства идентичности. Когда Браун называет наездников Пони-экспресс «своими людьми» и отмечает, что они из той же страны, что и его родители, это показывает, как место, откуда человек родом, влияет на чувство принадлежности. Хотя основной акцент сделан на географическом происхождении, упоминание о шоу Дикого Запада намекает на американскую культуру и её влияние на Брауна. Это подразумевает, что культурные особенности, связанные с его происхождением, также играют роль в его идентичности, даже если они передаются через родителей или дальние связи. Размышления Брауна о том, «кто он на самом деле», указывают на возможную фрагментацию идентичности. Он может чувствовать внутренний конфликт между разными аспектами своей личности, включая его британское воспитание и американское происхождение родителей. Это подчёркивает, как люди с разным происхождением могут испытывать трудности в объединении всех частей своей идентичности.

LITERARY CRITICISM

В целом, отрывок показывает, как идентичность Брауна связана с его происхождением. Он подчёркивает роль географического и культурного происхождения в формировании чувства собственного «я» и принадлежности. Также он намекает на возможную фрагментацию идентичности, когда разные стороны происхождения и воспитания оказывают влияние на личный путь человека.

Our Tomas was very much nourished by the tangled skein of connections. He sat with his grandmother in our house on the Malone Road and listened to her stories, and wanted at one stage to create a mathematical model of where he came from: Newfoundland, Holland, Norway, Belfast, London, St. Louis, Dublin. A zigzag line all the way back to Lily Duggan. [2, 261]

В этом отрывке хорошо показана идея фрагментации идентичности и влияние происхождения на личность через пример Томаса, внука Лотти. Его жизнь была затронута разнообразным наследием и сложной ситуацией в Северной Ирландии. Происхождение Томаса включает предков из Ньюфаундленда, Голландии, Норвегии, Белфаста, Лондона, Сент-Луиса и Дублина, что делает его наследие очень сложным. Такое разнообразие корней может привести к чувству фрагментации идентичности. Попытка Томаса создать математическую модель показывает, что его личность не укладывается в рамки одного происхождения.

Это чувство фрагментации усугубляется конфликтами в Северной Ирландии, где идентичность часто переплетается с политическими и социальными проблемами. Происхождение Томаса важно в контексте конфликта в Северной Ирландии. Его родословная отражает разнообразие корней, каждое из которых может иметь свои политические и культурные ассоциации. Это сложное наследие формирует его чувство идентичности, которое может включать конфликтующие лояльности и осознание культурных и исторических элементов. Томас стремится проследить своё происхождение до Лили Дуган, что подчёркивает связь его наследия и семейных корней. Несмотря на большое разнообразие предков, он ищет общую связь между ними. Этот поиск единства отражает трудности формирования идентичности в мультикультурном и конфликтном обществе.

Отношения Томаса с бабушкой и его интерес к её историям показывают, как важны семейные связи и рассказы для формирования идентичности. В регионах с историческими конфликтами устные традиции и семейные истории могут стать особенно значимыми для сохранения культурной идентичности и чувства принадлежности. В целом, отрывок демонстрирует, как фрагментация идентичности может усиливаться в условиях конфликта и сложного происхождения. Короткая, но насыщенная жизнь Томаса отражает влияние его разнообразного наследия и конфликтной ситуации в Северной Ирландии на его личность. Этот пример подчёркивает важность происхождения, семьи и повествований в формировании идентичности, даже когда она фрагментирована.

Заключение. Фрагментация личности — это концепция, которая описывает, как внутреннее ощущение целостности у человека может нарушаться, когда его «Я» делится на несколько частей. Это может быть вызвано различными факторами, такими как глобализация, психические процессы или травмы. Изучая фрагментацию через примеры из романа «ТрансАтлантика», мы видим, как разные персонажи сталкиваются с этим явлением. Таким образом, литература помогает нам увидеть, как люди справляются с разными аспектами своей жизни и как фрагментация идентичности может проявляться в различных формах. Понимание этого явления помогает лучше разобраться в том, как мы адаптируемся к изменениям в нашем окружении и как сохраняем свою личность в условиях постоянных изменений.

Имена играют ключевую роль в формировании и выражении личной идентичности. Изменения в имени могут отражать внутренние конфликты и фрагментацию, особенно в контексте миграции и адаптации к новой культуре. Сохранение первоначального имени важно для сохранения связи с родным местом и культурой. Язык и акценты могут отражать сложные аспекты идентичности, такие как миграция, культурная адаптация и интеграция. Язык не только передаёт информацию, но и служит показателем изменений в личной идентичности, отражая влияние различных культур и жизненных обстоятельств. Происхождение, включая географические, культурные и семейные аспекты, оказывает значительное влияние на формирование личности. Сложное наследие и политические конфликты могут создавать дополнительные слои фрагментации, влияя на чувство принадлежности и самоопределения. Интерес Томаса к своему происхождению и семейным историям подчеркивает важность этих факторов в формировании и сохранении идентичности.

В целом, фрагментация идентичности проявляется через множество аспектов, включая имена, язык и происхождение. Эти элементы взаимодействуют и создают многослойное представление о себе, которое может быть сложным и неоднозначным. Анализ этих аспектов помогает лучше понять,

LITERARY CRITICISM

как идентичность формируется и изменяется в контексте миграции, культурной адаптации и сложных социальных и исторических факторов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Byram, Michael. "Languages and Identities". University of Durham, United Kingdom, Intergovernmental Conference. *Languages of Schooling: towards a Framework for Europe*, Strasbourg, 16-18 October 2006.
2. McCann, Colum. *TransAtlantic*. Random House, 4 June 2013.
3. Seeman, Mary. (1980). Name and identity. // *Canadian journal of psychiatry. Revue canadienne de psychiatrie*. 25. 129-37. 10.1177/070674378002500206.

“МАСНАВИЙ”ДА ШЕР ТИМСОЛИНИНГ БАДИЙ ИФОДАСИ

Тўхсанов Қахрамон Раҳимбоевич,
Бухоро давлат университети профессори,
филология фанлари доктори (DSc)
q.r.toxsanov@buxdu.uz

Аннотация. Мақолада Мавлоно Жалолиддин Румийнинг “Маснавий”сида тасвирланган шер образининг бадиий ифодаси бир қанча ривоятлар мисолида таҳлилга тортилган. Маълумки, шер барча ҳайвонларнинг подшоси, унинг айтгани – ҳайвонлар учун қонун. Румий масал орқали жамиятдаги зиддият ва иллатларни очиб беришига муваффақ бўлган. Ҳусусан, адаб ов ҳайвонлари ва шер орасидаги масаланинг ечимини бир неча сарлавҳа ё ривоят таркибида баён қиласди.

Калим сўзлар: шер, ов ҳайвонлари, иллат, зиддият, нафс, жасурлик, ҳаракатчанлик.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ОБРАЗА ЛЬВА В ПРОИЗВЕДЕНИИ “МАСНАВИ”

Аннотация. В статье анализируется художественное воплощение образа льва в произведении “Маснави” Мавляны Джалалиддина Руми на примере нескольких преданий. Как известно, лев - царь всех животных, его слово - закон для зверей. Через притчу Руми удалось раскрыть противоречия и пороки в обществе. В частности, автор излагает решение проблемы между охотничими животными и львом в нескольких главах или повествованиях.

Ключевые слова: лев, охотничьи животные, порок, противоречие, страсть, храбрость, подвижность.

ARTISTIC EXPRESSION OF THE IMAGE OF THE LION IN THE "MASNAVI"

Abstract. In the article, the artistic expression of the image of the lion, described in the “Masnavi” of Maylono Jaloliddin Rumi, was drawn into analysis on the example of several narratives. As you know, the lion is the king of all animals, what he says is the law for animals. Through allegory, Rumi was able to reveal the contradictions and vices in society. In particular, writer outlines the solution to the issue between hunting animals and lions in the composition of several titles either narrative.

Keywords: lion, hunting animals, vile, conflict, lust, courage, mobility.

Кириш. Ҳаёт моҳиятини ва ўзликни англаш, барча дарду ҳасратни очиқ баён қилиш ниҳоятда қийин. Шу боис, маърифатли ва ижод ахли чукӯр ўйлаб, узоқ мушоҳада юритиб, турли бадиий санъатлар орқали орзу-истакларини баён этганлар. Аммо айрим нокас ва ҳасадчилар ўша юксак бадиий дид билан яратилган ҳар қандай асаддан ҳам айб излашган, ижодкорга моддий ва маънавий зарар етказишган. Лекин ижод ахли маърифатсиз одамларнинг таъна-маломатларига қарамасдан, адабиёт оламини бойитиш учун янги адабий тасвирлар яратдилар. Шундай кашфиётлардан бири бадиий адабиётда масал, баъзан тамсил деб юритилади. Ё инток санъатидан фойдаланган ҳолда, янги образ, тимсол яратиб, ўз мақсад ва муддаоларини айтган ва айтадилар. Ҳусусан, ҳайвонларни гапиртириш орқали жамиятдаги иллатларни баён қилиш анъанаси, ёзма адабиётдан олдин, халқ оғзаки ижодиётида вужудга келиб, секин-аста бадиий асарга кўчгани соҳа мутахассисларига яхши маълумдир.

Адабиётлар шархи. Мавлоно Жалолиддин Румийнинг “Маснавий маънавий” манзумасини мутолаа қиласар эканмиз, ижодкор ҳар замонда ов ҳайвонлари; арслон, тулки, бўри, шер, шоқол ёки бошқа ҳайвонлар; оҳу, товушқон ёки қуён, эшак, қулон, ит, сичқон, туя, фил, хачир, ҳўқиз, қўчкор, қушлар; тўти, худхуд, зоф, тўтикуш, хўроз, товук, ўрдак, лочин, товус, қарға, сув ичиди юрадиган; балиқ, курбақа, адабиётда меҳнаткашларнинг тимсоли бўлган чумоли, ёки борликдаги энг кичик ҳашорат пашша ҳам мазкур асарда бадиий образ сифатида намоён бўлганига гувоҳ бўламиз.

Таржима ўзига хос ижодий жараёндир. Бадиий адабиёт хусусида сўз борганда, албатта, образ ва образлилик, тасвир ва тасвирийлик баробарида, бадиий санъатлар ҳақида ҳам алоҳида тўхталиб ўтилади. Чунки ҳар қандай бадиий асарнинг, хоҳ назмий, хоҳ насрый асар бўлсин, таъсирчанлиги, дилкашлиги унда бадиий тасвир воситаларидан усталик билан фойдаланилганлигига боғлиқ. Шу

LITERARY CRITICISM

боис, ҳар бир таржимон аслият намунасини бошқа тилга ўгириш жараёнида, бошқа зарур воситалар қаторида бу муҳим шартни ҳам, албатта, инобатга олиши керак. Зотан, таржима қилинаётган асарнинг жанр хусусиятларини ҳисобга олиш, тарихийлик, миллийлик, бадиийлик, услугуб қийинчиликлари ҳам бунинг устига жамланса, ўшандагина сўз санъатининг бу тури ҳақида муайян тасаввур ҳосил қилиш мумкин бўлади. Бу сўзлар “Маснавий” таржимасига ҳам бевосита алоқадордир. Асар аслияти ва ўзбекча шеърий таржимаси киёслангандан, бунга яққол гувоҳ бўлиш мумкин.

Шоир-таржимон Жамол Камол, дарҳақиқат, икки тил, икки адабиётнинг билимдонидир. Таржимон маҳорати аслиятдаги бадиий санъатларни бутун нафосати билан таржимада бера олганлиги мисолида ҳам намоён бўлади. Шундай муҳим тасвир воситаларидан бири интоқdir.

“Интоқ” истилоҳи арабча сўздан олинган бўлиб, “гапиртириш” деган маънони англатади. Бу санъат номи “ниқто” тарзида ҳам юритилади. Интоқ жонлантиришнинг бир кўриниши бўлиб, унинг талабига кўра шеърда жонсиз нарса-ҳодисалар, қуш, ҳайвон ва паррандалар худди одамдек гапиртирилади

“Маснавий маънавий”да бу шеърий санъат имкониятларидан фойдаланиб яратилган юздан зиёд ҳикоят мавжуд: “Ов ҳайвонларининг тангрига таваккул этиб, саъй-ҳаракат (жаҳду жадал)ни тўхтатдик, деганлари”, “Арслоннинг ҳайвонларга жавоб бериб, жаҳду жадалнинг фойдаси ҳақида сўйлагани”, “Товушқоннинг уларга жавоби”, “Товушқон макри қиссаси”, “Бир ҳақир пашшанинг тушунчаси баёнида”, “Худхуд ва Сулаймон алайхиссалом қиссаси, қазо етганида кўзларнинг кўрмас бўлиб қолиши баёнида”, “Зофнинг ҳудхудга таъна этгани”, “Қудукқа яқинлашганда товушқон ўзини орқага тортгани”, “Товушқоннинг, арслон чоҳга тушди, деб ҳайвонларга хушхабар етказгани”, “Товушқоннинг ҳайвонларга “бу билан хурсанд бўлманглар”, деб панд-насиҳат қилгани”, “Бир савдогар тўтисининг ўз хўжаси орқали Ҳиндистон тўтиларига салом йўллагани”, “Бўри билан тулкининг арслон паноҳида овга чиқишигани”, “Арслон бўрини имтиҳон этгани”, “Арслон ўлжаларни бўлишида одобсизлик қилгани учун бўрига жазо бергани”, “Бир қушнинг бошқа турга мансуб қуш или учгани сабаби”, “Бир сичқон туюннинг арқонидан тортиб, ўз-ўзига мағрур бўлгани”, “Ҳар қишида итларнинг ёзда ўзимизга албатта уй қурамиз, деб аҳд этишгани ҳикояти”, “Хўроздининг итга жавоб бергани”, “Хўроздининг уч марта берган ваъдаси устидан чиқмагани учун, ит олдида хижолат чеккани”, “Пашша Сулаймон алайхиссалом ҳузурига келиб, елдан шикоят этгани”, “Ҳачир, йўл юраркан, мен нуқул қоқинаман, сен эса қоқинмайсан, бунинг сабаби нима, деб тевадан сўрагани, теванинг унга жавоб бергани”, “Эшак, мен қисматимдан розиман, дегани ва бу сўз тулкига ёқмагани”, “Эшакнинг тулкига жавоб бергани”, “Туя, ҳўқиз ва қўчкор йўлда бир чимдим кўкатга дуч келиб, ҳар бири, уни мен ейман, дегани”, “Сичқоннинг қурбака ила дўст тутингани, иккаласи оёкларини узун ип или боғлашгани, қарға сичқонни илиб, ҳавога учгани, қурбака еру қўқ орасида осилиб, дод соглани, ўз жинсидан бўлмаган бир ҳайвон ила дўст киришганидан пушаймонлар егани” ва ҳоказолар бунга ёрқин мисолдир. Биз бу масаллардан айримларини назардан ўтказишни мақсад қилдик.

Инсон бахт учун яратилган, шу боис у доим эркин, ҳаловат билан умр кечиришни истайди. Бунинг учун яхши муҳит керак. Ҳалқимиз ҳар икки гапнинг бирида Оллоҳдан хотиржамлик сўрайди. Роҳатингизни бузадиган кишилар атрофингиизда бўлса, у ҳаёт эмас, балки дўзахнинг нақд ўзиридир. Шундай ҳолатларда оқил киши нажот йўлини излаб, эзгулик томон талпинади. Албатта, доно ҳалқимиз айтганидек, ақллар ақлларга ёрдам беради, жамоа жам бўлиб маслаҳат сўрайди ва қийинчиликдан чиқиб кетиш йўлини топади. “Маснавий”да қуйидаги сарлавҳа остида келтирилган масалнинг мазмuni шундан далолат беради. “Ов ҳайвонларининг тангрига таваккул этиб, саъй-ҳаракат (жаҳду жадал)ни тўхтатдик, деганлари”. Адид ривоят қиладики, шернинг (ҳайвонлар подшосининг) зулмидан ва уларнинг жонига қасд қилишидан барчаси ваҳимага тушиб, ҳаловатини йўқотганликлари боис, бир жойда тўпланиб, қандай қилиб юрга тинчлик ва осойишталик ҳукмронлик қилсин, улар эса хотиржамликка умр кечирсинлар. Шунда Оллоҳга таваккул қилиб шер олдига борадилар. Ўз арзу ниёзларини тушунтириб, уни боқишига ваъда берадилар. Акс ҳолда, уларга ҳаёт заҳар эканлигини тушунтирадилар.

Муҳокама ва таҳлил. Яъни ҳар бир замонда ва маконда ўзларича зўрлар бўлган. Улар ўзларидан кучсизларни хор қилиб, ҳалол меҳнатдан топган ризқларини кўлларидан тортиб олганлар. Келтирилган ҳикоят замирида ҳам жамиятдаги ана шу иллат ётибди, десак муболага бўлмайди.

Шундан сўнг “Арслоннинг ҳайвонларга жавоб бериб, жаҳду жадалнинг фойдаси ҳақида сўйлагани” масали келтирган. Арслон ҳайвонларнинг сўзини эшитиб, дарҳақиқат жаҳду жадалнинг фойдаси ва шунингдек, зарари кўплигини ҳам тушунтириб беради. Арслон ўз фикрини баён этар экан, майли, сизлар айтганингизча бўлсин, лекин билиб кўйинг, баъзан вафо ўрнида жафо кўришлар ҳам бўлади. Чунки мақр айлаб бир неча бор (адиб бу ерда инсон нафсини назарда тутган десак ҳам

LITERARY CRITICISM

бўлади) мени ўлдирдилар, нима балоларга гирифтор қилмадилар. Ҳаммасидан ёмони, ичимдаги нафсим оғир ахволга тушириб кўйди. Ундаги макру хийла ер юзидағи ҳеч кимда ва ҳеч нимада йўқ. Шунда тингладимки, Пайғамбаримиз айтган эканлар “Мўмин кишини газанда (илон) икки марта чақмайди”, чунки имонли одам билмасдан гуноҳ қилиши мумкин, агар Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг суннатига риоя қилиб, ўзини тарбияласа, иккинчи марта нафсининг қурбони бўлмайди”. Румий бу масал орқали инсонларни ташки ёвдан эмас, балки ички ёв бўлган ўз нафсидан қўрқишни ва ундан доим огоҳ бўлишни уқтиради.

Жумладан, қуйидаги байтларда шер таваккул ҳақида сўз юритади ва унинг Пайғамбаримиз (с.а.в.) суннати эканлигини таъкидлайди, шоир-таржимон Жамол Камол байтни аслиятдагидек ўзбекчага ўтирган: мазмун ва шаклни сақлаш билан бирга, интоқ намуналарини ҳам ўз ўрнида келтиришга муваффақ бўлган:

*Гуфт: “Оре, гар таваккул раҳбар аст,
Ин сабаб ҳам суннати пайғамбар аст”.*

Таржимада:

*Деди шер: “Балли, таваккул раҳбарим,
Раҳбарим, бас, суннати Пайғамбарим”.*

Хулоса, “Маснавий” муаллифи Жалолиддин Румий жамиятдаги иллатларни ҳикоялар орқали бадиий ифодалар экан, у гоҳ ҳалқ оғзаки ижодиётида, гоҳ Қуръони каримнинг сура ва ояллари, гоҳо ҳадис ва гоҳ масаллар орқали фикрини бойитади. Китобхонни ниҳоятда зийракликка ва хушёрликка чақиради, ҳаётда алданиб қолиб балоларга гирифтор бўлмасликни уқтиради. Айрим масаллар орқали одамларга қаратиб бирорни айбини кўрасан, аммо ўзингнинг айбингдан бехабарсан, деб кўяди. Ё “шер ўзини аксини қудукка кўриб ташлангани”га ишора қилиб нафс аждарҳо эканлигини эслатиш билан, одамларни нафсини тарбиялашга чорлайди. Дарҳақиқат, “Маснавий маънавий” безавол асардир, бу асарни ўзбекчалаштирган таржимон Жамол Камолнинг хизматларига таҳсинлар бўлсин, деймиз.

“Маснавий”да шер образи билан боғлиқ ривоятлар ниҳоятда кўп. Шер барча ҳайвонларнинг подшоси, унинг айтгани – ҳайвонлар учун қонун. Румий масал орқали жамиятдаги зиддият ва иллатларни очиб беришга муваффақ бўлган. Хусусан, адаб ов ҳайвонлари ва шер орасидаги масаланинг ечимини бир неча сарлавҳа ё ривоят таркибида баён қиласи. Ҳаёт қийинчиликлардан иборат. Зўрлар доим ночорларни эзиб, уларни устидан хукмронлик қилганлар, ё зўравонлик билан уларнинг қўлидаги ризқу рўзини ҳам тортиб олган, ҳатто уларни Оллоҳ берган жонига қасд қилиш даражасига етганлар. Ов ҳайвонлари ва шер орасидаги ривоятда ана шу масала ўз бадиий ифодасини топган. “Ов ҳайвонларининг тангрига таваккул этиб, саъй-харакат (жаҳду жадал)ни тўхтатдик, деганлар”и шу ҳақда ҳикоя қиласи.

Ҳаётда азоб-уқубатга тан беришдан кўра Оллоҳга таваккул қилиб яшаш яхши. Румий “Ҳайвонларнинг таваккулни жаҳду жадалдан устун қўйганлари баёни” сарлавҳаси остида инсон доим жаҳолатга қарши туриб, уни адолат орқали эзиб ташлаш лозимлигини, шоир бадиий тарзда баён қиласи. Чунки бирорнинг жабридан азият чекиб, унга ҳеч қандай қаршилик кўрсатмастиликдан кўра, таваккал қилиб яшаш яхшидир. Иккинчидан, маърифатли инсон турли тадбирларни ўйлаб, ўзингнинг эркинлигини таъминлаши лозим. Яхши ҳам, ёмон ҳам, баҳт ҳам, баҳтсизлик ҳам инсоннинг ўз қўлидадир. Чиройли харакат, эзгу иш билан ҳам баҳтли умр кечириш мумкинлигини шоир ўз масаллари орқали китобхонга етказади.

Натижалар. Инсон ўзини одамман, деб юриши мумкин, чунки у шаклан одам қиёфасидадир. Кўпинча маънавиятсиз ва билимсиз киши ўзини шундай тасаввур қиласи. Шер айтганидек, киши ичидаги нафсиға қурбон бўлса, бундайларда одамийликдан асар ҳам қолмайди. Ҳаётдан қийналиб юрган одамлар баъзан ўз ахволига кўнікма пайдо қилиб, ҳаёт шу экан-да деб, бирор бир эзгу ҳаракатни амалга оширмайди. Тақдирим шундай, деб ўйлади. Аммо Оллоҳ бирорни бирордан кам қилиб яратмаган, аксинча, барчани баробар қилиб яратган. Ҳазрат Жалолиддин Румий кейинги масалда арслон тилидан жасурлик ва ҳаракатчанлик барча нарсадан устунлигини айтади. “Арслоннинг жаҳду жадални таваккул ва таслимдан устун қўйгани баёни” сарлавҳаси остида берилган масалда инсон асло қийинчиликка таслим бўлмасдан, балки унга доим қарши туриши лозимлиги уқтирилади. Пайғамбаримизнинг суннатига риоя қилиш яхши, ул зот мен учун раҳбардирлар, лекин таваккулга борсанг яхши, аммо аввал туюни тушовла, кейингина Оллоҳга таваккул қилсанг, қўйвор, майли кетсин. Пайғамбаримизнинг яна бир сўзига кулоқ сол, таваккул қилиб юрма, балки меҳнат қил ва танбаликни ташла, шундагина мақсадингга етасан.

Ночор, бадбаҳт, кўрқоқ, Оллоҳнинг ризосини топиш учун ҳаракат қилмайдиган кимсанинг Парвардигорга таваккул қилиши ақлга сифмайди. Юқорида қўрганимиздек, “туяни аввал тушовла,

LITERARY CRITICISM

кейин Оллохга таваккул қил”, дейди шоир. Лекин ҳайвонлар бирон тадбирни ўйламасдан, ўзларини арслон қўлидан халос қилишни фикрламасдан, қайта ва қайта барча ишларга таваккул қиласидилар. Ана шу ҳолат “Ҳайвонларнинг яна таваккулни жаҳду жадалдан устун қўйишлари” сарлавҳаси остида бадий ўз ифодасини топган.

Арслон уларнинг сўзини эшитгач, ўз гапида туриб, ҳаракатда баракат деган гояни илгари суради. Ана шу масаланинг моҳиятини Румий “Арслоннинг жаҳду жадални таваккалдан устун қўйиши” сарлавҳаси остида очиб беради. Хусусан, адаб инсон шукур қилиб яшashi лозимлигини уқтиради. Ношукур кимса Оллохнинг марҳаматидан маҳрум эканлигини таъкидлайди. Энг асосийси, дейди шоир, “таваккул қилмоқчимисан, унда, бирон иш ҳам қилгин-да, бирон касбу корнинг этагини тут, сўнгра Парвардигорга таваккул айлагин”, деб таълим беради. Аммо айримлар бирон иш қилмасдан, текинтамоқ бўлиб юришлари бандасига ҳам, Оллохга ҳам ёқмаслигини билмайдилар, дейди шоир:

*Сен таваккал айла, иши ҳам айлагил,
Касб қил, сўнгра таваккал айлагил.*

Нодонга гап уқтириш кийин, дейди донолар. Ов ҳайвонлари ўз гапларига қаттиқ туриб, тадбиркорлик ва аклу заковатдан кўра таваккул яхши, дея туриб оладилар. Мазкур ифодани адаб “Ов ҳайвонларининг яна таваккулни жаҳду жадалдан устун қўйишлари” сарлавҳаси остида тасвирлайди.

Ҳар қандай инсон раҳбар бўла олмайди, иккинчидан, ақл-заковатли инсонгина бошқаларга тўғри йўлни кўрсатиши мумкин. Аммо ана шу йўлбошли бора-бора одамларнинг меҳрини қозониб, ўз шахсий манфаатини барчадан усун қўйишга ҳаракат қиласиди. Натижада сардор ўз билимини эзгуликка эмас, балки ёмонликка сарфлашга ҳаракат қиласиди. Биз тадқиқ қилаётган масалларда арслон образи ҳукмдор, кўрқмас, тадбиркор, барча нарсани куч билан қўлга киритиш мумкин, деган фикр билан яшаётган образ сифатида гавдаланган. Шу боис, у ҳаракат қилиш, ҳаёт ташвишларидан кўрқмасликни ва жаҳду жадалнинг фойдаси таваккалдан устун қўйгани ва жаҳду жадалнинг фойдаларини баён этгани” тарзида номлангани ҳам фикримизни тўлиқ тасдиқлайди. Шоир “Жаҳду жадал ё меҳнату машаққат орқали инсон ўз мақсадига етади. Қара, қанча Пайғамбарлар ҳам жидду жаҳд орқали халқни тўғри йўлга солгандар. Чунки уларнинг азобу уқубатларни кўриб, Оллоҳ уларни қўллади. Бу жаҳон зиндандир, биз зинданбанд, ўзингни халос қилиш учун машаққат чек. Агар Яратгандан гафлатга қолсанг, роҳат ҳам, молу дунё ҳам ҳеч нимага арзимайди. Шу боис, давлатнинг яхиси, бу диннинг равнақига сарафлаганинг, акс ҳолда, унинг меҳрини кўнгилдан чиқариб ташла, ўзингни мискинлар каби тут, мурод мақсадингга етасан, дейди ва хулоса қиласиди:

*Жаҳд ҳақдир, дард ҳақдир ҳам даво,
Жаҳдга мункир жаҳдида айлар ҳаво.*

Мехнат, машаққат жаҳду жадал қилиш барча нарсадан устунлигини донишманд Румий китобхонга уқтириш учун қуидаги сарлавҳани келтиради. “Жаҳду жадалнинг таваккалдан муқаррар устун келиши”ни Шер далиллар асосида тушунтиради. Бу ҳол ов ҳайвонлари Тулки, Оху, Товушқон ва Шоқолга маъқул бўлиб, бирон оғиз гапирмасдан қабул қиласидилар. Шерга ваъда берадиларки, барча айтганларинг бўлади. Шу боис, шернинг ҳар кунлик таоми тайёр эди, унинг қорни туйса, бас. Бечора ҳайвонлар сену менга бормасдан куръа ташлаб, ҳар куни бир жониворни Шернинг олдига юборардилар. Аммо кунлардан бир куни товушқоннинг навбати келди, лекин у фарёд чекиб, дод деб юборди. Адолатсизлик, албатта, одамнинг жаҳлини чиқаради, уни додлашга мажбур қиласиди...

Шунингдек, муаллиф бу ҳикоятда ҳамма нарсада чегара бўлиши керак, деган гояни илгари суради. Ундан ибрат олиш эса ҳар бир эс-хушу бор одамнинг ишидир.

Асарда “Ов ҳайвонларининг товушқонни, шер олдига тезроқ бор, деб қистишлари” сарлавҳаси мавжуд. Унда ов ҳайвонлари шерга аҳду вафо қилганликларини таъкидлаб, қуёнга бизни бадном қилма, ношуқрлик қилиб, Шернинг қалбига озор берма, тез югуриб унинг олдига бор, деб айтадилар. “Товушқоннинг уларга жавоби”ни муаллиф баён қиласиди. “Шунда қуён улардан вакт беринглар, дўстларим, муҳлат беринглар, бир ҳийла найранг ва макрни ўйлаб топайлиқ, ўзимизни балодан қутқарайлик. Жонингизни асранг, менга ҳамфир бўлинг, ҳеч бўлмаганда келажак авлодингиз учун”, – дейди. Аммо ов ҳайвонлари норози бўладилар. Шоир бу ҳаракатни баён этиш учун “Ҳайвонларнинг товушқонга эътиroz этишлари” сарлавҳасини келтиради. Улар “Эй қусурли, ақлсиз, ўзинг кичкинасан, ҳаддингни билиб иш қил, бундай ҳолга ҳозир ҳеч ким тайёр эмас, лоф уриш вакти эмаслигини уқтиридилар. Ё ажалинг келган, ё бошқа сир бор, ҳозир шундай гапларни айтишга лойиқмисан?”

“Товушқоннинг уларга жавоби”: “Эй дўстларим, Оллоҳ берди шундай қудратни, ҳар кичик заррага шундай қувватни берди ўзи Ҳақ, чунки асални жамланган арининг ишини арслон ҳам, эшак

LITERARY CRITICISM

ҳам қилолмайди. Улар асал учун шунча уй қурганки, бу баҳтни Оллоҳ унга берган. Ипаккуртга ўрар экан пиллани, бирон филни қўлидан келадими? Оллоҳ хоҳлаган мавжудотига ғайбдан илм беради”, деб жавоб беради. Дарҳақиқат, илмли инсон доим барча нохушликлардан узок юради. Ақлу заковати билан ҳаёт қийинчилигини босиб ўтади. Ўзини ҳам, атрофдагиларни ҳам нокасларнинг зараридан асрашга имкон топади. Хусусан, Оллоҳ яхши кўрган бандасига илм, маърифат беради ва уларни асраб-авайлайди. Румий ривоятнинг давомида илм фазилати хусусида сўз юритади.

“Товушқоннинг билими, билимнинг фазилату фойдалари хусусида” сўз юритиб, мавжудотларни мўъжизасининг чегараси йўқлигини айтиб, қуён қиссанин тинглашга китобхонни чорлади. Дарҳақиқат, илм-маърифатли кишилар ҳар қандай қийинчиликни босиб ўтиш билан бирга, манзилига соғу саломат етиб олади. Румий ҳикоятни давом эттиради: “Сот ўша эшакқулоқни, уни сотиб бошқасини ол, чунки қулоғига ҳеч нима кирмагай. Тулкидек ўзини доно тутиб, шерни алдаганининг ўзи, бир мардликдир”. Адиб шу ерда илм барча нарсанинг жонидир, илм борки, барча мавжудот илмли инсон олдида ожиз ва нотавондир, деб таълим беради.

Илм шундай мўъжизаки, ўрмондаги шер, дарёдаги наҳанг ҳам ундан қочади. Ҳатто деву парилар ҳам қочиб, ўзини пинҳон саклайди. Одамнинг душмани ниҳоятда кўп, агар оқил, доно бўлсанг, эҳтиёт бўлиб яшагин. Агар ўша душманлик кўзга кўринмаса ҳам, найзасини сенга санчиш учун доим тайёрдир. Ариққа чўмилиш учун тушсанг, найзаси сенга санчилмоғи мумкин”, каби ғоялар орқали фикрини давом эттиради ижодкор. “Ҳайвонларнинг товушқондан, сирру андишангни ошкор эт, деб сўрагани” сарлавҳасида шоир масаланинг давомини баён этади.

“Ҳайвонлар дедиларки, эй товушқон, қалбинга нима бор айтгин, биз ҳам эшитайлик, шерни йўқ қилмоқчисан, биз ҳам фикринг ва режангни эшитайлик. Чунки ақллар ақллардан илм олиб мустаҳкамланади, машварат ё маслаҳат эса режани мустаҳкамлайди”, дейди ҳайвонлар. “Товушқоннинг ўз сир-асорини улардан яширгани”да эса адиб сир саклаш маданияти ва сирни ҳар қандай кишига айтиш мумкин эмаслигини уқтиради. “Сирни айтдингми, энди у сир эмаслигини доим эсда саклаш лозим. Ҳатто шоирнинг фикрича, учта нарса ҳакида умуман гапирмаслик керак экан. Булар – молу дунёмиз, юрадиган йўлимиш ва мазҳабимиздир. Зарурат бўлса, маслаҳат қилгин мажозан ва уни тинглаган ҳар қандай кимса тушунавермасин. Ҳатто Пайғамбаримиз (с.а.в.) ҳам маслаҳат қилар эдилар, лекин айримлар ундан ҳеч нимани тушунмас эдилар”.

Шундан сўнг аллома “Товушқон макри қиссаси” сарлавҳаси билан ривоятни давом эттиради. “Бир лаҳза сухбат билан банд бўлиб, секин Арслон томон йўл олади қуён. Товушқон кечикканидан шер жаҳли чиқиб, ерни тирнаб наъра тортади. Мен билар эдимки, булар мени аҳмақ қиласи. Мени фириб бериб кўйдилар. Ҳа, агар шоҳ фармонида сустлик қилса, оқибат, иши издан чиқиб расво бўлади”. Румий шерга ўҳшаган текинтомоқларни танқид остига олар экан, “танбал, ношукур, сабрсизлар шуни билсинки, улар фақат жабр кўрадилар, натижада ўзига гўр кавлайди. Шу боис имонингни тоза ва омон тутгил, кибр-хавога берилма, балки тўғри бўл. Имони тоза кишилар бирор хисобидан яшамайди”, деган холосага келади, адиб.

Румий бу қисса орқали айрим имонсиз кишилар борки, Қуръонни дастак қилиб олиб, одамлар қонини ичади. Бечора ва бенаво, камбағалларни алдайди. Ундейларга қаратиб: “Бас, қачонгача Қуръонни шарҳ этасан, ундан кўра, ўзингни ислоҳ қил, ўзингни англа, ўзингги шарҳ бер. Шунча кибрга берилиб шарҳ беряпсанки, сўзингда маъно қолмади”, дейди. Дарҳақиқат, ўтмишда айрим нокаслар Қуръонни раҳнамолари қилиб олиб, кўпчиликнинг қалбига озор бергани, ноҳақ адолатсизлик қилгани маърифат ахлига яхши маълум. Жалолиддин Румий дарранда шер образи орқали нокасларни каттиқ коралайди ва уларни танқид остига олади.

Ҳалол меҳнат орқали ризқ топиш ва машаққат билан бир парча нонни қўлга киритиш инсоннинг баҳту саодатидир. Меҳнат қилмасдан, зўрлик орқали бирорнинг ризқини қўлидан ториб олиш нокаснинг йўлидир. Жамиятдаги шунга ўҳшаш иллатларнинг олдини олиш ва одамларнинг ҳалол меҳнат билан ризқ топишларини истаган адиб, ўз мақсад ва муддаоларини ривоятлар орқали китобхонга етказишга муваффак бўлган.

Адиб шер ва ов ҳайвонлари орасидаги баҳсу мунозара ўртасида паشا билан боғлиқ ривоятни келтиради. Бизнингча, шоир китобхонга шер ҳайвонларнинг подшохи бўлса ҳам, пашибачалик ақли йўқлигини айтиб ўтади.

Оллоҳ гўзал ва буюк яратувчилиги билан дунёни ушлаб тургани Унинг Қодир Қудрат соҳиби эканлигидан далолат беради. Бу дунёда ҳар ким ҳар хил фикрлайди, чунки ўн саккиз минг олам мавжуд. Сув остидаги кўзга кўринмас заррачадан, осмон ва ер юзига ёруглик бераётган қуёшгача, барчасининг ўзига яраша ҳаракат-ҳолати, қарашлари, фикрлаш тарзи каби хусусиятлари бор. Кимдир дунёни тор англаса, бошқаси дунёни ниҳоятда кенг тасаввур қиласи. Яъни борлиқдаги барча мавжудотнинг ўзига яраша ўлчови бор.

LITERARY CRITICISM

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Румий бу масал орқали жамиятдаги бир нечта иллатни очиқчасига очиб ташлаган. Биринчидан, инсон бўла туриб, ҳаёт моҳиятини тушунмасдан, ҳатто аччинарлиси, ўзлигини англамасдан Оллоҳ берган умрни фойдасиз ўтказиб, нафс курбони бўлганлигини баён этади. Иккинчидан, шаклга ошиқ бўлиб, мазмун изламаган кишиларни танқид остига олади. Учинчидан, айрим нокасларнинг шу пашшадек фаросатлари йўқлигига ишора қилади. Халқимизнинг “Ҳар ким дунё ишларини ўз қаричи билан ўлчайди” деган ҳикмати бу масалда ўз ифодасини топган.

“Маснавий”даги бошқа ривоят, “Бўри билан тулкининг арслон паноҳида овга чиқишгани”дир. Ривоят шундай бошланади: “Бўри, тулки ва шер учовлари шикор қилиш мақсадида бирлашиб овга чиқадилар. Аҳду паймон қилдиларки, ов вақти бир-биримизга мададкор бўламиз. Шер ўз ҳаракатидан уялар, чунки у шоҳ эди. Лекин бўри билан тулкига икром кўрсатиб, улар билан юрар эди. Улар бир жамоат бўлиб, тоғ томон, боғ томон юрдилар. Шунда учовлари бир хўқиз, бир эчки, бир куённи тутдилар. Овлари бароридан келганлиги боис, хурсанд бўлдилар. Шер паноҳида бўлганларнинг кечакундуз емиши кабоб бўлади. Қонларни оқизиб, ўлжаларини ўрмонга судраб бордилар. Бўри ва тулки шернинг фармонини кутиб турдилар. Шер уларнинг ахволини билгач, сўз демай, ўз-ўзича “сиз муфлису гадоларни адо қиласман”, деб қўяди. Шундай хаёллар билан кулар эди, молу дунё барчаси табассум кабидир, улар бир табассумлари билан бизнинг қалбимизни суғуриб оладилар. Йўқлик ва камбағаллик шарафдир, коч табассумдан, у домдир”, деб Румий ўқувчига таълим беради. Нафснинг қитиғини келтирувчи нарсаларнинг жиловланиши, одамлар кўзини қамаштиришидир. Табассум ҳам одамларни бир-бирига яқинлаштирганидек, ҳаётдаги турли нарсалар ҳам инсонни ўзига тортади. Ривоятнинг давомида Румий “Арслон бўрини имтиҳон этгани” сарлавҳали воқеани келтиради. “Шер, бўри кел, ўзинг ўлжаларни тақсимла. Менга ёрдамчи бўлиб, аслингни кўрсат. Хожам, деди бечора бўри, сенинг хиссанг хўқиздир. Сен ҳам буюқдирсан ундей. Менга эчки бўлса, тулкига қўён, бас. Шунда шернинг жаҳли чиқиб, қани, такрорла, мен бор жойда сену мен дединг. Сен аслида бир итсан, ўзингни менга қиёсладинг. Шунда уни олдига чақириб, кўксини майдалаб ташлади. Бўри агар тўғри тадбир қилганда, асло ҳалок бўлмас эди”. Румий хулосада агар бирор “мену биз” деб эшик урса, натижада ҳалок бўлади, дейди.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Мавлоно Ҷалолуддин Муҳаммади Балхӣ. Маснавии маънавӣ. Бар асоси матни Р.Николсон ва муқобил бо нусхаҳои дигар. – Техрон. Нашири замон. 2001. – Саҳ 727.*
2. *Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоюри Жамол Камол таржимаси. Т.: MERIYUS, 2010. 864 бет.*

AYOLLAR SHE’RIYATI ADABIY TUSHUNCHА SIFATIDA

Xusanova Salomat Xushbakovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
Rus tili va adabiyoyi kafedrasи o‘qituvchisi
salomathusanova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ayollar adabiyotining tarixiy rivoji, Islom dini va uning ayollar uchun yaratgan imkoniyatlari, shunungdek O‘zbekiston va Rossiya adabiyotida ayollar ijodi tahlil qilinadi. Islomning ayollarga bergen huquqlari va jamiyatdagi roli, O‘zbek mumtoz adabiyotida, ayniqsa, XIX asrda, ayol shoiralarning ijodi va jamiyatga qo‘shgan hissalar haqida so‘z yuritiladi. Qo‘qon adabiyoti shoiralalar silsilasining adabiyotdagi roli, Sovet va mustaqillik davrlarida ayollarga berilgan imkoniyatlar ko‘rsatilgan.

Shuningdek, rus adabiyotidagi ayol shoiralarning asarlari, jumladan, Anna Bunina, Anna Axmatova, Marina Svetayeva va boshqa ijodkorlarning adabiyotdagi ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar adabiyoti, gender, nasr, teng huquqlilik, erkaklar dunyosi, ayollar dunyosi.

ЖЕНСКАЯ ПОЭЗИЯ КАК ЛИТЕРАТУРНОЕ ПОНЯТИЕ

Аннотация. В статье анализируется историческое развитие женской литературы, влияние ислама и созданные им возможности для женщин, а также женское творчество в узбекской и российской литературе. Рассматриваются права, которые ислам предоставил женщинам, и их роль в обществе, особое внимание уделяется творчеству женщин-поэтесс в узбекской классической литературе, в частности XIX века, и их вкладу в общество. Освещается роль плеяды поэтесс кокандской литературной школы, а также возможности, предоставленные женщинам в советский и постсоветский периоды.

Также обсуждаются произведения поэтесс в русской литературе, в том числе значение творчества Анны Буниной, Анны Ахматовой, Марины Цветаевой и других авторов.

Ключевые слова: женская литература, гендер, проза, равноправие, мужской мир, женский мир.

WOMEN'S POETRY AS A LITERARY CONCEPT

Abstract. The article examines the historical development of women's literature, Islam, and its potential for women, as well as the literary contributions of women in the contexts of Uzbekistan and Russia. It explores the rights afforded to women by Islam and their societal roles, the creative works of female poets, and their contributions to public life, particularly within Uzbek classical literature of the 19th century. The article highlights the role of poets in Kokand literature, the opportunities granted to women during the Soviet era, and the period of independence.

Additionally, the article addresses the works of female poets in Russian literature, including Anna Bunina, Anna Akhmatova, Marina Tsvetaeva, and other notable figures.

Keywords: women's literature, gender, prose, equality, male world, female world.

Kirish. Ayollar adabiyoti - ayollarning ijodiy mahsuloti sifatida, dunyoni qabul qilish va o‘z shaxsiy hayotiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan yozma san’atning bir turi. Ushbu adabiyot turi ayollarning ijtimoiy, madaniy va psixodemotsional holatlarini, jamiyatdagi o‘rnvi va rolini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Ayollar adabiyotining paydo bo‘lishi va adabiyot rivojlanishi kuchayib borishi va madaniy izlanish, jumladan, ayollarning ilm olishidagi, ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati va ijod qilishdagi ozodliklariga bog‘liq. Sharq va g‘arb adabiyotida ayol yozuvchilarining ijodi aksar holda shaxsii tajribalari, ijtimoiy va madaniy muhitdagi uzoq davrlik ijtimoiy xulq-qoidalar bilan izohlangan.

V.V.Rozanov ayollar masalasining ikki tomoni borligiga ishongan: birinchisi, 1860-yillarda paydo bo‘lgan “erkak bilan tenglashish tendensiyasi”dan - jamoatchilik noroziligining jihatni va ikkinchisi, ayollikni, onaning, uy bekasining xususiyatlarini saqlash zaruratidan iborat. Rozanov ayolning haqiqiy “men”ini patriarxal turmush tarziga asoslangan an'anaviy xulq-atvor modeli deb hisoblaydi va emansipatsiyani ayol tabiatiga begona deb hisoblaydi.[1, 101 b.]

LITERARY CRITICISM

L.D.Rindinaning fikricha, ayollar she'riyatining eng xarakterli xususiyati subyektivlikdir va agar tinchlik davrida "subyektivizmni ayollarda minus" deb atash mumkin bo'lsa, urush paytida u "holdan toygan inson tashqi ruhiga" yengillik keltiradi.[2, 17 b.]

Ayollar tomonidan yozilgan matnlarni mustaqil mintaqaviy adabiyot sifatida ko'rish huquqi bormi, degan savolga turli nuqtai nazarlar mavjud. Ayollar nasridagi tendentsiyalarni 90-yillarda misolida tushunish uchun adabiy tanqidda "gender" atamasi qo'llanila boshlandi. Bugungi zamonaviy dunyoda ayol bilan erkak o'rtasidagi teng huquqlilik masalasi haqida so'z yuritilganda, mazkur holat qarama-qarshi fikrlarga asoslanishi bilan birga ko'p muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ayollar adabiyoti o'zining tarixiy ildizlarini qadimgi adabiyotlardan izlaydi. Islom dini ayollarni jamiyatda yuqori o'rinda qadrlagan birinchi dinlardan biri bo'ldi. Diniy manbalarda ayollarga bergen huquqlari, ularning jamiyatdagi o'rni va o'ziga xos roli haqida keng ma'lumotlar mavjud.

O'zbek mumtoz adabiyotida ayollarning roli juda katta o'rinn tutgan. Qo'qon adabiyotida ko'plab ayol shoiralar ijod qilgan.

Sovet davrida ayollar ijodiga berilgan imkoniyatlar va mustaqillik davrida ayol yozuvchilarning faoliyat alohida e'tiborga sazovor.

Rus adabiyotida ham ayollarning ijodi keng rivojlanib, ular o'zining ijodiy merosida yangi mavzularni, sevgi, azob-uqubatlar va ayollikning ichki dunyosini aks ettirishga intilgan.

O'zbek adabiyotida ayollar she'riyati chuqur tarixiy ildizlarga ega va uning adabiy tushuncha sifatida rivojlanishiga hissa qo'shadigan bir qator muhim omillar mavjud:

1. Tarixda ayolga tabiiy haqini va hurriyatini bergen, birinchi daf'a ayolning mavqeini yuksaltirgan ham Islom dini bo'ladi.

Birinchi o'rinda Islom dinini eng qadrlagan va ulug'lagan ayollarning nomlarini keltirib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, ayol islom dini uchun faxr hisoblanadi. Sababi birinchi bo'lib Hadicha onamiz payg'ambarimiz Muhammad sallohu alayhi vasallamga iymon keltirgan va mol-mulkini hech ikkilanmasdan fido qilgan ayol, islom dini uchun jonini fido qilgan birinchi ayol bu Sumayya roziyalohu anho yer yuzidagi eng pok zam-zam suvini birinchi bo'lib ichishga erishgan, Safo va Marva orasida yugurgan ayol Hojar onamizdir. Xulosa qilib aytganda, islomda ayolga bo'lgan munosabat o'tmishtga borib taqaladi.

2. O'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos mavqega ega, barcha janrlarda qalam tebratgan, asarlarining mavzu va g'oyalilar qamrovi teran, badiiyati barkamol, ijodkor sifatida dunyo, olam mohiyatini anglagan, Umarxonning ilmparvarligi, rahnamoligi natijasida shu davrda Qo'qonda ijod qilgan Uvaysiy va Nodiralar adabiy muhitda ustod maqomida turgan.

O'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan davrlar osha muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas estetik zavq bag'ishlab kelayotgan, omma orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari bilan hozirgacha kuylanib kelayotgan **Jahon otin — Uvaysiy (1779-1845)** asarlari.

Albatta, Uvaysiy ma'lum bir makon, zamon va jamiyatda yashagan. Shuning uchun ham asarlarida insoniy munosabatlar, ularning ezgu va dardchil kechinmalari, shodligi va qayg'ulari o'z ifodasini topgan. U imon-e'tiqodli, ezgu amallar yo'lida jonfido, dunyon, insonlar ko'nglini musaffo ko'rish ishtiyoqida yongan dardchan yuraklar-dard eli bilan hammaslak, hamdard:

Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyman,

Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman. [3, 342 b.]

19-asrning birinchi yarmi o'zbek adabiyotida alohida o'rinn tutgan ko'zga ko'ringan shoira **Mohlaroyim Nodira (1792-1842)**. Nodira ilm-fan va adabiyot rivojiga hissa qo'shgan, madrasa binolari, karvonsaroylar, savdo arkalari qurilishida qatnashgan. Nodiraning butun hayoti va ijodi mazlumlarga hamdardlik, xalq maorifiga g'amxo'rlik bilan sug'orilgan. U adabiyotning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini yuksak baholagan.

Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhfat ut-tavorix", Isxoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorixi Havvoqin", Mutribning "Shohnomai devona Mutrib", Andalibning "Shohnomai devona Andalib" kabi tarixiy asarlarida, Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon" nomli dostonlarida Nodiraning iqtidori, faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan, Jumladan, "Haft gulshan"da uning ijodkor, davlat arbobi va oddiy o'zbek ayoli sifatidagi qiyofasi qisqagina parchadayoq mufassal yoritib berilgan:

Hama boshdin ayog'i erdi idrok,

Jahon ichra aningdek kelmagay pok.

Agar har ishni ul etsa iroda,

Karam bobida yuz erdin ziyoda.

LITERARY CRITICISM

Aningdek kelmagay davr ichra oyim,
Aning ko'ngli saxovat ichra doim,
Jahon gulzorida andor sifatlik.
Topilmas xotun ichra oqibatlilik. [3, 317 b.]

3. Qo'qon adabiy harakatchiligining muhim xususiyatlaridan biri XIX asrning birinchi yarmida shakllangan shoiralar silsilasining davom etganligidir. Jahon Otin Uvaysiy, Mohlaroyim Nodira an'analari bu davrda Dilshod Barno va Anbar Otindek ikki iste'dodli shoirani yetkazib berdi.

Dilshod - Barno (1800—1905/06) 51 yil dars berib, 900 ga yaqin qizga xat-savod o'rgatgan. Uning she'riyati xalq taqdirining badiiy yilnomasi darajasiga ko'tarilgan.

Anbar Otin (1870-1914/17) ijodida uning 1910-yilda nashr etilgan "Qoralar falsafasi" she'rlar to'plami alohida o'rIN tutadi, unda shoira o'z ona yurtining ruslar tomonidan bosib olinishiga qarshi baland ovozda norozilik bildiradi, kam ta'minlanganlar va tahqirlanganlar taqdirini ko'rib yig'laydi, erkin va baxtli o'zbek jamiyati bilan bog'liq umidlari va rejalar haqida gapiradi.

4. Sovet hokimiyyati kelishi bilan ayollar bilim olish va ijod qilish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Sovet va mustaqillik davrlarida yashab ijod qilgan, o'zbek xotin-qizlarining baxtiyor taqdirini, tinchlikka va ozod mehnatga tashna insonlarning orzularini ifodalagan, haroratlari she'rlari hozirgi kunda ham baland yangrab kelayotgan Zulfiyaxonim Isroilova va Halima Xudoyberdiyevlar adabiyotda ayol ovozini yanada yaqqolroq namoyon etdi.

Zulfiyaxonim Isroilova (1915-1996) "Xalqaro Javoharlal Neru" (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati, shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lган, «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan va uning nomida yoshlar uchun Davlat mukofoti ta'sis qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, Zulfiya ijodi – millionlab kishilarga, muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda, sadoqat va vafo ramzi bo'lib yashamoqda. Kamalak yetti rangda yetmish xil jilolanib, barchani maftun qilgandek, Zulfiya tongning o'ziday rost va yorqin haqiqatga yo'g'rilgan poyeziyasi bilan "Kechir, qoldim g'aflatda", "Ne baloga etding mubtalo", "Bahor keldi seni so'roqlab", "Xotiram siniqlari" kabi she'rlarida sadoqat va vafo tuyg'usini – insoniylikning komillikning bosh mezoni darajasiga ko'targan. [4].

Halima Xudoyberdiyeva (1947-2018) «Saodat» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinosari va bosh muharrir, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi raisi, «Yozuvchi» nashriyotida yetakchi muharrir, «Sanam» jurnalida bosh muharrir o'rinosari, 2004- yildan «XXI asr» gazetasida bo'lim muharriri lavozimlarida ishlagan, O'zbekiston xalq shoirasi unvoni bilan taqdirlangan, "El-yurt hurmati" ordeni mukofotiga sazovor bo'lган.

To'xtasin Jalolov Halima Xudoyberdiyevaning she'rlari xususida «Tuyg'ular tug'yoni» sarlavhali maqolasida shunday degan edilar: «Halima o'zbek ayol she'riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san'at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo'ron bo'lib, suron bo'lib kirib keldi-da, to'liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo'shiq boshladи. [5]

Rus adabiyotiga nazar tashlasak, 19-asrda ayollar ijodi professional hamjamiyat tomonidan jiddiy qabul qilinmagan. Bu haqda J. K. Grot shunday ta'kidlagan: "Ayol yozuvchiga g'ayritabiyy hodisa sifatida qaralgan <...> kamsituvchi va mensimay <...>" [6, 1 b.]

Rus adabiyotiga ham ayollar she'riyati bilan bogliq bir qator muhim omillar mavjud:

1. XIX asr shoirlari orasida **Anna Petrovna Bunina (1774-1829)** alohida o'rIN tutadi, chunki u birinchi rus shoiri deb ataladi.

XVIII asrda uning o'tmishdoshlari ko'p edi, ammo aynan A.P. Bunina birinchilardan bo'lib professional adabiyot modelini amalga oshirishga harakat qildi: "chechklovchi noto'g'ri qarashlarni chetga surib qo'yishga muvaffaq b o'lган ... ular o'z kitoblarini nashr etishga intiladilar (A.A.Bunina va A.A. Volkova haqida), bunga erishadilar va hatto nafaqat yozuvchilar, balki ulug'vor va saroy a'zolarining ham homiyligiga murojaat qilishadi. Aynan mana shu shoiralar Rossiyada birinchi bo'lib kitob nashr etishdi... o'sha davrda mavjud bo'lган adabiy uyushmalarga a'zo bo'lishdi" [7, 7 b.]

Anna Alekseevna Volkova (1781-1834) rus shoiri bo'lib, uning iste'dodi imperator Pavel I tomonidan inobatga olinib, unga homiylik qilgan. U Pavel I ning toj kiyishiga qasida yozdi va Anna Bunina, malika Yekaterina Urusovalar bilan birga "Rus so'zini sevuvchilar suhbatlari" jamiyatining faxriy a'zolari etib saylandi va uning rahbari A. S. Shishkovning homiyligidan bahramand bo'ldi. [8]

Grafinya Evdokiya Petrovna Rostopchina (1811-1858) - rus shoiri, tarjimon, dramaturg va nasr yozuvchisi, uchinchi rus shoiri deb ataladi.

"Men uning she'rlarini yaxshi ko'raman ... Qanday chuqur tuyg'u, qanday soddalik va kuch", - deb tan olgan Pyotr Vyazemskiy Turgenevga yozgan maktubida.[9.]

LITERARY CRITICISM

Marina Ivanovna Svetayeva (1892-1941) – rus shoirasi, oilasi bilan qashshoqlikda yashab, 15 dan ortiq she'riy to‘plamlari, 13 dan ortiq poemalar, 10 dan ortiq dramatik asarlari, 14 dan ortiq esse-prozalari bilan mashhur bo‘lgan.

Anna Andreyevna Axmatova (1889-1966) - mashaqqatli davrda hayot kechirib, 10 dan ortiq she’riy, 4 dan ortiq poemalar to‘plami va bir qancha tarjimalari bilan mashhur bo‘lgan, 1939-yilda SSSR ilg‘or yozuvchilar tashkiloti a’zoligiga qabul qilingan, 1954-yil dekabr oyida Sovet Yozuvchilar uyushmasining II Qurultoyida ishtirot etgan rus shoirasi.

M. Svetayeva va A.Axmatovalar ayollar tajribasi, sevgi va azob-uqubatlarga oid yangi mavzularni olib kelishdi.

2. XX asr boshlarida “Северное сияние” kabi ayollar adabiy to‘garaklari va ayollar ijodini nashr etuvchi «Женщина» (1907–1917), «Дамский мир» (1907–1917), «Женское дело» (1910–1918), «Журнал для хозяек» (1912–1918), «Мир женщины» (1912–1917), «Журнал для женщин» (1914–1918) kabi maxsus jurnallar ularning she’riyatini ommalashtirishda muhim rol o‘ynadi.

3. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida feministik g‘oyalar faol rivojlana boshladi, bu esa ayollarning mustaqil muallif va shoir sifatida tan olinishiga xizmat qildi.

4. A.Axmatova, M.Svetayeva va boshqa shoirlarning ijodi darsliklarga kiritilganligi, ko‘chalar, muzeylear, teploxd, sayyoralarlarga ularning nomlari berilganligi, shuningdek, bir nechta mamlakatlarda ularga haykal va monument o‘rnatilganligi, ular haqida kinoseriallar, operalar suratga olinganligi va hozirgi kunga qadar A.Axmatova va M.Svetayevani yod etib ijodiy kechalar tashkil etilib kelinayotganligi ayollarning adabiyotdagi mavqeい va ahamiyatini tasdiqlaydi.

Natijalar. Maqolada rus va o‘zbek adabiyotidagi ayol shoiralari ijodining taqqoslanishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy rivojlanish jarayonlari va ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi o‘rinlari ko‘rib chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan ketma-ket dalillar O‘zbekiston va Rossiyada shoiralalar silsilasining davom etganligidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu ayollar asarlari o‘zining latif mazmuni va dilkash badiyiligi bilan davrlar osha muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas estetik zavq bag‘ishlab kelmoqda. Ular xalq ommasi orasida keng yoyilgan.

O‘zbek va rus adabiyotidagi ayol shoiralalar ijodining bir qancha o‘xshashliklari mavjud, masalan, ikkalasining she’riyati ham o‘z zamonining ijtimoiy muammolarini, ayollarning huquqlarini va insoniy histuyg‘ularini yoritishga qaratilgan. Rus ayol shoiralari ko‘pincha o‘z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy nohaqliklarni, individual erkinlikni va ayollarning o‘zini ifodalash huquqini himoya qilishgan. Misol uchun, Anna Axmatovaning asarlarida ayollarning ichki dunyosi va azob-uqubatlari markaziy o‘rin tutadi. O‘zbek adabiyotida esa, ayol shoiralari ko‘pincha xalqning ma’naviy o‘sishi, ilm-fan, va oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilishgan.

Bundan tashqari, rus adabiyotida feministik g‘oyalar ko‘proq rivojlangan va ayol yozuvchilarining ijodi ko‘p hollarda jamiyatning erkak hukmronligini tanqid qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ayol shoiralalar ijodida ko‘proq milliy va diniy qadriyatlarni, xalqning kelajagi va kelgusi avlodlarga o‘rnak bo‘lish kabi g‘oyalar o‘z aksini topgan.

Lyudmila Ulitskaya o‘z intervylaridan birida aytganidek: “Erkaklar dunyosi va ayol dunyosi - bu boshqa olamlar. Joylarda kesishadi, lekin to‘liq emas. Ayollar dunyosida sevgi, oila va bolalar bilan bog‘liq muammolar muhimroq bo‘ladi”. [10, 230-bet].

Haqiqatdan ham, ayol she’riyatining asosiy mavzulari oilaviy muammolar, bolalik, har xil ziddiyatlar, ojizalik, hayotning ma’nosini izlash kabi muammolarni qamrab oladi.

Tanqidchi va yozuvchi O. Slavnikova ayollar deyarli har doim yangi mazmunni ochishda kashshof bo‘lgan deb hisoblaydi. Rossiyada bugungi kunda ayollar nasrining gullab-yashnashi mamlakatda adabiyot borligi va bo‘lishidan darak beradi: “Nima uchun ayollar nasrining paydo bo‘lishi... adabiyotning oxiriga zid keladi? Chunki ayol kishi hech qachon noturar joyga bormaydi..... Ekstremal vaziyatda erkak o‘lishga majbur bo‘lsa, ayol omon qolishga majburdir” [11, 173-bet].

Ayollar adabiyoti o‘zining tarixiy va ijtimoiy ahamiyati bilan, nafaqat ayolning ijodiy salohiyatini, balki jamiyatdagi o‘rnini va huquqlarini ifodalovchi muhim madaniy fenomen hisoblanadi.

Ayollar adabiyotini yanada chuqurroq tahlil qilish va uni ilmiy tadqiqotlar, adabiyotshunoslik doirasida kengaytirish zarur. Ayniqsa, XIX-XX asrlar o‘rtasidagi davrda ayollar ijodining ijtimoiy va siyosiy kontekstlarini yoritishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Rus va o‘zbek adabiyotidagi ayol shoiralarning taqqoslanishi

№	O‘zbek ayollari adabiyoti	Rus ayollari adabiyoti
1.	Jahon otin — Uvaysiy (1779-1845)	Anna Petrovna Bunina (1774-1829)
2.	Mohlaroyim Nodira (1792-1842).	Anna Alekseevna Volkova (1781-1834)
3.	Dilshod Barno (1800—1905/06) Anbar Otin (1870-1914/17)	Grafinya Evdokiya Petrovna Rostopchina (1811-1858)
4.	Zulfiyaxonim Isroilova (1915-1996)	Marina Ivanovna Svetayeva (1892-1941)
5.	Halima Xudoyberdiyeva (1947-2018)	Anna Andreyevna Axmatova (1889-1966)

Munozara. O‘zbek va rus adabiyotidagi ayol yozuvchilarining faoliyati va ularning ijodi haqida keltirilgan misollar talabalarga ikki turli madaniyatdagi ayollar adabiyotining xususiyatlarini taqqoslash imkoniyatini beradi. Shuningdek, ayollar adabiyotining gender aspektini muhokama qiladi. Bu gender tengligi, ayol va erkak yozuvchilarining adabiyotdagi o‘rnini haqida zamonaviy yondashuvlarni tushunish imkonini beradi.

Maqola, talabalarga ayollar adabiyotini ilmiy tadqiqotlar doirasida qanday o‘rganish kerakligi haqida o‘ylashga yordam beradi. Bu ilmiy izlanishlar uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, maqola ayollar adabiyotining rivojlanishi, uning ijtimoiy va madaniy konteksti haqida to‘liq tasavvur hoslil qilishga yordam beradi va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiradi.

Xulosa. Rus va o‘zbek adabiyotidagi ayol shoiralari ijodining taqqoslanishi shuni ko‘rsatadiki, har ikkala adabiyotda ham ayollar ijodi jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayollar she’riyati har ikki madaniyatda ham o‘zining hissiy va ma’naviy boyligi bilan jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamladi. Biroq, rus adabiyotida feministik g‘oyalari va individual erkinlikka oid mavzular ko‘proq yoritilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida ayollarning jamiyatdagi rolini yuksaltirish, ilm-fan va ma’naviyatni targ‘ib qilish ko‘proq e’tiborda bo‘lgan.

ADABIYOTLAR:

1. Рябов О. В. Женщина и женственность в философии Серебряного века. С. 101.
2. Рындина Л. Д. Поэзия современности и женщина-поэтесса // Женская жизнь. 2016. № 3. С. 17.
3. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (2 nashr) Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2009-yil.
4. <https://juyborikalon.uz/uz/news/1078>
5. <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nazm/193-halima.html>
6. Гром Я.К. Поэтесса Анна Петровна Бунина – [Эл. ресурс]: http://www.ostrov.ca/kgrot/ap_bunina.htm
7. Банников Н.В. От составителя // Русские поэтессы XIX века. – М.: Сов. Россия, 2005. – С. 7.
8. <https://www.dspl.ru/blog/pro-vystavki/zhenshchiny-poetessy/>.
9. Вячеслав Недошивин (кандидат философских наук, ведущий рубрики Литературный салон Родины)/РГ (о Ростопчиной) статья “Евдокия Ростопчина – третий поэт России” <https://godliteratury.ru/articles/2023/10/08/evdokiia-rostopchina-tretij-poet-rossii>
10. Улицкая Л. Приманю всё, что даётся: интервью // Вопросы литературы. 2006. № 1. 215-237 с.
11. Зумбулидзе, И.Г. “Женская проза” в контексте современной литературы / И.Г. Зумбулидзе. — Текст: непосредственный // Современная филология: материалы И Междунар. науч. конф. (г. Уфа, апрель 2011 г.). — Уфа: Лето, 2011. — С. 21-23. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/23/409/> (дата обращения: 12.11.2024).

«MUNSHAOT» TOSHBOSMA NUSXASINING MATNIY TAHLILI (MUQADDIMA VA 2-MAKTUB MISOLIDA)

*Hakimova Moxinur Istam qizi,
Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo'naliши I-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning "Munshaot" asari o'zbek nasrida insho san'atining ilk namunasi ekanligi va asarda ijodkorning so'z qo'llash mahorati xususida mulohaza yuritilgan. Navoiy "Munshaot" ining Buxoro san'at muzeyi xazinasida 28253/11-raqam ostida saqlanayotgan toshbosma nusxasi muqaddimaviy qismi va asar tarkibidagi ikkinchi maktub matni Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 14-jildidan o'rinn olgan "Munshaot" matni bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Munshaot", Alisher Navoiy, insho, ruq'a, maktubot, ma'noviy tafovut, miqdoriy farg, qo'lyozma, toshbosma, munshiy.

ТЕКСТОВЫЙ АНАЛИЗ ЛИТОГРАФИЧЕСКОЙ КОПИИ «МУНШАОТ» (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДИСЛОВИЯ И 2-ГО ПИСЬМА)

Аннотация. В статье рассматривается произведение великого мыслителя Алишера Навои «Муншаот» как первый образец искусства сочинения в узбекской прозе, а также мастерство автора в использовании слов в этом произведении. Проведён сравнительный анализ вступительной части литографической копии «Муншаот» Навои, хранящейся в фондах Бухарского музея искусств под номером 28253/11, и текста второго письма в произведении с текстом «Муншаот», опубликованным в 14-м томе «Полного собрания сочинений» Алишера Навои.

Ключевые слова: «Муншаот», Алишер Навои, сочинение, рукъя, мактубот, смысловое различие, количественное различие, рукопись, литография, мунши.

TEXT ANALYSIS OF A STONE PRINT COPY OF "MUNSHAOT" (BASED ON THE EXAMPLES OF THE "INTRODUCTION" AND THE SECOND LETTER)

Abstract. The article discusses that the work «Munshaot» by the great thinker Alisher Navoi is the first example of the essay genre in Uzbek prose and reflects the author's mastery of word usage. The stone print copy of «Munshaot», preserved in the Bukhara Art Museum under the number 28253/11, along with its introductory part and the second letter in the work, has been compared with the text of «Munshaot» from the 14th volume of Alisher Navoi's Complete Works.

Keywords: «Munshaot», Alisher Navoi, essay, ruk'a, letters, semantic differences, quantitative differences, manuscript, stone print, munshi.

Kirish. Sharq adabiyotida, jumladan, musulmon madaniyatida so'z gavhari bilan ziynat berib yozilgan maktub va nomalar insho san'atini tashkil etadi. Bu yozishmalar orqali muallif dunyoqarashi, uning so'z qo'llash mahorati, o'z maqsadini o'quvchiga yetkazish qobiliyati oydinlashadi.

"Munshaot" so'zi arab tilida "insho etilganlar", ya'ni "yozilganlar", "bitilganlar" degan ma'noni anglatadi. Sharq adabiyotida esa muallifning nazmda yoki nasrda yozilgan maktublar to'plami nazarda tutiladi. Bunday to'plamlar bir yoki bir necha muallif qalamiga mansub xatlar yig'indisidan iborat bo'lgan. Maktublar shunchaki bitilgan xatlar bo'lmay, badiiyatning o'ziga xos turi — insho san'ati sifatida yuzaga kelgan, chuqur mazmunga va go'zal badiiy ifodaga ega bo'lgan. Ba'zi maktublar yuksak san'at bilan o'ta jimjimador yozilgan. Munshaot ba'zan "ruq'aot" (ruq'aot-arabcha, maktublar), "maktubot" deb ham yuritilgan. Asosan arab va fors tillarida yaratilgan [6.821].

Munshaot shaklidagi asarlar xat va yozishmalar tarkibida istiora, tashbeh, mubolag'a, tazod kabi badiiy san'atlar uchraydi. Shuningdek, maktublarda Qur'on oyatlari, hadislar, hikmatli so'zlar, duolar va she'riy parchalardan foydalilanlgani holda xat yozuvchining fikri ta'sirchanligi oshiriladi.

Asosiy qism. Ulug' mutafakkir qalamiga mansub "Munshaot" asari insho san'atining turkiy tildagi ilk namunasi hisoblanadi. Asar muqaddimasida keltirilgan quyidagi fikrlarga nazar solsak: "Ammo ba'dajillai as'hob ollida aidoq ma'ruz bo'lur va aizzai ahbob xizmatida andoq arzg'a yetkurulurkim, atrof inshosida va

TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY

bu ahli idrok bayonu adosidakim, birovdin birovga ruq'a yozg'ay, yo ul kishi ul ruq'ag'a javob bitigay, dag'i ruq'a kelturgan qosidni qaytarg'an- alfozi latofatdin muarro va tarokibi balog'atdin mubarro erdi va adosi rangin fiqarotdin namoyishsiz va mazmuni rangin abyotdin oroyishsiz va muqobalada forsiy alfozning insholari dilpisand va makotibu imlolari arjumand erdi, xayolg'a andoq keldikim, turk alfozining dag'i ruq'alar hamul misol bila bitilgay va bu tilning nomalarini ham o'shul minval bilan sabt etilgay. Oz fursatda bu ruq'alar jam' bo'lib va nomalar yig'ilib erdikim, bu avroq zimmida sabt bo'ldi" [2.136].

"Munshaot"dan ko'chirilgan iqtibos mazmunidan shuni anglashimiz mumkinki, atrok-turkiylar inshosida yozilgan ruq'a latofatl so'zlar va mukammallikdan xoli bo'lib, maktublar yakunida rangin parchalar va mazmuni go'zal baytlar berilmas edi. Ammo forsiyda yozilgan dilga yoquvchi insholari va qadrli maktublar bor ediki, bu jihat buyuk ijodkorning ko'nglida xuddi shunday asar tartib berish havasini uyg'otdi.

Navoiy "Munshaot"i tarkibidagi maktublarning aksariyati sulton Husayn Boyqaro va shahzodalarga, Navoiyning do'stlari va yaqinlariga bag'ishlab bitilgan. Xatlar mazmunan ta'ziyanoma, bayram tabrigi, davlatni idora etish uchun tavsiyalar, fasllar tasviri hamda pandhoma mavzusida bo'lgan.

Asarning bizgacha yetib kelgan nusxalarida maktublar miqdori turlicha bo'lib, nisbatan to'liq nusxa sifatida Istanbulning To'pqopi saroyi kutubxonasida 808-invertal raqam ostida saqlanuvchi Navoiy asarlari kulliyoti tarkibidagi qo'lyozma ahamiyatlidir. Ushbu nusxa 107 ta maktubni o'z ichiga olgan.

"Munshaot" ning turli yillarda qilingan nashrlarida ham miqdoriy tafovut mavjud. 1966-yilda chop etilgan Navoiyning 15 tomlik "Tanlangan asarlar"i 13-tomidan joy olgan "Munshaot" asarida 88 ta maktub mavjud bo'lsa, 1998-yil nashr qilingan 20 jiddlik "Mukammal asarlar to'plami" ning 14-jiddida Alisher Navoiy qalamiga mansub 103 ta maktub berilgan, 2011-yilda chop etilgan 10 jiddlik To'la asarlar to'plamining 9-jiddida berilgan Navoiy "Munshaot"i esa 107 ta maktubdan iboratligiga guvoh bo'lamic.

Buxoro san'at muzeysi xazinasida 28253/11-raqam ostida Navoiy "Munshaot"ining toshbosma nusxasi saqlanadi. Toshbosma Ozarbayjonning Boku shahrida chop ettirilgan. 28253/11-raqamli toshbosmani asarning 1998-yilgi chopi bilan muqoyasa qilar ekanmiz tafovutlar borligi nazarga tashlanadi. Ushbu farqlar ma'noviy, so'z va qo'shimchalarining tushib qolishi yoki ortishi, so'z o'rinalarining almashtirilishi kabilar bilan bog'liq. Shunday farqli jihatlardan ayrimlarini tahlilga tortamiz.

"Ammo ba'd:ajillai as'hob ollida andoq ma'rur bo'lur va aizzai as'hob xidmatida andoq arzg'a yetkurulurkim, atrok inshosida va bu ahli idrok bayonu adosidakim, birovdin birovga ruq'a yozg'ay..." [1.1]

Yuqorida keltirilgan iqtibosda bir qarashda hech qanday xatolikka yo'l qo'yilmagandek tuyuladi. Ammo 28253/11-raqamli toshbosmadan olingan ushbu parchada "do'stlar", "hamsuhbatlar", "suhbatdoshlar" ma'nosini anglatuvchi "as'hob" so'zi ikki o'rinda qo'llanilgan va bu o'rinsiz takrorni yuzaga keltirgan. Alisher Navoiy o'z asarlarida ma'nodosh so'zlardan mohirona foydalangan va ularni o'z o'rnda qo'llay olgan buyuk so'zshunos. Asarning 1998-yilgi nashrida ayni shu jihat hisobga olinib, ikkinchi "as'hob" o'rnda uning sinonimi "do'st", "do'stlar" ma'nolarini bildiruvchi "ahbob" so'zi qo'llanilgan va o'rinsiz takror nazarga tashlanmaydi [7.62,74].

Quyida "Munshaot"ning ikkinchi maktubidan olingan parchalarni qiyoslaganimizda esa ular o'rtasidagi farq gap va iboralarning tushib qolishi bilan aloqadorligiga guvoh bo'lamic.

"Sipehri kuraviy zargar ko'rasidek mehr o'tidin ul nav" qizidikim, yaqindurki, falak tosidin savobit donalari tosdag'i qal'iy qatorotidek erib, toma kirishgay va tadvir bo'talaridin sayrot siymi suv bo'lib, siymbodek oqib, arz konig'a yetishgay" [2.139].

Mazkur iqtibos muhokamamiz asosida turgan toshbosma nusxada quyidagicha berilgan:

"Sipehri kuraviy zargar ko'rasidek dag'i qal'iy qatorotidek erib, toma kirishgay va tadvir bo'talaridin sayrot siymi suv bo'lib, siymbodek oqib, arz konig'a yetishgay" [1.3].

Asarning muqaddimaviy qismida Ollohnning o'zi eng buyuk munshiy bo'lib, Qur'on suralari esa uning oliy farmoni insholari ekanligi ta'kidlangan quyidagi ruboiy keltiriladi:

"Ul hokimkim omdurur ehsoni,
Shahlar boshig'a nofiz aning farmoni,
Farmonig'a insho suvari qur'oni,
Inshosiga e'joz kelib arzoni" [2.136].

Ollohamdiga bag'ishlangan ushbu ruboioying biringchi misrasida uning go'zal sifatlaridan biri, ya'ni bandalari uchun ne'mati va ehsoni bepoyon ekanligi sharaflangan.

Mazkur ruboiy ixtiyorimizda bo'lgan toshbosmada quyidagicha bitilgan:

" Ul hokim olimdurur ehsoni,
Shahlar boshig'a nofiz aning farmoni,
Farmonig'a insho suvari qur'oni,
Inshosiga e'joz kelib arzoni" [1.1].

TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY

Yuqorida keltirilgan iqtibosda "om" so'zi o'rnida "olim" so'zi berilgani nazarga tashlanadi. Shundan kelib chiqib misrani tabdil qiladigan bo'lsak, "Ul hokimning ehsoni olimdur" kabi ma'noviy noqislikka duch kelamiz.

"Om" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "ko'p","ko'pchilik ","omma","umumiyy" ma'nolariga egadir. Ma'no jihatdan bu so'z misra mazmuniga qolipdek mos tushadi. "Yuqori ilmiy saviya egasi","bilag'on","ilmni yaxshi biladigan" ma'nolarini anglatuvchi "olim" so'zi esa "Munshaot" matnidan keltirilgan iqtibos mantiqiga ziddir [6.482,484].

"Munshaot" ning 1998-yilgi nashrida bu xatolik uchramay, misra muallif muddaosiga uyg'un holatda keltirilgan.

Shuningdek, toshbosma nusxaning muqaddimaviy qismida shunday jumla berilganki, albatta, mutolaa qiluvchining e'tiborini tortmasdan qolmaydi. Asarning 1998-yilgi chopi matni bilan qiyoslanganda esa tafovutli o'rinalar yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Xayolg'a anda keldikim, turk alfozining dag'i ruq'alari hamul misol bila aytligay va bu tilning nomalarin ham o'shul minval bilan sabt etilgay. Oz fursatda bu ruq'alar jam' bo'lib erdi va nomalar bitilib erdikim, bu avroq zimnida sabt bo'ldi" [1.2].

Ixtiyorimizdagagi toshbosma nusxadan berilgan yuqoridagi iqtibosda "xayolg'a" so'zidan keyin "anda" olmoshi qo'llangan. Bu olmosh biror ishning qachon yoki qayerda sodir bo'lganini izohlash uchun ishlataladi. Parcha mazmunida esa biror fursat yoki o'rin emas, balki bajarilishi ko'zda tutilgan ish izohlanishi lozim. 1998-yilgi nashrda bu so'z o'rnida "andoq" olmoshining berilishi maqsadga muvofiq bo'lib, jumlaning ma'noviy kemtikligi to'dirilgan.

Jumladan, toshbosmada "ruq'a"ga nisbatan "aytmoq" fe'li qo'llangan. Tilimizda qalam bilan yoziluvchi maktub, noma va shu kabi so'zlarga nisbatan "yozmoq","bitmoq" fe'llari ishlataladi. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 14-jildidan o'rin olgan "Munshaot" matnida esa "aytmoq" so'zi o'rnida "bitmoq" fe'lining berilishi muallif muddaosiga muvofiq kelgan.

Jumlaning oxirgi qismida ham shunga o'xshash mavhumlik nazarga tashlanadi. "Va" bog'lovchisidan keyin kelgan "nomalar" so'zi oldida "bitmoq" fe'lininng berilishi matn mazmunida noaniqlikni keltirib chiqqagan. Oz fursatda maktublarning jam bo'lgani haqida gap ketayotgan o'rinda "yig'moq" fe'lining berilishi mantiqqa mos tushadi. 1998-yilgi nashrdan berilgan quyidagi iqtibos esa bu ma'noviy chigalliklardan mustasno.

"Xayolg'a andoq keldikim, turk alfozining dag'i ruq'alari hamul misol bila bitilgay va bu tilning nomalarini ham o'shul minval bilan sabt etilgay. Oz fursatda bu ruq'alar jam' bo'lib va nomalar yig'ilib erdikim, bu avroq zimnida sabt bo'ldi" [2.137].

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, jumla to'liq ravishda berilgan asarning joriy yozuvdagagi choplarni tayyorlash uchun asarning ko'pgina nusxalari va bir qancha manbalarga murojaat qilingan.

"Munshaot" ning mustaqillik yillarda amalga oshirilgan choplarni ham xatoliklardan mustasno deb bo'lmaydi. Xususan, Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 14-jildidan o'rin olgan "Munshaot"ning muqaddimaviy qismidagi bir jumla kitobxonni uzoq o'ylantirib, mutolaa jarayonida qiyinchilik tug'diradi.

"Ammo ba'd:ajillai as'hob ollida aidoq ma'ruz bo'lur va aizzai ahbob xizmatida andoq arzg'a yetkurulurkim, atrok inshosida va bu ahli idrok bayonu adosidakim, birovdin birovga ruq'a yozg'ay..." [2.137]

Yuqorida keltirilgan iqtibosda "ollida" so'zidan keyin kelgan "aidoq" kalimasini e'tiborimizni tortadi. Bu so'z arabchadan tarjima qilinganda "qo'llar" degan ma'noni anglatadi. Asarning Buxoro san'at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 28253/11-raqamli nusxasida esa bu o'rinda "andoq" so'zi qo'llangan. Ma'noviy jihatdan iqtibos mazmuniga mutlaqo mos bo'lmagan bu so'z arab alifbosidagi shaklan o'xshash bo'lgan "nun" va "yoy" harflarining nuqtalar bilan farqlanishidan kelib chiqqan. Tafovut asarni nashrga tayyorlovchilarining adashishidan emas, balki harf shakli ustidagi nuqtaning tushib qolishi bilan bog'liq bo'lgan bosma xatolik hisoblanadi. Keyingi 10 jildlik "To'la asarlar to'plami"ning 9-jildidan o'rin olgan Navoiy "Munshaot"i nashrida bu kemtiklik barham topganiga guvoh bo'lamic.

Xulosa. Har bir asarning mukammal nusxasini yaratish matnshunos olim uchun juda mashaqqatli ishdir. Bu yo'lda nafaqat asarning turli nusxalari, balki u haqida ma'lumot beradigan barcha manbalar sinchiklab o'rganib chiqiladi. Bu esa tadqiqotchidan juda ko'p vaqt hamda mas'uliyatni talab qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. علیشیر گوھایی منشات Buxoro san'at muzeyi xazinasidagi 28253/11-raqamli toshbosma.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20jildlik, 14-jild. Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. 15tomlik, 13-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.

TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY

4. Alisher Navoiy. *To 'la asarlar to 'plami. 10jildlik, 9-jild.* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 2013.
5. Ergashev, Q. 1996. *O'zbek nasrida insho* (Navoiy "Munshaot"i misolida): fil.fan.nomz. diss... . Toshkent
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000. 1-jild. Toshkent.
7. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1972.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati (4tomlik) ill tom T., "Fan", 1984.
9. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at T., "Fan", 1993.
10. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. *Navoiyshunoslik.* T., "Tamaddun", 2018.



Navoiy gulshani

ALISHER NAVOIY “XAMSA” SIDA BESH RAQAMINING RAMZIY-MAJOZIY MA’NOLARI

Bekova Nazora Jo‘rayevna,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Zuxurova Oqila Ilhom qizi,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

oqilazuxurova@gmail.com

Mumtoz adabiyot vakillarining asarlari shu kungacha oltin meros sifatida qadrlanishi bejizga emas. Sharq mumtoz she’riyati mazmun va shakl, poetik tasvir yo‘li, vosita, obrazlar olami bilan o‘ziga xos bir she’riyatdir. Ushbu she’riyatda ramziy-majoziy tasvir ustuvor yo‘nalish va xususiyatni tashkil etadi. Shuning uchun unda so‘z, timsol, rang, ohang bilan bir qatorda, raqamlar vositasida ilgari surilgan haqiqatlarning ramziy ifodalari ham alohida o‘rin egallaydi. Alisher Navoiyning barhayot merosi necha asr o‘tsa hamki, olimlarning nigohida bir zum tushmaydi. Undagi yangi ma’nolarni kashf etish orqali avlodlarga o‘z ajododlari haqida ilmiy ma’lumotlar berib boriladi. Adabiyotshunos olimlar S. Jumayeva, N. Komilov, M.Jo‘rayev, N. Mallayev, I.Haqqulovning ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiy ijodida raqamlarning mohiyati o‘z aksini topgan. Adabiyotshunoslar tomonidan asarlarda keltirilgan ikki, to‘rt, yetti, to‘qqiz, yuz, o‘n sakkiz ming kabi raqam va sonlarning ramziy ma’nolari o‘rganilib maqola va ilmiy ishlar chop etilgan. Alisher Navoiyning boy xazinasini o‘qir ekanmiz, unda besh raqami bilan bog‘liq ko‘plab ishoralarni uchratishimiz mumkin.

O‘zbek mumtoz adabiyotining nodir namunalarini meros qoldirgan Alisher Navoiy o‘z asarlarida raqamlardan ramziy unsur sifatida keng foydalangan. Uning asarlarida raqamlar shunchaki miqdorlar emas, balki ular chuqr ma’naviy va falsafiy ma’nolarga kirish eshigi bo‘lib xizmat qilgan.

Asarlardagi **bir** raqami islom ilohiyotining markazi yagona— Allohga ishora.

Ikki raqami moddiy va ma’naviy olam, tana va ruh, mahbub va mahbubani ifodalash uchun namoyon bo‘ladi. Bu ikkilik qarama-qarshilikni emas, balki mavjudlikning bir-birini to‘ldiruvchi tomonlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. Jumladan, “Layli va Majnun” asarida ikki sarlavha timsoli ham yerdagi oshiqlarni, ham qalbning ilohiy birlikka intilishlarini ifodalaydi.

Uch alohida ahamiyatga ega, chunki u ruhiy rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi. Navoiy ko‘pincha o‘z qahramonlarining sayohatlarini shariat, ikkinchisi tariqat, uchinchisi esa haqiqat bosqichlaridan o‘tkazadi.

To‘rt ko‘pincha moddiy dunyoda tugallanishni anglatadi - to‘rt element, to‘rt yo‘nalish, to‘rt fasl. “Farhod va Shirin” asarida qahramon Farhod o‘zining haqiqiy ruhiy sayohatini boshlashdan oldin to‘rtta hunarni puxta egallashi kerak. Bu yuqori ruhiy haqiqatlarga ko‘tarilishdan oldin moddiy dunyonи tushunish zarurligini ko‘rsatadi.

Beshinchi raqam alohida ahamiyatga ega, chunki u ko‘p jihatdan namoyon bo‘ladi. Uning “Xamsa”sida eng ko‘zga ko‘ringan bo‘lsa-da, uning ahamiyati chuqurroqdir. Besh sezgi, besh barmoq, besh vaqt namoz. Bularning har biri ilohiy haqiqatni anglashga yo‘l bo‘lib xizmat qiladi.

Yetti raqami ostida juda ko‘p ramziy ifodalar bor. Xususan, “Sab’ayi Sayyor” dostonida yetti raqami nihoyatda muhim o‘rin egallagan. Bu doston zamirida Navoiyning o‘zi aytganidek, har bir insonning baxtsaodat yo‘lida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan, insonparvarlik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan yetti hikoya yotadi.

Navoiy asarlaridagi besh raqami ilohiylikning insoniy tajribasi bilan bog‘lanadi. Bizning yer yuzidagi mavjudligimiz va ma’naviy haqiqat o‘rtasidagi ko‘prik sifatida tasavvur qilinadi. Navoiy tafakkuriga chuqr ta’sir ko‘rsatgan islom an’alarida beshlik bir necha muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi. Musulmonlar har kuni besh vaqt namoz o‘qiydilar, iymonning besh ustuniga amal qiladilar va namozdan oldin besh bora poklanishadi. Navoiy bu diniy beshlikni oddiy raqamlar emas, ular—inson hayotining mukammal ilohiy

tartibini ifodalagan deb biladi. Ana shu asosga tayangan holda o‘zining “Xamsa”sini bir-biriga bog‘langan besh doston tarzida tuzgan bo‘lib, ularning har biri insoniy va ilohiy ishqning turli qirralarini o‘rganadi.

Bo‘lmaq‘ay erdi tuyassar «Xamsa», ya’ni panj ganj
Qilmasa erdi madad holimg‘a **besh oliv abo** [Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. MAT.20 tomlik.7-tom. –T : “Fan”, 1991, -B. 22].

“**Hayrat ul-abror**” axloqning besh toifasi orqali axloqiy va falsafiy haqiqatlarni o‘rganib, asos bo‘lib xizmat qiladi. Buni **shohlar, zodagonlar, oddiy odamlar, yoshlar va oqsoqollar** haqidagi hikoyalar orqali asosiy tamoyillarni o‘rnatadigan ruhiy binoning birinchi qavati sifatida ifodalanadi.

Navoiy ruhiy taraqqiyot uchun metafora sifatida besh hisni ham, ruhning besh darajasini ham “Hayrat ul-abror” da quyidagicha keltirb o‘tadi:

Qasrda **besh rahba** muhayyo anga,
Bo‘lg‘ali har sori tamoshlo anga

Lek bu besh rahbada **besh korvon**,
Bir-biridek har biri bisyor don.

Har biri bir ravzada topib mahal,
O‘z fanida har-biriga yo‘q badal.

Biri **nazar ilmini** idrok etib,
Ayni safodin nazarin pok etib.

Biriga ish buki **eshitgach** samo‘,
Qilg‘ay ani diqqat ila istimo‘.

Biriga qilmoq bo‘lubon **ta’m** dark,
No‘shi hayot o‘lsun, agar nishi marg.

Biriga har royiha aylab asar,
Xoh quruq nofau, gar mushki tar.

Birga gulu xor muassir bo‘lub,
Sovug‘, isig‘din mutaassir bo‘lub.

Bosirau somiau lomisa,
Zoyiqau shomma bila xomisa.

Ushbu besh hisni ma’naviy yo‘lning bosqichi sifatida taqdim etadi:

Ko‘rish (Basar) – dastlab jismoniy ko‘rishni ifodalaydi so‘ng ruhiy tushunchaga aylanadi. Navoiy qahramon qanday qilib ilohiy haqiqatga moddiy ko‘rinishdan tashqari “ko‘rishni” o‘rganishini ko‘rsatadi.Ushbu o‘zgarishni ko‘rsatish uchun yorug‘lik va zulmat metaforalaridan foydalanadi.

Eshitish (Sam’) – jismoniy tovushlarni tinglashdan boshlanadi. Ilohiy donolikni eshitish uchun rivojlanadi. Belgilar dunyoviy she’riyatni tinglashdan ma’naviy ta’limotlarni tushunishga qadar rivojlanadi. Ilohiy rahbarlikning “jim nutqini” eshitish qobiliyati.

Hid (Shamm) –birinchi bo‘lib jismoniy hid sifatida paydo bo‘ladi. Ruhiy mavjudlikni his qilish qobiliyatiga aylanadi. Navoiy bog‘ metaforalaridan keng foydalanadi

Ta’m – jismoniy ta’mdan boshlab ruhiy holatlarni “tatib ko‘rish” ga aylanadi. Sharob va asal metaforalaridan foydalanadi.

Teginish (Lams) –dastlab jismoniy aloqa,so‘ng ruhiy sezgirlikka aylanadi. Yakunida, ilohiy mavjudlikni “his qilish” qobiliyati namoyon bo‘ladi.

“Farhod va Shirin” ilohiy ishqni tadqiq qilishda ishqiy ishq mavzusidan foydalangan holda bizni yuksaklikka olib boradi. Farhod qahramon ruhiy kamolotning besh bosqichidan o‘tadi, ularning har biri turli xil sevgi turiga mos keladi - jismoniy jalb qilishdan sof ruhiy sadoqatgacha.

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma’xazin besh qism qo‘ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Birar harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT. 20 tomlik.8-tom.T.:
“Fan”,1991, -B. 32]

Farhod ruhiy rivojlanishining besh bosqichi "Farhod va Shirin" dostonida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Nafsi ammora (Buyuruvchi nafs) – Farhodning dastlabki holati, jismoniy go‘zallikka, ya’ni Shirinning tashqi husni-jamoliga mahliyo bo‘lish davri, ehtirosli va beixtiyor harakatlar bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda Farhod o‘z tuyg‘ularini boshqara olmaydi.

Nafsi lavvoma (Malomat qiluvchi nafs) – Farhod o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila boshlaydi. Jismoniy ishq va ruhiy muhabbat o‘rtasidagi ichki kurash. Vijdon va o‘z-o‘zini anglash rivojlanadi. O‘z qilmishlarini tanqidiy baholay boshlaydi.

Nafs al-Mulhima (Ilhom beruvchi nafs) – Farhod ma’naviy ilhom ola boshlaydi. Uning muhabbatni jismoniy tortilishdan yuqoriqoq darajaga ko‘tariladi. Donolik va ma’rifat shakllanadi. Ruhiy kamolot sari intilish kuchayadi.

Nafs al-Mutma’inna (Xotirjam nafs) – Farhod ichki osoyishtalikka erishadi. Muhabbat butunlay ruhiy tusga kiradi. Uning harakatlari ilohiy hikmat bilan yo‘g‘riladi. Moddiy dunyo tashvishlari uni bezovta qilmaydi.

Nafs al-Kamila (Komil nafs) – Farhod ruhiy kamolotga erishadi. Ilohiy irodaga to‘liq bo‘ysunish. Insoniy va ilohiy muhabbatning mukammal uyg‘unligi. Ma’naviy yuksaklikka erishish.

Navoiy Farhodning bu besh bosqichli ruhiy rivojlanishini asarda turli voqealar, sinovlar va ma’naviy izlanishlar orqali ko‘rsatib beradi. Har bir bosqich Farhodning oldingi holatidan yuksakroq darajaga ko‘tarilishini ifodalaydi. Navoiyning nazdida besh hissiyotimiz moddiy va ma’naviy olamlarni tushunish uchun darvoza bo‘lib xizmat qiladi. U o‘z asarlarida ko‘pincha har bir tuyg‘uni sof jismoniy qobiliyatdan ilohiy haqiqatni idrok etish vositasiga aylantirish mumkinligini tasvirlaydi.

“Layli va Majnun” bu izlanishni chuqurlashtirib, yerdagi ehtirosning ma’naviy ehtirosga aylanishini ko‘rsatadi. Hikoya sevgining besh bosqichidan o‘tadi, ularning har biri avvalgisidan ko‘ra nozikroq ifodalanadi.

“Sab’ayi sayyor” yetti qasr, yetti musofir, yetti rang bilan yetti raqamga e’tibor bergandek tuyulishi mumkin, ammo Navoiy har hikoyatda beshta axloqiy saboq tuzib, sonlarning murakkab o‘zaro ta’sirini yaratadi.

“Hayrat ul abror” dostonida payg`ambarimiz Muhammad s.a.v ga bag`ishlab beshta yoziladi. Bu besh na’t “Xamsayi jalila”ga ishora bo‘lib, boshqa payg`ambarlarga berilmagan xislatlar hisoblanadi. Bular:

Javome’ul Kalim – so‘zlarning qisqa va serma’no bo‘lishi, oz so‘z bilan ko‘p ma’no anglatish qobiliyati, hikmatli so‘zlar aytish xususiyati, qisqa iboralar orqali chuqur mazmun ifodalash;

Nusrat bir-ru’b – dushmanlarning bir oylik masofadan qo‘rquv hissi, g‘ayridinlarning musulmonlardan hayiqishi, ma’naviy kuch-qudrat bilan g‘alaba qozonish, ruhiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati;

G‘animatlar halol qilinishi – urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljalarining halol bo‘lishi. Oldingi payg`ambarlarga halol qilinmagan narsalarning halol qilinishi, g‘animat mollaridan foydalanish huquqi, o‘ljalarini taqsimlash tartibi;

Yer yuzining masjid va pokiza qilinishi – Har qanday joyda namoz o‘qish mumkinligi, butun yer yuzining sajda qilish uchun yaroqliligi, tayammum qilish imkoniyati, ibodat uchun maxsus joyning shart emasligi;

Shafoat – qiyomat kunida ummatiga shafoat qilish huquqi, gunohkor mo‘minlarga yordam berish, jannatga kirish uchun vositachilik qilish, ummatiga rahm-shafqat ko‘rsatish;

Bu besh xislat ummatiga ko‘rsatilgan alohida inoyat bo‘lib, mo‘min-musulmonlarga islom dinining yengillik va qulayliklarini ko‘rsatadi.

Navoiy asarlarida **“besh kun”** iborasi ko‘plab uchraydi.

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,

Umrni tutqil g‘animatkim, zamone **besh emas.**

Yuqoridagi baytda “besh kun” va “besh emas” iboralaridagi so‘z o‘yini – **tajnis san’ati** alohida diqqat lab qiladi. Bunda shoir “besh” so‘zining forsiy va turkiy ma’nosini qo‘llagan. Birinchi misradagi “besh” so‘zi “ko‘p, ortiq, ziyod” ma’nolarini ifodalaydi. Ikkinchisi misradagi “besh kun” iborasi Xoja Abdulloh Ansoriyning «Ilahiynoma» asarida quyidagicha izohlanadi:

Birinchi kun “yavm ul-mafqud” – o‘tgan kun, yo‘qotilgan vaqt;

Ikkinchisi “yavm ul-mashhud” – bugungi kun bo‘lib, har bir kishi bu lahzalardan to‘g‘ri foydalana bilish, oxiratga tayyor turishi, nafs bilan kurash olib borib, axloqini tuzatib borishi lozim;

Uchinchi kun “yavm ul-mavrud” - ertangi kun deya atalib, bu kun nasib etish-etmasligi hali nomalum;

To‘rtinchi kun “yavm ul-mav’ud” – va’da qilingan kun;

Beshinchisi “yavm ul-mamdu” – Hisob kuni, Qiyomat kuni;

Xatm anga oyini risolat tamom,
Din aning islomi-yu bas vassalom.

Keldi **beshinchisi** anga yavmul-hisob,
Dema hisob, aytki **yavmul-azob**.

Mu’taqid o‘lmoqli **qiyomat** bo‘lur,
Qilg‘onidin elga nadomat bo‘lur.

Navoiy asarlarida besh raqami sayyoraga ishora sifatida ham qo‘llaniladi.

..Bahrom ko‘rib biyik janobin,
Tashlab qilichin, o‘pub rikobin.

Birjisqa chun etib rikobi,
Ish ang‘a saodat iktisobi.

Soyislig‘iga Zuhal urub fol.
Gaz dastasi bila qo‘lida girbol.

Savru Hamal aylabon fig‘onlar,
Qurban ni aning qilurga jonlar [Alisher Navoiy. “Sab’ayi sayyor”. MAT. 20 tomlik.10-tom.T.: “Fan”,1991, -B. 46].

Ilmi nujumda beshinchisi sayyora bu – Mirrix. Forslarda Bahrom, yunonlarda Mars sayyorasi. Uni urush homiysi hisoblaganlar. Qadimgi ilmi nujumga ko‘ra Bahrom beshinchisi falak sayyorasi bo‘lib, yerdan kichik, to‘rtinchi o‘rinda turadi. Bu baytda shoir Muhammad payg‘ambar Me’rojga ko‘tarilganda, uni ko‘rgan Bahrom qo‘lidan qilichini tashlab, otining rikobi - uzangisini o‘padi, deya ta’riflaydi. Shoir bu voqeanning mushohidlari sayyoralar edi, demoqchi bo‘ladi.

“Besh ganj” iborasi ham Navoiy asarlarining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Ayo gavharim konining gavhari,
Munir axtarim burjinining axtari.

Necha ayji hashmat uza fosh sen,
Manga nisbat ichra qarindoshsen.

Bu **besh ganjdinkim** ushottim tilsim,
Necha gavhar aylay sanga dog‘i qism [Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. MAT.20 tomlik.11-tom.T.: “Fan”,1991, -B.212].

NAVOIY GULSHANI

"Besh ganj" birikmasi besh ma'naviy xazina, besh nodir durga o'xshatish, besh qimmatli boylik, adabiy merosning bebahoh durdonalari sifatida o'z ustozlariga ishora sifatida, "Xamsa" an'anasini ko'rsatishda va ma'naviy merosni ulug'lashda qo'llagan.

Raqamli timsollarning yuqoridagidek murakkab qo'llanishi tufayli Navoiy asarlari nafaqat adabiy manba, balki puxta tuzilgan ma'naviy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Besh raqami ham tizimli tamoyil, ham ramziy kalit bo'lib, o'quvchilarga jismoniy tushunishdan ma'naviy tushunishga yo'lni tanlashda yordam beradi. Shakl va ma'nuning bunday uyg'unligi Navoiyning chuqur falsafiy va ma'naviy haqiqatlarni yetkazishda raqamli timsollardan foydalanish mahoratini ko'rsatadi.

HISTORY

УО‘К 93/94

JAHON URUSHI DAVRIDA BUXORO VA TURKISTONDA GERMAN-TURK TARG‘IBOTCHILIGI

*Orziyev Mahmud Zayniyevich,
Buxoro davlat universiteti arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Boltayev Oxun Obid o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti birinchi bosqich doktoranti*

Annotatsiya. 1907- yilda ingliz-rus kelishuvi sodir bo‘lib, bu Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi aksariyat ziddiyatlarga yechim bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, shu vaqtgacha O‘rta Osiyo masalasida Rossiya va Angliya o‘zaro raqobat qilayotgan bo‘lib, inglizlar ushbu raqobatga O‘rta Osiyo aholisining islom diniga e’tiqod qilishi va Usmonli turk sultonini barcha musulmonlarning xalifasi sifatida tanishlari kabi diniy-ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib, Rossiya imperiyasiga qarshi Usmonli turk sultanati targ‘ibotchilarini, ruhoniylaridan keng josuslik faoliyatlarini yo‘lida unumli foydalanan kelganlar. Bu esa Rossiya imperiyasi va Usmonli turk sultanati o‘rtasidagi ziddiyatlarni ham keskinlashuviga sabab bo‘lganligi tarixiy adabiyotlarda ko‘p bora qayd etilgan. O‘z navbatli Usmonli turk sultanatining ham O‘rta Osiyoga hududiy da‘volari bo‘lib, usmonlilar bayrog‘i ostida barcha turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi mavjud bo‘lgan. 1907-yilgi ingliz-rus shartnomasi ushbu g‘oyani rad etgani bois Usmonli turk sultanati hukmron doiralarining Antanta harbiy blokiga raqib bo‘lgan Germaniya imperiyasi bilan yaqinlashtirgan. Endilikda turk targ‘ibotchilarini Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligi hududlarida asosan german-turk ittifoqi manfaatlari uchun faoliyat olib borganlar. Ayniqsa, oshlanib ketgan birinchi jahon urushi davrida bu targ‘ibot o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetgan. Ushbu maqola birinchi jahon urushi davridagi ana shu faoliyat va uning natijalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: imperialist, ziddiyat, targ‘ibotchi, antanta, jahon urushi, ittifoq, qo‘llab-quvvatlash, “Panturkchi”, “Panislomchi”, xalifa, missiya, gazeta.

ГЕРМАНО-ТУРЕЦКАЯ ПРОПАГАНДА В БУХАРЕ И ТУРКЕСТАНЕ ВО ВРЕМЯ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. В 1907 году было заключено англо-русское соглашение, которое послужило решением большинства противоречий между Российской и Британской империями. В частности, до этого времени Россия и Англия соперничали по вопросу Центральной Азии. Англичане эффективно использовали в своей широкой шпионской деятельности пропагандистов и духовенство Османской империи против Российской империи, опираясь на такие религиозно-духовные ценности, как приверженность населения Центральной Азии исламу и признание османского султана халифом всех мусульман. В исторической литературе неоднократно отмечалось, что это привело к обострению противоречий между Российской и Османской империями. В свою очередь, Османская империя также имела территориальные претензии на Среднюю Азию, и существовала идея объединения всех тюркских народов под османским флагом. Поскольку англо-русский договор 1907 года отвергал эту идею, правящие круги Османской империи сблизились с Германской империей, которая была соперником военного блока Антанты. Теперь турецкие пропагандисты действовали в основном в интересах германо-турецкого союза на территории Туркестанского генерал-губернаторства и Бухарского эмирата. Эта пропаганда достигла своего апогея, особенно в период Первой мировой войны. Данная статья посвящена этой деятельности и её результатам в период Первой мировой войны.

Ключевые слова: империалист, противоречие, пропагандист, Антанта, мировая война, союз, поддержка, “пантюркист”, “панисламист”, халиф, миссия, газета.

GERMAN-TURKISH PROPAGANDA IN BUKHARA AND TURKESTAN DURING WORLD WAR I

Abstract. In 1907, the Anglo-Russian Agreement took place, which served as a solution to most conflicts between the Russian and British empires. Particularly, until that time, Russia and England had been competing over the Central Asian issue. The British, leveraging religious and spiritual values such as

HISTORY

the Central Asian population's adherence to Islam and their recognition of the Ottoman Turkish sultan as the caliph of all Muslims, had effectively utilized the propagandists and clergy of the Ottoman Turkish Empire against the Russian Empire in their extensive espionage activities. Historical literature has repeatedly noted that this led to an exacerbation of contradictions between the Russian Empire and the Ottoman Turkish Empire. In turn, the Ottoman Turkish Empire also had territorial claims to Central Asia, and there existed an idea of uniting all Turkic peoples under the Ottoman flag. The Anglo-Russian Treaty of 1907 rejected this idea, which brought the ruling circles of the Ottoman Turkish Empire closer to the German Empire, a rival of the Entente military bloc. Subsequently, Turkish propagandists primarily worked in the interests of the German-Turkish alliance in the territories of the Turkestan Governor-Generalship and the Bukhara Emirate. This propaganda reached its culmination, especially during the intensified First World War. This article is dedicated to these activities and their results during the First World War.

Keywords: imperialist, conflict, propagandist, Entente, world war, alliance, support, “Pan-Turkist”, “Pan-Islamist”, caliph, mission, newspaper.

Kirish. Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligi hududi aholisining asosiy qismi islom diniga e’tiqod qilib, Usmonli turk sultonini o‘zlarining xalifalari sifatida bilganlar. Bu esa dastlab Angliya, keyin Germaniya tomonidan Usmonli Turk sultanati bilan hamkorlikda Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda foydalanish imkonini bergen. Birinchi jahon urushi davrida German-Turk ittifoqi o‘z manfaatlari yo‘lida Turkiston o‘lkasi va Buxoroda o‘z targ‘ibotchilari orqali yangi urush o‘choqlarini vujudga keltirishga harakat qilganlar. Quyida ushbu holatlarga imkon qadar to‘xtalib o‘tiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tanlangan mavzuni mazmunan yoritishda turli manba va adabiyotlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida O‘zbekiston milliy arxivi fondlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ushbu arxivning I. 1-fond, Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi, I. 3-fond, Buxoro amirligidagi Rossiya siyosiy agentligi, I. 126-fond, Buxoro amirligi Qushbegisi boshqarmasi, I. 461-fond, Turkiston rayon qo‘riqlash va muhofaza bo‘limidagi hujjatlar mavzuning manbashunoslik qismini tashkil etadi. Shuningdek, mavzuni tarixshunoslik qismida 1916-yilgi mardikorlikka olishga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon tarixiga bag‘ishlangan T.V. Kotyukov tahriri ostida chop etilgan monografiya, Z.D. Kostelskayaning 1965-1917-yillarda Turkiston tarixiga bag‘ishlangan asarida, Afg‘onshunos olimlar V.M. Masson va V.A. Romodinlarning ikki tomdan iborat Afg‘oniston tarixi asaridagi, I. Gilyazovning Germaniya va Rossiya imperiyasi musulmonlari dunyo urushlari davridagi aloqalari tarixiga bag‘ishlangan maqolasidagi va boshqa asar, maqolalardagi ma’lumotlar tashkil etgan. Ammo, bu mavzuning Rossiya imperiyasi va sobiq SSSR davriga oid tarixiy tadqiqodlar bo‘lib, ushbu mavzuni mustaqillik yillaridagi tarixshunosligiga asosan Z.Rahmonqulova va M.Z. Orziyevning tadqiqodlaridagi ma’lumotlardan keng foydalanildi.

Natija va mulohazalar. Imperialist davlatlarning o‘zaro ziddiyatlari natijasida boshlanib ketgan birinchi jahon urushi va unda musulmonlar homysi va xalifasi hisoblangan Usmonli turk davlatining Germaniya tomonidan turib ishtirok etishi, Sharq musulmon xalqlarining katta qismidagi xalqlar, davlatlarning diniy his-tuyg‘ularini junbushga keltirgan. Ko‘pgina davlatlarda Germaniya va Usmonli turk davlatlarini qo‘llab-quvvatlash, Antanta (Anliya, Fransiya, Rossiya)ga qarshi targ‘ibot uchun tashkilot va guruhlarning tuzilishi, turklarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga oid ishlar amalga oshirila boshlangan. Rossiya imperiyasiga yarim qaram davlat bo‘lgan Buxoro amirligida ham Usmonli turk davlatini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash holatlari sodir bo‘lgangan. Bu hol ayniqsa, Sharqiy Buxoro bekliklari aholisi orasida Rossiya harbiy qudratni haqida tasavvurlar yetarli bo‘limganligi sababli kengroq yoyilgan. Jumladan, Baljuvon bekligida Bolqon urushi davridayoq Usmonli turk davlati harbiylari uchun iona pullar to‘plab jo‘natilgan bo‘lsada, 1914-yil birinchi jahon urushi boshlangan vaqtida, Baljuvon begi Jahongirbek 1914-yil boshida usmoniyalar havo flotini qo‘llab-quvvatlash uchun 15 ming rubl miqdoridagi pul mablag‘ni Saidzoda ismli shaxs orqali Istanbulga jo‘natganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan[8. 104]. Bek ya’ni rasmiy amaldor tomonidan bu kabi qo‘llab-quvvatlash aslida kichik bir beklikning o‘z hukumdorga bo‘ysunmaganligini ko‘rsatib beradi.

Buxoro amirligi hududidagi bekliklarning yetakchilari goh oshkora, goh yashirinchcha Usmonli turk harbiylarini qo‘llab-quvvatlash, kerak bo‘lsa qurolli qo‘zg‘olon orqali dindoshlariga yordam berishga harakat qilganliklari xususida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Masalan, G‘uzor bekligi birinchi jahon urushida German-Turk ittifoqiga xayrixoh bo‘libgina qolmay, Rossiya imperiyasi ayg‘oqchilik idorasini ma’lumotlarida Rossiya imperiyasiga qarshi 1914-yilda qo‘zg‘olon ko‘tarishga tayyorgarlik ko‘rilganligiga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Bek o‘ziga bo‘ysunuvchi qo‘shinlardan tashqari ruslarga dushmanona kayfiyatda bo‘lgan aholini ham qurollantira boshlagan. Qurollanish uchun asosan Afg‘oniston orqali yashirin ravishda qurol-yarog‘lar olib keltingan. Bundan tashqari, Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasidagi “Panturkchi” va “Panislomchilar” bilan bir vaqtida qo‘zg‘olon ko‘tarish uchun muzokaralar olib borayotgani, bekning yaqin

HISTORY

kishisi mullo Abdulloni Afg'onistonga o'zaro hamkorlikda kurashish masalalarini kelishib olish uchun yuborgani, yashirin politsiya agenturasi tomonidan aniqlangan. Birinchi jahon urushi davrida amirlikning Rossiya imperiyasiga iqtisodiy qaramligi ortib borayotgan bo'lib, Buxoro amiri Rossiya imperiyasi harbiyalariga moddiy xayriyalar qilib turgangan bir vaqtda amirlikda yetishtirilgan paxta, qorako'lteri, quruq meva va boshqa xom-ashyo mahsulotlari eksporti pasayib, aholining turmush sharoiti og'irlasha borgan. Bu esa, o'z navbatida aholining mavjud tartiblaridan va rus siyosatidan noroziligi kuchayib, Usmonli turkiyani moddiy qo'llab-quvvatlash harakatlari uchun qulay imkoniyat yaratgan deb, xulosa qilishga arxiv manbalari imkon beradi[13]. Og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan Usmonli turk davlati targ'ibotchilarini unumli foydalangan deb xulosa qilish mumkin.

"Turkiston qo'riqlash bo'limi" ("Oxranka") vakillari to'plagan hujjatlarida, G'uzor bekligida bir yil oldin (1913 y) o'q otar qurollar zahirasi vujudga keltiraboshlangani, qurollarning bir qismi bekning qal'asida, bir qismi esa, beklilikning markazidagi madrasada saqlanayotganligi, Afg'oniston, Buxoro va rus Turkistonidagi "Panislomchilar" bilan bir vaqtda qo'zg'olon ko'tarish xususida yozishmalar olib borayotganligi, 20 mart (1914-yil) atrofida mullo Abdulloni Afg'oniston amiri huzuriga birgalikda kurash olib borish masalasini kelishish uchun yuborgani[14], bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilganligini ko'rish mumkin. Bu vaziyatda Rossiya imperiyasining maxfiy xizmati o'ta anqlik bilan ishlagan bo'lib, bo'lajak qo'zg'olon yo'lboshchilarini, uning ishtirokchilarini, Turkistonning turli burchaklarida yashovchi va bir vaqtda qo'zg'olon ko'tarish sanasini turli hududlarga olib boruvchi yigirma nafar shaxsnинг ism-sharifi, mansabi, vazifasi, qo'zg'olonga qay darajada daxldorligini birma-bir sanab o'tgan[7. 19]. Ushbu shaxslarning hujjatlarda ism-shariflari keltirilgan bo'lib, ular: Mullo Qambar-zakotchi yordamchisi, Mirzo Sharif hoji Muhammad Sharif-devonbegi kotibi, Farroshboshi-xizmatchilarining oziq-ovqatlari, oshxona ta'minoti boshlig'i, Mulla Abdusamad-rasman mullobachcha, Mulla Abdulla-madrasai Kalonning bosh mudarrisi, Mulla Ziyod-Mulla Abdullaning yordamchisi, shogirdi, Abdusamadbek jebachi (bizdagi (ruslardagi) praporshik lavozimiga to'g'ri keladi), Mulla Maulyak – do'kondor, Mirgyand – mansab. Qurol ombori va ov boshlig'i, ozroq ruscha bilishi keltirilgan. Shuningdek, Shoto'ra oqsoqol, Mirzoqobil-Shohimardonning kotibi, Said Usmonxon-O'shlik mullabachcha, Ahmadjon hoji-Said Usmonxonning hamrohi o'shlik, Muhammad Solih-toshkentlik oynachi, Qatorterak mahallasi Shayhontahur dahasida yashaydi tarzida keltirib o'tilgan[15]. Ushbu shaxslar bo'lajak qo'zg'olonda hal qiluvchi rolni o'ynashi kerak bo'lgan.

Usmonli turk davlatiga moyillik va Germanofil manfaatlarga aholi kayfiyatini moslashtirishda Afg'onistonda chop etiladigan va Buxoro amirligi hududlarida keng tarqalgan "Sirojal-Axbor" gazetasining ham o'rni va roli beqiyos bo'lgan. Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligi hududlariga kirib kelishi taqiqlangan ushbu gazeta asosan nolegal tarzda tarqatilgan. Yangi Buxoroda joylashgan Rossiya siyosiy agentligi "Siroj al-Axbor" gazetasining qo'lga tushgan sonlarini o'zlariga tezda yuborilishini talab qilib turganlar. "Ta'qiqlanishiga qaramasdan Buxoroga kirib kelayotgan "Siroj ul axborni" yangi sonlarini agentlikka yuborib turish sharti buzilyapti, uni o'z vaqtida yuborish talab qilinadi[11; 12]" – deyiladi, arxiv manbalarining birida. Ikkinci bir joyda esa: "Germanofil yo'naliishdagi "Siroj ul al - axbor Afg'onija" Buxoroga kirib kelishi ta'qiqlangan. Siyosiy ayg'oqchilik va Turkiston rayon qo'riqlash bo'limi (TRQB) nazorati kuchaytirilsin[6. 73]" – tarzida buyruq berilganligini ko'rish mumkin. ushbu fikrlar orqali German-Turk targ'ibotini maksimal darajada kamaytirish masalasi ko'rilgan deb xulosa qilish mumkin.

Buxoro amirligining Karki, Chorjo'y, Baljuvon, G'uzor va boshqa bir qator markazdan uzoqroq bekliliklarda German-Turk blokiga xayrixohlik bir qadar kuchliroqligini tarixiy adabiyotlar tasdiqlaydi. Hali birinchi jahon urushi boshlanmasidan oldinoq German-Turk ittifoqi diplomatik va harbiy razvedka jihatdan Eron va Avg'oniston orqali O'rta Osiyo, birinchi galda Buxoro amirligi hududiga bostirib kirish imkoniyatlarini o'rgana boshlagan[9. 49]. Ushbu o'rganishlarning mantiqiy yakuni sifatida, Usmonli turk davlatining musulmonlar yetakchiligidagi va sultonning xalifa maqomiga umid bog'lab, German-Turk ittifoqi Avg'onistonga Oskar fon Nidermayer boshchiligidagi elchilik missiya tashkil qilganligi va aslida bu amaliy harakatlarning boshlanganligini anglatgan. Ammo, German-Turk missiyasining Avg'onistoni jahon urushga tortish va bu orqali Buxoro amirligida Rossiya imperiyasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish borasidagi rejasি borasidagi urinishlari amaliy natijaga bermaganligi sababli German-Turk missiyasi ortga qaytib ketishga majbur bo'lgan. O.Nidermayer boshchiligidagi sakson kishidan iborat elchilikning Kobuldan ortga qaytishi 1915 yilning 22 may kuniga to'g'ri kelgan[5. 355]. Bu German-Turk blokining Buxoro amirligi orqali Rossiya imperiyasiga zarba berishga urinishining diplomatik va strategik nuqtai-nazardan mag'lubiyatini anglatgan. Buxoro amirligini Rossiya imperiyasiga qarshi urushga tortish, Rossiya imperiyasining ma'lum bir qism harbiy kuchlarini O'rta Osiyoga tortish maqsadi yo'lida German-Turk ittifoqi yana bir missiya jo'natgan bo'lib, bu missiya ham 1915 yilda Buxoro shahriga kelgan. Bu missiya tarkibida Buxoro amiri Olimxonning usmonli turk saltanatida muhoyirlikda yashayotgan amakisi ham bo'lgan. Bu elchilik 1915 yilning yanvar oyida Buxoro shahriga Xitoy orqali kirib kelgan. Amirning amakisi Buxoroda besh ming

HISTORY

kishidan ortiqroq musulmonlar namoz o'qish uchun yig'ilgan masjidda Usmonli turk sultanatining jahon urushidagi g'alabasi uchun duo qilgan. Ma'ruza va duodan ta'sirlangan aholi shu yerning o'zida Usmonli Turk sultanatining harbiy ehtiyojlari uchun 3000 rubl xayriya yig'ishgan. Shuningdek, Usmonli Turk sultanati g'alabasi uchun xayriya mablag'lari yig'ish ishlari ham boshlanib ketgan bo'lib, unga eski shaharda temir savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogrlar Musaboy, Abdu Alamboyev, Kamoljon boy Xo'ja va Yo'ldoshboy Hoshimovlar jonbozlik ko'rsatganliklari tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[8, 106]. Rossiya imperiyasi Turkiston qo'riqlash bo'limi bu ma'lumotlarni Turkiston general-gubernatorligiga muntazam yetkazib turgan.

Avg'onistonni Buxoro amirligi bilan birgalikda urushga tortish maqsadida kelgan Oskar Nidermayer missiyasi vakillarining ham anchaginasi ta'qib qilingan vaqtida qo'lga olinib, Rossiya ma'murlari tomonidan so'roq qilinganlar. Jumladan, missiyada ishtirok etgan va qo'lga olingan Usmonli turk fuqarosi Ahmadbey Ansor 1915-yil 2-noyabrda Ashxabot rotminstri baron fon Firks tomonidan so'roq qilingan. So'roq vaqtida, Ahmadbey Ansor 32 yoshda ekanligi, Istambulda yashashi, urushga bormaslik uchun o'z hukumatiga urush solig'ini to'lagan bo'lsada, uni chaqirib olib 18 nemis ofitseri bilan birga Eron, Afg'on hududlariga majbur yuborilganligi, Kermoshohda 4 avstriyalik va 12 nemis, shuningdek, vrach hamrohligida Afg'onistonga yo'l olganlari, ularning yo'nalishi Tehron-Davlatobod-Isfaxon-Topas orqali amalga oshirilganligi va shu yerda rus kazaklari tomonidan qo'lga olingani, Avg'onistonga nima maqsadda ketayotganligini bilmasligini bayon qilgan. Uning so'roq vaqtida bergen ma'lumotlarida, missiya vakillarini Eronning Davlatobod shahrida fors hukumati vakillari kutib olib ikki kun mehmon qilgani keltirilgan. Missiya yetakchilari fors hukumati vakillari bilan o'zaro nemischa gaplashganliklari sababli u gap nima haqida borganligini bilmasligi, shu paytgacha ruslarga qarshi kurashmaganligini ma'lum qilgan[16]. Ehtimol, Nidermayer elchiligining asl maqsadini missiyaning oddiy a'zolari bilmagan ham bo'lishi mumkin deb xulosa qilish mumkin.

Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligida German-Turk targ'iboti ayrim yo'nalishlarda o'z maqsadiga ham erishdan deb xulosa qilish mumkin. Urush natijasida kelib chiqqan iqtisodiy qiyinchiliklar va undan norozi aholini o'z manfaatlari yo'lida foydalanish yo'nalishida Usmonli turk targ'ibotchilari ko'zlangan maqsadlarining bir qismiga erishganliklarini ko'rsatadi. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali, birinchi jahon urushi davrida Rossiya imperiyasi iqtisodiy jihatdan qiyinchiliklarga duch kelganligini ko'rish mumkin. Aholining xarid quvvati pasayib, 1915-yilda paxtaga belgilangan narx uni yetishtirishga ketgan xarajatni qoplamay qo'ygan. Natijada, Turkiston va Buxoro amirligidagi kam yerli dehqonlarning xonavayron bo'lishi tezlashgan. Shuningdek, birinchi galdeg'i mahsulotlar, oziq-ovqatga narxlarning oshib ketganligi vaziyatni yanada og'irlashtirgan. 1916 yil bir fut (0, 300 gr) un narxi 1915 yilga nisbatan 300 %, guruch 200 %, shakar 250 %, matolar va oyoq kiyimi 200-300 % ga oshgan[3, 88-89]. Bu yuqorida keltirilgan masalaning moddiy tomoni bo'lib, German-Turk blokining Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligida olib borgan targ'ibot ishlari masalaning ma'naviy-ruhiy tomonini tashkil etadi. Iqtisodiy ahvolning og'irligi, frontdag'i vaziyat, urushning cho'zilib ketganligi, Rossiya imperiyasiga qarshi targ'ibot ishlarining avj olganligi inqilobiy vaziyatni vujudga keltirgan. Birgina harakat, 1916 yilda Turkiston o'lkasida boshlangan mardikorlikka olish butun o'lkada norozilik va qurolli kurashni keltirib chiqargan. Tarixiy adabiyotlarda ushbu qo'zg'oltonni Usmonli turk maxsus xizmatlarining tashkil etganligiga oid fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan[2, 197]. Bu esa yuqorida keltirgan fikr-mulohazalarimizni tasdiqlashga xizmat qiladi. V.P. Litvinov tadqiqodlarida, mardikorlikka olishga qarshi 1916 yil ko'tarilgan qo'zg'olon rahbarlarining katta qismini tashkil etuvchilar diniy ulamolar ekanligi, ularning haj ziyoratidan qaytib kelishi norozilikni kuchaytirib, qo'zg'olon boshlanishi va ularni qo'zg'olonga bosh bo'lganligi, ularning turk-german maxsus idoralari bilan aloqada deb hisoblashga asos bo'ladi degan fikr-mulohazalar mavjudligi[4, 188] bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Buxoro amirligida mardikorlikka olish masalasi xususida eshitgan aholining ham garchi, garchi mardikorlikka olish Buxoro amirligi aholisiga taalluqli bo'lmaseda, kuchli norozilikni keltirib chiqargan. Buxoro amirligidagi siyosiy agentlik rahbari Shulga o'z rahbarlariga yuborgan 1916-yil 318-raqamli telegrammasida mardikorlikka olish Buxoro amirligida yashovchi oddiy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'layotganligi xususida o'z rahbarlarini ogohlantirgan[1, 82]. Ushbu fakt 1916-yilgi mardikorlikka olishga qarshi qo'zg'olonga Buxoro amirligi aholisi ham qo'shilib ketish xavfi yuqori ekanligini ko'rsatib beradi.

Yuqorida keltirilgan mardikorlikka qarshi qo'zg'olon rahbarlarining german-turk maxsus idoralari bilan bog'liqligi xususidagi fikr-mulohazalarni sobiq sovet davlati tarixiy adabiyotlari va bugungi kundagi O'rta Osiyo tarixchilari asoslanmagan fakt sifatida qabul qiladilar. Jumladan, tadqiqotchi A.Saliyev fikricha, birinchi jahon urushi davrida Turkiston o'lkasiga Usmonli turk emissarlarining kelishi kuchayadi, diniy va milliy birlik g'oyalari keng tarqaladi. Ammo, 1916-yil qo'zg'oloni turklar tashkil etganligi u qadar ishonchli emasligi bilan bog'liq fikrlarni keltirgan[10, 30]. Haqiqatdan ham keltirilgan ma'lumotlarni

HISTORY

asoslaydigan fatk va dalillar yetarli emas. Chunki, ushbu fikrlarni tasdiqlashi mumkin bo‘lgan va asosan Rossiya imperiyasining musulmon o‘lkalarida Usmonli turk sultanati manfaatlarini himoya qilib faoliyat olib borgan Usmonli turk davlati maxfiy tashkiloti “Tashkiloti maxsus” hujjatlarining Mustafo Kamol Otaturk tomonidan yoqib yuborilishi Buxoroda va Turkistonda faoliyat olib borgan Usmonli maxsus agentlari haqida ma’lumotlarni yo‘qotilishiga sabab bo‘lgan. Usmonli turk sultanati tomonidan Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligiga yuborilgan emissarlar, ular yozgan xotiralari xususiy shaxslar qo‘lida ekanligi sababli, ularni ishonchlik darajasi ancha pastligini ham nazardan qochirmaslik kerak. E’lon qilingan me’muarlardan birida, Usmonli turk davlatining O‘rta Osiyo va Buxoroga yuborilgan vakillari nomi va ularning 1916 yilgi qo‘zg‘olonga aloqasi masalasi ko‘rsatilgan bo‘lib, me’muar “Besh turk Osiyoda” nomi ostida chop etilgan [1. 73]. Asarda, aynan besh turk targ‘ibotchisi Turkistonda 1916-yilgi qo‘zg‘olonga boshchilik qilganligiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Bizningcha, bu ma’lumotlar bir qadar bo‘rttirilgan va asarda ishonchli bo‘lgan bir narsa emissarlarning nomlari bo‘lishi mumkin. Ular, Abdulla Hikmatbey, Hoji Salibey (Salim Sali), Emrulloh Berkabey, Ibrohimbey, Husaynbey kabilardir [1. 418]. Ularning faoliyati qo‘zg‘olon rahbarlariga Usmonli turk sultanatidan olib kelangan moddiy ko‘makni yetkazib berishdan ibort bo‘lgan deb xulosa qilish mumkin. 1917-yil Rossiyadagi inqilobdan so‘ng, Buxoro amirligi hududida German-Turk bloki foydasiga targ‘ibot ishlari pasayib, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Inqilob sinfiy xarakterga ega bo‘lib, milliy, diniy qadriyatlarni yengib, tenglik va kommunistik g‘oyalarni birinchi o‘ringa chiqarganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Birinchi jahon urushi davrida Buxoro amirligida German-Turk bloki foydasiga amalgam shirilgan targ‘ibot ishlari, urush ofatlari, milliy va diniy kamsitilish, kuchli nazorat masalalariga qarmasdan ayrim bekliklarda German-Turk bloki bilan birgalikda Rossiya imperiyasiga qarshi kurash masalasida ma’lum bir amaliy harakatlar bo‘lgan. Bundan tashqari, amirlik hududida German-Turk bloki foydasiga yig‘ilgan moddiy mablag‘lar tez-tez Usmonli turk davlatiga yuborib turilgan. Shuningdek, tashqi davlatlar birinchi galda Avg‘oniston bilan ittifoq tuzish masalalari kun tartibiga qo‘yilgan bo‘lib, mintqa xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanmaganligi, o‘zaro nizolar, kelishmovchiliklarning sabab amalgam oshmay qolgan deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Восстания 1916 г. В Азиатской России: Неизвестное об известном (к 100 – летию высочайшего повеления 25 июня 1916г.): [коллективная монография] / [ред. – сост.: Т.В. Комюкова]. – М.: русский импульс, 2017. - 468 с.
2. Гилязов И. Германия и мусульмане России в двух мировых войнах//ab imperio. 2001, № 4. – С. 194-203.
3. Костельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917). – М.: Наука, 1980. – 117 с.
4. Литвинов В.П. Исторический опыт Российского Государства в организации и регулировании паломничества мусульман Средней Азии (1865-1917 гг)/ дис. на соиск. учён степ. док. ист. наук. – Елец 2019. – 200 с.
5. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана, том II – М.: Наука, 1965. – 550 с.
6. Орзиеv M.3. XIX асрнинг охири – XX асрнинг биринчи чорагида Бухорода босмахона, нашириёт ва матбуот иши // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктор (PhD) унвонини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд. 2020. – 184 б.
7. Орзиеv M.3. XX аср бошларида Россия – Афғонистон ўртасидаги муносабатлар тарихидан // Тамаддун нури. Илмий, ижтимоий-фалсафий, маданий-маърифий, адабий-бадиий журнал. 2020. № 1. – Б. 17-23.
8. Рахмонкулова З. XIX аср охири – XX аср бошларида Ўрта Осиё хонликлари ва усмонли турк империяси ўртасидаги муносабатлар тарихшунослиги/Тарих фанлари бўйича фалсафа докторлик (PhD) диссертациясини олиш бўйича диссертацияси. – Т.: 2020. – 156 б.
9. Ряполов В.В. Германо-Турецкая агенттура в Средней Азии и Афганистана в начале XX века//Вопросы истории. 2007. № 3. – С. 149.
10. Салиев А.А. Противостояние России и Османской империи в Средней Азии в XIX – начале XX вв // Вестник КРСУ. 2017. №4. – С. 27-32.
11. ЎзМА, И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1818-йилема жилд, 145-варақ, 145-варақнинг орқа томони.
12. ЎзМА, И. 126-фонд, 2-рўйхат, 4-йилема жилд, 43-варақ, 43-варақнинг орқа томони.
13. ЎзМА И-3 фонд, 2 – рўйхат, 166 – ҳужжат, 89 – варақ.
14. ЎзМА И – 3 фонд, 2 – рўйхат, 166 – ыйема жилд, 87 – варақнинг орқа томони.
15. ЎзМА И – 3 фонд, 2 – рўйхат, 166 – ыйема жилд, 88 – варақнинг орқа томони.
16. ЎзМА, И-1-фон, 32-рўйхат, 300-йилема жилд, 115-варақ, 115-варақнинг орқа томони.

HISTORY

УО‘К 908.395.902.1

BUXORO AMIRLIGI IQTISODIY HAYOTI MIRZA SALIMBEK TALQINIDA

Qurbanov Murodjon Dehqonboy o‘g‘li,
Navoiy davlat pedagogika instituti, 3-bosqich tayanch doktoranti
qurbanovmurod1995@gmail.com
ORCID ID 0009-0000-2561-0815

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirza Salimbekning "Tarixi Salimi" asarida keltirilgan iqtisodiy holatlar tahlil qilinadi. Asarda Buxoro amirligidagi narx-navolar, oziq-ovqat ta'minoti, soliq tizimi, savdosotiqa va moliyaviy inqirozga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan. Mirza Salimbek XX asr boshidagi iqtisodiy inqirozning sabablarini birinchi jahon urushi va bolsheviklar hukmronligi bilan bog'laydi. Shuningdek, Amir Olimxon davridagi iqtisodiy islohotlar, pul tizimidagi o'zgarishlar va narxlarning keskin oshishi haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Ushbu tadqiqot Mirza Salimbekning bevosita guvohi bo'lgan voqealar va iqtisodiy tafsilotlarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mirza Salimbek, Tarixi Salimi, Buxoro amirligi, iqtisodiy inqiroz, Birinchi jahon urushi, Bolsheviklar, Amir Olimxon, soliq tizimi, pul islohoti, narx-navolar.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МИРЗЫ САЛИМБЕКА

Аннотация. В данной статье анализируются экономические аспекты, представленные в произведении Мирзы Салимбека «Тарихи Салими». В работе приводятся важные сведения о ценах, продовольственном обеспечении, налоговой системе, торговле и финансовом кризисе в Бухарском эмирата. Мирза Салимбек связывает причины экономического кризиса начала ХХ века с Первой мировой войной и господством большевиков. Также представлена важная информация об экономических реформах, изменениях в денежной системе и резком росте цен во время правления Амира Алимхана. Данное исследование направлено на освещение событий и экономических деталей, непосредственным свидетелем которых был Мирза Салимбек.

Ключевые слова: Мирза Салимбек, Тарихи Салими, Бухарский эмирят, экономический кризис, Первая мировая война, большевики, Амир Алимхан, налоговая система, денежная реформа, цены.

ECONOMIC LIFE OF BUKHARA EMIRATE IN THE INTERPRETATION OF MIRZA SALIMBEK

Abstract. This article analyzes the economic conditions described in Mirza Salimbek's work «Tarixi Salimi». The work provides important information on prices, food supply, the tax system, trade, and the financial crisis in the Bukhara Emirate. Mirza Salimbek attributes the causes of the economic crisis at the beginning of the 20th century to the First World War and Bolshevik rule. It also contains significant details about economic reforms during the reign of Amir Olimxon, changes in the monetary system, and a sharp increase in prices. This research aims to illuminate the events and economic particulars that Mirza Salimbek witnessed firsthand.

Keywords: Mirza Salimbek, Tarixi Salimi, Bukhara Emirate, economic crisis, First World War, Bolsheviks, Amir Olimxon, tax system, monetary reform, prices.

Kirish. Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850—1930) — Buxoro amirligi va Buxoro respublikasida yashagan tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat. Mirza Salimbek Buxoro amirligining ko‘pgina tumanlari va bekliklari hokimi bo‘lgan, amirlarning diplomatik missiyalarini bajargan, inglizlar bilan muzokaralarda ham qatnashgan. RSFSR qo‘sishinlarining 1920-yilgi Buxoro operatsiyasidan so‘ng hibsga olinib, bir yildan so‘ng ozodlikka chiqdi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qoshida ma’mur bo‘lib ishladi, tarixiy tadqiqotlarda qatnashdi, eski kitoblar kutubxonasiga rahbarlik qildi. Mirza Salimbek o‘z xotiralarida Buxoro amirligi tarixi, bekliklardagi ahvol, hududlarning tarixiy geografiyasi shuningdek, Buxoro amirligida jadidlar faoliyatini tasvirlaydi [Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mirza Salimbekning ilmiy faoliyati, tarixiylik, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida tarixiy voqealar, xususan Buxoro amirligi tarixi ham alohida o‘rinni egallaydi. Bu

HISTORY

mavzu doirasi keng va dolzarb bo‘lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarda yurtimizda nashr qilingan ishlar;
3. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Natijalar va muhokama. Mirza Salimbek o‘zining “Tarixi Salimi” asarida nafaqat Buxoro amirligining siyosiy voqealarini balki ko‘pgina iqtisodiy hayot bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltiradi. Ushbu ma’lumotlar bizga amirlik davrida mahalliy aholining iqtisodiy ahvoli haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lishimizga yordam beradi. Biz asosan ushbu maqlolada Mirza Salimbek bevosita o‘zi guvoh bo‘lgan holatda qayd qilgan ma’lumotlardan foydalandik. Mirza Salimbek Buxoro amirlarining eng sodiq mulozimlaridan biri bo‘lganligini hisobga olib, u keltirgan ma’lumotlarda noxolislikka yo‘l qo‘yilishi ehtimolini ham hisobga olish zarur. Mirza Salimbek iqtisodiy ahvolni 20-30-yillik davr bilan solishtirib, bunda asosan, I jahon urushi oqibatlari va bolsheviklarning hokimiyatga kelishi bilan ular olib borgan iqtisodiy siyosat tufayli yuz bergen iqtisodiy inqiroz bilan bog‘laydi. Xususan, 1894-yil Mirza Salimbek Yakkabog‘bekligi hokimi bo‘lgan davrda oziq-ovqat mahsulotlari arzon bo‘lganligini qayd etadi. O‘sha vaqtida bir mann¹ bug‘doyning narxi 11–12 tanga edi. O‘sha davrda pul zarurligi tufayli Mirza Salimbek 200 mann (taxminan 5120 kg) bug‘doyni 2300 tangaga katta qiyinchilik bilan sotganligi qayd qilgan. Bir ser² qo‘y go‘shti yarim tanga yoki uch miriy edi, qo‘y yog‘ining yarim seri 8–9 tanga baholangan. Boshqa mahsulotlar ham shunga mos edi. Oradan 25 yil o‘tib, Hijriy 1336 yilda (1918-19) bug‘doy narxi hayratlanarli darajada oshib, bir mann bug‘doy 10 ming tangaga yetgan. Ayrim viloyatlarda esa 13–14 ming tangaga yetdi. Bunday yuqori narxlar tarixda hali kuzatilmagan edi. Bir mann guruch 14 ming tanga, qo‘y go‘shtining choragi³ 200 tanga, mol go‘shtining choragi 150 tanga, qo‘y yog‘ining choragi esa 300 tanga edi.

Bu vaqtlar Farg‘ona va Samarcand viloyatlarida ham g‘alla narxları bir mann uchun 20 ming tangaga yetgan edi. Mirza Salimbek hijriy 1311 yilda 200 mann bug‘doyni 2300 tangaga sotgan bo‘lsa, 1336 yilda xuddi shuncha bug‘doyni 15000 tangaga sotib olganligi qayd etgan.dim.

hijriy 628-yilgi bir davrda qish sovuq kelib, bug‘doy hosiliga jiddiy zarar yetgan. Shu sababli Buxoro amirligida narxlar juda qimmatlashdi: bir mann bug‘doy 100 tangaga, bir mann arpa 120 tangaga yetdi. Boshqa barcha oziq-ovqat mahsulotlari ham qimmat bo‘lib ketdi. Shu holatda odamlar vahima va g‘azabga tushdilar.

Mirza Salimbek 1892-yilgi vabo tarqalishi voqealarini ham xotiralarida aks ettirgan bo‘lib, unda vabo kasalligidan himoyalanish, aholi sog‘ligini tiklash haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Tijoratni rivojlantirish maqsadida Qaroko‘l qo‘zisi terisi va katta miqdordagi paxtani Rossiyaga eksport qildi. Savdo orqali olingan daromadni davlat xazinasiga yig‘ib, uni davlat ishlari va kelajak uchun saqlab qo‘ydi. Shuningdek, davlat harbiylari va xizmatkorlarining xarajatlari xazina hisobidan emas, savdo foydasidan ta’minlanardi.

Amir Olimxon 1910-yilda taxtga kelgach, iqtisodiy islohotlar o‘tkazgan.

U davlat amaldorlari va xizmatkorlarini maoshlari va boshqa haq-huquqlarini ko‘paytirdi.

Masalan:

Navkarlar maoshi ikki baravarga oshirildi.

Mirzoboshi maoshi 130 tangadan 300 tangaga ko‘tarildi.

Qarovulbegi maoshi 220 tangadan 600 tangaga yetkazildi.

Miroxur maoshi 300 tangadan 800 tangaga yetkazildi.

To‘qsabo maoshi 350 tangadan 1000 tangaga ko‘tarildi.

Eshik og‘aboshi maoshi 400 tangadan 1200 tangaga yetkazildi.

Amoratpanohlar maoshi 500 tangadan 2000 tangaga yetkazildi.

Bu islohotlar Buxoro davlatining barqarorligini ta’minalash va aholining sadoqatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Hamma navkarlar uchun tanobona va sarupo bir yilda bir marta berilar edi. Amir Olimxon navkarlar uchun tanobona va saruponi bir yilga ikki marta qilib belgiladi. Bundan tashqari, amirlik darajasidagi amaldorlardan tortib qorovulbegigacha bo‘lgan barcha amaldorlarga har yili bitta ot sovg‘a qilinardi.

Nizomiy askarlarning oyligi Amir Abdulohadxon davrida 20 tangadan iborat edi. Amir Olimxon bu oylikni birdaniga uch barobarga oshirib, 60 tanga qilib belgiladi.

¹ 1 mann- taxminan 25,6 kg, turli davrlarda va davlatlarda turlichalbo‘lgan

² 1 ser 3 kgga teng.

³ Qo‘y tanasining $\frac{1}{4}$ qismi.

HISTORY

Xalqdan yig‘iladigan soliqlar ham qisqartirildi. Bir man (o‘lchov birligi) uchun soliq 10 tangaga kamaytirildi va kelgusi yilning soliqlari yarmiga qisqartirildi. Bog‘lardan olinadigan soliq, avval 200-400 tanga bo‘lgan bo‘lsa, 30 tangaga tushirilgan.

Hijriy 1332 yilda (milodiy 1914 yilda) I jahon urushi boshlandi va Rossiya qog‘oz pulining qadri pasayishni boshladidi. Kun sayin uning qiymati tushib borar, Fransiya va Rossiyadan kelayotgan tovarlar kamayib, ularning narxlari esa oshib borardi.

Rossiya qog‘oz pullari qadrsizlanishni boshlagach, odamlar ularni yig‘ib olib, har bir qog‘oz pullarni tangalarga ayirboshlashgan. Odamlarning qo‘lida bo‘lgan oltin va kumush tangalar qog‘oz pullarning qadrsizlanishini ko‘rib, yashirilgan va ishlatilmagan.

Amir xalqni pul ta‘minlash uchun yangi zarbxonalarda ikki misqollik mis tangalarni zARB qildirib chiqardi. Ammo bu ham tezda kamayib ketdi. Keyinroq yangi maslahatlardan so‘ng, toza misdan har biri 4 miqsollik tangalar chiqarildi. Ular ham qisqa vaqt ichida tarqatilib, yana yo‘qoldi. Keyinchalik 8 misqollik toza mis tangalar chiqarilib, bu odamlar orasida ko‘proq aylanadi, deb o‘ylashdi. Ammo I jahon urushi sababli bu tangalar ham yo‘qoldi.

Odamlar kichik xarajatlar uchun tangalar yo‘qligi sababli qiyinchilikka duch kelib, muammolarga uchrashdi. Misning narxi keskin oshdi: ilgari bir pud mis 60 tangaga teng bo‘lsa, endi u 600 tangaga chiqdi. Amir xalqning qiyinchiliklarini inobatga olib, hijriy 1335 yilda (milodiy 1917/1918 yilda) misni yangi tangalar sifatida zARB qilishga buyruq berdi. Misning vazniga qarab tangalar belgilandi: yarim misqol mis bir tanga, bir misqol mis ikki tanga, bir yarim misqol uch tanga, ikki misqol to‘rt tanga, va ikki yarim misqol mis esa besh tanga qilib baholandi.

Bu yangi tangalar odamlarga tarqatildi. Balki oddiy qog‘oz pullar yanada qadrsizlanishi mumkinligi sababli, bu tangalar qog‘oz pullardan ko‘ra qadrlidir, deb qabul qilinishi mumkin edi. Shunday qilib, besh xil mis tangalar amirning zarbxonasi nomi bilan chiqarilib, odamlarga foydali va qadrlidir, deb tarqatildi.

Buxoroning kumush tangasi, avval Rossiya tomonidan 15 tiyin qilib belgilangan edi, 1918-yilda esaushbu tanga har biri 10 oddiy tiyin qiymatida qabul qilinadi. Bu tangalar faqat pul almashtiruvchi sarroflar qo‘lida to‘planib qolgan bo‘lgan.

Rossiyadan kelayotgan barcha tovarlarning narxi qimmatlashgan edi. Masalan, bir metr oddiy astar mato ilgari Buxoroda 40 rus tangasi bo‘lgan bo‘lsa, urushdan keyin toza astar matolarining ba‘zilari 100 tangaga chiqqan. Bir metr ip ilgari bir so‘m edi, endilikda 100 so‘mga chiqdi. Yarimta qand yoki shakar avval ikki Buxoro tangasi edi, endilikda u 100 rus tangasi bo‘lib qolgan edi.

Rossiyadan kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa narsalar qahatchilik tufayli bozorlarda deyarli topilmas edi. Mahalliy bozorlarning narxlari ham qimmatlashgan: ilgari 40-50 tangalik bug‘doy 12 ming qog‘oz tangaga ko‘tarilgan. Bozorda bug‘doy topilmay qolgan, savdo faqat chorak birliklarda olib borilar edi. Odamlar hayratda qolib, iztirobda qoldi: bir chorak go‘sht 200 tanga, bir chorak sof yog‘ 25 so‘m, bir chorak guruch 40 so‘m, bir chorak piyoz 15 so‘m edi. Bir qop sabzi 25 so‘m, bir tuyaga yegulik 60 so‘m, 100 bog‘ beda 120 so‘mga yetdi. Bir dona non 20 tanga, bir choy paketi 250 tanga bo‘lib ketdi. “Besh asrdan beri bunday qahatchilik va qimmat narxlarni hech kim ko‘rmagan va eshitmagan edi”- deb yozadi Mirza Salimbek.

Uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyim-kechaklar topilmas edi. Bir atlas ko‘ylak 1000 tanga, bir oddiy katonniy ko‘ylak 1500 tanga, Qarshi viloyatining maxsus astar matosidan tikilgan ko‘ylak 2000 tanga, bir oddiy paxtali mato ko‘ylak 600 tanga bo‘lib ketdi. Urushdan oldin bunday kiyimlar 10-80 tangaga baholangan edi. Bir dona qovunning 40 tangaga ko‘tarilganini Mirza Salimbek hayrat bilan eslaydi.

Bu og‘ir davrda hijriy 1335 yilda (milodiy 1917/1918 yilda) Buxoroning ko‘p aholisi uchun qattiq qiyinchiliklarni olib keldi. Mirza Salimbek bu voqealarni she’rga soladi:

Ду ҳазору сесад ҳам сио панч,
Мардумон буданд дар гирдоби ранч.
Қимату қаҳтй чунон зўр оварид,
Чумла хешон аз дигар хешй бурид.
На падарро шуд мухаббат бо писар,
На писар медошт парво аз писар.
Талхкомй буд дар байни анос,
Духтарон бо модарон шуд носипас.
Мардумони дашт маъмун лоилоч,
Дар ба дар гаштанд аз баҳри илоч.
Аксарй фарзанди худ бифрӯхтанд,
Базри қимат чашми худро дўхтанд.
Ma’nos:

HISTORY

Ikki ming uch yuz o'ttiz besh,
Odamlar qoldi azob ichra besh.
Qimmat va qahatchilik shunchalar zo'r,
Har kim o'z yaqinidan uzdi aloqa bir umr.
Ota o'g'liga mehru shafqat qilmadi,
O'g'il ham otasiga parvo qilmadi.
Achchiq alam edi barcha orasida,
Qizlar onalaridan yuz o'girdi hayot izida.
Cho'l xalqi qoldi umidsiz, bechor,
Chorasini topolmay kezdi darbadar.
Ko'plar farzandini sotishga majbur bo'ldi,
Qimmat urug'ga ko'zlarini yummoqga to'ldi.

O'sha davrda qahatchilik va qimmatchilik avjiga chiqqan. Ayrim nochorlar tirik qolish uchun o'z farzandlarini sotishga majbur bo'ldi. Qarshi va Xuzor shaharlarining aholisi har tarafga tarqalib, ularning ko'pchiligi ochlik va qiyinchilikdan halok bo'ldi. Minglab bolalar, ayollar va erkaklar ochlik tufayli azob chekib, har tarafga sarson bo'lib ketishdi.

Farg'ona aholisi uchun hayot juda qiyinlashdi. Hurmatli va obro'li kishilar ham xor bo'ldi. Qo'qonliklarning aksariyati, ayollar va bolalar bilan birga, ochlikdan qochib, non topish umidida Buxoroga kelishdi. Ammo bu bechoralarning ko'pchiligi bu yerdan ham kerakli yordamni topa olmaganligi qayd qilinadi.

Amir Olimxon O'g'lon va Qavola darvozalarida katta qozonlarda ovqat tayyorlashni buyurdi. Har kuni bu yerda bechoralar uchun ovqat tarqatilib, ular ovqatlanishardi va podshohning umri va davlatining davomiyligi uchun duo qilishardi. Odamlar bu yaxshilikdan mamnun edi.

Mirza Salimbek amirlikdagagi amaldorlarning dabdabali to'y marosimlar o'tkazganligini ham qayd qilgan. Xususan, Amir Olimxon 1917-yilda vazir Rahmatulloxo'jabiy xazinachining to'yini o'tkazishga ruxsat beradi. Ushbu to'y bahonasida Buxoro tumanlari va Miyonqolning Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, va Nurato hududlaridan ko'plab otlar va odamlar yig'ilgan. Ular har kuni 30-40 ta echkini so'yib, Sitorai Mohi Xosa qasri atrofida ulkan ziyofatlar uyuştirdilar. Amirning o'zlarini Chorbog' darvozaxonasi ustiga chiqib, sahnani tomosha qilar edi. Har kuni minglab odamlar ushbu tomoshani ko'rish uchun yig'ildilar. Shu tarzda to'qson kun davomida to'y davom etdi. Xazinachining to'yi tugagandan keyin, uning otasi, vazir Nizomiddinxo'jabiy Qo'shbegi ham amirdan ruxsat olib, yana bir to'y uyuştirdi. "Ushbu to'uda hazrat Arkdan Moxi -xossa saroyigacha oltin va kumush tangalar sochildi. Bu marosimda ko'plab odamlar turli xil sovg'alar olib, baxtiyor bo'ldilar va amirni uzoq duo qildilar"-deb yozadi Mirza Salimbek.

Har kuni mamlakatning turli hududlaridan odamlar chaqirilib, ularga oziq-ovqat va ziyofat taqdim etildi. Har kuni 40 dan 100 tagacha echki so'yildi. O'sha davrda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari haddan tashqari yuqori edi : bir echkinining narxi 400 dan 500 tangagacha yetgan edi. O'sha vaqtgagi ocharchilik va narxlarning qimmatligi tarixda kam uchraydigan holatlari edi.

1919- yil Amir Olimxon Buxoro davlatining aholisining farovonligi va savdogarlarining qulayligi uchun yangi qog'oz pul ishlab chiqarish zavodini tashkil etdi. Bu qog'oz pullar Buxoro arkida naqshlar bilan bezatilib tayyorlandi.

Yangi qog'oz pullar sakkiz turda edi: 20 tangalik, 60 tangalik, 100 tangalik, 200 tangalik, 300 tangalik, 500 tangalik, 1000 tangalik va 5000 tangalik. Ushbu pullar Rossiya va G'arb davlatlarining qog'oz pullaridan sifatiroq edi.

Mirza Salimbek o'z asarining so'ngida 1919-yilda mahsulotlar narxini quyidagicha bo'lganligini qayd etadi:

1 man g'alla – 5000 tanga,
 $\frac{1}{4}$ ser go'sht – 700 tanga,
 $\frac{1}{2}$ ser dumba yog'i – 8000 tanga,
 $\frac{1}{2}$ ser sof yog' – 8000 tanga,
 $\frac{1}{2}$ sham – 400 tanga,
 $\frac{1}{2}$ sovun – 300 tanga,
1 pud choy – 70,000–80,000 tanga,
1 olchin sufa yoki chit – 600 tanga,
Oddiy chit – 300–400 tanga,
Qalamiy yoki karbos mato – 1500–2000 tanga,
1 man guruch – 10,000 tanga.

HISTORY

Buxoro amirligi bekliklarida narxlar bundan ham qimmatroq bo‘lib, ayollari va farzandlari bor bechora odamlarga hayot yanada og‘irlashgan edi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mirza Salimning asarlarida o‘scha davr Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, xalqining turmush tarzi va yashash sharoitlari yorqin aks ettirilgan. Salimbek o‘zi guvoh bo‘lgan har bir voqe, hodisadan ibratli xulosalar chiqarib, tafakkur qilishga undaydi.

Amir Olimxon 1910-yilda taxtga kelgach, iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Davlat amaldorlarining maoshlari sezilarli darajada oshirilib, soliqlar qisqartirildi. 1914-yilda I jahon urushi boshlanganidan so‘ng, Rossiya qog‘oz pullari qadrsizlanib, iqtisodiy inqiroz chuqurlashdi. Odamlar tangalar yo‘qligi sababli qiyinchilikka uchradi, shuning uchun Amir mis tangalar zarb qildirib chiqardi.

1917–1918-yillarda qahatchilik va qimmatchilik avj oldi, oziq-ovqat va kiyim-kechak narxlari keskin oshdi. Ko‘plab odamlar ochlikdan halok bo‘ldi. Shunga qaramay, ba’zi amaldorlar dabdabali to‘y marosimlarini o‘tkazishda davom etdilar. 1919-yilda Buxoroda yangi qog‘oz pullar ishlab chiqarildi, ammo iqtisodiy vaziyat yaxshilanmadni. Mirza Salimbek bu davrni she’riy misralarida aks ettirib, xalq boshiga tushgan og‘ir kunlarni tasvirlab bergan.

ADABIYOTLAR:

1. Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо. 2006. № 1.
2. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009. С.424.
3. Qurbanov Murodjon. Mirza Salimbek – Buxoro amirligining so‘nggi tarixchisi. Research on social and humanitarian sciences. Volume: 01/Jan-2023. Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566. B.42-53.
4. Qurbanov Murodjon. “Tarixi Salimi” asari - Buxoro amirligining Chor Rossiyasi tomonidan vassalga aylantilishiga oid muhim manba. // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 3 Issue: 03 / 2023 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314 <http://ihm.iscience.uz/index.php/ijch>. 18th May 2023. - B.56-62.
5. Qurbanov Murodjon. “Tarix Salimi” asarida Amir Muzaffar farzandlari tarjimai holi. 2023 yilning 10 - iyunda o‘tkazilgan "Buxoro tarixi masalalari" mavzusidagi konferensiya materiallari to‘plami. - Buxoro - 2023. B.220-225.

АМИР ТЕМУР ВА МЕТРОЛОГИЯ: АНИҚЛИК КУЧ МАНБАИ СИФАТИДА

Жуманазаров Акмал Рузикулович,

*Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги Бош директори,
техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

*Мамадалиева Наибаҳон Сайдаминовна,
филология фанлари доктори, профессор*

Аннотация. Мақолада буюк давлат арбоби, саркарда ва сиёсатчи Амир Темурнинг ҳаёти ва фаолиятининг ўрганилиши, унинг жанговар санъати ҳақида сўз юритилади.

Шунингдек, Амир Темурнинг давлат бошқаруви ва жанговар санъатида ўлчашилардан фойдаланиши унинг “Темур тузуклари” асари асосида таҳлил қилинади ва аниқ илмий холосалар берилади. Бу билан Амир Темур даврида ҳам метрологиядан фойдаланиши маҳорати кўрсатиб берилган ва ўлчашилар, меърулар барча даврларда долзарб эканлиги очиб берилган.

Калим сўзлар: Амир Темур, тузуклар, дипломатия, жанг майдони, ҳарбий санъат, метрология, ўлчашилар, меъёрлар.

АМИР ТЕМУР И МЕТРОЛОГИЯ: ТОЧНОСТЬ КАК ИСТОЧНИК СИЛЫ

Аннотация. В статье рассматривается изучение жизни и деятельности великого государственного деятеля, полководца и политика Амира Темура, а также его военного искусства.

Кроме того, анализируется использование измерений в государственном управлении и военном искусстве Амира Темура на основе его труда «Уложения Темура», и приводятся конкретные научные выводы. Это демонстрирует мастерство применения метрологии во времена Амира Темура и показывает, что измерения и нормы актуальны во все эпохи.

Ключевые слова: Амир Темур, уложения, дипломатия, поле битвы, военное искусство, метрология, измерения, нормы.

AMIR TEMUR AND METROLOGY: PRECISION AS A SOURCE OF POWER

Abstract. The article discusses the life and work of the great statesman, commander, and politician Amir Temur, as well as his martial arts.

Also, Amir Temur's use of measurements in state administration and martial arts is analyzed based on his work «Temur's Regulations» and precise scientific conclusions are given. This demonstrates the mastery of metrology during the time of Amir Temur and reveals that measurements and standards are relevant in all eras.

Keywords: Amir Temur, tuzuks, diplomacy, battlefield, military art, metrology, measurements, standards.

Кириши. Ўз даврининг буюк давлат арбоби, саркардаси ва сиёсатчиси, бутун Марказий Осиё, Хиндиштон, Эрон, Ироқ, Кавказ ва бошқа худудларни ўз ичига олган катта империяни ташкил этиб, уни самарали бошқарган Амир Темурнинг бошқарув ва ҳарбий санъати тарихда ўзига хос ўрин тутади. Зеро, Амир Темур шахсини англаш – бу тарихни чуқур тушуниш ва унинг моҳиятини ўрганиш демакдир. Унга бокиши орқали биз ўзлигимизни, маънавий ва маданий меросимизни қайта кашф этамиз. Амир Темурни улуғлаш эса халқимизнинг тарихий құдратига ва маданиятига асосланган ҳолда буюк келажакка бўлган ишончимиз ва умидларимизни мустаҳкамлаш демакдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Қашқадарёнинг Кўқдала туманига ташрифида ўтказилган фаоллари билан учрашувда Амир Темур мудофаа мероси ҳақида гапирди. “Озроқ вақтим бўлса китоб ўқийман. Соҳибқирон Амир Темурнинг Тўхтамишхоннинг жанги ҳақида ўқиб чиқдим. Амир Темур бу жангда еттита усулини қўллаган экан. Жасорати, ўз аскарларини мардонавор тарбиялаши билан биргага, жангларни ҳам ўзи бошқарган. Ўзим учун ҳам бу янгилик бўлди. Кейин кимдир шу жанг усулини ўрганишни билан қизиқиб кўрдим. Ҳеч ким ўрганмаган экан. Энг аввало боболаримизнинг усулларини ўрганишимиз керак», — деди Президент ва соҳибқироннинг жанговар меросини чуқур ўрганиш бўйича топшириқ берганини айтди[1].

HISTORY

Унинг шахсияти ҳақида сўз кетганда, Амир Темурнинг давлатчилик ва дипломатия соҳасидаги дунёкараши, ҳарбий стратегияси ва бунёдкорлик қобилияти, шунингдек, илм-фан, санъат ва меъморчиликка бўлган эътиборини таъкидлаш жоиздир. Шу билан бирга, унинг инсонпарварлик гоялари, адолатли бошқарув тамойиллари, кенгаш ва маслаҳат асосида давлатни бошқариш борасидаги тажрибаси, ҳамда халқ манфаатини устувор қўйиш борасидаги ибратли фазилатлари ўта муҳимдир.

Дарҳақиқат, Давлатимизнинг сиёсати ва халқимиз хоҳиш-иродасига асосланган Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 29 декабрда «Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида»ги қарори[9], 1995 йил 26 декабрда эса Биринчи Президентимизнинг «1996 йилни Амир Темур йили деб эълон қилиш тўғрисида»ги фармонлари қабул қилинди[10]. 1996 йил мартада «Темурийлар тарихи» давлат музейини ташкил қилиш хусусида[11], «Амир Темур» орденини таъсис этиш тўғрисида фармонлар[12] чиқди. ЮНЕСКО қарори асосида Амир Темур таваллудининг 660 йиллиги бутун дунёда кенг нишонланди. 1996 йил апрелида шу ташкилотнинг Париждаги бош қароргоҳида «Темурийлар даврида фан, маданият ва таълим равнақи» мавзуида илмий конференция ўtkазилиб, Буюк давлат арбобининг тарихдаги ўрнига юксак баҳо берилди. «Амир Темур жаҳон тарихида кудратли ва гуллаб-яшнаган давлат барпо этган буюк саркарда ва давлат арбоби сифатидагина мавқеи тутмайди.

Соҳибқион замонасининг ажойиб дипломати, давлатлар ўртасида дўстона муносабатлар ўрнатилиши ва иқтисодий алоқалар ривожланишининг тарафдори сифатида ҳам машҳур эди. У олимлар ва ҳокимлар, меъморлар ва шоирларнинг буюк ҳомийси янглиғ донг чиқарган»[2].

Адабиётлар шархи. Амир Темурнинг «Темур тузуклари» илмий жамоатчиликни 600 йил мобайнида қизиқтириб келмоқда. Албатта, ушбу даврда яратилган адабиётлар жуда кўп[3]. «Тузуклар»ни ҳақиқий илмий жиҳатдан ўрганиш, уни турли тилларга таржима қилиш, шархлаш, асарнинг турли нусхаларини нашр этиш, «Тузуклар»нинг тарихий манба сифатидаги қийматини исботлаб бериш учун факат мустақилликка эришганимиздан кейингина тўла шароит яратилди. Бу борада тарихчи олимларимиздан, айниқса, академик Б.А.Аҳмедов[4] ва Н.А.Аҳмедов[5], шунингдек, ҳуқукшунослардан Ҳ.Б.Бобоев[6], А.Х.Сайдов[7], Ж.Т.Тошқулов[7] ва бошқаларнинг яратган асарларини кўрсатиш мумкин. Ушбу муаллифларнинг ишларида «Тузуклар», унинг вужудга келиши, «Тузуклар»даги давлат ва ҳуқуқ масалалари очиб берилган. Уларнинг тадқиқотлари маҳсули ўлароқ олинган натижалар дарслик ва ўқув кўлланмаларига киритилган.

Лекин, таҳлиллар натижалари Амир Темурнинг меъёр, ўлчаш, хисоб-китобларга муносабати ва бу масалаларга жанг жараёнларида эътибор қаратиши масаласи тадқиқот обьекти бўлмагани гувоҳи бўйинди.

Амир Темурнинг ҳарбий санъатининг асосий жиҳатлари сифатида эса қуидагиларни қайд этиш мумкин[8]:

- тактик ёндошув: Амир Темур жангларда тактик ёндошувга катта эътибор берган. У душман кўшинларини алдаш, уларни қўрқитиш ва бўлиниш учун турли усуллардан фойдаланган;

- ҳарбий иерархия ва интизом: Амир Темур ўз қўшинларида қатъий интизом ўрнатган. Унинг ҳарбийларида ҳар бир шахснинг вазифаси ва жойи аниқ белгилаб қўйилган;

- фарқли уруш усуллари: Темур қўшинлари енгил отлиқ қўшинлардан, оғир қуролланган аскарлардан, муҳандислик гурухларидан ва қоролдан иборат бўлган. Бу жангдаги фаолиятни тез ва самарали ташкил қилишга ёрдам берган;

- қўшинларнинг жойлашуви: Жангда қўшинларнинг жойлашуви ва ҳаракатини режалаштиришда Темурнинг истеъоди алоҳида кўзга ташланади. Унинг режалари душманнинг ҳаракатларини олдиндан кўра билишга асосланган;

- қурол-яроғдан фойдаланиш: Амир Темур ўз замонасидаги энг илгор қурол-яроғ ва муҳандислик технологияларидан фойдаланган. Бу душман устидан ғалаба қозонишда муҳим аҳамият қасб этган.

«Темур тузуклари»да Амир Темурнинг ҳарбий санъати ва жанг тактикаларига алоҳида ўрин берилган. Жанг майдонини белгилаш ва унинг ташкил этилиши, жангда ғалабага эришишнинг муҳим омилларидан бири хисобланган. Бу жараёнда қуидаги асосий жиҳатларга аҳамият қаратилган:

Жанг майдонини белгилашдаги асосий принциплар:

- жанг майдонининг географик аҳамияти: Амир Темур жанг майдонини танлашда худуднинг географик шароитларини инобатга олган. У қўшинлари учун қулай бўлган, душманга зарар етказадиган ёки унинг ҳаракатларини чеклайдиган жойларни афзал кўрган. Масалан, тепаликлар ва баландликларда жанг қилиш душман қўшинларини кузатиш ва уларни назорат қилиш имконини

HISTORY

берган, дарёлар ва тоғ ўтқазмаларидағи жанглар душманнинг ҳаракатини чеклаш учун фойдаланилган.

- душман қўшинларини алдаш: Жанг майдонини белгилашда душманни қийин ахволга тушириш мақсадида турли ёлғон маълумотлар тарқатилган. Бу душманнинг жангта тайёргарлигини сусайтиради ёки унинг режасини бузиб юборади.

- қўшинларнинг жойлашуви: Жанг майдони танлангандан сўнг, қўшинлар аниқ режа асосида жойлаштирилган: марказий қўшинлар Амир Темурнинг шахсий қўмондонлигидаги қўшин асосий куч сифатида жангнинг марказида жойлаштирилган, чап ва ўнг қанотлардаги қўшинлар душманнинг олдинги қаторларига хужум қилиш ва унинг жойлашувини бузиш учун масъул бўлган, захира қўшинлари эса Жангнинг муҳим паллаларини ҳал қилиш учун кучли қисмлар сифатида сакланган.

- муҳандислик ишлари: Жанг майдонини белгилашда кўпинча маҳсус тайёргарлик ишлари ўтказилган. Масалан, ҳимоя тўсиклари яратиш, қазилмалар ёки чукурликлар ташкил этиш, душман ҳаракатларини чеклаш учун сунъий тўсиклар қўшиш.

- об-ҳаво шароитини ҳисобга олиш: Жанг вақтидаги об-ҳаво ахволи ва унинг таъсирига ҳам алоҳида эътибор берилган. Масалан, Амир Темур шамол йўналиши душманга зарар етказадиган қилиб қўшинларни жойлаштирган.

Муҳокама ва натижалар. Жанг майдонини белгилашда Амир Темур душман қўшинларининг бирлашган хужумига йўл қўймаслик учун уларни жанг майдонида турли жойларга бўлиб ташлашни мақсад қилган. Шунингдек, ўз қўшинлари учун қулай йўллар ва стратегик нуқталарни ишлатиш имкониятини сақлаб қолган. Бу билан жанг майдони душман қўшинларини ўраб олиш ёки уларни муайян жойларда тузоққа тушириш учун мосланган.

Амир Темурнинг жанг майдонини белгилашдаги маҳоратли режалари кўплаб жанговар ғалабаларнинг асоси бўлиб, унинг ҳарбий стратегиясининг ўзига хос белгиси сифатида тарихда сақланниб қолган.

Амир Темур жанг майдонини белгилашда ўлчашлар ва масофаларга катта аҳамият берган. Бу унинг ҳарбий стратегиясининг муҳим жиҳати бўлиб, у жанг қоидаларида ҳар бир элементни ҳисобга олишга имкон берган. "Темур тузуклари"да бу жараён қуидагича баён этилган:

Жанг майдонида ўлчашлар ва масофаларни ҳисоблашдаги жиҳатлар:

- Қўшинларнинг жойлашув масофалари: Ҳар бир қўшин бўлинмаси ўртасидаги масофа аниқ белгиланган. Бу шунга имкон берганки, улар бир-бирига ҳаддан ташқари яқин ёки узоқ бўлмайди, натижада жангдаги ҳаракатлар мукаммал мувофиқлашган. Масалан, ўнг ва чап қанотлар орасидаги масофа душманнинг тўғридан-тўғри хужумини йўқ қилиш учун етарлича бўлиши керак.

- Катта масофалардаги назорат: Амир Темур катта жангларда қўшинларнинг марказидан қанотларгача бўлган масофани аниқлаб, ҳар бир қанотнинг мувофиқ ҳаракатланишини таъминлаш учун маҳсус тизимлар кўллаган. Масофани назорат қилиш учун тезкор отликлардан фойдаланган, улар орқали марказ ва қанотлар ўртасида тезкор ахборот алмашинуви амалга оширилган.

- Хужум ва мудофаа масофалари: Темур душманга яқинлашиш учун аскарлар орасидаги ўзаро масофаларни аниқ ҳисоблаб чиқкан. Бу уларга эркин ҳаракат қилиш ва ўз жойини сақлаб қолиш имконини берган. Ҳимоя учун зарур масофалар жангчиларнинг тўсикларни қуриш ёки қазиш имкониятини таъминлаган.

- Қурол-яроғ масофасини ҳисобга олиш: Амир Темур жангда ишлатилган қурол-яроғлар (ёғоч ёки оққўрғон)нинг таъсири масофасини яхши билиб, қўшинларни шунга мос равишида жойлаштирган. Узоқ масофадан отиладиган қуроллар (камон, болта ёки тошўклар) учун алоҳида сафи тузилган.

- Душманга бўлган масофа: Жанг бошланишидан олдин душманга бўлган масофа диққат билан баҳоланган. Бу душманнинг куввати ва ҳаракат усусларини олдиндан билишга имкон берган. Душманга яқинлашиш тезлиги ва вақтини тўғри ҳисоблаш Темурнинг ғалабаларининг асосий жиҳатларидан бири бўлган.

- Қўшинлар ўртасидаги алоқа масофаси: Қўшинлар ўртасидаги тезкор алоқа йўналишлари аниқланган. Бунга ёрдамчи куръерлар ёки отлиқ хабарчилар фойдаланган. Марказ ва қанотлар ўртасидаги алоқа масофаси жангнинг режасига мувофиқ аниқ белгиланган.

- Ўлчаш ва масофани амалий кўллаш:

1. Амир Темурнинг қўшинлари жанг олдидан ҳарбий машқларда худудни қадамлар билан ўлчашга ўргатилган. Ҳар бир аскар масофани сезиши қобилиятига эга бўлган.

2. Тоғлар ва пастликлар орасида масофалар эса жанг олдидан разведка қўшинлари ёрдамида ҳар қандай табиий тўсиклар (дарёлар, тоғлар ёки чукурликлар) ўлчангандан улардан қандай фойдаланиш аниқланган.

HISTORY

3. Захира қўшинлари масофаси захирада турган қўшинларнинг жангга кириши учун зарур бўлган вақт ва масофа ҳам диккат билан ҳисоблаб чиқилган.

Амир Темурнинг ўлчаш ва масофаларга бўлган эътибори унинг қўшинларига душман устидан тактик афзалик беришга имкон берди. Бу ғалабаларнинг стратегик жиҳатдан муваффақиятли бўлишида ҳал қилувчи роль ўйнаган. Унинг ушбу услублари кўплаб кейинги саркардалар учун намуна бўлиб хизмат қилди.

Амир Темурнинг ҳарбий ва бошқарув тизимида маош (улуфа) белгилашдаги аниқ ваadolатли ёндашуви очиб беришган. Унинг маош белгилаш меъёрлари нафакат ҳарбий тузилмаларнинг самарали ишлашига, балки умумий бошқарувнинг барқарорлигига ҳам хизмат қилган. Бу тизимни ходимлар учун маош белгилаш билан боғлаб таҳлил қилишда қуйидаги муҳим жиҳатларни таъкидлаш мумкин:

Амир Темур адолатли меъёрлар асосида маош белгилашни талаб қилган. Ҳар бир ходимнинг маоши унинг лавозими ва бажарадиган вазифаларига мутаносиб равишда тайинланган. Масалан, оддий сипоҳийлар маоши мингдан отининг баҳосига тенг қилиб белгиланган. Бу уларнинг шахсий воситаларига асосланиб адолатли кўрсаткични таъминлайди. Ўнбоши, юзбоши ва мингбошиларнинг маоши уларнинг қўл остидаги аскарларга нисбатан кўпайтириб беришган. Бунда уларнинг жавобгарлиги ва масъулияти инобатга олинган: “Оддий сипоҳийга, ўз вазифасини ўринлатиб бажариши шарти билан, маоши мингдан отининг баҳоси бўлсин. Баходирларнинг маоши икки от баҳосидан тўрт отгача тайин қилинсин. Ўнбошилар маоши қўл остидаги оддий сипоҳийларидан ўн баробар ортиқ бўлсин. Юзбошилар маоши ўнбошиларга қараганда икки баробар, мингбошиларники эса юзбошиларнидан уч баробар зиёда бўлсин. Яна хукм қилдимки, сипоҳийлардан қайси бири уруш ишларида хатоликка йўл қўйса, маошидан ўндан бирга камайтирсинглар. Яна буюрдимки, ўнбоши юзбошининг тасдики билан, юзбоши мингбошининг тасдики билан, мингбоши амир улумаро (амирлар амири)нинг тасдики билан улуфа олсинлар”.

Ҳаракат ва масъулият учун рағбатлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилган, яъни ҳарбийлар фаолиятидаги хатолар маошдан аниқ улушда камайтирилган (масалан, 1/10 қисм). Бу ходимларни ўз вазифаларини аниқ ва хатосиз бажаришга унданаган. Режалаштирилган рағбатлантирувчи тизим орқали ходимларнинг меҳнатга бўлган қизиқишини ошириш мумкин: “Яна хукм қилдимки, амир ул-умаро ўз ҳақини девонбеги ва вазирларнинг тасдики билан олсин. Давлат томонидан белгиланган бутун маошларнинг тўлиқ маълумотларини девонбеги ва вазирлар аввал менга билдирилсан, сўнgra танҳо берилсан”.

Ҳар бир лавозимдаги ходим учун белгиланган маош миқдори тизимли тарзда ишлаб чиқилган. Масалан, амирларнинг маоши қўл остидагиларнидан 10 баробар ортиқ бўлган, девонбеги ва вазирларнинг маоши амирларнидан яна 10 баробар юқори қилинган, пиёда хизматчилар ва ёрдамчи ходимлар учун 100 дан 1000 бирликкача маош тайинланган.

“Темур тузуклари”да Амир Темурнинг ҳарбий тизим ва қўриқлаш хизматини ташкил этишда ўлчовлар ва меъёрларга асосланган юқори даражадаги тизимли ёндашуви акс эттиради. “Яна амр қилдимки, уруш пайтида ўн икки амирдан ҳар бири, мингбошилар, юзбошилар, ўнбошилар ўн икки минг қуролланган отлиқ сипоҳий билан бир кеча-кундуз давомида ҳар қайсилари хонни қўриқдаш учун ҳозир бўлсинлар. Бу ўн икки минг отлиқ лашкарни тўрт фавжга бўлиб, бир фавжини баронгорга, бошқасини жавонгорга, биттасини Ўрдунинг олдига, бошқасини эса Ўрдунинг орқа тарафига тайинласинлар. Ушбу фавжлар навбатма-навбат Ўрдудан ярим фарсанг узоқлашиб соқчилик қилсинлар. Ушбу тўрт сипоҳий фавж ўzlари учун ҳировул белгиласинлар, ҳировулдан эса қоровуллар тайинлансан. Улар бўлса эҳтиёткорлик ва хушёрикни қўлдан бермай, Ўрдуга хабар етказиб турсинлар”. Ушбу матн асосида қуйидаги муҳим жиҳатларни шарҳлаш мумкин:

- Ҳарбий тартиб ва интизомни таъминлаш: Бунда ҳарбийлар (сипоҳийлардан тортиб юқори лавозимдагиларгача) девонхона ва бошқа расмий йигилишларга маҳсус либослар ва қурол-аслаҳаларсиз ҳозир бўлмасликка буйруқ беришган. Бу интизомни сақлаш ва ҳарбийлар шаънига хос расмийликни таъминлаш мақсадида жорий этилган. Кийим-кечак ва қурол-аслаҳалар – жангчи ёки хизматчи мақомининг ифодаси бўлиб, уларнинг вазифага тайёрлигини намоён қилган.

- қўриқлаш хизматининг ўлчов ва миқдорлари: 12 минг қиличланган аскар уруш ёки тинчлик вақтида ҳам қўшк ва девонхона атрофини тўлиқ қўриқлаш учун сафарбар қилинган. Бу катта сондаги қўриқчилар орқали жуда кучли ҳимоя тизимини ташкил этган. Ҳар кеча ушбу аскарлардан минг киши навбатчилик қилиш учун ажратилади, уларнинг бошига маҳсус юзбошилар тайинланади. Бунда назоратнинг даражалари жуда аниқ белгилаб беришган.

- Худудий ҳимоя ва қўриқлаш тартиби: 12 минг аскар тўртта катта гурухга бўлинган: бир фавж қўшкнинг олдида; иккинчиси орқасида; қолган иккитаси ён томонларда қўриқлаш вазифасини

HISTORY

бажаради. Ушбу фавжлар ярим фарсанг (тахминан 3 км) масофада қўшк атрофида қўриқчилик қиласди. Бу чегара ҳудудида ҳимоя зоналарини ташкил этишини таъминлаган.

- Эҳтиёткорлик ва хабардорлик тизими: Ҳар бир фавж ўз ҳимоя нуқтасини белгилаб, ҳировуллар ва қоровуллар тайинлади. Бу қоровуллар узлуксиз хушёрликни сақлаб, ўз вактида хабар етказиб туриш вазифасини бажарган. Ушбу тизимда ҳужум ёки таҳдид ҳолатларида тезкор хабар алмашиб муҳим ўрин тутган.

- Жавобгарлик ва интизом: Агар лашкар ичида ўғирлик ёки бошқа қонунбузарлик содир этилса, қўриқлаш хизмати масъуллари тўлиқ жавобгарликка тортилади. Бу ҳолат қўриқчиларнинг ўз вазифаларига масъулият билан ёндашишларини таъминлаган. Бозорда солиқ йиғиш ва тартиб ўрнатиш ҳам қўриқлаш хизмати масъулларига юклangan, бу уларнинг салмоқли ваколат ва мажбуриятларга эгалигини кўрсатади.

- Ҳарбий қисмларнинг вазифалари: Лашкарнинг учдан бири чегараларни қўриқлашга жалб қилинган, иккidan бири эса салтанат хизматида доимий равишда ҳозир бўлишлари лозим. Бу қўшиннинг иш жадвали ва функцияларини самарали тақсимлашга хизмат қилган.

- Амалий ва стратегик аҳамият: Амир Темурнинг ҳарбий тизимида қўриқлаш хизмати, лашкарнинг жойлашуви ва ҳаракатларидаги аниқлик ҳудудий хавфсизликни таъминлаш ва ҳар қандай хавфни олдиндан сезиб бартараф этишга хизмат қилган. Чегара ва қўшк атрофидаги қўриқлаш тизими, эҳтиёт чоралари, шунингдек, жавобгарликнинг аниқ тақсимланиши ҳозирги даврдаги хавфсизлик хизматларининг стратегик асосларини яратища ўrnak бўлади.

Бу тизимда Амир Темур жангчи аскарлар ва қўриқлаш хизматининг ишини миқдорий ва сифатига қараб мукаммал ташкил этган. Унинг ёндашуви ҳарбий хизматчиларнинг масъулияти, интизоми ва самарадорлигини ошириш билан бир қаторда, давлатнинг хавфсизлигига асосий эътибор қаратган. Бугунги кунда ҳам бундай тизимли ёндашув жуда катта аҳамият касб этади.

Асарнинг "Мамлакатларни забт этиш тузуки"да Амир Темур мамлакатни забт этишидан олдин албатта тўғри кенгаш ва тадбир билан иш тутади. Шунингдек, хатога иул куймаслик учун ҳар бир ишни кўп ўйлаб, сергаклик ва эҳтиёткорлик билан қиласди ва қўллаган тадбири тўғри ва рост чиккан. Ҳар ер эл-улусининг табиати ва халқднинг мизожларининг табиатига мувофиқ йўл тутиб, шунга қараб уларга ҳоким тайинлаган. Уч юз ўн уч асил зотли, шижаотли ва ақл-фаросатли эр йигитларни ўз атрофига бирлаштиради. Бирлик-иттифоқдари шундай эдики, ҳаммалари гўё бир тандек эдилар. Барчаларининг мақсадлари, раъйлари, сўзлари ва ишлари битта эди. Бир ишни қилайлик деб қарор қилсалар, тугатмагунларича ундан қўл узмас эдилар. Ва ниҳоят, бугунги ишни эртага қолдирмади ва қайси ишни чораю тадбир билан битиришнинг иложи бўлса, унда қилич ишлатмади.

"Темур тузуклари"даги жанг майдонини танлаш ва тайинлашдаги аниқ ўлчашлар ва меъёрларни белгилашга Амир Темур алоҳида эътибор қаратган. У ҳар бир жиҳатга катта аҳамият берилган, хусусан, ҳарбий кучларнинг сони, миқдори, ёки жанг майдонининг табиатига. Масалан, жангчи кучларининг сони ва тузилиши юзасидан ғаним лашкари сони 12 минг отлиқдан кам бўлса, Амир Темур амир ул-умаро (лашкар сардори)ни танлайди. Бу йўналишда, сардорга ҳамроҳ бўлиш учун аймоқ ва туманлардан 12 минг отлиқ аскар тайинланади. Ҳар бир юкори лавозимдаги аскарлар (мингбоши, юзбоши ва ўнбоши)нинг ҳам ҳарбий кучлар билан бирга жангга тайёр бўлиши талаб қилинади. Бу ҳарбий кучларнинг миқдори ва уйғунлигини таъминлади. Лашкар тузилиши ва ҳаракат тартиби бўйича эса 12 минг отлиқ аскарни тўққиз қисмга бўлиш буйруғи берилган: қўлдаги фавж, баронғордаги уч фавж, жавонғордаги уч фавж, ҳировул ва қоровулда бир-бир фавж. Бу ҳарбий кучларнинг барча тармоқларига аниқ вазифалар юкланди ва ҳаракатдаги уйғунликни таъминлади. Баронғор ва жавонғор бўлимлари махсус тузилишлардан иборат бўлиб, уларда ҳировул, чоповул ва шиқовул (ҳимоячи, кузатувчи ва захиралар) мавжуд. Бу структуралар жангдаги мувофиқлик ва муҳофаза қилиш вазифаларини бажариш учун зарур.

Амир Темур жанг майдонини танлашдаги тўрт муҳим омилни белгиловчи меъёрларга асосланган:

- сувга узоқ-яқинлик: Жанг майдони сувга яқин ёки узоқ бўлишига эътибор берилади. Бу аскарлар учун сув таъминоти ва маневр қилиш имкониятларига таъсир кўрсатади;

- ернинг хавфсизлиги: Жанг майдони аскарлар учун хавфсиз бўлиши шарт. Бу ҳарбий кучлар учун заиф нуқталардан қочиш ва хавфсиз ҳаракатланиш учун муҳимdir;

- ғаним лашкарига нисбатан ернинг баланд ёки пастлиги: Тепароқка жойлашиш — бу лашкарнинг душманга нисбатан стратегик устунликка эга бўлишини таъминлади. Офтобга рўбарў бўлмаслиги аскарларнинг кўришини осонлаштиради ва уларнинг жангга тайёрлигини оширади.

- ўрдуга ёки жанг майдонига кенг, очиқ жой: Бу ёрдам бериши учун лашкарларга маневр қилиш имкониятини тақдим этади, шу билан бирга душманнинг имкониятларини чеклашга ёрдам беради.

HISTORY

Лашкарни сафга тизиш ва ҳаракатларини мувофиқлаштиришдп урушдан бир кун олдин лашкарни сафга тизиш ва тузукка мувофиқ тузиш бўйича аниқ буйруқлар берилган. Бу лашкарнинг жангдаги тизимли ва самарали ҳаракатларини таъминлаш учун мухим аҳамиятга эга. Жангга юриш йўналишининг аниқлиги — отлар кўзланган йўналишга қаратилган ва йўлдан чап ёки ўнгга бурилмаслиги белгиланган. Бу лашкарнинг маневр қилиш қобилиятига тўғридан-тўғри таъсир қиласди.

Бу жанг майдонини танлаш, аскарларнинг сони ва жангдаги маневрларни аниқ белгилашда юқори даражада тартиб ва ягона стратегик ёндашувни кўрсатади. Ушбу тизим аскарларнинг самарали ҳаракат қилишларини таъминлаб, ҳарбий операцияларнинг муваффақиятли бўлишини кафолатлади.

Амир Темурнинг давлат тузилишида, ҳарбий ва бошқарув ишида, шунингдек, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда метрик тизимларнинг аҳамияти ва унинг амалга оширилишининг мухим жиҳатлари тадқиқ этиб, қуидаги хуносаларни қилишимиз мумкин:

Амир Темурнинг давлат бошқарувида ва ҳарбий стратегияларидаги дақиқлик ва аниқлик биринчи навбатда метрологияга, яъни ўлчаш ва меъёрлаш тизимларига боғлиқ бўлган. Амир Темур жанг майдонини танлашда, курол-аслаҳа тайёрлашда, аскарларни ўлчашда ва ҳатто давлат харажатлари ва солик тўловларини белгилашда аниқ меъёрларни жорий этган.

Амир Темурнинг ҳарбий стратегиясида метрологиянинг аҳамияти ҳар томонлама кўрсатилади. У жанг майдонини танлашда, лашкарнинг сонини хисоблашда ва урушда аскарларнинг ҳозир бўлиши учун аниқ меъёрлар белгилаган. Жангда ёки тинчлиқда амалга ошириладиган барча ҳаракатлар, жумладан, йўналишлар ва маневрлар, тўлиқ ва аниқ хисоб-китобларга асосланган.

Амир Темур давлат бошқаруви ва иқтисодий сиёсатда ҳам метрологиянинг мухимлигини тан олган. Давлатнинг солик сиёсатини амалга оширишда, молияни тартибга солишда, товарлар ва хизматларни баҳолашда ўзининг аниқ ва унимли ўлчаш тизимини жорий этган. Бу, албатта, иқтисодий жараёнларнинг самарали бошқарилишига ва давлатнинг барқарорлигини таъминлашга ёрдам берган.

Хуроса. Темурийлар даврида савдо ва иқтисодий алоқаларда ҳам метрология мухим роль ўйнаган. Товарлар ва хомашёларнинг микдори ва сифатига таянган ҳолда, алоқалар ўртасидаги ишончни ошириш ва солик тўловлари, хомашёнинг нархини белгилашда меъёрлар кўлланилган.

Амир Темур ва унинг ҳайратомиз давлат тузилишининг иқтисодий, ҳарбий ва ижтимоий соҳаларда амалга оширилган метрик тизимлари нафақат самарадорлик, балки маданий тараққиёт учун ҳам мухимдир. Метрология, шубҳасиз, давлатнинг мустаҳкамлиги, ижтимоийadolat ва ҳар бир фуқаронинг ҳаётига боғлиқ мухим омил сифатида эътироф этилган.

Амир Темурнинг давлат бошқаруви ва ҳарбий ишлардаги муваффақиятини, аниқ ва самарали метрология тизимини татбиқ қилишга боғлади. Бу тизимлар жанг, иқтисодиёт, солик, савдо ва ижтимоий ҳаётни юқори даражада тартибга солишга ёрдам берган. Амир Темурнинг метрологияга оид қарорлари ўз замонидаги давлатнинг самарали ишлашини таъминлашда мухим роль ўйнаган ва уларнинг баъзилари ўша даврнинг илгор ёндашувларига тўғри келган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 21-22 апрель қунлари Қашқадарёнинг Кўкдала туманига ташрифида ўтказилган фаоллар билан учрашуведаги нутқи // <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/21/amir-temur/>
2. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзусидаги ҳалқаро конференция тезислари тўпламига ёзилган сўз боши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996, 4-б
3. «Тузукларнинг таржималари, турли ўйлардаги наширлари ҳақида, Амир Темур жаҳон тарихида». – Париж, 1996, 119-144-б.
4. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994, 430 б.; «Амир Темурни ёд этиб». – Тошкент, 1996, 367 б. ва бошқа асарлари.
5. Аҳмедов Н.А. Амир Темур: ривоят ва ҳақиқат. – Тошкент: Қомуслар боши таҳририяти, 1996.; Амир Темур ва темурийлар даври тарихига кириш. А.Бадиров билан ҳамкорликда. – Самарқанд, 1999. 74-б.
6. Бобоев Х.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Камалак, 1996, 71-124-б.
7. Саидов А.Қ., Тошқулов Ж.Т. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ИИВ Академияси нашириёти, 1995.
8. “Темур тузуклари”. Форсча матндан А. Соғуний ва X. Кароматов тарж. – Тошкент: «O'zbekiston», 2012. –184 б.

HISTORY

9. <https://lex.uz/uz/docs/2329020>
10. <https://www.lex.uz/docs/276338>
11. <https://lex.uz/docs/10905>
12. <https://lex.uz/uz/docs/397141>

ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА МАРОСИМЛАРНИНГ МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Нафиддинова Хосият Равшановна
Бухоро давлат университети доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
ORCID 0000-0002-4458-1498

Аннотация. Ушбу мақолада ислом оламида кенг нишонланадиган маросимлардан бири мавлид ўтказишнинг мақсади, сабаблари, тартиби ва уни ташкиллаштиришининг эътиборли жиҳатлари, одоби ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, диний маросимлар турли миллат ва элатлар ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланган.

Калим сўзлар: мавлид, мавлидхонлик, Сайид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий, хилқат, “Маҳалли қиём”.

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ОБРЯДОВ В РАЗВИТИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье рассмотрены цель, причины, порядок, важные аспекты её организации и способы проведения. Также было отмечено, что религиозные обряды имеют важное значение в укреплении связей между разными нациями и народами.

Ключевые слова: Мавлид, Мавлидхан, Сайид Джасафар ибн Ҳасан Барзанджи, Хилькат, «Местное воскресение».

THE ROLE OF RELIGIOUS VALUES AND RITUALS IN THE DEVELOPMENT OF INTER-ETHNIC RELATIONS

Abstract. This article discusses the purpose, reasons, order, important aspects of its organization and methods of implementation. It was also noted that religious rituals are important in strengthening ties between different nations and peoples.

Keywords: Mawlid, Mawlid Khan, Sayyid Jafar ibn Hasan Barzanji, Khilkat, “Local Resurrection”.

Кириш. Шарқ ҳалқлари қадимдан урф-одат, анъана ва маросимларга бойлиги билан ажralиб туради. Шу сабабли фанда маросимлар мавзуси бир неча гурухга бўлиб ўрганилади. Жумладан:

- 1) Анъанавий оиласи маросимлар.
- 2) Диний маросимлар.
- 3) Касб-кор ва хунар билан боғлик бўлган маросимлар.

Бухоро воҳаси тарихдан дин борасида бошқа ҳалқлардан устун бўлган. Шу сабабли ҳам “қуббат-ул-ислом” номи билан дунёга машхур. Бу ахоли орасида ҳам албатта ўз таъсирини ўтказмай қўймаган. Воҳа аҳолиси орасида жуда кўплаб диний маросимлар ташкиллаштирилади. Уларнинг орасида баъзан ислом дини билан боғлик бўлмаган бидъат маросимлар учраса, баъзан аксинча холатларга гувоҳ бўламиз.

Ислом дунёсида шундай улуғ маросимлардан бири бу “мавлид” маросими ҳисобланади. Мавлид аннабий (арабча сўздан олинган бўлиб, туғилиш деб таржима қилинади, пайғамбарнинг туғилган куни) — Мұхаммад (с.а.в.)нинг туғилган куни билан боғлик маросим [1]

Кишилар илмга бўлган қизиқишига ва интилишига келиб чиқиб айрим алломаларимиз ўзаро кенгашиб, охирзамон пайғамбари Расулуллоҳ (с.а.в) шахслари ва хаётлари суратлари ва сийратлари яхшироқ ўрганиш ва ҳалққа етказиш мақсадида у киши таваллуд топган ой робиъул аввал ойига у муҳтарам зотни ўрганишни йўлга қўйганлар. Шу сабабли маросим робиъул аввал ойининг 12 кунида нишонланади[2,1434]. Айнан шу мақсадда ислом динига эътиқод қилувчи турли миллат ва элатлар мавлид маросимларини ташкиллаштирганлар.

Натижга ва мухокама. Ушбу муносабат билан ўтказиладиган маросимларни икки хил тарзда нишонлаш йўлга қўйилган. Баъзан бу маросимлар байрамона тарзда ўтказилиб, зиёфатлар ташкил қилиниб, ҳадялар улашган ҳамда нашидлар куйлаш каби ишлар ўтказилса, иккинчи холатда у илмий

HISTORY

анжуманлар тарзида ўтказилади. Хозирги кунга келиб ҳар икки холатни ҳам бирлаштириб, мавлид ўтказиш холатлари кенг ёйилган.

Аввало мавлид ўтказилишига кўплаб сабаблар мавжуд. Биринчидан пайғамбар Муҳаммад (с.а.в) юриш-туришлари, мумала-муносабатлари, барча ҳатти-ҳаракатлари ҳар доим барчанинг эътиборида бўлган. Бу эса айнан шу мавзуларда кўплаб асарлар яратилишига сабаб бўлган. Натижада кейинги даврларда айнан мавлидхонлик маросимларини ўзида қамраган асарлар кўпая бошлаган ва шу тариқа бизнинг замонамизгача маросим ўз яшовчанлигини саклаб қолган[3].

Мавлид асарларидан мақсад Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг шахсиятларини кисқароқ йўл билан танишириш, хаёlda гавдалантириш ва у кишининг таваллудлари инсоният учун буюк неъмат эканлигини уқтиришдир. Бу асарларда асосан пайғамбар ҳаётларининг илк босқичларини ёритишга ҳаракат қилганлар. Шу билан бирга, у кишининг ахлоқлари, меҳрибонлеклари ва бошқа сифатлари таърифлашга ҳаракат қилинган. Пайғамбаримизнинг сийратлари доим ижод аҳли учун битмас туганмас илҳом манбаи бўлган. Ҳаттоқи бошқа дин вакиллари ҳам пайғамбар ҳаёти билан танишиб, у кишининг ибратли ҳаёти тўғрисида қалам тебратган. Айрим адабиётларда заиф, тўқима маълумотлар келтирилган китоблар кўпайганини кўрган уламолар ҳам илмий фактларга асосланган рисола ёзишга қарор қилишган.

Ҳасанхон Яхё Абдулмажид Сайид Жаъфар ибн Барзанжийнинг “Мавлид” асарига ёзган таржимаси ва шарҳида худди шу мавзуда 170 дан ортиқ аллома асарлар битганини эслатиб ўтган [4,43].

Мавлид асарларини ўрганиш давомида шу нарса аниқ бўладики, бундай асарлар серқирра бўлиб, қатъий бир қолипда эмас давр талабига кўра турлича услугуб ва шаклда ёзилган. У бир неча байтдан иборат кичик қасида ва ёки бир неча жилдан иборат китоб ҳам бўлиши мумкин. Аммо барibir Барзанжийнинг “Мавлид”и улар орасида энг машҳури, кенг тарқалгани ва яхши қабул қилингани ҳисобланади. Бунинг сабабини қўйидагилар билан изохлаш мумкин.

1. Асарнинг содда ва енгил тилда ёзилгани;
2. Асарда берилган маълумотларнинг ишончлилиги;
3. Асарнинг тузилиши яъни асар наср ва назм орасидаги гўзал услубда битилган;
4. Асарнинг тартиблилиги яъни қатъий кетма-кетликда ёзилган;
5. Асар кичик бўлишига қарамай, пайғамбаримиз (С.А.В.) ҳаётларидаги асосий нуқталарни қамраб олган;
6. Шу билан бир қаторда муаллифнинг ўз ишига улкан ихлос ва муҳаббат билан ёндашганини ҳам айтишимиз мумкин.

Сайид Барзанжийнинг ушбу асарига турли уламоларимиз томонидан шарҳ, таржима, назира ва назмлар ёзилгани ҳам асарнинг юксак қийматини кўрсатади. Барзанжийнинг ҳаёт йўлига ҳам қисқача тўхталиб ўтсан: жаъфар Барзанжий милодий 1714 йил 13 декабря Мадинада илм маърифатли оиласида дунёга келган. Фақат диний соҳада эмас, балки дунёвий билимлардан ҳам чукур боҳабар бўлган. Ўндан ортиқ асарлар ёзган.

Барзанжийнинг “Мавлид”и 18 атран , яъни қисмдан иборат бўлиб, қўйидагилардан иборат:

1. Муқаддима
2. Насаби шариф
3. Ҳомила даври
4. Таваллуд арафасида
5. Таваллуд онлари
6. Таваллуд чоғида дунё
7. Разоъат даври
8. Гўдаклик даври
9. Болалик ва ўсмирлик даврлари
10. Бусрога сафар ва тўй
11. Каъбанинг таъмири
12. Нубуват ва рисолат
13. Илк ислом даври
14. Исро ва меърож
15. Даъватнинг ёйилиши ва хижрат
16. Хижрат йўлида
17. У зотнинг хилқатлари
18. Хулқ одоблари

HISTORY

Мавлид маросимини биринчи бўлиб Ирбил ҳукмдори Малик Музаффар ташкил қилган[5]. Мавлид маросимини ўтказиш бўйича кўплаб илмий асарлар ва фатволардан келиб чиқиб, қуйидагиларни ташкил қилишга рухсат берилганини хулоса қилиш мумкин.

Куръон тиловати;

Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам ишларининг аввалида бўлган хабарларни ривоят қилиш;

У зотнинг туғилишларида содир бўлган мўжизаларни ривоят қилиш;

Охирида егулик улашиш. Бунда исрофгарчилик ва ҳаддан ошиш ҳолатларини содир этмаслик. Бунга мисол қилиб, жамиятимизда санаб бўлмайдиган даражадаги турли таомлар тортиладиган катта ва кўркам дастурхон ёзадиган кишилар бор. У ерда дастурхондаги овқатлар хидидан кўра фахрланиш ва бир-бирига мақтаниш ҳамда рақобат ҳидлари қўпроқ таралади. Бундай дунёни назарига илмай ундан узоқлашган пайғамбаримиз Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламдан қандай қилиб ҳижолат бўлмаслик мумкин[6].

Бошқа нарсаларни зиёда қилмай, тарқалиш;

Ва сўнгида мавлид маросимини ўтказган одамга савоб берилиши.

Таҳлил. Бухоро воҳасида ҳам бу маросим алоҳида тайёргарликлар билан баъзи бир урф одатларни амалга ошириб ташкил қилинади. Бу маросим аёллар учун алоҳида, эркаклар учун алоҳида тарзда ташкил қилинади. Маросим мезбон томонидан уйда, ҳозирги кунда кафе ва ресторонларда, шунингдек, масжидларда ҳам нишонланиши мумкин. Кўп ҳолатларда маросим робиъул аввал ойида давлат томонидан ҳам масжидларда мавлидхонлик ўтказилиши мумкин. Бунда кўпроқ дуолар ва зикрлар ўқишига аҳамият берилади. Уйда ташкил этилганда эса дастурхон тузаш ва ҳадялар бериш одат тусига кирган. Масалан, маросим ўтказувчи киши барча меҳмонлар учун дастрўмол олиб, даврадагиларга тарқатишади. Дуо ва зикрлар ўқилаётган “Маҳалли қиём”да тик турганда шу дастрўмолларга уй эгаларидан ёшроғи гулоб сепиб чиқади[7]. Бунда рамзий маъно бўлиб, у пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг ҳидларига қиёс қилинади. Яна бир атрибут бу маросим таоми ҳисобланади. Кўп ҳолларда биринчи таом сифатида хонадонларда ширгуруч тортилади. Баъзан кишилар “туручни пайғамбаримиз яхши кўрганлар, шу сабабли бу таомни пишириш мажбурий” [8] деган нотўғри ва бидъат ақида ортидан эргашадилар. Аммо аслида бундай эмас. Шунчаки йўқчилик замонларида ҳам гуруч ва сут маҳсулотларини ҳаммани уйидан топиш мумкин бўлган. Шу учун бугунга келиб ягона бир таом пишириши ҳам ҳеч ким учун мажбурий эмас. Шу билан бир қаторда, баъзи кишилар “Маҳалли қиём”да тик туриш борасида ҳам турли фикрлар мавжуд. Расулуллоҳ (с.а.в) томонидан айтилган ҳадисларда “Кимни бандаларни унга тик турмоқликлари хурсанд қиласа дўзахдаги уйга тайёрланаверсин”, деган фикрларини бунга асос қилиб олишади. Бу бир томондан бугунги ривожланган глобаллашув жараёнининг оғрикли нуқталаридан бири ҳисобланади. Чунки баъзан сал амал теккач, амалдорлар, раҳбарлар босар тусарини билмай оддий ҳалқقا, қўл остидаги ходимларга нисбатан паст назар билан қараётганига гувоҳ бўламиз. Бу кишилар орасида адолатсизлик, ҳақсизликка сабаб бўладиган ҳолатлардан ҳисобланади. Мавлид ҳақида ёзилган асарларда бу қоиданинг илгари сурилгани ва таъкидлангани бугун учун ибрат ҳамда одоб намунаси саналади. Аммо бунда илм аҳлига, тавозели олимларга ва сафардан қайтган мусофиirlар учун тик туриши гўзал одатларимиз сирасига киради.

Бундан ташқари, мавлид маросимини ўтказиш борасида ҳам турли қарашлар мавжуд. Уларнинг бир гурухи мавлудни бидъат сифатида эътироф этади. Бидъат эса залолатга, залолат охир оқибат дўзахга олиб боради деган фикрни илгари суришга ҳаракат қиладилар.

Аммо бу тўғрисида бир гуруҳ олимлар бошқача фикларни тўғри деб баҳолайдилар. Мавлидни нишонлаш қандайдир жоҳил, нодон инсонлар тарафидан ўйлаб топилган ўйин кулги маросими эмас, балки Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг муҳаббатлари қалбларида жўш урган, олим, солих, такводор кишилар томонидан жорий қилинган. Тўғри, мавлидга шиалар, алавийлар ҳам кўп эътибор берган, лекин бу факат улар йўлга қўйган иш эмас. Балки аҳли сунна уламоларининг кўпчилиги мавлидни жоиз, мустаҳаб амал деган ва уни ўтказишда жонбозлик кўрсатганлигини айтиб келадилар.

Бир гуруҳ олимларни ҳисобга олмаганда, жумхур уламолар асрлар оша мавлидни нишонлашни жоиз, мандуб, савобли амал, деб айтиб келишган. Бу ҳақда қатор асарлар битилган. Ўз асрининг ҳофизи даражасидаги олимлар алоҳида мавлид асарлар ёзишган, мавлид маросимларини тартибга солишга, турли булмағур одатлардан ҳоли тарзда ўтказишда жонбозлик кўрсатишган.

Ушбу маросимдан миллатидан қатъий назар ҳар бир мусулмон иштирок этиши савобли амаллардан ҳисобланади. Кўп миллатли юртимизда ва воҳамиизда ушбу байрамда ўзбеклардан бошқа миллат, элат вакиллари тожиклар, эронилар, туркманлар, яхудийлар, қозоқ кабиларнинг иштирок

HISTORY

этиши миллатлар ўртасидаги алоқаларнинг яхшиланишига ҳамда дўстлик алоқаларининг мустаҳкамланишига олиб келади.

Хулоса. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мавлид маросимларини нишонлаш пайғамбаримиз (с.а.в) вафот этганларидан уч аср кейин бошланган ва ҳозиргача муҳим бўлганлиги учун ҳам ўз яшовчанлигини сақлаб қолган. Асрлар давомида эса ривожланиб, трансформацияларга учраб янада кенг нишонланадиган бўлган. Маросим ва байрамларда турли миллат ҳамда элат вакилларининг иштироки эса улар ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлашда, бағрикенглик гояларини тарғиб этишда алоҳида ўринга эга.

АДАБИЁТЛАР:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Manzila Bakievna Kurbanova. Ethnological analysis of “mawlid un-nabiy” ceremony in bukhara oasis. academic research in educational sciences volume 2 / ISSUE 5 / 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-01048.
3. Дала маълумотлари. Бухоро вилояти. Чорбаҳосса маҳалласи. 2024 йил.
4. Сайид Жаъфар Барзанжий. Мавлид. Тошкент. 2022. Б. 43.
5. Асрор Самад. Мавлудун Набий. Тошкент. 2004. 72 б.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Зикр аҳлидан сўранг. З сон. Тошкент. 2018. 400 б.
7. Дала маълумотлари. Бухоро вилояти. Гўзал маҳалласи. 2024 йил.
8. Дала маълумотлари. Бухоро вилояти. Шербудин маҳалласи. 2024 йил..

HISTORY

УО‘К 93/94

TOSHKENT KINOFESTIVALI – UCH QIT’ANI BIRLASHTIRGAN MADANIYAT TARIXI

Boboqulov Oxunjon Axmat o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
oxunahmad@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent kinofestivali haqida ma’lumot berilgan. Ijodiy aloqalarni do’stlik va birodarlikni mustahkamlashda Toshkent kinofestivali g’oyatda muhim rol o’ynadi. 1968-yildan boshlab o’tkazilgan kinofestival Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi vakillari ishtirokida “Tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun” shiori ostida o’tdi. Festivalning shiori mamlakatlar xalqalarining orzu umidlarini ifodalaydi. Toshkent kinofestivalining jahon kinofestivalini rivojlantirishda va xalqlar o’rtasida tinchlik, do’stlik va hamkorlikni vujudga keltirishda ahamiyati katta bo’ldi.

Kalit so’zlar: sovet kinosi, “Inqilob chavandozlari”, “Dilorom”, “O’zbekfilm”, Do’stlik va madaniy aloqalar O’zbekiston jamiyati, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari.

ТАШКЕНТСКИЙ КИНОФЕСТИВАЛЬ - ИСТОРИЯ КУЛЬТУРЫ, ОБЪЕДИНИВШАЯ ТРИ КОНТИНЕНТА

Аннотация. В данной статье представлена информация о Ташкентском кинофестивале. Ташкентский кинофестиваль сыграл чрезвычайно важную роль в укреплении творческих связей, дружбы и братства. Кинофестиваль, проводимый с 1968 года, проходил под девизом “За мир, социальный прогресс и свободу народов” с участием представителей Азии, Африки и Латинской Америки. Девиз фестиваля отражает мечты и надежды народов стран-участниц. Ташкентский кинофестиваль имел большое значение в развитии мирового кинофестивального движения и в установлении мира, дружбы и сотрудничества между народами.

Ключевые слова: советское кино, “Всадники революции”, “Дилором”, “Узбекфильм”, “Общество дружбы и культурных связей Узбекистана”, страны Азии, Африки и Латинской Америки.

TASHKENT FILM FESTIVAL - A CULTURAL HISTORY UNITING THREE CONTINENTS

Abstract. This article provides information about the Tashkent Film Festival. The festival played an extremely important role in strengthening creative connections, friendship, and brotherhood. Since 1968, the film festival has been held under the motto "For Peace, Social Progress, and Freedom of Peoples" with the participation of representatives from Asia, Africa, and Latin America. The festival's slogan reflects the hopes and dreams of the peoples of the participating countries. The Tashkent Film Festival had significant importance in the development of world film festivals and in fostering peace, friendship, and cooperation among nations.

Keywords: soviet cinema, “Inqilob chavandozlari”, “Dilorom,” “Uzbekfilm,” “Uzbekistan Society for Friendship and Cultural Relations”, countries of Asia, Africa, and Latin America.

Kirish. XX asrning 60-70 yillarida sovuq urush sharoitida dunyo xalqlarining birdamligi va tinchligini ta’minlashda xalqaro kinofestivallarning roli tobora oshib bordi. Kino san’atining jahon xalqlari hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlarining xalqaro kinofestivalini tashkil etishga qaror qilindi. Boshqa tomondan, bunday ko‘rinishdagi tadbirdardan “soviet madaniyati”ni targ‘ib etish, kinobozori uchun o‘z o‘rniga ega bo‘lish maqsadlari ham nazarda tutilgan edi.

Sovet hokimiyati yillarda kino sohasida madaniy aloqalarni targ‘ib etish vazifasini soveteksporfilm, sovet elchixonasi va boshqa tashkilotlar bajargan. Sovet davlati G‘arb targ‘ibotiga qarshi tura olishi uchun sovet filmlari, Moskva radiosи, akademik almashinuvlar, kitob, gazeta va jurnallar almashinuvni yuzaga keldi.

Davomli tashkil etilgan kinofestivallarining tashkilotchisi sifatida SSSR Ministrler soveti kinomatografiya davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston SSR Ministrler soveti kinomatografiya davlat qo‘mitasi, SSSR va O‘zbekiston Kinomatografchilar soyuzi tashabbus ko‘rsatdi. 1968- yildan boshlab 1988- yilgacha jami 10 marta Toshkent shahrida ikki qit’a - Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining xalqaro kinofestivali o’tkazildi [1; Б. 30].

Kino san’ati sohasidagi bunday aloqalar madaniy jarayonda o‘ziga xos katta burilish bo’ldi. Bu

HISTORY

estival Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san'atining eng yaxshi asarlarini namoyish qilish va rag'batlantirish, turli mamlakatlar kinematografchilarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish hamda xalqlar o'rtafigi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilish vazifasini bajara oldi.

Mazkur kino anjuman 1-marta 1968- yil 21-31 oktyabr kunlari Toshkentda "Tinchlik, ijtimoiy ravnaq, xalqlar ozodligi va mustaqilligi uchun" shiori ostida bo'lib o'tgan [2].

Adabiyotlar sharhi. Ushbu kinoanjumanning bosh mavzusi Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini tasvirlovchi filmlarni namoyish qilishdan iborat bo'lgan [3].

Festivalga olib kelingan filmlarning bosh mavzusini mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik kurashini aks ettirish bo'lgan.

Bundan tashqari, xalqaro kinofestivalga havola etilgan filmlarda faqat siyosiy- ijtimoiy mavzudan tashqari, adabiy, ya'ni kundalik hayot mavzulari ham bo'lgan. Jumladan, "O'zbekfilm" ijodkorlarining "Inqilob chavandozlari", "Dilorom" kinofilmlari bilan qatnashgani fikrimiz isbotidir. Ulkan madaniy-siyosiy tadbirda o'zbek kinoijodkorlarining jahon kino- san'ati maydoniga chiqa olganligi madaniy aloqalar tizimidagi alohida ijobjiy voqeadir [4].

Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan o'tkazilgan kinofestivalda O'zbekiston va boshqa ittifoqdosh respublikalar kinosiga "soviet kinosi" deb nisbat berilishiga qaramay, o'zbek filmlarining jahon miqyosida taqdim etilgani tarixiy ahamiyatli hodisadir. Xalqaro kinofestivallarda namoyish etilgan o'zbek kinoijodkorlarining hujjatli kino asarları xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston xalqini yaqinlashtirishda oltin ko'prik vazifasini o'tadi [5].

Bu jarayonda "Do'stlik va madaniy aloqalar O'zbekiston jamiyatasi" faol ishtirok etib, uning butun faoliyati "O'zbekistonda sodir bo'lgan buyuk ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar"ni, "lenincha tashqi siyosatning muvaffaqiyatlarini targ'ib qilish"ga qaratilgan edi. Respublika do'stlik jamiyatining Osiyo mamlakatlari bilan olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishi "boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan birgalikda sotsializm va kommunizm qurish uchun qulay xalqaro vaziyatni ta'minlashdan iborat bo'lib, sovet davlatining maqsadlariga erishishiga ko'maklashgan". Kommunistik partiyaning madaniy aloqalardan ko'zlangan ana shu siyosiy maqsadi kino san'ati vositasida ustalik bilan amalgalashdi.

Osiyo va Afrikadagi mamlakatlari xalqaro II Toshkent kinofestivali faqat milliy madaniyatlariniig yaqinlashuviga va boyib borishiga, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtafigi ijodiy hamkorlikni rivoj topishigagina emas, balki barcha kino san'ati arboblariniig dunyoda tinchlik va taraqqiyot uchun birgalikda olib borayotgan kurashlariga katta hissa bo'lib qo'shilganligi matbuotda yoritib borilgan.

Muhokama. 1972-yil 24-may – 2-iyun kunlari davom etgan festival tafsilotlari 'O'zbekiston madaniyati" gazetasining maxsus sonida to'rt tilda - o'zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida tadbir tafsilotlari yoritib borilgan [6].

Bu esa uch qit'a mamlakatlari kinematografistlari uchun ijodiy fikr almashish, shuningdek, o'zaro ma'noviy hayot yutuqlaridan bahramand bo'lish imkonini bergen. Ushbu asosda taniqli o'zbek va hind kinosan'atkorlari ishtirokidagi qo'shma kinofilmlarni yaratish jarayoni boshlandi.

Madaniy aloqalar davlat strategiyasining bir qismini tashkil etadi. Aytish mumkinki, kino san'ati "sovuuq urush" yillaridagi madaniy aloqalarda siyosatga ta'sir qiluvchi kuchli vosita vazifasini bajardi. Tarixchilar tomonidan sovet davlati tomonidan kinofilmlar eksport qilingani va ular dunyoda targ'ibot vositasini bajargani keltiriladi.

1974- yilda Toshkent shahrida an'anaviy III xalqaro kinofestival o'tkazildi.

III xalqaro kinofestivalda namoyish etilgan filmlar inson manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ifodasida kinoning buyuk roli e'tiborga munosibligi ta'kidlangan [7]. Shunisi xarakterlik, festivalga taqdim etilgan filmlar davr ruhiga g'oyat monand bo'lib: unda tarixiy, milliy mavzular bilan bir qatorda vatanparvarlik jihatlari ko'zga tashlanadi.

1976- yildan Toshkent xalqaro kinofestivali uch qit'a miqyosida - Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari doirasida tashkil etildi. Arxiv materiallaridan ma'lum bo'ldiki, festivalning mazmuniy mundarijasi insonparvarlik g'oyalarini amalga oshirishda, tinchlik va ozodlik, sotsial taraqqiyot kuchlarining reaksiyon g'oyalar va kuchlar ustidan uzil-kesil g'alabasida kinoning ustuvor rolini ko'rsatib berishdan iborat bo'lgan [8].

1978- yilning 23- may – 1- iyun kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan navbatdagi V xalqaro kinofestivalda 64 ta davlatdan 400 nafardan ortiq kinomotograflar ishtirok etdi. Rasmiy festivalda informatsion ko'rsatuvlar uchun 70 dan ortiq badiiy kinotasmalar, bir necha o'nlab hujjatli va multiplikatsion filmlar ajratildi. Chet el kinematograflarining 400 nafardan ko'proq namoyandalari, Toshkent festivalining Suxayl bin Barxa (Marokash), Semben Usmon (Senegal) va boshqa taniqli kinematograflari, qatnashchilarini va mehmonlari bo'ladilar. Festival chog'ida kino bozori ochildi. Unda 40 dan ortiq mamlakat vakillari

HISTORY

qatnashdilar. Kinematograflarning tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun kurash vazifalariga bag‘ishlangan munozaralari qiziqarli va ijodiy jihatdan sermazmun o‘tgan. An‘anaga ko‘ra, Toshkent anjumani qatnashchilari O‘zbekiston SSR erishgan yutuqlar bilan bir qatorda diqqatga sazovor joylari ham keng ko‘lamda tanishtirildilar [9].

Toshkent xalqaro V kinofestivali ham uch qit‘a kino san’ati namoyandalarining do‘stligi va birodarligi tobora mustahkamlab, ijodiy hamkorligi va hamjihatligi yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi kino san’atining ulkan, sermazmun bayramiga aylangan [10].

1980- yilda Toshkent shahrida VI xalqaro kinofestivalning navbatdagi uchrashuvi tashkil etildi. VI xalqaro kinofestivalning madaniy aloqlardagi ijobiy qirralardan biri shundan iboratki, unda maishiy hayot mavzusi, uning sotsial muammolari o‘z ifodasini topganligi, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari kinolarida mustaqil rivojlanish yo‘lini tanlayotgan xalqlarning ijtimoiy hayot tarzi real voqealar va hujjatli kadrlar asosida ekranga olib chiqilgan.

Toshkentda 1982- yil 24 -may – 3- iyun kunlari o‘tkazilgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining VII xalqaro kinofestivali unda qatnashgan mamlakatlar kino san’ati tarixida katta voqe bo‘ldi. Bu an‘anaviy festivalda ishtirot etayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga ortib borgan. “Tinchlik, sotsial taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun!” degan g‘oya ostida o‘tkazilgani bu festivalning obro‘-e’tibori, nufuzi va ahamiyati va mohiyatini ko‘rsatuvchi aniq faktidir. Ezgulik yo‘lida xizmat qilayotgan, uning tantanalari uchun kurashayotgan ilg‘or fikrli kishilarning, xususan, kinematograflarning eng dolzarb, original, kelgusida o‘zining betakror samaralarini beradigan izlanishlari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar Toshkentda muhokama qilindi.

Tahlil va natijalar. Ta’kidlash lozimki, har bir xalqaro kinofestival mohiyatan sovet hukumati talablaridan chetga chiqmagan holda o‘tkazilgan. Xorijiy mamlakatlar kinematograflari ayni vaqtida tinchlikka tahdid solayotgan, ijtimoiy taraqqiyotga g‘ov bo‘layotgan, xalqlar qaramligini fosh qilishga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatdi.

1984-yilda Toshkent shahrida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining VIII xalqaro kinofestivali o‘tkazildi. VIII xalqaro kinofestival orqali xalqlarning o‘zaro madaniy aloqa va hamkorligi yetarli darajada rivojlanayotganligi kinoanjumanga havola etilayotgan filmlarning dolzarb ahamiyatini ko‘rsatadi. Toshkent kinoanjumani yangi hayot, yangi madaniyatga yo‘l solayotgan milliy san’at va milliy kinomatografiyalarning holatini tahlil qilishda, u yoki bu xalqlar va hududlar taraqqiyotidagi tarixiy hamda ijtimoiy-madaniy tendensiyalarni umumlashtirishda muhim rol o‘ynagan [11].

1986-yilda Toshkent shahrida navbatdagi IX xalqaro kinofestival o‘z ishini boshlab, unda hozirgi dunyo va zamonaviy kino taraqqiyotining muhim qonuniyatlari ochib berish dasturi bilan chiqildi. Ushbu kinofestivalda umuminsoniyat hayotidagi nihoyatda o‘tkir va dolzarb ijtimoiy-siyosiy, axloqiy muammolar ko‘tarib chiqildi. O‘sha davrdagi murakkab xalqaro vaziyatda festivalda namoyish etilgan ko‘pgina filmlarning mualliflari urushga qarshi kinojarayonlarni davom ettirib, yangi urush xavfiga qarshi kurashga faol qo‘shilganliklari muhim ahamiyat kasb eta boshladи.

1988- yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan X Xalqaro kinofestivalda ana shu badiiy-madaniy hamkorlik dunyo xalqlarini yaqinlashtirish, ular orasidagi ma’naviy aloqalarni yo‘lga qo‘yishdek noyob imkoniyat yana bir bor namoyon etildi. Mazkur festival o‘z amaliyotiga ko‘ra yana bir alohidalik kasb etib, xalqaro kinofestivalning 20 yillik yubileyi keng nishonlangan [12].

Umuman, Toshkent kinofestivali turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda, tinchlik va ozodlik uchun kurash g‘oyasini tarannum etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Ta’kidlash lozimki, Sovet davlatining kino sohasidagi loyihasi jamiyatni sotsialistik madaniyat tashkil qilishga targ‘ib etdi. Bu jarayonda kinematografiya alohida rol uynab, 50-70- yillarda jamiyatning ongida sovet fuqarolariga xos vatanparvarlik ruhi shakllantirilgan edi [13].

Madaniyat sohasida olib borilgan targ‘ibot va nazoratga qaramay SSSRda madaniyatning rivojlangani ko‘zga tashlanadi.

80-yillarda jahon kinosida yaratilgan filmlar insonni nochor va g‘arib, o‘zini qayta tarbiyalashdan ojiz mavjudot sifatida tasvirlashga harakat qiladi [14].

Biroq Toshkent Xalqaro kinofestivali insonlar turmush tarzini aks ettirish orqali, jamiyatda tinchlik o‘rnatisht, insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etishga muvaffaq bo‘ldi. Chunki bu kinofestivalda Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlarining asl maqsadlari, ezgu tuyg‘ulari ifodalangan bo‘lib, xalqlarni hamjihatlikka, birodarlikka undadi. Mazkur kinofestival qit‘a xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikning mustahkamlanishiga, kino san’atkorlarining ijodiy hamkorligi yuksalishiga, ular orasidan yangi-yangi iste’dodlar yetishib chiqishiga imkon yaratdi [15; c. 15-16.].

Xulosa. Umuman, 1945-1991- yillardagi xalqaro madaniy aloqalarda san’atning boshqa turlari singari kino san’ati ham ma’lum darajada milliylik, o‘ziga xoslikni qisman yo‘qotib, sovetlashtirishga intilish hamda

HISTORY

jahon mamlakatlariga sovet madaniyati, sovet turmush tarzini tashviq etishga xizmat qildi; kino san'ati sohasidagi madaniy aloqlarda, asosan, Toshkent kinofestivali alohida o'rin egalladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ражабов К., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар. З0. З-китоб. – Б. З0.
2. Қаюмов А.П. Тошкент ҳалқаро анжумани // Ўзбекистон маданияти. 1968, 14 ноябрь.
3. ЎзМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 826-йиғмажилд, 16-вараж.
4. ЎзМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 826-йиғмажилд, 19-вараж; Дўстлар тарафдуди (Кинематографлар союзи правлениясининг раиси С.Муҳамедов билан суҳбат) // Ўзбекистон маданияти. 1968, 27 август.
5. ЎзМДА Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 826-йиғма жилд, 12-14 варажлар.
6. ЎзМДА, Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 1687-йиғма жилд, 5-вараж.
7. ЎзМДА, Р-837 фонд, 41-рўйхат, 3569-йиғма жилд, 31-вараж.
8. ЎзМДА, Р-2564 фонд, 1-рўйхат, 2395-йиғма жилд, 7-вараж.
9. Тинчлик экрани // Ўзбекистон маданияти. 1978, 25 май.
10. Хўжаев С. Давр талаби // Тошкент ҳақиқати. 1976, 28 май.
11. Исламтуллаев Э. Бирдамлик овози // ЎзАС. 1984, 28 май.
12. Тинчлик ва дўстлик рамзи // Совет Ўзбекистони санъати. – 1988, 5-сон. – Б. 2.
13. Астафьев О. Н., Аванесова Г. А. Развитие национальной культуры и культурная политика в Российской империи и СССР: сравнительный анализ // Ярославский педагогический вестник. – 2015. – №4. – С. 206-216.
14. Басканов В. Ривожланаетган мамлакатлар киноси // Совет Ўзбекистони санъати. – 1981 йил 5-сон. – Б. 2-3.
15. Сабиров А.Т. Участие Узбекской СССР в культурном сотрудничестве. – С.15-16.

HISTORY

UDC 391.2

THE HISTORY OF CLOTHES AND THEIR FUNCTIONS

Mullabaeva Robiya Boytullo kizi,
Namangan Institute of Textile Industry
mullabayevr@mail.ru

Uktamaliev Bekzod Ikromjon ugli,
Namangan Institute of Engineering and Technology
uktamaliyevb@mail.ru

Abstract. Wearing clothes is a characteristic of humans, and people use it for various purposes. It covers the human body parts, and these covered clothes also have their own functions. It is known that although clothes are chosen by age, gender, and nationality, the materials they are made of may be similar. The clothes created by tailors and designers have several requirements for the wearer. Issues related to clothes have been studied for many years.

Key words: clothing, dress, clothing functions, costume.

KIYIM TARIXI HAMDA ULARINING VAZIFALARI

Annotatsiya. Kiyim kiyish insonga xos xususiyat bo'lib, undan insonlar turli maqsadlarda foydalangan. Kiyim inson tana a'zolarini muhofaza qiladi va ushbu kiyimlarning ham o'z vazifalari mayjud. Ma'lumki, kiyim yosh, jins, millat tanlasa-da, tarkib topgan materiali o'xshash bo'lishi mumkin. Tikuvchi hamda dizayner tomonidan yaratilayotgan liboslarning kiyuvchi shaxs tomonidan bir necha talablari bor. Kiyimga taalluqli masalalar esa uzoq yillar davomida o'r ganilib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: kiyim, libos, kiyim vazifalari

ИСТОРИЯ И ФУНКЦИИ ОДЕЖДЫ

Аннотация. Ношение одежды является характерной чертой человека, и люди используют её для различных целей. Она покрывает части тела человека, при этом различные элементы одежды выполняют свои функции. Известно, что хотя выбор одежды зависит от возраста, пола и национальности, материалы, из которых она изготовлена, могут быть схожими. Одежда, созданная портными и дизайнерами, предъявляет ряд требований к носящему её человеку. Вопросы, связанные с одеждой, изучаются на протяжении многих лет.

Ключевые слова: одежда, платье, функции одежды, костюм.

Introduction. Clothing is anything used to cover the human body. Humans are the only species that wears clothing [1]. From the time of the loss of body hair to the time when humans learned to sew, humans were naked for thousands of years [2]. Some sources suggest that humans continued to be naked in everyday life, and some indigenous peoples in warmer climates [3]. However, wearing clothing is a human characteristic, and most human societies have worn some form of clothing. There is no known explanation for when we first started using clothing, but there are some answers to the question of why. Anthropologists believe that animal skins and plants were adapted to protect us from the elements [4]. Another theory is that clothing may have been invented for other purposes, such as magic, decoration, worship, or prestige, and then became practical as a means of protection. In any case, clothing was created to provide protection and other functions for humans. Archaeological finds support this. There are also depictions of clothing in art, which help to determine when a particular garment appeared in history. There is a problem with the preservation of archaeological monuments, since in some places the finds are better preserved than in others, and in some places there is no evidence at all [5].

Early humans, who lived two million years ago, used to wrap and protect their bodies with tree leaves, woven grass or tree bark, bones, woven grass or tree bark. skulls and skins of dead animals, etc. According to anthropologists, there is no information about when people started using clothes. However, some sources say that people started wearing clothes a million years ago. Neanderthals, a subspecies of archaic humans and a separate genus Homo, are an extinct species that lived in Eurasia about 400,000 years ago and were the first people to wear clothes. The idea of sewing clothes came from these Neanderthals, as they sewed animal skins[6].

HISTORY

In its further development, under the influence of various historical changes, social and economic conditions, national characteristics, and the evolution of the aesthetic imagination in society, its form and types changed, becoming an object of applied art[7].

Research methodology. Clothing is worn where the human body needs protection; for example, from the sun and dust in hot, dry countries without shade, from cold and damp in temperate climates, and clothes such as thick woolen coats and boots are worn to warm the human body in very cold temperatures (for example, in the Arctic). So clothing also has its own functions, these utilitarian functions are divided into protective and physiological-hygienic functions. Each function is defined more broadly in the next level. Information functions provide information about the person (profession, taste, culture) and his clothing (function of the clothing, appropriateness, modernity, novelty, etc.).

Results and discussion.

It is known that in the early days, man applied soil, clay, and oil to his body to protect himself from various natural influences, as well as from animal and insect bites. Later, vegetable dyes were added to these ointments, and it became customary to decorate the human body with various shapes and colors. Gradually, it became customary to extend the duration of the protective shell by drawing tattoos on the body (injecting various dyes under the skin). Feathers of various birds, teeth, bones, and hair of killed animals performed various symbolic functions, as well as protecting the body. Over time, as more and more parts of his body were covered with a certain covering, man invented artificial fastening methods in the ears, nose, lips, and palate in order to express various symbols and began to use them as decoration. It is precisely this body painting and tattoos that we are now talking about that were the first forms of clothing, and even when clothing made of cloth appeared, they did not go unnoticed. Now they appeared as a certain element of clothing, fulfilling the function of giving it beauty and aesthetic value. Over time, humanity invented spinning and weaving fabrics from it, and tattoos applied to the body migrated to fabrics and began to serve as decorations on them. Over time, they improved, their types increased, and their forms became more complex. In particular, they appeared as removable, attached to the body (bracelets, rings, earrings), attached to the fabric or applied (embroidery, prints, embossed ornaments).

Clothing has changed over time. Historically, clothing has changed along with culture, fashion, and wealth. The first production of fabrics and textiles began in the Middle East during the Late Stone Age. Wearing clothes from fabric began 500,000 years ago. Knitting as a technique for creating fabrics first appeared around 6500 BC, which is still popular today. The first materials used for clothing were natural fibers from plant and animal sources. These include cotton, linen, wool, leather, silk, etc. The first plant fibers used to extract fibers were obtained from flax seeds. Flax fibers are 36,000 years old. China was the first country to establish silk production in 5000-3000 BC, where silk was extracted and woven from the cocoons of the domestic silkworm. The evolution of clothing and textiles from animal skins and plant materials is extensive and varied. Different types of clothing have emerged along with different cultures. Different types of fibers have their own history. Cotton was cultivated in Pakistan around 3000 BC. Wool was woven in Egypt around 4000 BC. Nylon, a man-made fiber, was invented in 1935 and was used as a substitute for silk.



Figure 1. Neolithic clothing

HISTORY

Bone, shell, and metal artifacts. From ancient times to the present day, clothing has undergone many changes, in many cases due to the discovery of new fabrics and materials and, of course, to trends set by designers. The eye needle was invented 40,000 years ago.

The type of clothing is constantly changing as a result of the growth of the population's tastes, demands, culture and desire for innovation.

The following requirements are imposed on it: 1) consumer requirements, which ensure the formation of the quality of clothing and the characteristics of the population's demand; 2) production requirements aimed at producing high-quality clothing with minimal labor and material consumption. The required characteristics of clothing are determined by the following: hygienic, operational, aesthetic. Hygienic requirements - protect a person from various factors of the external environment (cold, heat, rain), protect against mechanical and chemical damage, and ensure the normal functioning of the body. Operational requirements - provide comfort and reliability in use. Aesthetic requirements - provide artistic decoration of modern, fashionable clothing (silhouette, color, pattern of used fabric, detailed form of proportions of clothing parts).

Clothing is also worn for decoration as a fashion. People from different cultures wear different clothes and have different beliefs and customs about what clothes should be worn. For many people, clothing is a sign of identity. It helps people project an image.




Figure 2. Clothing function

Clothing is also worn for decoration as a fashion. People from different cultures wear different clothes and have different beliefs and customs about what clothes should be worn. For many people, clothing is a sign of identity. It helps people project an image.

Clothing is often a form of self-expression. Adults show different views of themselves through the clothes they wear in different social or work situations. Young people have a completely different form of clothing to express their personality. Often people simply follow popular fashion styles. Some people think that clothing is not a means of protecting our bodies. Perhaps they think of it as a flashy item for others to see.

The various types of clothing worn by humans are usually made of fabric sewn together, but can also be made of animal skin. Each body part has a typical element of clothing. The body can be covered with a shirt, arms with sleeves, legs with trousers or skirts, hands with gloves, feet with shoes, and the head with a hat or mask. In cold climates, people also wear heavy, thick coats such as coats.

HISTORY

Clothing is a set of tools that protect the human body from the external environment, climate changes, sunlight, and various mechanical influences. One of its other functions is to perform an aesthetic function and embody gender, age, nationality, and other characteristics[9].

According to the type of clothing, it is divided into underwear, outerwear, hats, and shoes, and according to the place of wearing, it is divided into everyday, home, leisure, holiday, and wedding clothes, work clothes, sportswear, formal clothes, i.e. uniforms, and special clothes; it is divided into women's, men's, and children's clothes.

Conclusions. Everyday clothing, as a rule, is made in different styles and fabrics, in accordance with the culture of the people and the taste of the person; it reflects the profession, ethnicity and social group. Clothing worn during leisure is made of soft and fluffy fabrics, comfortable for free movement. Festive, ceremonial (personal) clothing is made in the national style, from expensive fabrics, enriched with various decorations, embroidery, beads and accessories. Workwear (jomakor) is made of ordinary fabrics suitable for the work process, for example, firefighter's workwear is made of fire-resistant tarpaulin, fishermen's clothing is made of waterproof fabric, tractor driver's workwear is made of overalls, medical workers, hairdressers, cooks' workwear mainly consists of white coats, etc. Sportswear is made of comfortable for physical education and sports. Formal clothing (uniform) is the clothing of military uniforms, sailors, police officers, liaison officers, and officials (prosecutors, etc.) specified in special regulations. Special clothing is clothing worn by pregnant women, patients, etc. Children's clothing is sewn from colorful, thick fabric in a comfortable way, decorated with various additions, such as embroidery, fringe, and embroidery. Clothing should be compact, adapted to the climate and season, gender, age, and most importantly, comfortable and fit the person. Cutting and sewing clothes is a great art. To sew clothes, first natural (cotton, wool, jute, silk) or artificial (synthetic) fabrics are selected, and tailors sew clothes at home, in ateliers, and factories. To do this, the fabric must first be cut. This work is done by a tailor. A fashion designer draws a picture (model) of the clothes for him. So, several people work until the clothes are finished and go to the store.

REFERENCES:

1. Flodin, Emmi. "The Second Skin: A study on the relationship between clothes and human bodies." (2019).
2. Barber, Elizabeth Wayland. *Women's work: The first 20,000 years women, cloth, and society in early times*. WW Norton & Company, 1995.
3. Zukin, Sharon. *Naked city: The death and life of authentic urban places*. Oxford University Press, 2009.
4. Lasker, Gabriel W. "Human Biological Adaptability: The ecological approach in physical anthropology." *Science* 166.3912 (1969): 1480-1486.
5. Pearson, Mike Parker. "Preserving and Presenting the Evidence." *Companion Encyclopedia of Archaeology*. Routledge, 2002. 389-428.
6. Falk, Dean. *The botanic age: Planting the seeds of human evolution*. University of Toronto Press, 2024.
7. Reckwitz, Andreas. *The invention of creativity: Modern society and the culture of the new*. John Wiley & Sons, 2018.
8. Morgan, Paul W. "Brief history of fibers from synthetic polymers." *Journal of Macromolecular Science — Chemistry* 15.6 (1981): 1113-1131.
9. Slater, Keith. *Environmental impact of textiles: production, processes and protection*. Elsevier, 2003.

**YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA YOSHLARNING
FUNKSIONAL VAZIFASI**

*Arslonov Zafar Doniyorovich,
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yoshlar muammolarini o'rGANISH va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti
zafararslonov@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda yoshlarning funksional roli o'rganilgan. Shuningdek, yoshlarni jalb qilishning turli yo'naliшlarini, jumladan, advokatlik, qaror qabul qilishda ishtirok etish, jamoatchilikni jalb qilish va siyosatni qo'llashdagi mavjud mexanizmlari haqida fikr yuritiladi. Mazkur maqolada yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning funksional vazifasi, ilmiy-amaliy yondashuvlar, milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar yoshlar siyosatini yaratish va samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, funksional vazifalar, yoshlar siyosati, davlat, taraqqiyot, rivojlanish, ustuvor vazifalar, davlat siyosati.

**ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ РОЛЬ МОЛОДЁЖИ В РЕАЛИЗАЦИИ
МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКИ**

Аннотация. В данной статье рассматривается функциональная роль молодёжи в реализации молодёжной политики. Также анализируются различные направления вовлечения молодёжи, включая адвокацию, участие в принятии решений, вовлечение общественности и существующие механизмы реализации политики. В статье исследуется функциональная задача молодёжи в осуществлении молодёжной политики, научно-практические подходы, национальный и международный опыт. Эти анализы служат для разработки и эффективной организации молодёжной политики.

Ключевые слова: молодёжь, функциональные задачи, молодёжная политика, государство, прогресс, развитие, приоритетные задачи, государственная политика.

FUNCTIONAL ROLE OF YOUTH IN IMPLEMENTATION OF YOUTH POLICY

Abstract. This article examines the functional role of youth in the implementation of youth policy. Various aspects of youth engagement are also discussed, including advocacy, participation in decision-making, public involvement, and existing mechanisms for policy implementation. The article analyzes the functional responsibilities of youth in implementing youth policy, scientific and practical approaches, as well as national and international experiences. These analyses serve to create and effectively organize youth policy.

Keywords: youth, functional responsibilities, youth policy, state, progress, development, priority tasks, state policy.

Kirish. Bugungi kun globallashuv jarayonlarida har bir davlat siyosi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlashda yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ularga munosib sharoit yaratishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olmoqda. Chunki yoshlar jamiyat kelajagining asosi, innovatsiya va taraqqiyot omilidir. Shu bois, yoshlar siyosatini amalga oshirish masalasi dunyo mamlakatlari siyosiy kun tartibida muhim o'rinn egallaydi. Mazkur maqolada yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning funksional vazifasi, ilmiy-amaliy yondashuvlar, milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Yoshlar jamiyatning muhim qismi bo'lib, mazmunli o'zgarishlar va innovatsiyalarni amalga oshirish salohiyatiga ega. Ijtimoiy-siyosiy hayotning faol ishtirokchilari sifatida yoshlar o'ziga xos istiqbol va tushunchalarga ega bo'lib, ular yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning funksional rolini tan olish nafaqat ularning ehtiyojlari moslashtirilgan, balki ularning vakolatlari va vakolatlarini oshirishga yordam beradigan siyosatni yaratish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar sharhi. Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo'lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida mas'uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan

birdir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning zamirida —Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sarił degan hayotiy g'oya turibdi. Milliy yuksalish faqatgina ma'naviy sohada emas, balki demokratik jamiyat va huquqiy davlat, farovon va tinch-osuda hayot, iqtisodiy jihatdan barqarorlik kabi hayotimizning barcha sohalarini taraqqiy ettirishni ko'zda tutadi. Bu jarayonlar davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning tashabbusi asosida ilgari surilgan. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning 2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi, uzoq muddatli 2030- yilga qadar mo'ljallangan taraqqiyot konsepsiyasida o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, —Raqamli iqtisodiyot-2030, ta'lim tizimini taraqqiy ettirishning 2030- yilga qadar mo'ljallangan konsepsiysi va boshqalar buni yaqqol namoyon etmoqda [3].

Yoshlar siyosatini amalga oshirish, eng avvalo, jamiyatda yoshlar manfaatlari va ehtiyojlarini ta'minlash, ularni jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga jalg qilishni nazarda tutadi. Zaminda yoshlar siyosatining asosiy maqsadi — yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual, ma'naviy-psixologik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning funksional vazifasi bir necha muhim yo'naliishlarda aks etadi:

- **Ijtimoiy faoliik:** Yoshlar siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish, nodavlat tashkilotlar, muxtor birlashmalar va boshqa platforma orqali jamoat ishlariiga aralashib, qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashishi lozim.

- **Innovatsion tashabbuslar:** Yoshlar yangi g'oyalari, innovatsiyalarga moyillik jihatdan faoldir. Iqtisodiyot va texnologiyalar taraqqiyotida yoshlar tomonidan ilgari surayotgan texnologik yechimlar, startaplar muhim ahamiyatga ega.

- **Ta'lim va mutaxassislik:** Yoshlar siyosatini amalga oshirishda eng muhim jihatlardan biri — sifati yuqori ta'lim olishga keng yo'l ochish. Yoshlar yuqori malakali mutaxassis sifatida rivojlangan jamiyatdagi yuqori texnologiyali sohalarda muhim rol o'ynaydi.

- **Madaniy-marifiy jihat:** Yoshlar jamiyat ma'naviy asosini mustahkamlash, milliy qadriyatlar hamda xalqaro madaniyat yutuqlarini o'zlashtirishda asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

- **Iqtisodiy taraqqiyotdagi ishtiroki:** Yoshlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatda iqtisodiy faollikni ta'minlashda katta salohiyatga ega.

Muhokama. Har bir jamiyat va davlatning taraqqiyotini, uni amalga oshirishga qaratilgan strategik dastur yoki konsepsiylar bo'lmasin ularning barchasini amalga oshiruvchi kuch bu inson omilidir. Bunda bu omilning ma'naviy-ruhiy, iqtisodiy-huquqiy, jismoniy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi va uning imkoniyatlari har tomonlama kafolatlanishi muhim shart hisoblanadi. Xusan, shaxs ma'naviy madaniyati o'z o'rnda insonning ham ma'nan, ham jismonan va moddiy jihatdan yuksalishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ma'naviy madaniyat jamiyatning barcha sohalari va tarmoqlarini rivojlantirishga hissa qo'shish bilan birga ulardan ma'naviy kuch oladi, ijobji ma'noda ta'sirlanadi. Masalan, jamiyatning badiiy sohasi intellektual muammolarni funksional ravishda hal qiladigan madaniyatning ixtisoslashgan sohalaridan biridir. San'at madaniyati uning muvaffaqiyatlari ishlashini ta'minlaydigan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Dunyoga estetik munosabat jamiyat hayotining har qanday sohasidagi badiiy faoliyat uchun zarur shartdir. Aslida, badiiy madaniyat xayoliy voqeliklar dunyosini loyihalashtiradi, bunda odamlar e'tiborini ma'naviy madaniyatning ushbu mavzuda aktual bo'lgan axloqiy, estetik va boshqa muammolarga qaratadilar. Jamiyatning ma'naviy hayotini tahlil qilish hozirgi paytda falsafaning eng muhim muammolaridan biridir. Bundan tashqari inson biotizimini intellektual bilish, uning ishlashi, himoyasi va saqlanishi ma'naviy madaniyatning turli shakllari orqali ma'naviy madaniyatning tibbiy sohasidagi eng muhim vazifalardir. Jismoniy va ma'naviy madaniyatning shakllari insonning madaniyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va talablarga ega bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq inson faoliyatini tartibga soladi. Shaxs jismoniy madaniyatining ma'naviy qadriyatlariga har tomonlama jismoniy rivojlanish sohasidagi maxsus bilimlar, jismoniy barkamollik g'oyalari, ularga qanday erishish mumkinligi haqidagi g'oyalari, muayyan sport turlarining xususiyatlari, uning tarixi, rivojlanish istiqbollarli va boshqalar kiradi. Jismoniy madaniyat - bu iqtisodiyot, ekologiya, siyosiy boshqaruv, tibbiyot, pedagogika, san'at madaniyati, fan bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisadir [4]. Sotsiologlar tomonidan an'anaviy ravishda jamiyatni to'rtta katta sohaga - iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarga bo'lib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy soha odamlarning etnik jamoalari (urug', qabila, xalq, millat va boshqalar), turli tabaqalar - xizmatchilar, dehqonlar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan ifodalanadi. Siyosiy soha hokimiyat tuzilmalarini (davlat, siyosiy partiylar, siyosiy tashkilotlar va harakatlar va boshqalar) qamrab oladi. Ma'naviy sohaga odamlarning falsafiy, diniy, badiiy, huquqiy, siyosiy, axloqiy va boshqa qarashlari, shuningdek, ularning kayfiyati, hissiyotlari, dunyo haqidagi g'oyalari, urf-odatlari va boshqalar kiradi.

Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning asosiy vazifalari

1. **Qarorlar qabul qilishda qatnashish.** Yoshlarni jamiyat siyosiy hayotida faol qatnashishi, ularning siyosiy partiyalar, yoshlar ittifoqlari, mahalliy kengashlar yoki xalq deputatlari kengashlaridagi o‘rnini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlar o‘zları qabul qilinayotgan qarorlarning manfaatdor subyekti sifatida qatnashishi lozim.

2. **Liderlik salohiyatini rivojlantirish.** Yoshlar siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirishida yosh liderlarni tayyorlash, ularda tashabbuskorlik, mas’uliyat, jamoaviy ish ko‘nikmalari, ziddiyatli vaziyatlarda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish muhimdir. Liderlik salohiyatiga ega yoshlar jamiyatda moddiy hamda ma’naviy islohotlarni boshlash uchun kerakli mustahkam poydevorni yaratadi.

3. **Iqtisodiy faollik va tadbirdorlik.** Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yoshlar tadbirdorligini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali yoshlar o‘rtasida ishsizlik muammosini kamaytirish mumkin. Yoshlarda birlamchi biznes ko‘nikmalari, startap tashkil etish imkoniyatlari, innovatsion loyihalarni amalga oshirish zaruriyati hamda shu boradagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yo‘lga qo‘yilishi lozim.

4. **Ijtimoiy masalalarda tashabbuskorlik.** Yoshlar ekologiya, ixtiyorilik (volontyorlik), jinoyatchilikni kamaytirish, madaniy merosni asrab-avaylash kabi muhim ijtimoiy jarayonlarda tashabbuskor bo‘lishi kerak. Chunki yoshlar o‘zları yashayotgan muhitni yaxshilash jarayonida faollik ko‘rsatar ekan, bu butun jamiyatni rivojlantirishga ko‘mak beradi.

5. **Aqliy salohiyat va ilmiy faoliyat.** Yoshlar siyosatini amalga oshirishda ilmiy salohiyatni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini oshirish, ilmiy institutlar, oliy ta’lim muassasalarini bilan hamkorlikda yoshlarning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratish orqali mamlakat innovatsion taraqqiyot poydevorini mustahkamlash mumkin.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda davlatning barqarorligini, tinchligi, taraqqiyoti, harbiy qudrati, iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari, milliy manfaatlari xavfsizligi masalalari jamiyat va davlatning asosiy faoliyati manbalari, ya’ni inson omiliga bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Bu zamona viylashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Inson omilining ongi, madaniyati, fikrlesh darajasi shu davlat va jamiyatning manfaatlari, qadriyatlar, tarixiy o‘tmishini o‘zida mujassamlashtirgan milliy g‘oya va mafkuralar, qarashlar sifatida aholiga yetkaziladi va singdiriladi. Bu vazifa esa avvalo ijtimoiy institutlar, ayniqsa oila, qadriyatlar, urfodatlar orqali amalga oshiriladi. Sharq xalqlari, xususan, O‘zbekiston misolida bu ibora jamiyatning asosiy negizi sifatida hanuzgacha katta ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashning ijtimoiy manbalariga quyidagilarni kiritish mumkin: oilani, bolalar bog‘chasini, maktabni, kutubxonalarini, muzeylarni, madaniy markazlarni, teatr, kino, OAV, ijtimoiy tashkilotlarni (ijodiy uyushmalar), ishlab chiqarish korxonalarini, davlat organlarini, xalqaro institutlar va boshqalar shular jumlasidandir.[5] Ularning barchasi turli darajada va turli tomonlardan inson dunyoqarashining rivojlanishi va ma’naviy kamolotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham R.A.Umrzoqova — Tarbiya shakllariga jamiyatdagi turli maxsus bo‘g‘inlar mas’ul bo‘lsa-da, oila barcha shakllardagi tarbiya jarayonida to‘ldiruvchi, mustahkamlovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarga singdirila boshlangan yangi g‘oya va qarashlar oila muhitida mazmunan boyitiladi, deb ta’kidlaydi. Kutubxonalar va muzeylar ma’naviy qadriyatlarni amalga oshirilishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashkilotlar sifatida tashkil qilingan. Ular bugungi kunda ham shu qadriyatlarni amalga oshirilishiga imkon yaratishi mumkin, biroq bu yo‘naltirilganlikni doimiy ravishda yangilab turish zarur. Hozirgi kunda an’anaviy ma’naviy tashkilotlarda ko‘ngilochar tijorat manfaatlari ustun bo‘lib, ularning ishida qoloq, davr talabidan yiroq narsalar juda ko‘p. Shuningdek postmodernizm xavfi ham mavjud, u ruhan to‘liq shakllanmagan odamlarga sindiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning roli va funksional vazifasi bo‘yicha bir necha mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tahlillarida, asosan, quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

1. **B. Berdiboev** (2018) o‘z maqolalarida yoshlar siyosatining huquqiy asoslari, yoshlar tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, talabalar ittifoqlari) hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga e’tibor qaratgan. U davlat rahbarlarining yoshlar hayotiga oid farmon va qarorlari, shuningdek, ularni amalda tatbiq etish mexanizmlarini ilmiy tarzda izchil o‘rganib chiqqan.

2. **M. Xoliqov** (2020) yoshlar siyosatini shakllantirishda yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish, siyosiy jarayonlarga jalb etish orqali siyosiy faollikni oshirish borasida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqdi. U o‘z tadqiqotlarida yoshlar siyosatining dasturlari va strategiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari haqida fikr yuritadi.

3. **A. To‘rayev** (2021) yoshlar siyosatining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etib, har bir hududdagi yoshlar muammolari, ehtiyojlari va imkoniyatlari turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Shu asosda, mintaqaviy

dasturlar orqali yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish uchun aniq takliflar bildirgan.

4. **Sh. Jo'rayev** (2019) demokratik jarayonlarda yoshlar ishtiroki va siyosiy partiylar safiga yoshlarning kiratilishi masalasiga e'tibor qaratgan. U siyosiy partiylar platformasida yoshlar masalasi qanday aks etgani, partiyalarning yoshlar bilan ishslash usullarini taqqoslاب tahlil qiladi.

5. **P. Kelly** (2001, Avstraliya) xalqaro tadqiqotida yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi innovatsion roli, yosh avlod tarbiyasi va ta'limgardagi tarbiya jarayonlarida davlat siyosatini turli soha vakillari bilan hamkorlikda olib borilishini muhokama qiladi. U globallashuv sharoitida yoshlar siyosatini lokallashtirish zarurligini tilga oladi.

R. Macdonald (2011, Buyuk Britaniya) yoshlar siyosatini amalga oshirishda iqtisodiy faktorlar — ishsizlik, kasbiy qayta tayyorlash, moddiy rag'batlantirish kabi mexanizmlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Muallif fikricha, yoshlarga yo'naltirilgan iqtisodiy dasturlar, xususan, tadbirkorlikni rag'batlantirish, imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali yoshlarga o'z loyihibarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish kerak.

Ўзбекистон ёшлар бандлигини таъминлашдаги ижтимоий хавфсизлик ҳолатини интеграл баҳолаш



1-rasm. O'zbekiston yoshlar bandligini ta'minlashdagi ijtimoiy xavfsizlik holatini integral baholash

Agar milliy taraqqiyotning ibtidosi ta'limgardagi yetuklik va jamiyatda yangicha tafakkurning shakllanishi siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa, uning davomiyligi Vatan va yurt manfaatining ustuvorligi hamda ta'minlanishi bilan uyg'unlashib ketadi. —Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. —Muborizayi hayot maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarining asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurilarlar. Shuning uchun Turkiston musulmonlariga ibtidoiy maktablarni ko'paytirmoq lozimdir. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni ko'proq yoshlar va ularning ma'naviy, intellektual salohiyati, siyosiy va huquqiy bilim darajasiga bog'liqdir. Bu omillarni to'g'ri anglagan holda mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida 2018- yil 30- sentyabrda PQ-3955 sonli —Maktabgacha ta'limgardagi tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi Qarori, 2019- yil 8- mayda —Maktabgacha ta'limgardagi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilinishi, yoshlarimizga bolalikdanoq ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirishdan iboratdir. Darhaqiqat, har bir mamlakatda aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi ma'naviy intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir [6].

Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning ishtiroki ularning ob'ektiv vogelikka munosabatida to'la namoyon bo'ladi. Boshqaruv jarayonidagi bunday munosabat har bir insonning jamiyat siyosiy hayotida o'z o'rniiga ega bo'lishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy maqsad va manfaatlarini qondirishi hamda, ularni amalga oshirish yo'lidagi harakatlari asosida yuz beradi.



2-rasm. Global transformatsion jarayonlarning yoshlar ishsizligiga ta'siri

Jamiyatda yangicha munosabatlar tarkib topayotgan hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari kengaygan. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda dunyodagi har qanday davlatning obro'si va nufuzi, kuch-qudrati, uning moddiy boyliklari, iqtisodiy taraqqiyoti, harbiy quvvati bilan emas, balki avvalo, yuksak ma'naviy salohiyati bilan ham belgilanadi. Xalqning, millatning ma'naviyma'rifiy boyligi esa har tomonlama yetuk iste'dodli va qobiliyatli, axloqli va bilimli yoshlar tomonidan rivojlantiriladi. Lekin shunday bo'lsada masalaning yana bir tomoni hozirgi tez sur'atlar bilan dunyo hamjamiatida rivojlanib borayotgan davlatlarning barkamol avlod tarbiyasida ularga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillardan doimiy ravishda himoyalash dolzarb masaladir. O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi 24 yoshni tashkil etadi. Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'likdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatdan ham yo najot, yo halokat, saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir. Demak, mamlakatimizda yoshlarning jamiyat taraqqiyotiga nisbatan ongli munosabati, undagi ishtiroki va faolligisiz milliy taraqqiyotni tasavvur qilish qiyin.

O'zbekiston sharoitida yoshlarga ijtimoiy taraqqiyotning muhim «katalizatori» sifatida qaralishining eng asosiy sabablaridan biri ham ular tarkibi, ongi va dunyoqarashi bilan bog'liq. Negaki, yoshlar dunyoqarashi bugungi yangilanishlar jarayonida shakllanib bormoqda. Shu sabab ham davlat siyosatida bu masalaga alohida yondashilmoqda. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat sharoitida siyosiy faollik ko'proq yoshlar tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifatga daxldor jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalla, oila kabi fuqarolik jamiyatni institutlari o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa bog'lanishini talab etadi. Umuman bugungi demokratik jarayonlar chuqurlashayotgan, fuqarolik jamiyatni institutlari mavqeい kuchayayotgan sharoitda har qanday masalaning yechimida davlat va jamiyat o'rtasida uyg'unlik ta'minlanmas ekan, islohotlarda kerakli natijalarini qo'lga kiritish mushkul. Demak, islohotlar va ularning samarasi avvalo aholiga, O'zbekiston sharoitida esa yoshlarga, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining, ya'ni siyosiy faolligining darajasiga bog'liqdir.

Jamiyat taraqqiyotida inson omili xususida dunyo tajribasidan misol keltirsak, ikkinchi jahon urushida honavoyran bo'lgan Germaniya va Yaponiya kabi davlatlar bugungi kun taraqqiyotida inson omilining naqadar katta kuch bo'la olishini isbotladi. Inson ma'naviy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng katta tahdidlardan biri bu – korrupsiyadir. Bugun dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat doirasidagi yirik korruption jinoyatlardan ko'ra maishiy korrupsiya katta yo'qotishlarga olib keladi. Jumaladan, ta'lim tizimidagi oddiygina sessiyadagi —baho olishlар jarayoni kelgusida katta-katta ijtimoiy larzalarga sabab bo'lishi mumkin. Janubiy Afrika Respublikasi Stellenboss universiteti peshtoqiga quyidagi ibora yozib

qo‘yilgan: «Har qanday millatni yo‘q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofali raketa shart emas [1]. Buning uchun ta’lim sifatini tushirib, imtihonlarga allov aralashtirishning o‘zi kifoyadir. Bu tarzda ta’lim olgan shifokorlar qo‘lidan bemorlar o‘lim topadi, quruvchilar qurgan uy va binolar vayron bo‘ladi, iqtisodchi va hisobchilar qo‘lida moliyaviy resurslar sovuriladi,adolat ham shunday huquqshunos va sudyalar qo‘lida zavol topadi». Taassufki, oliy ta’lim tizimida asosan talabalik safiga qabul qilish, o‘qish jarayonida topshiriladigan turli sinovlar, talabalarning bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish, magistraturaga qabul, shuningdek, talabalarning o‘qish joyini ko‘chirish, o‘qish yo‘nalishini o‘zgartirish hamda o‘qishga qayta tiklashda korrupsiya holatlari kuzatilmoxda. Davlatimiz rahbari bu kabi muammolarning oldini olish borasida quyidagi mulohazani ilgari surgan edi: —Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, —halollik vaksinasi bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘yan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak!. Chunki, korrupsiya davlatni ichidan yemiruvchi hamda milliy xavfsizligimizga ta’sir o‘tkazadigan xatarli tahdid va unga qarshi kurashish barchamizni oldimizdagい vazifadir [2].

1. **Huquqiy asoslarni takomillashtirish.** Yoshlar siyosatini amalgalashda eng avval huquqiy bazani mustahkamlash kerak. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida” gi qonunlar, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari yoshlar bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladi. Masalan, O‘zbekistonda “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risida” gi qonun, shu bilan birga, shu yo‘nalishdagi bir qator me’yoriy-huquqiy xujjatlar yoshlar huquqlari va manfaatlarini kafolatlaydi.

2. **Yoshlar tashkilotlari va institutlari faoliyatini rag‘batlantirish.** Yoshlar siyosatini amalgalashda turli nodavlat tashkilotlar, yoshlar ittifoqlari, talabalar ittifoqlari, ixtiyoriylik harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ushbu tashkilotlar faoliyatini moliyaviy, tashkiliy va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash natijasida yoshlar tashabbuskorligini oshirish imkonini paydo bo‘ladi.

3. **Maorif va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.** Jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri — ta’lim sifatini oshirishdir. Oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanayotgan markazlar orasida uzviy hamkorlikni ta’minalash orqali yosh avlodni zamonaviy tajriba, texnologiya va ilmiy yutuqlar bilan tanishtirish muhimdir.

4. **Milliy hamda xalqaro hamkorlik.** Yoshlarning chet elda ta’lim olishi, stajirovkalar, tadbirkorlik loyihibarida ishtirop etishi, xalqaro festival va forumlarda qatnashishi orqali ularning malakasi, ko‘nikma va dunyoqarashi kengayadi. Har bir mamlakat yoshlar siyosatida xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish orqali yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

5. **Aholini xabardor qilish va targ‘ib-tashviq ishlari.** Yoshlar siyosatining natijador bo‘lishi uchun jamoatchilik, xususan, ota-onalar, ta’lim tizimi xodimlari, mahalla faollari orasida targ‘ibot ishlari olib borish zarur. Media platforma, televidenie, internet tarmoqlarida yoshlar masalasiga oid ko‘rsatuvar, loyihibar, axborot dasturlari joylashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlarga oid siyosatni amalgalashda yoshlarning faol ishtiropi boshqaruvga inklyuziv va samarali yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishtiropi nafaqat ushbu siyosatning dolzarbliji va ta’sirini kuchaytiradi, balki yoshlarda egalik va mas’uliyat hissini tarbiyalaydi. Ularning advokatlar, qaror qabul qiluvchilar va jamiyat ishtiropchilari sifatidagi rollarini qabul qilish orqali biz ular duch keladigan muammolarga yanada nozik va samarali yechimlarni ishlab chiqishimiz mumkin. Siyosatchilar yoshlarning faolligini birinchi o‘ringa qo‘yishi va mazmunli muloqot uchun platformalar yaratishi, yoshlarning ovozi eshitilishi va qadrlanishini ta’minalashi kerak. Pirovardida, siyosatni ishlab chiqish jarayonida yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish ular o‘z salohiyatini ro‘yogba chiqarishi va jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘sishi mumkin bo‘lgan porloq kelajakka yo‘l ochadi. Umuman olganda, yoshlar siyosatini amalgalashda yoshlarning funksional vazifasi ko‘p qirrali bo‘lib, siyosiy faollik, iqtisodiy jahbada tashabbuslar, ilmiy-innovatsion loyihibar, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, madaniy merosni asrab-avaylash kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish, ularni qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtiropchi sifatida jalb etish tizimi yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlar jamiyatda demokratik qadriyatlar, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot va siyosiy barqarorlikni ta’minalashda yuqori samaradorlikka erishadi.

Tavsiyalar.

1. **Yoshlar siyosatining huquqiy bazasini mustahkamlash:** Yoshlar huquqlarini kafolatlaydigan va ularning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotda erkin ishtiropi uchun sharoit yaratib beradigan qonunchilik bazasini yangilash yoki takomillashtirish.

2. **Yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish:** Yoshlar ittifoqlari, talabalar ittifoqlari, nodavlat tashkilotlar bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirish, ularga grantlar ajratish, tashkiliy yordam ko'rsatish mexanizmini yaxshilash.
3. **Ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etish:** Yoshlarning aqliy salohiyatini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ta'lim sifatini oshirish, ilmiy izlanishlarga keng yo'1 ochish, malakali ustozlar tajribasidan keng foydalanish.
4. **Iqtisodiy rag'batlantiruvchi choralarни kuchaytirish:** Yoshlar tadbirkorligi va startaplarini qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, kreditlar, imtiyozlar berilishini tartibga soluvchi mexanizmlarni takomillashtirish.
5. **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:** Chet el oliyohlari, ilmiy markazlari bilan qo'shma dasturlar tashkil etish, xalqaro forumlar va festivallarda yoshlar ishtiroki uchun sharoit yaratish.
6. **Jamoatchilik targ'ibotini kuchaytirish:** OAV, internet platformalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar orqali yoshlar siyosatining dolzarbligi, imkoniyatlari va natijalari haqida tizimli axborot berish.

ADABIYOTLAR:

1. *Sherbutayevna, J. G., & Ilhomjon o'g, Y. L. S. (2024). Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish—davlat siyosatining ustuvor vazifasi. zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi, 1(1).*
2. *Aliqulovich, O. O., & Jahongirovna, T. J. (2024). Jamiyat huquqiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yoshlar siyosati. Science and innovation, 3(Special Issue 20), 269-272.*
3. <https://lex.uz/rus/docs/-5234746>.
4. <http://uzdon.uz/uz/content/interactive/incoterms/>.
5. <https://uzal.uz/yoshlar-kengashi/>.
6. <https://president.uz/oz/lists/view/748>.

**ERONDA PARLAMENT SAYLOVLARINING MAMLAKAT SIYOSIY TIZIMIGA TA'SIRI
(TARIXIY TAHLIL)**

*Xodjimuratova Dilshoda Sunnatillayevna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)
dilshoda_xodjimuratova@tsuos.uz*

Annotatsiya. Maqolada Eron Islom respublikasidagi parlament saylovlarining huquqiy va siyosiy jihatlari tahlil qilingan. Eron saylov tizimi an'anaviy demokratiya tamoyillari va teokratik nazorat mexanizmlari o'rtasida murakkab jarayondan iboratligi, unda Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi nomzodlarni saralash va qonun loyihamini tasdiqlash orqali parlament faoliyatini cheklash vakolatiga egaligi yoritilgan. Maqolada konservativ va islohotchi kuchlar o'rtasidagi saylov jarayonidagi raqobat jarayonlari tahlil qilinib, Kuzatuv kengashining konservatorlar g'alabasini ta'minlashdagi roli ko'rsatilgan. Shuningdek, saylov jarayonida ovoz beruvchilarning ishtirok etish dinamikasi va siyosiy muxolifatga nisbatan cheklovlar muhokama qilingan. Ushbu maqolada Eron saylov tizimining transformatsiya jarayonlari va uning mamlakat siyosiy tizimidagi ahamiyati o'chib berilgan.

Kalit so'zlar: Parlament (majlis), konservatorlar va islohotchilar, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi, Islom respublikasi partiyasi, "Tude" partiyasi.

ВЛИЯНИЕ ПАРЛАМЕНТСКИХ ВЫБОРОВ В ИРАНЕ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СИСТЕМУ СТРАНЫ (ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. В статье проанализированы правовые и политические аспекты парламентских выборов в Исламской Республике Иран. Отмечено, что избирательная система Ирана представляет собой сложный процесс, находящийся на пересечении принципов традиционной демократии и механизмов теократического контроля. Подчёркнуто, что Совет стражей конституции обладает полномочиями ограничивать деятельность парламента посредством отбора кандидатов и утверждения законопроектов. В статье проанализированы процессы конкуренции между консервативными и реформаторскими силами в ходе избирательного процесса, а также показана роль Наблюдательного совета в обеспечении победы консерваторов. Кроме того, обсуждаются динамика участия избирателей в выборах и ограничения в отношении политической оппозиции. В статье раскрыты процессы трансформации избирательной системы Ирана и её значение в политической системе страны.

Ключевые слова: Парламент (Маджлис), консерваторы и реформаторы, Совет стражей Конституции, Партия Исламская Республика, Партия "Туде".

IMPACT OF IRAN'S PARLIAMENTARY ELECTIONS ON THE POLITICAL SYSTEM OF THE COUNTRY (HISTORICAL ANALYSIS)

Annotation. The article analyzes the legal and political aspects of parliamentary elections in the Islamic Republic of Iran. It is noted that Iran's electoral system is a complex process situated at the intersection of traditional democratic principles and mechanisms of theocratic control. It is emphasized that the Guardian Council has the authority to limit the activities of the parliament through candidate selection and the approval of legislative bills. The article examines the competitive processes between conservative and reformist forces during the electoral process and highlights the role of the Supervisory Council in ensuring the victory of conservatives. Additionally, the dynamics of voter participation in elections and the restrictions imposed on political opposition are discussed. The article reveals the transformation processes of Iran's electoral system and its significance within the country's political framework.

Keywords: Parliament (Majlis), conservatives and reformists, Council of Guardians of the Constitution, Islamic Republic Party, "Tude" party.

Kirish. Eron saylov tizimi uzoq tarixga ega bo'lib, amaldagi hokimiyatni legitimlashtirishda muhim o'rinn tutadi. Eron Konstitutsiyasi bo'yicha bir nechta saylov asosida rahbar tayinlanadigan institutlar belgilangan. Eronda prezidentlik va parlament (majlis) saylovlari islohotchilar va konservativ kuchlar vakillari o'rtasida kechadigan keskin kurash sharoitida o'tadi.

Eronning partiyaviy tizimi shartli ravishda uch qanotga bo‘lingan: o‘ngchilar, markazchilar va so‘lchilar, ya’ni konservatorlar (“mo‘tadil konservatorlar”, “radikal fundamentalistlar”, ya’ni “qattiq siyosat” tarafdarlari), markazchilar (pragmatiklar yoki “mo‘tadillar”) hamda islohotchilar (liberallar). Eron konservatorlari kichik va o‘rta tadbirkorlar ko‘magida islom inqilobi va hozirgi teokratik tuzumning asosiy prinsiplarini saqlab qolishga intiladilar. Ular Eronning jahon iqtisodiyotiga faol integratsiya bo‘lishiga qarshi. Islohotchilar esa iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiyashtirish hamda mamlakatni jahon ishlab chiqarishi va iqtisodiy aloqalariga integratsiyasini ilgari suradilar. Ular amaldagi konstitutsiya doirasida siyosiy tizimni o‘zgartirish mumkin deb hisoblaydilar. O‘z navbatida, mo‘tadil pragmatiklar mazkur ikki yondashuv vakillarini o‘zaro murosaga keltirishga harakat qilishadi.

Islom inqilobidan keyin parlamentga bиринчи saylov 1980-yil mart-may oyalarida bo‘lib o‘tgan. Aksariyat liberal va so‘l qanot nomzodlari saylovga qo‘yilmadi. Natijada Majlisda ko‘pchilikni Ruhulloh Xumayniyning konservativ qarashdagi tarafdarlari, shuningdek, ruhoniyat vakillari tashkil etdi [3; c. 509].

Islom respublikasi partiyasi parlamentda 270 ta o‘rindan 85 tasini, uning koalitsiyadagi sheriklari esa 45 ta o‘rinni oldi. Beshta o‘rin kam sonli din vakillariga (armanlar, ossuriylar, zardushtiyalar, yahudiylarga) berildi. Ushbu tartib parlamentning har bir yangi chaqirig‘ida takrorlandi. Hukumatga qarshi qurolli harakatlar kechayotgan Kurdiston va Balujistonning ayrim hududlarida saylov o‘tkazilmadi. Bu Eron tarixidagi eng erkin saylovlar bo‘lib, unda ishtirok etgan ko‘plab partiya va siyosiy harakatlar keyingi yillarda noqonuniy deb e‘lon qilindi. Masalan, saylovda ishtirok etgan “Milliy front” birlashmasi parlamentda to‘rt nafar deputat vakili bo‘lishiga erishdi, biroq ular keyinchalik lavozimidan chetlashtirildi. Saylovda “Tude” kommunistik partiyasi hamda Eron “Xalq mujohidlari tashkiloti” ham ishtirok etdi, ammo ularning vakillari deputatlik mandatlariga erisha olmadi. Bundan tashqari, bu paytda hali nomzodlarni qattiq tanlash tartibi ishlab chiqilmagan edi. Ana shu saylovda deputatlik mandatlarining salmoqli qismini (42,6%) mustaqil nomzodlar qo‘lga kiritdi [11].

Adabiyotlar sharhi. 1984- yil 15- aprel va 17- may kunlari o‘tkazilgan parlament saylovlari natijasida Majlisga o‘sha vaqtda faoliyatiga ruxsat berilgan yagona partiya bo‘lgan Islom respublikasi partiyasi kirdi. Mazkur partiya 130 ta o‘ringa ega bo‘ldi. Qolgan mandatlarning (140 tasini) esa mustaqil nomzodlar oldi. Tadqiq etilayotgan davrda Eron saylovchilarini bir muncha faol bo‘lgani qayd etiladi, xususan, ovoz berish jarayonida saylov berish huquqiga ega bo‘lgan aholining 65,1 foizi ishtirok etgan. Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy 1980-1989-yillar parlament spikeri sifatida faoliyat ko‘rsatdi [13].

Uchinchi parlament saylovlari 1988-yil 8-aprel va 13-may kunlari bo‘lib o‘tdi. Unda jami deputatlik o‘rinlarining 63 foizini “Kurashayotgan ruhoniyat jamiyat” qo‘lga kiritdi. Saylovda ishtirok etish istagini bildirgan 1666 nafar nomzodning 20 foizi ovoz berish jarayonidan chetlashtirildi. Deputatlikka tasdiqlanganlarning 20 foizini taniqli ruhoniyat vakillari tashkil etdi. 1987-yil may oyida Islom respublikasi partiyasi tarqatib yuborilgani bois saylovlarda ishtirok etmadidi. Bundan tashqari, “Kurashayotgan ruhoniyat jamiyat” dan “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi” deb nomlangan radikal-konservativ qanot ajralib chiqdi. “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi” saylovlarda mafkura jihatidan o‘ziga yaqin bo‘lgan “Mazlumlar koalitsiyasi” bilan birga qatnashdi. Parlament saylovlarida asosiy kurash ana shu ikki guruh o‘rtasida kechdi. Parlamentdagi ulamolar soni avvalgi chaqiriqdagilarga nisbatan sezilarli kamaydi[12].

1980-1992-yillarda radikal-konservativ qarashlarga ega ruhoniyat vakillari va ziyorolar parlamentda ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ular davlatning iqtisodiyotni vertikal nazorat qilish siyosatini qo‘llab-quvvatladilar, aholining madaniy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi ko‘plab cheklarchi normalarni amaliyotga joriyladilar. 1992-yilda ko‘pgina so‘l qanot nomzodlari saylovdan chetlatilganidan keyin parlamentdagi o‘z fraksiyalariga tegishli aksar mandatlardan mahrum bo‘ldilar. 1989-yili Oliy rahbar R.Xumayniy vafotidan so‘ng parlamentning mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy roli sezilarli darajada yuksalgani kuzatildi. Bu ayniqsa, Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniyning ikkinchi prezidentlik davrida, parlament prezident va hukumat tashabbusi bilan boshlangan ko‘plab iqtisodiy islohotlarga to‘sinqil qilganida yaqqol ko‘zga tashlandi [2; p. 120].

Umuman olganda, 1992-1996-yillarda o‘tkazilgan parlament saylovlari tomonlarning o‘zaro shiddatli ayblovlar fonida o‘tdi. 1992-yilda “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi” ga parlament saylovlarida qatnashishiga ruxsat berilmadi. Natijada uning parlamentdagi a’zolari hukumatni tark etdi. 1996-yilgi saylovlarda konservatorlar va markazchilar (“Bunyodkorlik pudratchilar” partiyasi) o‘rtasida jiddiy to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Biroq eng yirik so‘l tashkilot (Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi) nomzodlari Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashi (Kuzatuv kengashi) tomonidan chetlashtirilishidan qo‘rqib, saylovda qatnashishdan bosh tortdi. Ushbu ikkita saylov kampaniyasi natijasida eng nufuzli konservativ partiya (Kurashayotgan ruhoniyat jamiyat) 1992-1996-yillarda texnokratlar bilan koalitsiya tuzgan holda 1996-2000-yillarda parlamentda ko‘pchilik o‘rinni qo‘lga kiritdi. 1996-yilda saylangan parlamentda Majlis spikeri uchun siyosiy partiyalarining 241 nafar deputati ovoz berishi natijalari quyidagi holatni ko‘rsatdi:

“Bunyodkorlik pudratchilar” vakili Abdulloh Nuriyga 105 nafar deputat, Kurashayotgan ruhoniyat jamiyatiga rahbari Aliakbar Natek Nuriyga 133 nafar deputat ovoz berdi [5; c. 184].

Muhokama. 2000-yilgi parlament saylovlari islohotchilar qanoti vakillari 290 ta deputatlik mandatidan 195 tasini qo‘lga kiritdi. Buning natijasida Prezident Muhammad Xotamiy (1997-2005 yy) Majlisda o‘ziga yaqin hukumat a’zolariga tayanish imkoniga ega bo‘ldi[1; p. 340]. Ushbu holat Eron jamiyatida aholi orasida ijtimoiy o‘zgarishlar va demokratlashtirish jarayoni ommaviy tus olganidan dalolat beradi.

M.Xotamiy davrida “Eron islom hamjihatlik fronti” siyosiy partiyasi parlamentdagi eng nufuzli partiyalardan biriga aylandi. Mazkur partiya deputatlari 2000-yilgi saylovlarda parlamentning 150 nafargacha deputatlik mandatlariga ega bo‘ldi. “Mulohazakorlik, adolat va erkinlik” - partianing asosiy shiori sifati belgilandi. Talabalar, davlat xizmatchilari va ziyoralar partiyani eng ko‘p qo‘llab-quvvatlab ovoz berdi. Partiyaga M.Xotamiyning ilgari radikal qarashlari bilan ajralib turgan ukasi Muhammadrizo Xotamiy rahbarlik qildi. Qisqa vaqt ichida partiya o‘z nizomi va dasturini ishlab chiqdi, bir qancha yirik shaharlarda boshlang‘ich tashkilotlarini tuzdi va shu tariqa hozirgi kun G‘arb davlatlaridagi siyosiy partiyalar shaklini oldi. Eron siyosiy tizimini yanada demokratlashtirish hamda bozor iqtisodiyotini liberallashtirish “Eron islom hamjihatlik fronti” partiyasi mafkurasining asosiy g‘oyasi bo‘ldi [6; c. 167].

Islohotchi M.Xotamiy prezidentligi davrida parlament qyinoqqa solishni man etish va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish kabi 100 dan ziyod qonun loyihamalarini ishlab chiqdi. Islohotchilar tashabbusi bilan bir qator siyosiy mahbuslar ozod qilindi va boshqalarining ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi shart-sharoitlari yaxshilandi. Davlat jamg‘armalari islohotlar sababli nodavlat madaniy muassasalar va ommaviy axborot vositalariga sarmoya krita boshladi. Biroq ko‘pgina parlament qonunlari loyihamalarini konservatorlar shariat ahkomlariga mos kelmaydi deb baholab, ularni tasdiqlanishini blokladi. Ziyorilarning muxolif vakillarini ta’qib etish davom ettirildi. M.Xotamiy Islom inqilobi qo‘riqchilari korpusining mazkur choralarini keskin tanqid qilib, buni demokratiyaga putur yetkazish va ekstremizmga yo‘l ochib berish deb baholadi[1; p. 414]. Bu jarayonlar konservatorlar va islohotchilar o‘rtasida keskin qarama-qarshilik mavjudligiga ishora qiladi. Zero, o‘scha davrda real hokimiyat konservatorlar qo‘lida mujassamlashgan edi. Islohotchilar Erondagi siyosiy guruhlarni ta’qib qilish ishlarini to‘xtattira olmagani bois konservatorlar muxolifatning siyosiy faoliyatini har tomonlama bo‘g‘ish amaliyotini davom ettirdi.

2000-yillarning o‘rtalariga kelib Eron siyosiy tizimida demokratik normalar o‘rnatalganiga qaramay, Oliy rahbar va uning asosiy tarafdarları bo‘lgan nufuzli ruhoniyat vakillari Eron ichki siyosatiga kuchli ta’sirlarini saqlab qoldilar. Konservativ kayfiyatdagi ruhoniyat o‘z siyosiy resurslaridan foydalangan holda islohotchilarning Eron davlat boshqaruvi tizimini yanada liberallashtirishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini islom dini ahkomlariga zid va G‘arb davlatlari ta’siridagi choralar deb baholab, ularning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qildilar. 2004-yilgi saylovlarda islohotchi nomzodlarning aksariyati Kuzatuv kengashi tomonidan chetlashtirilishi konservatorlarning g‘alabasini ta’miladi. Ular parlamentdagi 290 ta o‘rindan 196 tasini qo‘lga kiritdi (konservativ “Bunyodkorlar koalitsiyasi”) va o‘z navbatida islohotchilar 40 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi[4; c. 131]. Islohotchilarning mag‘lubiyati Eron aholisi kutgan demokratik islohotlar mamlakatda muayyan samara bermaganligi bilan izohlanadi.

Eronda 2008-yil mart-aprel oylarida eronliklarning salkam 60% ishtirok etgan parlament saylovlardan islohotchilarning qator nomzodlari chetlatilgani bois “Konservatorlar birlashgan fronti” koalitsiyasi tarkibidagi mo‘tadil kayfiyatdagi siyosatchilar ovoz berish jarayonida parlamentdagi 2/3 deputatlik o‘rinlarini egalladi (islohotchilar 20 foizdan kam mandat oldi) [8]. G‘alaba qilgan mo‘tadil konservatorlar prezident Mahmud Ahmadinajodning ichki va tashqi siyosatini tanqid qila boshladilar.

Tahlil va natijalar. Tadqiq etilayotgan bu davrda parlament va Prezident M.Ahmadinajod o‘rtasidagi kelishmovchiliklar kuchaya bordi. Bu holat parlament va prezident qarorlarning ijro etilishi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shia ruhoniyatining nufuzli vakillari konservatorlar koalitsiyasini tuzishga qaratilgan urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so‘ng, 2012-yilda o‘tkazilgan saylovlarda ularning har biri (mo‘tadil konservatorlar, radikal konservatorlar va markazchilar) alohida-alohida ishtirok etdi. Aksariyat o‘rnlarni M.Ahmadinajodga tanqidiy munosabatdagi “Birlashgan konservatorlar fronti” koalitsiyasi (45,9%) egalladi. Saylovlarning muhim xususiyati shundaki, deputatlik mandatlarining salmoqli qismini (30%) mustaqil nomzodlar egalladi [7; c. 21]. Bunday sharoitda Eron siyosiy maydonida namoyon bo‘lgan barcha siyosiy guruhlar Oliy rahbarning dushmanlar tahdid qilayotgan vaqtida hamjihat bo‘lish haqidagi ko‘rsatmasini bajarish maqsadida, prezident va parlament o‘rtasidagi ziddiyatlarni jamotchilikka ochiq namoyish etmaslikka harakat qildilar. Umuman olganda, 2009-yildan keyin Oliy rahbarning davlat boshqaruvidagi roli va nufuzi sezilarli ravishda oshdi. Bu ayniqa, hokimiyatning barcha tarmoqlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda yaqqol namoyon bo‘ldi [7; c. 21].

2016-yil fevral-aprel oylarida bo‘lib o‘tgan parlament saylovlari prezident Hasan Ruhoniy tarafidori bo‘lgan islohotchilar va markazchilar koalitsiyasi (“Umid ittifoqi”) 49% ovoz bilan g‘alaba qozonib, Majlisda 143 ta o‘rin oldilar. E’tiborga loyiq tomoni shundaki, parlamentga 17 nafar ayol deputatlar saylandi. Bunda ruhoniyat faqatgina 16 nafar o‘z vakillarini parlamentga o‘tkaza oldi [9].

Vashington ma’muriyati 2018-yilda Eronga nisbatan sanksiyalarini qayta tiklaganidan so‘ng mamlakatda yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat sharoitida konservatorlar bloki ko‘pchilikni islohotchilar vakillari tashkil etgan hukumatni mamlakatni boshqarishga qodir emaslikda ayblab, 2020-yilda o‘tkazilishi kutilayotgan parlament saylovlari tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Konservatorlar nazoratidagi Kuzatuv kengashi islohotchilar va markazchilar ilgari surgan nomzodlarning 60 foizini ro‘yxatga olishni rad etdi. Qolgan nomzodlar orasida raqobat parlamentdagi har bir o‘ringa 25 nafar nomzoddan (290 ta o‘ringa 7100 nafar nomzod) to‘g‘ri keldi. Saylovchilar faolligi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha past, ya’ni 42,6 foiz bo‘ldi (avvalgi parlament saylovlari bu ko‘rsatkich 60 foizdan kam bo‘limgan) [10].

2020-yilda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlari mo‘tadil va radikal konservatorlar g‘alaba qozondi. Mazkur saylovlarning o‘ziga xos jihatni shundaki, ular ikki turda o‘tkazilib, yetti oy davom etdi (2020-yil 21-fevraldan 11-sentyabrgacha). Konservatorlar 77% ovoz olib, parlamentda 223 ta o‘rinni egalladilar va natijada islohotchi va markazchi deputatlar soni 20 taga tushdi. Bunda Majlisda 36 ta o‘rinni mustaqil deputatlar, 16 ta joyni ayollar egalladi. Muhammadboqr Qolibof boshchiligidagi mo‘tadil va radikal konservatorlar koalitsiyasi 30 ta o‘rinni qo‘lga kiritdi [10]. Parlament saylovlari natijalari eronlik saylovchilarning konservatorlar yoki islohotchilar nomzodlarini qo‘llab ovoz berishi jarayoni mamlakatdagi siyosiy konyukturadan kelib chiqishini ko‘rsatadi.

Eronda 2024-yili o‘tkazilgan parlament saylovlarda 15200 nafar nomzod Majlisdagi 290 ta o‘rin uchun kurashdi. Bunda nomzodlarning 30 nafarini islohotchilarning vakillari tashkil etdi. Asosiy raqobatni konservatorlar nazoratidagi Kuzatuv kengashi tasdiqlagan nomzodlar ta’miladi. Eron tarixida birinchi marta saylovda ishtirok etish uchun faqat mamlakat siyosiy maydonida namoyon bo‘lgan konservativ koalitsiya nomzodlaringa ruxsat berildi. Muqobil nomzodlar (pragmatiklar, islohotchilar) ishtirok etmagan saylov jarayonida konservatorlar mutlaq g‘alabaga erishdi.

Mazkur davrda parlament saylovlari bilan bir vaqtida Ekspertlar kengashiga ham o‘tkazilgan saylovlarda sobiq Prezident Hasan Ruhoniying ushbu kengash a‘zoligiga nomzodi ma‘qullanmadidi.

2023-yil iyulda Eron hukumati Parlament saylovi to‘g‘risidagi Qonunga kiritilgan ayrim o‘zgartirishlar natijasida Kuzatuv kengashining mamlakat siyosiy partiyalar tizimiga bo‘lgan ta’siri yanada kengaydi. Unga ko‘ra, Kuzatuv kengashi partiya nomzodlarini nafaqat saylovdan oldin, balki ovoz berish natijalari e’lon qilinganidan so‘ng ham ularni chetlashtirish huquqini oldi. Oliy rahbar mazkur o‘zgartirishlardan foydalanib, Kuzatuv kengashi orqali o‘ziga nomaqbtlar bo‘lgan hamda Eronda G‘arb modelida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi tarafdori bo‘lgan liberal nomzodlarning mamlakat siyosiy maydonidan chetlashtirdi.

Xulosa. Umuman olganda, Eron siyosiy tizimiga ko‘ra mamlakat parlamenti qonunchilik faoliyatida asosan maslahatlashuv organi sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, Eron Konstitutsiyasida parlament “Islom kengashi majlisi” deb nomlangan va Kuzatuv kengashining roziligidan birorta ham qonun loyihasi qabul qilinmaydi hamda kuchga kirmaydi. Mazkur tartibga binoan parlament Eron siyosiy tizimini o‘zgartirish vakolatlariga ega emas. Hattoki parlament a‘zolari Eronning eng nufuzli diniy markazi deb hisoblanuvchi Qum shahridagi ulamolardan ishlab chiqilgan qonun loyihalari islam ahkomlariga muvofiqligi borasida maslahatlashuvlar o‘tkazadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Eron saylov tizimi demokratik protsessual shakllar va chuqur ildiz otgan konservativ institutsional nazorat o‘rtasida murakkab munosabat borligini ko‘rsatmoqda. Eron parlamenti 1989-2005-yillar sezilarli transformatsiya bo‘lgani qayd etildi. Unda dastlab an‘anaviy aristokratik elementlar hukmronlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik parlament vakilligiga ijtimoiy tabaqa vakillari ko‘pchilikni tashkil etgani namoyon bo‘ldi. Ayni vaqtida konservatorlar Kuzatuv kengashi vakolatlari orqali o‘ziga maqbul institutsional mexanizmni saqlab qolmoqda. Bu esa konservativ isteblishment Eron siyosiy tizimining fundamental arxitekturasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Eronda 2021-2024-yillari o‘tkazilgan umumxalq saylovlari ovoz berish huquqiga ega fuqarolarning ishtiroki tobora pasayib borayotgani jamiyat ruhoniyat yetakchiligidagi konservatorlar bloki vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlardan jiddiy norozi ekanligiga ishora qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abrahamian E. *A History of Modern Iran*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
 2. Buchta W. *Who Rules Iran? The Structure of Power in the Islamic Republic*. Washington: Washington Institute for Near Policy, 2000.
 3. Алиев С.М. *История Ирана. XX век*. М.: ИВ РАН, 2004.
 4. Филин Н.А., Кокликов В.О., Ходунов А.С. и др. *Современные избирательные системы*. Вып. 16: Иран, Латвия, Литва. — М.: РЦОИТ, 2021.
 5. Филин Н.А. *Социально-историческое развитие Исламской Республики Иран (1979–2008): факторы устойчивости государственной власти*. М: РГГУ, 2012.
 6. Раванди-Фадаи Л.М. *Политические партии и группировки Ирана*. М.: ИВ РАН, 2010.
 7. Дунаева Е.В. *Развитие политического процесса в Иране в 2005–2012 гг. // Иран при М. Ахмадинежаде*. М.: ИВ РАН, Центр стратегической конъюнктуры, 2013.
 8. Дунаева Е.В. *Парламентские выборы в Иране: первые итоги и оценки*. Институт Ближнего Востока. [Электронный ресурс]. 02.04.2008. URL: <http://www.iimes.ru/?p=7011>.
 9. Бондарь Ю.М. *Иран: май 2016 года. Военно-политическая ситуация // Институт Ближнего Востока*. 30.06.2016. URL: <http://www.iimes.ru/?p=28914>.
 10. Сажин В. *Парламентские выборы в Иране и их влияние на внутреннюю и международную политику // Международная жизнь*. [Электронный ресурс]. 04.03.2020. URL: <https://interaffairs.ru/news/show/25567>.
 11. Парламентские выборы 1980 года. Сегодня. Завтра. [Электронный ресурс]. 10.07.2020. URL: <https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1980-goda/>.
 12. Парламентские выборы 1988 года. [Электронный ресурс]. 14.08.2021. URL: <https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1988-goda/>.
13. دو مین دوره انتخابات مجلس.
(Parlament saylovlarining ikkinchi davri). [Elektron manba]. <https://www.parlicktion.ir/second-parliamentary-elections/>

**QISHLOQ VA SHAHAR HUDUDLARI O‘RTASIDAGI IQTISODIY TAFOVUTLARNI
BARTARAF ETISH****Valiyev Oybek Shuxrat o‘g‘li,***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi**Oybekjon.valiev@gmail.com***Ergashov Ziyodullo Bobir o‘g‘li,***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi**ziyodilloergawev406@gmail.com***Toyirov Alijon Yodgor o‘g‘li,***Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi**toyirovalijon571@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonida qishloq va shahar o‘rtasidagi barqaror iqtisodiy tafovutlarni o‘rganadi, bunda daromadlar tengsizligi, ta‘lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, infratuzilma taqchilligi va iqlim bilan bog‘liq qishloq xo‘jaligi muammolarini tahlil qilish uchun aralash usullardan foydalaniladi. Sifatli tushunchalar marginallashuv va aralash siyosat samaradorligi haqidagi tasavvurlarni ta‘kidlaydi. Tavsiyalar qatoriga qishloq iqtisodiyotini diversifikasiya qilish, infratuzilma va raqamli ularishga sarmoya kiritish, iqlimga chidamliliq qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va integratsiyalashgan siyosat asoslarini qabul qilish kiradi. Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish O‘zbekistonda inklyuziv va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutning asosiy sabablarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: qishloq va shahar farqi, iqtisodiy nomutanosibliklar, O‘zbekiston, daromadlar tengsizligi, infratuzilmani rivojlantirish, ta‘limga kirish, sog‘liqni saqlashga kirish, iqlimga chidamlilik, qishloq xo‘jaligi hosildorligi, siyosat aralashuvlari.

**УСТРАНЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РАЗЛИЧИЙ МЕЖДУ СЕЛЬСКИМИ И
ГОРОДСКИМИ РАЙОНАМИ**

Аннотация. Данное исследование изучает устойчивые экономические различия между сельскими и городскими районами в Узбекистане, используя комбинированные методы для анализа неравенства доходов, доступности образования и здравоохранения, дефицита инфраструктуры и проблем сельского хозяйства, связанных с климатом. Качественные понятия подчёркивают представления о маргинализации и эффективности смешанной политики. Рекомендации включают диверсификацию сельской экономики, инвестиции в инфраструктуру и цифровую связь, развитие устойчивого к изменению климата сельского хозяйства и принятие основ комплексной политики. Устранение этих диспропорций крайне важно для содействия инклюзивному и устойчивому развитию в Узбекистане. Эта статья исследует основные причины экономического разрыва между сельскими и городскими районами.

Ключевые слова: разрыв между сельскими и городскими районами, экономические диспропорции, Узбекистан, неравенство доходов, развитие инфраструктуры, доступ к образованию, доступ к здравоохранению, устойчивость к изменению климата, продуктивность сельского хозяйства, политические меры.

BRIDGING THE ECONOMIC GAP BETWEEN RURAL AND URBAN AREAS

Abstract. This study examines persistent economic disparities between rural and urban areas in Uzbekistan, employing mixed methods to analyze income inequality, access to education and healthcare, infrastructure deficits, and climate-related agricultural challenges. Qualitative concepts highlight perceptions of marginalization and the effectiveness of mixed policy approaches. Recommendations include diversifying the rural economy, investing in infrastructure and digital connectivity, developing climate-resilient agriculture, and adopting integrated policy frameworks. Addressing these imbalances is crucial for promoting inclusive and sustainable development in Uzbekistan. This article explores the primary causes of economic disparity between rural and urban areas.

ECONOMY

Keywords: rural-urban divide, economic disparities, Uzbekistan, income inequality, infrastructure development, access to education, access to healthcare, climate resilience, agricultural productivity, policy interventions.

Kirish. Qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovut uzoq vaqtдан beri butun dunyo bo‘ylab siyosatchilar, iqtisodchilar va jamiyatlar uchun doimiy muammo bo‘lib kelgan. Ushbu nomutanosibliklar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, jumladan, daromadlar tengsizligi, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanishning tengsizligi, ish bilan ta’minalash va iqtisodiy taraqqiyot uchun turli imkoniyatlar. Urbanizatsiya ko‘pincha iqtisodiy o‘sish va rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bunday taraqqiyotning foydalari teng taqsimlanmagan. Ayniqsa, qishloq joylari ko‘pincha ortda qolib, cheklangan infratuzilma, past turmush darajasi va yuqoriga ko‘tarilish imkoniyatlari bilan kurashmoqda. Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish shunchaki adolat masalasi emas; bu barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ushbu maqola qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutning asosiy sabablarini o‘rganadi, bu bo‘shliqning oqibatlarini o‘rganadi va bu tafovutni bartaraf etish, yanada muvozanatli va adolatli iqtisodiy landshaftni ta’minalash uchun amaliy strategiyalarni taklif qiladi.

Qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovut ko‘pincha tarixiy, tarkibiy va tizimli omillarga bog‘liq. Tarixiy jihatdan shahar markazlari investitsiya, malakali ishchi kuchi va infratuzilmani rivojlantirish uchun sanoatlashtirish, savdo va innovatsiya markazlari bo‘lgan. Aksincha, qishloq joylari an’anaviy ravishda qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslarga asoslangan sanoatga tayanadi, ular ko‘pincha iqlim o‘zgarishi, bozor o‘zgarishi va texnologik uzilishlar kabi omillar tufayli o‘zgaruvchanlikka duchor bo‘ladi. Bu xilma-xillik o‘z-o‘zini mustahkamlovchi shaklni yaratdi, bunda shaharlar ko‘proq resurslar va imkoniyatlarni jalb qilishda davom etmoqda, qishloq hududlari esa ularni ushlab turish uchun kurashmoqda. Bundan tashqari, noadekvat transport tarmoqlari, moliyaviy xizmatlardan foydalanishning cheklanganligi, qishloqda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga yetarli sarmoya kiritilmaganligi kabi tizimli muammolar tafovutni yanada kuchaytirib, qishloq aholisini jiddiy ahvolga solib qo‘yadi.

Ushbu nomutanosibliklarning oqibatlari keng qamrovli va ko‘p qirrali. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, qishloq potensialidan to‘liq foydalanilmaslik xalqlar uchun unumdorlik va o‘sishning sezilarli darajada yo‘qolishini anglatadi. Ijtimoiy jihatdan qishloq aholisining yaxshi imkoniyatlarni izlab shaharlarga ko‘chishi ko‘pincha aholining haddan tashqari ko‘payishiga, shahar infratuzilmasiga bosimning kuchayishiga va qishloq jamoalarining eroziyasiga olib keladi. Siyosiy jihatdan davom etayotgan iqtisodiy tengsizliklar norozilik, ijtimoiy tartibsizliklar va qishloq aholisi o‘rtasida marginallik tuyg‘usini kuchaytirib, ijtimoiy hamjihatlik va barqarorlikka putur etkazishi mumkin. Bundan tashqari, notejis rivojlanishning atrof-muhitga ta’sirini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ko‘pincha tabiiy resurslarga boy qishloq hududlari atrof-muhitning buzilishi va barqaror amaliyotga o‘tish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi ikki tomonlama muammoga duch keladi, bu esa shahar markazlari bilan farqni yanada kengaytiradi.

Ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etish har tomonlama va ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Siyosatchilar iqtisodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish uchun qishloq infratuzilmasiga, jumladan transport, raqamli ularish va energiyaga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Qishloq joylarda sifatlari ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarni kengaytirish, odamlarga zamonaviy iqtisodiyotda ishtiroy etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va salomatlikni oshirish zarurati ham birdek muhim. Kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, turizm va qayta tiklanadigan energiya kabi tarmoqlarni rag‘batlantirish orqali qishloq xo‘jaligidan tashqari qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirish ham iqtisodiy tafovutni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Bundan tashqari, texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish qishloqlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etish barqaror va inklyuziv o‘sishga erishish uchun nafaqat ma’naviy, balki strategik zaruratdir. Ushbu nomutanosibliklarning asl sabablarini bartaraf etish va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish orqali jamiyatlar qishloq hududlarining foydalanilmagan salohiyatini ochib, hamma uchun yanada adolatli va farovon kelajak yaratishi mumkin. Ushbu maqola siyosatchilar, manfaatdor tomonlar va hamjamiyatlarning qishloq va shahar tafovutini bartaraf etishga qaratilgan sa’y-harakatlarida yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar berib, ushbu masalalarni o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik, ayniqsa, mamlakatda muhim iqtisodiy islohotlar va o‘tishlarni boshdan kechirayotgan bir paytda, akademik va siyosiy qiziqish ortib bormoqda. Mayjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish ushbu muammoning asosiy sabablar, ko‘rinishlari va potensial yechimlarini o‘rganadigan o‘sib borayotgan ish hajmini ko‘rsatadi. O‘zbekistondagi qishloq va shahar bo‘linishini tushunish uchun asos bo‘lib, ushbu tadqiqotning metodologiyasi haqida ma’lumot beradi.

ECONOMY

Bir qator tadqiqotlar O'zbekistondagi iqtisodiy nomutanosibliklarga sabab bo'lgan tarixiy va tarkibiy omillarni ta'kidlaydi. Markazlashgan rejalashtirish va resurslarni taqsimlash bo'yicha Sovet merosi nomutanosib ravishda shahar markazlarini qo'llab-quvvatlagan va qishloq joylar rivojlanmagan. Ushbu tarixiy nomutanosiblik mustaqillikdan keyingi davrda ham saqlanib qoldi, shaharlar infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiyalarning asosiy qismini jalg qilishda davom etdi.[1] Mualliflarning ta'kidlashicha, ushbu tarkibiy tengsizlik mamlakatning qishloq hududlarida asosiy iqtisodiy faoliyat turi sifatida qishloq xo'jaligiga bog'liqligi tufayli yanada kuchayadi, bu esa iqlim o'zgarishi va bozor o'zgarishlari kabi tashqi ta'sirlarga juda zaifdir.

O'zbekistonda qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi daromadlar tengsizligi batafsil tahlil qilingan. Uy xo'jaliklari so'rovi ma'lumotlaridan foydalangan holda, mualliflar shaharlardagi o'rtacha daromad qishloq joylariga qaraganda taxminan 1,8 baravar yuqori ekanligini aniqladilar.[2] Bu nomutanosiblik bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi, ish haqining pastligi va qishloq hududlarida bozorlarga kirish imkon yo'qligi bilan bog'liq. Tadqiqot, shuningdek, qishloq joylarda qashshoqlikning yuqori tarqalishini ta'kidlaydi, qishloq uy xo'jaliklarining 35% milliy qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydi, shaharlarda esa 18%.

Ta'lim va sog'liqni saqlash resurslarining teng taqsimlanmaganligi qishloq va shahar tabaqasining yana bir muhim jihatidir. Juhon banki (2019) hisobotida O'zbekistonda qishloq va shaharlar o'rtasida sifatlari ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish bo'yicha jiddiy tafovut borligini ta'kidlaydi. Masalan, qishloq maktablarida ko'pincha malakali o'qituvchilar va zamonaviy jihozlar yetishmaydi, natijada ta'lim natijalari past bo'ladi. Xuddi shunday, qishloq vrachlik punktlari ham yetarli kadrlar bilan ta'minlanmaganli va jihozlanmaganligi sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarining yomonlashuviga olib keladi.[3] Bu nomutanosibliklar nafaqat inson kapitali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, balki qashshoqlik va tengsizlik davrlarini ham davom ettiradi.

Infratuzilmani rivojlantirish- qishloq va shahar nomutanosibligi haqidagi adabiyotlarda tez-tez uchraydigan mavzu. Transport tarmoqlarining yetarli emasligi va raqamli texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi O'zbekiston qishloqlarida iqtisodiy rivojlanish yo'lidi asosiy to'siqdir. Mualliflarning ta'kidlashicha, qishloq uy xo'jaliklarining atigi 40 foizi ishonchli internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega, shaharlarda esa 75 foiz.[4] Ushbu raqamli tafovut qishloq aholisining zamonaviy iqtisodiyotda ishtirok etish va muhim xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga qaratilgan siyosat tadbirlarining samaradorligi bir qancha tadqiqotlarda baholandi. Misol uchun, BMT Taraqqiyot Dasturi, 2020-yil hisobotida O'zbekistonda qishloq taraqqiyotiga ko'maklashish bo'yicha hukumat dasturlarining ta'siri o'rganilgan. Ushbu tashabbuslar infratuzilma va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, hisobotda ular ko'pincha kompleks yondashuvga ega emasligi va asosiy tarkibiy muammolarni hal qila olmasligini ta'kidlaydi.[5]

O'zbekiston qishloqlari oldida turgan ekologik va qishloq xo'jaligi muammolari ham yaxshi hujjatlashtirilgan. Iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi mahsuldarligiga salbiy ta'sirini ta'kidlaydi, bu esa qishloq turmush tarziga nomutanosib ravishda ta'sir qiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari va iqlim barqarorligiga jiddiy sarmoyalar kiritilmasa, qishloq joylari shahar markazlaridan orqada qolishda davom etadi.[6]

Metodologiya. Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi qishloq va shahar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni tahlil qilish uchun miqdoriy va sifat ma'lumotlarini birlashtirgan holda aralash usullardan foydalanadi. Metodologiya statistik tahlil va kontekstli tushunchalarga tayangan holda, masalani har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Ma'lumotlar yig'ish. Tadqiqotda nufuzli manbalar, jumladan Juhon banki, BMTTD va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ikkilamchi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Birlamchi ma'lumotlar so'rovlari va asosiy manfaatdor tomonlar, jumladan qishloq va shahar uy xo'jaliklari, siyosatchilar va soha mutaxassislari bilan suhbatlar orqali to'planadi. So'rovnomaga 500 ta uy xo'jaligidan iborat (250 qishloq va 250 shahar), reprezentativlikni ta'minlash uchun tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish yo'li bilan tanlanadi.

Miqdoriy tahlil. Miqdoriy ma'lumotlar daromad darajasi, qashshoqlik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlari va infratuzilma rivojlanishini o'rganish uchun statistik dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilinadi. Ma'lumotlarni umumlashtirish uchun vositalar va standart og'ishlar kabi tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi, o'zgaruvchilar o'rtasidagi sezilarli farqlar va munosabatlarni aniqlash uchun testlar va regressiya tahlilini o'z ichiga olgan inferensial statistika qo'llaniladi. Masalan, infratuzilma rivojlanishining qishloq aholisining daromadlari darajasiga ta'sirini baholash uchun regressiya modeli qo'llaniladi.

ECONOMY

Sifatli tahlil. Intervyu va fokus-guruh muhokamalaridan olingen sifatli ma'lumotlar tematik tahlil yordamida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv takrorlanuvchi mavzular va naqshlarni aniqlash imkonini beradi, qishloq va shahar aholisining hayotiy tajribalari haqida chuqurroq tushuncha beradi. Sifatli tahlil shuningdek, siyosat tadbirlarining samaradorligini o'rganadi va ularni amalga oshirishdagi to'siqlarni aniqlaydi.

Miqdoriy va sifat tahlillarini to'ldirish uchun tadqiqot O'zbekistonning ikkita mintaqasi: biri asosan qishloq va ikkinchisi shahar bo'yicha amaliy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu amaliy tadqiqotlar har bir kontekstdagi muayyan muammolar va imkoniyatlarni batafsil ko'rib chiqishni ta'minlaydi va siyosatchilar uchun amaliy tushunchalar beradi.

Axloqiy mulohazalar. Tadqiqot ma'lumotli rozilik, maxfiylik va ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan axloqiy me'yorlarga amal qiladi. Tadqiqot uchun ruxsat tegishli institutsional ko'rib chiqish kengashidan olinadi.

Statistik ma'lumotlar va jadvallar:

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2022-yil) ma'lumotlari asosida O'zbekistondagi qishloq va shahar nomutanosibligining asosiy ko'rsatkichlari jamlangan:

1-jadval.

	Qishloq	Shahar
O'rtacha daromad	150 \$	270 \$
Qashshoqlik darajasi	35 %	18 %
Internetga kirish	40 %	75 %
Maktabga qabul qilish darajasi	85 %	95 %
Sog'liqni saqlashga kirish indeksi	60	85

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024 yil) ma'lumotlari asosida O'zbekistondagi qishloq va shahar nomutanosibligining asosiy ko'rsatkichlari jamlangan:

2-jadval.

Ko'rsatkich	Shahar hududlari	Qishloq hududlari
Aholi ulushi	48-50%	50-52%
Tug'ilish darajasi	Pastroq	Yuqori
O'rtacha oylik ish haqi	1,5-2 baravar yuqori	Pastroq
YaIM hissasi	80% dan ortiq	20% dan past
Bandlik sektorlari	Sanoat, xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Toza suvgaga kirish	95% +	70-85%

Ushbu bo'limda keltirilgan adabiyotlar tahlili va metodologiyasi O'zbekistondagi qishloq va shahar o'rtaqidagi iqtisodiy nomutanosiblikni tushunish va hal qilish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Miqdoriy va sifatli yondashuvlarni birlashtirgan holda, ushbu tadqiqot siyosat va amaliyotni xabardor qilishi mumkin bo'lgan amaliy tushunchalarni yaratishga qaratilgan va natijada hamma uchun yanadaadolatli va barqaror kelajakka hissa qo'shami.

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistondagi qishloq va shahar o'rtaqidagi mavjud adabiyotlarga mos keladigan sezilarli iqtisodiy tafovutlarni ochib beradi. Natijalar ikkita asosiy toifada taqdim etiladi: miqdoriy topilmalar va sifatli tushunchalar.

Miqdoriy topilmalar.

ECONOMY

Daromad va qashshoqlik darajasi. Uy xo‘jaliklari so‘rovi ma’lumotlarining tahlili qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi daromadlar bo‘yicha keskin farq borligini ko‘rsatadi. Qishloqlarda o‘rtacha oylik daromad 150, shaharlarda esa 270 ga teng. Ushbu nomutanosiblik testi bilan tasdiqlanganidek, statistik ahamiyatga ega.[2] Bundan tashqari, qishloq joylarda qashshoqlik darajasi shaharlardagiga qaraganda deyarli ikki baravar ko“p, qishloq uy xo‘jaliklarning 35% milliy qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydi, shaharlarda esa bu ko“rsatkich 18% ni tashkil qiladi.

Ta’lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati. Ma’lumotlar ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda sezilarli tafovutlarni ko‘rsatadi. Qishloq joylarda bolalarning atigi 85%, shaharlarda esa 95% matabga qamrab olingan.[3] Xuddi shunday, tibbiy xizmatlarning mavjudligi va sifatini o‘lchaydigan tibbiy xizmatdan foydalanish indeksi qishloq joylarda 60, shaharlarda 85 ni tashkil qiladi.

Infratuzilma va raqamli ularish. O‘zbekiston qishloqlarida infratuzilmanni rivojlantirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Qishloqdagi uy xo‘jaliklarning atigi 40 foizi ishonchli internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega, shaharlarda esa 75 foiz. Bundan tashqari, qishloq joylari transport infratuzilmasidan orqada qolmoqda, qishloq yo‘llarining 60% kambag‘al yoki o‘ta kambag‘al deb tasniflanadi, shaharlarda esa 20%.

Qishloq xo‘jaligi mahsuldarligi va iqlimning zaifligi. Tadqiqot shuningdek, iqlim o‘zgarishining O‘zbekiston qishloqlaridagi asosiy iqtisodiy faoliyat bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hosildorligiga ta’sirini o‘rganadi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yil ichida iqlim bilan bog‘liq bo‘lgan qurg‘oqchilik va tuproq degradatsiyasi kabi omillar tufayli qishloq joylarda qishloq xo‘jaligi hosildorligi 15 foizga kamaydi.[6] Bu pasayish qishloq aholisi daromadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, shaharlar bilan daromadlar tafovutini yanada kuchaytirdi

Sifatli tushunchalar

Tengsizlik haqidagi tasavvurlar. Qishloq va shahar uy xo‘jaliklari bilan suhbatlar qishloq aholisi o‘rtasida tengsizlik va marginallashuv haqida keng tarqagan tushunchani ko‘rsatadi. Ko‘pgina qishloq respondentlari iqtisodiy imkoniyatlar va asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yo‘qligidan xafa bo‘lishdi. Respondentlardan biri “Hukumat bizni unutgandek, o‘zimizni ortda qolgandek his qilyapmiz”, deb ta’kidladi.[1]

Siyosatning samaradorligi. Manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar qishloq va shahar nomutanosibligini kamaytirishga qaratilgan siyosat tadbirlari samaradorligi haqida turli tushunchalarni beradi. Ba’zi respondentlar infratuzilma va xizmatlardan foydalanish yaxshilanganini e’tirof etgan bo‘lsa, boshqalari kompleks yondashuv yo‘qligini tanqid qildi. Siyosatchilardan biri shunday dedi: “Biz taraqqiyotga erishdik, lekin tengsizlikning asosiy sabablarini bartaraf etish uchun ko‘p ish qilish kerak”.[5]

Texnologiya va innovatsiyalarning roli. Sifatli ma’lumotlar, shuningdek, qishloq va shahar tafovutini bartaraf etish uchun texnologiya va innovatsiya imkoniyatlarini ta’kidlaydi. Bir qancha respondentlar qishloqlarda iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda raqamli ularish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini ta’kidladilar. Masalan, qishloq tadbirkorlaridan biri: “Internetga ularish yaxshilanganda, biznesimizni kengaytirib, yangi bozorlarga chiqishimiz mumkin”, dedi.[4] Bu raqamli transformatsiya qishloq va shahar nomutanosibligini kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkinligini ta’kidlagan.

Munozara. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda qishloq va shahar nomutanosibligining doimiy va ko‘p qirralilagini ta’kidlaydi. Topilmalar mavjud adabiyotlar bilan mos keladi, bu nomutanosibliklarga yordam beradigan tarixiy, tarkibiy va tizimli omillarni ta’kidlaydi. Ushbu bo‘lim natijalarning oqibatlarini muhokama qiladi va qishloq va shahar tabaqasini bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Qishloq va shahar o‘rtasidagi sezilarli daromad farqi katta tashvish tug‘diradi, bu esa uzoqqa cho‘zilgan ijtimoiy hamjihatlik va iqtisodiy barqarorlik. Ushbu muammoni hal qilish uchun siyosatchilar qishloq joylarda bandlik imkoniyatlarini yaratish va daromadlarni oshirish chora-tadbirlariga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Bu qishloq tadbirkorligini rag‘batlantirish, kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va qo‘srimcha qiymatga ega qishloq xo‘jaligi faoliyatiga sarmoya kiritishni o‘z ichiga olishi mumkin. [2] Bundan tashqari, zaif qishloq aholisini iqtisodiy zarbalardan himoya qilish uchun ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini kuchaytirish kerak.

Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishdagi nomutanosiblik O‘zbekiston qishloqlarida inson kapitalini rivojlantirish yo‘lidagi hal qiluvchi to‘siqdir. Bu kamchiliklarni bartaraf etish qishloq maktablari va sog‘liqni saqlash muassasalariga maqsadli sarmoya kiritishni, shuningdek, malakali o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlarini jalb etish va qo‘llab-quvvatlash tashabbuslarini talab qiladi. [3] Masalan, yuqori ish haqi va yaxshi ish sharoitlari kabi rag‘batlantirish dasturlari malakali mutaxassislarini qishloq joylarida ishlashga undashi mumkin. Bundan tashqari, mobil sog‘liqni saqlash klinikalari va masofaviy ta’lim dasturlari qisqa muddatda bo‘shliqni bartaraf etishga yordam beradi.

Infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Qishloq va shahar tafovutini kamaytirish uchun siyosatchilar qishloq joylarda transport tarmoqlari, raqamli ulanish va energetika infratuzilmasiga investitsiyalar ustuvor ahamiyat berishlari kerak. [4] Davlat-xususiy sheriklik ushbu loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, qishloq joylarida internet xizmatlari sifati va ishonchlilagini oshirish, qishloq aholisining raqamli iqtisodiyotda ishtirot etishiga imkon yaratishga harakat qilish kerak.

Iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi hosildorligiga salbiy ta'siri O'zbekiston qishloqlari rivojlanishiga jiddiy muammo tug'dirmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun siyosatchilar barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini targ'ib qilishlari va iqlimga chidamli infratuzilmaga sarmoya kiritishlari kerak. [5] Bunga suvni tejovchi texnologiyalar, tuproqni saqlash dasturlari va ekinlarni diversifikatsiya qilish kabi tashabbuslar kirishi mumkin. Bundan tashqari, qishloq jamoalarini iqlimga moslashish va ta'sirni yumshatish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirot etish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Mavjud siyosiy tadbirlarning aralash natijalari qishloq taraqqiyotiga yanada kompleks va kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Siyosatchilar alohida masalalarga e'tibor qaratish o'rniga, qishloq va shahar nomutanosibligining asosiy sabablarini hal qiluvchi yaxlit strategiyani qabul qilishlari kerak. [5] Bu ta'limga, sog'liqni saqlash, infratuzilma va qishloq xo'jaligi kabi turli sohalardagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin, yaxlit va samarali javobni ta'minlash. Bundan tashqari, siyosat aralashuvining ta'sirini baholash va kelajakda qarorlar qabul qilishda xabardor qilish uchun monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish kerak.

Qishloq va shahar nomutanosibligini kamaytirish uchun texnologiya va innovatsiya imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Siyosatchilar qishloq joylarida raqamli transformatsiyani rag'batlantiradigan tashabbuslarga, masalan, internetga kirishni kengaytirish, elektron tijorat platformalarini qo'llab-quvvatlash va raqamli ko'nikmalarga o'rgatish kabi tashabbuslarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. [4] Bu sa'y-harakatlar qishloq aholisi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib berishi va shaharlar bilan tafovutni bartaraf etishga yordam berishi mumkin.

Ushbu bo'limda keltirilgan natijalar va muhokamalar O'zbekistondagi qishloq va shahar o'rtafigi iqtisodiy nomutanosiblik haqida qimmatli fikrlarni beradi. Ushbu nomutanosibliklarning asosiy sabablarini bartaraf etish va maqsadli aralashuvlarni amalga oshirish orqali siyosatchilar hamma uchun yanada adolatli va barqaror kelajak yaratishlari mumkin. Ushbu bo'limda keltirilgan tavsiyalar qishloq va shahar tafovutini kamaytirish va O'zbekiston qishloqlarining foydalanilmagan salohiyatini ochish bo'yicha yo'l xaritasini taklif etadi.

Takliflar. Ushbu muammolarni hal qilish va qishloq va shahar orasidagi tafovutni kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- Siyosatchilar qishloq xo'jaligidan tashqari qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qiluvchi tashabbuslarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Bu kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq joylarda turizmni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin. Muqobil daromad manbalarini yaratish orqali qishloq aholisi iqlim o'zgarishi va bozor o'zgarishlariga juda zaif bo'lgan qishloq xo'jaligiga kamroq bog'liq bo'lishi mumkin.

- Qishloq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasiga maqsadli investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunga maktab infratuzilmasini yaxshilash, o'qituvchilar uchun malaka oshirish va sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kiradi. Maoshlarni oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi rag'batlantirish dasturlari qishloq joylarga malakali mutaxassislarini jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, mobil sog'liqni saqlash klinikalari va masofaviy ta'limga dasturlari qisqa muddatda bo'shliqni bartaraf etishga yordam beradi.

- Infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Qishloq taraqqiyoti uchun qulay muhit yaratish uchun transport tarmoqlari, raqamli ulanish va energiya infratuzilmasiga investitsiyalar kerak. Bu loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik muhim rol o'ynashi mumkin. Internetga kirishni kengaytirish va raqamli ko'nikmalarga o'rgatish qishloq aholisini raqamli iqtisodiyotda ishtirot etish imkonini beradi.

- Qishloq iqtisodiyotlarining iqlim o'zgarishiga zaifligini hisobga olgan holda, siyosatchilar barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini targ'ib qilishlari va iqlimga chidamli infratuzilmaga sarmoya kiritishlari kerak. Bunga suvni tejash texnologiyalar, tuproqni saqlash dasturlari va ekinlarni diversifikatsiya qilish kiradi. Qishloq jamoalarini iqlimga moslashish va

ta'sirlarni yumshatish bo'yicha sa'y-harakatlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish ham uzoq muddatli barqarorlik uchun juda muhimdir.


O'zbekistonda qishloq va shahar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirish nafaqat ma'naviy, balki barqaror va inklyuziv o'sishga erishish uchun strategik zaruratdir. Ushbu nomutanosibliklarning asosiy sabablarini bartaraf etish va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish orqali siyosatchilar qishloq hududlarining foydalanilmagan salohiyatini ochib, hamma uchun yanada adolatli va farovon kelajak yaratishi mumkin. Ushbu tadqiqotda bayon etilgan tavsiyalar qishloq va shahar tafovutini bartaraf etish va butun mamlakat bo'ylab muvozanatli rivojlanishni ta'minlash uchun yo'l xaritasini taqdim etadi.

Xulosa. Tadqiqot O'zbekistonda qishloq va shahar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning doimiy va ko'p qirralilagini ta'kidlaydi. Natijalar aholining daromadlari darajasi, ta'lim va sog'lijni saqlash, infratuzilmani rivojlantrish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sezilarli bo'shliqlarni ko'rsatadi, bularning barchasi qishloq va shahar tafovutining kengayishiga yordam beradi. Ushbu nomutanosibliklar tarixiy, tarkibiy va tizimli omillarga, jumladan, markazlashtirilgan rejalashtirish merosi, resurslarning tengsiz taqsimlanishi va qishloq iqtisodiyotining iqlim o'zgarishi kabi tashqi ta'sirlarga zaifligi bilan bog'liq. Sifatli tushunchalar qishloq aholisi tomonidan his etilayotgan marginallashuv va e'tiborsizlik hissi, shuningdek, ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan siyosat aralashuvining aralash samaradorligini yanada ta'kidlaydi.

Natijalar mavjud adabiyotlar bilan mos keladi, bu O'zbekistondagi qishloqlar shahar markazlari bilan tenglashishda jiddiy muammolarga duch kelayotganini tasdiqlaydi. Daromadlardagi tafovut, qashshoqlik darajasi va asosiy xizmatlardan foydalanishning cheklanganligi nafaqat qishloq hududlari iqtisodiy salohiyatiga to'sqinlik qiladi, balki ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va milliy rivojlanish maqsadlariga putur etkazadi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga salbiy ta'siri, infratuzilma va raqamli aloqaning yetarli emasligi bilan birgalikda qishloqning barqaror rivojlanishiga jiddiy to'siqlar keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev I., & Rudenko I. O'zbekistonda qishloq taraqqiyoti: muammolar va imkoniyatlar. *Markaziy Osiyo tadqiqotlari jurnali*, (2018). 12(3), 45-60.
2. Akramov K. va Omilova M. O'zbekiston qishloq va shaharlarida daromadlar tengsizligi va qashshoqlik. *O'zbekiston iqtisodiy sharhi*, (2020). 8(2), 112-130.
3. Jahon banki. O'zbekiston: ta'lim va sog'lijni saqlash sohasidagi qishloq va shahar nomutanosibligi. *Jahon banki hisoboti*, (2019). 15-30.
4. Karimov A. va Yusupov B. O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantrish va raqamli bo'linish. *Markaziy Osiyo iqtisodiy sharhi*, (2021). 10(4), 75-90.
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP). O'zbekistonda qishloq taraqqiyoti siyosatini baholash. *BMTTD hisoboti*, (2020). 22-40.
6. Mirzaboev A. va boshqalar. O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi mahsuldarligi. *Atrof-muhit va resurslar iqtisodiyoti*, (2019). 14(1), 55-70.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
<https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/>
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
28.03.2025 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish
Bukhari street, 190 B-house